

**QO‘QON  
UNIVERSITETI  
XABARNOMASI**

**4 - SON  
MAXSUS MAQOLALAR**

**KOKAND  
UNIVERSITY  
HERALD**

**VOLUME 4  
SPECIAL ISSUES**

# QO'QON UNIVERSITETI

## XABARNOMASI

### Ilmiy-amaliy jurnali

**Tahrir kengashi raisi:**

Sh.I.Mustafakulov

**Bosh muharrir:**

N.Muradullayev

**Tahrir kengashi mas'ul kotibi:**

O.Raximberdiyev

**Tahririyat hay'ati:**

1. I.f.d., prof., S. G'ulomov (O'z.R. Fanlar Akademiyasi)
2. DSc., Mark Rozenbaum (AQSH)
3. DSc., I. Yuldashev (Woosong University, J.Koreya)
4. PhD., I. Bobojonov (IAMO, Germaniya)
5. PhD., N. Djanibekov (IAMO, Germaniya)
6. PhD., K. Akramov (IFPRI, AQSH)
7. PhD., N. Yusupov (Woosong University, J.Koreya)
8. DSc., D. Xosilova (University of Wyoming, AQSH)
9. I.f.d., prof., B. Salimov (TDIU)
10. I.f.d., prof., N. Maxmudov (TDIU)
11. I.f.d., prof., U. Gafurov (TDIU)
12. I.f.d., prof., X. Qurbonov (TDIU)
13. I.f.d., prof., R. Xasanov (Iqtisodiyot Vazirligi);
14. I.f.n., dotsent, N. Urmonov (TDIU)
15. F.f.d., prof., Sh. Shaxobidinova (ADU)
16. F.f.d., prof., M. Umarxodjayev (ADU)
17. PhD, dotsent, D. Rustamov (ADU)
18. I.f.n., dotsent, A. Islamov (Qo'qon universiteti)
19. PhD., Sh. Aktamov (Singapur universiteti)
20. I.f.n., dotsent, M. Amonboyev (TDIU)

**Qo'qon universiteti xabarnomasi**

("Вестник Кокандского университета – Kokand University Herald") ilmiy-elektron jurnali Qo'qon universiteti Kengashining qarori-ga asosan tashkil etilib, 2020-yil 10-oktabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi to-monidan №1138 raqami bilan ro'yxatidan o'tkazilgan, shuningdek davlatlararo standartlar talabi asosida O'zbekiston Milliy kutubxonasidan jurnal uchun 2181-1695 ISSN-raqami olingan.

© "Kokand University" – 2022

**Tahririyat manzili:**

150100, Farg'ona viloyati, Qo'qon shahri,  
Turkiston ko'chasi, 28 a-uy.

## **MUQADDIMA**

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “Zamonaviy maktabgacha ta’lim sog’lom va barkamol avlodni voyaga yetkazishda muhim o’rin tutadi”, deb bejiz ta’kidlamagan. Prezidentning 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to’g’risida”gi PF-60-sonli Farmoni ijrosi asosida maktabgacha ta’limda qamrov darajasini oshirish, nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarini tashkil etish, maktabgacha ta’lim tizimida ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish va interfaol ta’lim texnologiyalarini kiritishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagog-xodimlarining professional tayyorgarligi va mahoratini oshirib borishning takomillashtirilgan tizimi asosida izchil ishlar amalga oshirilyapti.

Bugungi kunda maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi ta’lim va tarbiya jarayonlarini yanada takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar, xususan xorij tajribasining nazariy asoslarini o’rganish va amaliyotga joriy qilish ta’lim tizimini yana bir pog’ona rivojlantirishda muhimdir. Qo’qon universiteti “Xabarnomasi”ning maxsus sonida jamlangan Maktabgacha ta’lim yo’nalishi talabalarining maqolalarida aynan tizimga oid xorij tajribalari va ularni mamlakatimiz ta’lim jarayoniga tatbiq etishning ahamiyati keng yoritilgan.

Joriy to’plamda maktabgacha ta’lim tizimiga oid 15 dan ziyod dolzarb mavzular chuqur tahlil etilgan. Xususan, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bola shaxsiga yo’naltirilgan ta’lim dasturlarini amalga oshirish, tarbiyachi-pedagoglar tomonidan qo’llaniladigan interfaol va noan’anaviy uslublar, bolalarning rivojlanish sohalari kompetensiyalari bo’yicha o’sish ko’rsatkichlarini kuzatib borish, shuningdek, bolalarning yoshi va individual xususiyatlarini inobatga olish, ularni savodga tayyorlashda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish va maktab ta’limiga sifatli tayyorlash bo’yicha xorijiy zamonaviy tajribalar o’rganilgan. Ulardan samarali foydalanish bo’yicha ko’rsatma va tavsiyalar berilgan. Shuningdek, bolalarga o’yinlar orqali ta’lim-tarbiya berish usullari, ilg’or metodlar, bolalar bilan ishlashning o’ziga xos xususiyatlari, katta guruh tarbiyalanuvchilarining nutqini o’stirish, mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllashtirishning samarali va interfaol usullari qayd etilgan. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatining samaradorligini oshirish bo’yicha xorijiy va mamlakatimiz olimlarning nazariy qarashlari jamlangan.

Zero, muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Farzandlarimizning qobiliyatini ro’yobga chiqarishga bolalikdan e’tibor berib, ularning kamoloti uchun barcha imkoniyatlarimizni safarbar etsak, yurtimizdan yana ko’plab Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug’beklar yetishib chiqadi. Men bunga ishonaman”.

Ushbu jurnalda jamlangan ilmiy ishlar bolalarga yoshligidan yaxshi ta’lim-tarbiya berish, ularning kelajagi uchun puxta poydevor hozirlash, ta’lim berishning zamonaviy usul va metodlarini hayotga tatbiq etishga xizmat qiladi.

## Outline/Mundarija:

<b>1.</b>	<b>Nargiza Meliboyeva</b>	Alohida ehtiyojga muhtoj bolalar bilan ishlash texnologiyasi	<b>5-10</b>
<b>2.</b>	<b>Zumradxon Mirzaaliyeva</b>	Kichik yoshdagi bolalarda atrof-muhitni asrab-avaylash ko'nikmalarini shakllantirish	<b>11-17</b>
<b>3.</b>	<b>Shodiyaxon Odilova</b>	4-5 yoshli bolalar ijtimoiy-hissiy rivojlanish kompyutyensiyasining qiyosiy tahlili	<b>18-24</b>
<b>4.</b>	<b>Gulibarno Oripova</b>	Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlarining o'rni	<b>25-29</b>
<b>5.</b>	<b>Maftuna Oxunjonova</b>	Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni qoidalari o'yinlar orqali ta'lim tarbiyaga o'rgatish	<b>30-34</b>
<b>6.</b>	<b>Gulxumor Po'latjonova</b>	Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bola shaxsiga yo'naltirilgan o'quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil etish	<b>35-41</b>
<b>7.</b>	<b>Yulduz Rahimberdiyeva</b>	Maktabgacha ta'lim tashkilotida boshqarish va rivojlantirish istiqbollarini belgilash	<b>42-48</b>
<b>8.</b>	<b>Mahliyo Saidova</b>	Maktabga tayyorlov guruhidagi bolalarni axborot texnologiyalaridan foydalanishga o'rgatish	<b>49-54</b>
<b>9.</b>	<b>Dilrabo Sodiqova</b>	Maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarda didaktik o'yinlardan foydalanish	<b>55-61</b>
<b>10.</b>	<b>Shirinoy Turdiqulova</b>	Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni san'at va madaniyat ruhida tarbiyalash	<b>62-67</b>
<b>11.</b>	<b>Nasibaxon Xasanova</b>	Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar folkloridan foydalanishning zamonaviy usullari	<b>68-74</b>
<b>12.</b>	<b>Farangiz Xatamjonova</b>	Maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy rivojlanishida sog'lom ovqatlanishning ahamiyati	<b>75-83</b>
<b>13.</b>	<b>Mufazzalxon Umarova</b>	Maktabgacha ta'lim tashkilotining katta yosh guruhida bolalarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish	<b>84-88</b>
<b>14.</b>	<b>Surayyo Meliqo'ziyeva</b>	Ertaklar vositasida maktabgacha katta yoshdagi bolalarni kitobxonlikka o'rgatish	<b>89-95</b>
<b>15.</b>	<b>Ismigul Yusupova</b>	Maktabgacha ta'lim tashkiloti boshkaruvida myehnat munosabatlarini takomillashtirish	<b>96-103</b>
<b>16.</b>	<b>Dilzoda Yashnarjonova</b>	Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar nutqini o'stirish bo'yicha interfaol usullardan foydalanish samaradorligi	<b>104-108</b>



## ALOHIDA EXTIYOJGA MUHTOJ BOLALAR BILAN ISHLASH TEKNOLOGIYASI

Meliboyeva Nargiza

Qo'qon universiteti Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabasi

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATSIYA
<p><b>Qabul qilindi:</b> 24-may 2022-yil <b>Tasdiqlandi:</b> 26-may 2022-yil <b>Jurnal soni:</b> 4 <b>Maqola raqami:</b> 1 <b>DOI:</b> <a href="https://doi.org/10.54613/001216">https://doi.org/10.54613/001216</a></p>	<p>Maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida alohida e'tiborga muhtoj bo'lgan bolalar, xususan, Daun sindromi bor bolalar bilan ishlash, ularni kompleks o'rganish, rehabilitatsiya va korreksiya qilish yo'llari, ijtimoiy hayotga moslashuvi hamda ularning ota-onalari bilan o'zaro munosabat olib borish usullari tadqiq etilgan. Shuningdek, jamiyat bunday bolalarga to'g'ri munosabatda bo'lishi va ta'lim-tarbiya berish shart-sharoitlari, savodxonlikka tayyorlashda yangi texnologiyalardan foydalanish masalalari o'rganilgan.</p>
<p><b>KALIT SO'ZLAR</b></p> <p>Daun, defektologiya, UNICEF, ilk bolalik, ota-ona, kognitiv rivojlanish, ijtimoiy muloqot, aralash ta'lim</p>	

### KIRISH

UNICEF hisobotiga ko'ra, dunyoda 10 % kognitiv rivojlanishda nuqsonli bolalar borligi qayd etilgan bo'lib, ularning aksariyati MTTlarda tarbiyalanadi<sup>1</sup>. Eng asosiysi, bu tarbiyalanuvchilar umumiy xonalarda boshqa bolalar bilan bir xil sharoitda tarbiyalanib kelinmoqda. Har bir mamlakatda amalga oshiriladigan ta'lim-tarbiya tizimi negizida muayyan maqsadlar yotadi. Davlat va jamiyat taraqqiyoti, uning istiqboli shu davlat, shu mamlakatda yashovchi fuqarolarning jismonan baquvvat va sog'lom bo'lishi bilan belgilanadi.

Psixik rivojlanishda nuqsonli bor bolalarning MTTlarda oddiy, maxsus jihozlanmagan xonalarda ta'lim olishi ularning aqliy rivojlanishida xususan, idrok, tafakkur, diqqat kabi bilish jarayonlarida muammolar yuzaga kelishiga sabab bo'layotganini ko'rishimiz mumkin. Shuning uchun ham maxsus (korreksion) pedagogika umumiy pedagogikaning tarkibiy qismi sifatida rivojlanishida u yoki bu muammolari bo'lgan jamiyat a'zolarining ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanar ekan, ularni sog'lom jamiyat a'zolari qatorida ijtimoiy moslashuvini ta'minlashni asosiy vazifa qilib oladi. Shunga ko'ra, maxsus pedagogika qarshisida turgan muhim vazifalardan biri oilaviy tarbiyani ijtimoiy tarbiya bilan uzviy bog'lashning yangi usuli va yo'llarini izlab topish, bu yo'lda ilmiy-amaliy izlanishlar olib borishni taqozo etadi.<sup>2</sup>

So'nggi yillarda AQSH va Koreya davlatlari yosh tadqiqotchilari tomonidan ushbu muammoni o'rganishga qiziqish ortib bormoqda va maxsus ta'limda nuqsonlari bo'lgan bolalarning yutuqlarini oshirish uchun texnologik qurilmalar ham ishlab chiqilmoqda.

Mamlakatimizda ham rivojlanishida muammosi bo'lgan bolalarning sog'lom tengqurlari qatorida milliy ruhda tarbiyalanishlari, aqliy, ma'naviy-axloqiy, jismoniy jihatdan kamol topishlari, jamiyat ijtimoiy hayotiga tayyor bo'lib yetishishlari masalalariga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. E'tirofga sazovor jihati shundaki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni asosida mamlakatimizda inklyuziv ta'limni rivojlantirish, alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini zamon talablari darajasida yanada takomillashtirish, bunday bolalarga ta'lim xizmatlari ko'rsatish sifatini yaxshilash uchun 2020-2025-yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Alohida ta'lim olish ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida:<sup>3</sup>

- inklyuziv ta'lim tizimi sohasidagi normativ baza takomillashtiriladi;

- inklyuziv ta'lim tizimi uchun malakali pedagog kadrlar tayyorlanadi, qayta tayyorlanadi va malakasi oshiriladi;

- inklyuziv ta'lim joriy etilgan muassasalarning moddiy-texnika bazasi mustahkamlanadi, ular maxsus moslamalar (ko'tarish qurilmasi, pandus, tutqich va boshqalar), zarur adabiyotlar, metodik qo'llanmalar, turli kasblarga o'qitish uchun uskuna va jihozlar bilan ta'minlanadi;

- inklyuziv ta'lim sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalar joriy etiladi;

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning bilim olish huquqi, inklyuziv o'qitishning mazmun-mohiyatini tushuntirish orqali aholi o'rtasida ijobiy-ijtimoiy muhit shakllantiriladi", - kabi maqsad-vazifalar o'z aksini topgan.

Bugungi kunda skrining markazining tashkiliy tuzilmasi respublikaning barcha hududlarida mavjud. Bu ham bo'lsa bolalarni har tomonlama sog'lom va baquvvat tug'ilishi uchun respublikamizda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlardan biridir. Chunki yurt farzandi sog'lom bo'lsa, yurtning ertasi buyuk, kelajagi farovon bo'ladi.

Shulardan kelib chiqqan holda, maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida alohida ehtiyojga muhtoj bolalar, xususan daun sindromi bilan kasallangan bolalar bilan ishlashda qanday texnologiyalar, usullar qo'llanilsa ko'proq ijobiy natijalarga erishilishi bo'yicha tavsiyalar va takliflar berib o'tilgan.

Daun sindromi haqida so'z yuritishdan oldin avvalo, har bir inson ushbu kasallik haqida ko'proq tushunchaga ega bo'lishi kerak. 21-mart – Xalqaro Daun sindromli odamlar kuni sifatida nishonlanadi. Ushbu kasallik irsiy chetlashish natijasida yuzaga keladi. Bunda yana bir xromosoma paydo bo'ladi. Daun sindromi 1866-yilda ingliz shifokori Jon Lengdon Daun inson tanasi hujayralarida 21-xromosomaning qo'shimcha nusxasi mavjud bo'lganda yuzaga keladigan holat va uning keng tarqalgan tug'ma xromosoma anomaliyasining tavsifini e'lon qilganidan keyin tibbiyotda rasman tan olindi. Bu holat Daun sindromi (PwDS) bo'lgan odamlarning jismoniy rivojlanishi va o'rganish qobiliyatiga ta'sir qilishi mumkin. Shunday qilib, ular odatda hayotning ba'zi sohalarida alohida ehtiyojlarga ega.<sup>4</sup> Bunday bolalarni «quyoshli bolalar» deb ataydilar. Ba'zida agressiya va tajanglik qilishgani bilan, aslida ular juda ochiqko'ngil, mehribon, samimiy va xayrixoh bolalar hisoblanadi.

1 <https://www.unicef.org/uzbekistan/intl-day-of-persons-with-disabilities>

2 "Quyosh bolalari", Daun sindromi. Tojibarxon A'zamjon qizi Maxmudova Qo'qon universiteti maxsus maktabgacha ta'lim yo'nalishi MS 3-21- guruh talabasi SCIENTIFIC PROGRESS VOLUME 2 | ISSUE 7 | 2021 ISSN: 2181-1601. 387-b

3 O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida farmon

4 T.A.Maxmudova "Quyosh bolalari", Daun sindromi Scientific Progress Volume 2 | ISSUE 7 | 2021 ISSN: 2181-1601. 387-b

## ADABIYOTLAR TAHLILI

Alohida e'tiborga muhtoj bolalar, xususan daun sindromi bilan tug'ilgan bolalar bilan ishlash texnologiyasi mavzusida bir qator olimlar ilmiy izlanishlar olib borganlar. AQShda joylashgan Daun sindromi bo'lgan shaxslar uchun dunyo miqyosidagi yetakchi tashkiloti Milliy Daun sindromi jamiyati (The National Down Syndrome Society) ma'lumotiga ko'ra, so'nggi o'n yillarda Daun sindromi bo'lgan odamlarning umr ko'rish davomiyligi keskin oshgan -1983-yildagi 25 yoshdan bugungi kunda 60 yoshga yetgan. Aslida bunday katta umr ko'rish ijtimoiy va tibbiy taraqqiyotning ajoyib yutuqlaridan dalolat beradi.

Y. A. Razenkovaning "Chaqaloqlar bilan o'yinlar" kitobi nashr etilgan bo'lib, muallif pedagog I. A. Vyrodova bilan birgalikda daun sindromi bor bolalar bilan ish jarayonini o'zining asarida takidlab o'tgan. Ushbu asarda rivojlantiruvchi o'yinlar, bolalar bog'chalari va mashqlarning tavsiflari, bolaning kattalar bilan hissiy o'zaro ta'siri, idrok etish, vosita faolligi, shuningdek nutqni rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlari haqida batafsil qayd etilgan.

Ota-onalar uchun "Bir qadam tashlang" jurnalida Daun sindromi bor bolalarga ta'lim-tarbiya berish va ularni o'qitishning zamonaviy usullari chop etilib, daun sindromli bolalarning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan yondashuvlar bo'yicha mutaxassis-olimlar tomonidan ko'rsatmalar berib borilgan.

Sechenov Daun sindromi eng keng tarqalgan genetik patologiyalardan biri bo'lib, har 700-1000 yangi tug'ilgan chaqaloqdan birida uchrashini ilmiy frazalar orqali isbotlab bergan. Daun sindromining sababi - 21-juftlikning qo'shimcha xromosomasining paydo bo'lishi bilan bog'liqligi aniqlandi. M.V. Chelysheva, psixologiya fanlari nomzodi, Zigfrid M. Pushelning yozishicha, dastlabki uch yil - bu bola hayotidagi o'ziga xos davr bo'lib, aynan shu davrda uning rivojlanishining hal qiluvchi bosqichi, deb hisoblaydi, aynan shu davrda uning rivojlanishining hal qiluvchi bosqichi hisoblanadi<sup>5</sup>. Bu, ayniqsa, chaqaloq hayotining birinchi yilida yaqqol namoyon bo'ladi, deb ma'lumot beradi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy tadqiqotlarga ko'ra, Daun sindromi bo'lgan bolalar yengil va o'rta darajada past diapazonda IQ (intellekt o'lchovi)ga ega va boshqa bolalarga qaraganda sekinroq gapirishadi. Ammo bu ular o'qiy olmaydi, degani emas. Ta'lim olishga sindromning ta'siri odatda yengil va o'rta darajada bo'ladi. Muammo - har bir daun sindromi bo'lgan shaxsning ko'plab kuchli qobiliyatlarini namoyon etishga individual shart-sharoitlar yetishmasligida.

Rivojlangan davlatlarda daun sindromi bo'lgan bolalar barcha qatori oddiy maktablarga boradilar, ishlaydilar, ularga taalluqli qarorlarni qabul qilishda qatnashadilar, oila quradilar, ovoz beradilar va jamiyatga ajoyib tarzda hissa qo'shadilar. Daun kasalligi - tug'ma oligofreniyaning bir shakli, bunda boladagi aqli norasollik bilan birga uning tashqi qiyofasi ham o'ziga xos ko'rinishda bo'ladi. Daun kasalligini birinchi bo'lib ingliz vrachi L. Daun tavsif etgan (1886)<sup>6</sup>. Kasallik irsiy tabiatga ega bo'lib, kam uchraydi; bunga asosan xromosoma to'plamida ortiqcha xromosomalar bo'lishi (21-juft) sabab bo'ladi, shuning uchun ham ba'zan kasallik trisomiya, deb yuritiladi. Daun kasalligiga yo'liqqan bolalar nafaqat ruhiy, balki jismoniy jihatdan ham zaif va turli infeksiyon kasalliklarga moyil bo'ladi. Bemorlarni asosan mehnat bilan davolash, maxsus maktablarda o'qitish lozim.

Aynan Daun sindromi bo'lgan bolalar va kattalar ijtimoiylashuv va jamiyatdagi ijobiy munosabat tufayli uzoq umr ko'rishadi - bu nafaqat nogironligi bo'lgan, balki nogironligi bo'lmagan shaxslarga ham taalluqli. To'g'ri, Daun sindromi bo'lgan shaxslar boshqalarga qaraganda sekinroq fikrlashlari va ma'lumotni o'zlashtirishda ko'p vaqt talab qilishlari mumkin. Ammo ularning harakat qilish va ko'rinishi o'xshash bo'lsa-da, har bir daun sindromli bola turli xil qobiliyatlarga ega bo'ladi.

O'tmishda Daun sindromi bo'lgan ko'plab yoshlar "aqli zaif" o'quvchilar uchun alohida maktablarga qatnagan. Biroq, tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Daun sindromi bo'lgan bolalarning

aksariyati tengdoshlari bilan birgalikda umumiy maktablarda ta'lim olganlarida eng yaxshi muvaffaqiyatga erishadilar.

Mavjud chet el adabiyotlarini tahlil qilganda, bizni qiziqtirayotgan bolalar ta'lim-tarbiyasi muammosida 4 ta turli xil yondashish borligini ko'ramiz. Ayrim hollarda bu yondashish bir-birlariga yaqinlashib ketadi.

**Birinchi yo'nalish** - g'arb mamlakatlarida keng yoyilgan bo'lib, ular asosan muammoni sof pedagogik jihatdan o'rganadilar. Bu yo'nalish tarafdorlari izlanishlarida bunday bolalar ta'limga yetarli tayyorlanmagan, qobiliyatsiz yoki ta'limda qiynaladigan bolalar, deb yuritiladi. Ular ta'limda turli sabablar asosida qiynaladigan bolalarning barchasini bir guruhga kiritadilar. Markaziy nerv sistemasining zararlanishidan tortib, ayrim analizatorlar nuqsonlarini, hatto pedagogik qarovsizlarni ham shu guruhga kiritadilar.


**Ikkinchi yo'nalish** tarafdorlari ta'limdagi qiyinchiliklarni oiladagi noxush tarbiya sharoitlari bilan bog'laydilar. Bunday sharoit bolada sensor tajribalarning chegaralanib qolishiga olib keladi, shuning oqibatida bolaning aqliy taraqqiyotida orqada qolish yuzaga keldi, shaxsning shakllanishiga to'sqinlik qiladi.

Oila sharoitlarini yaxshilashni talab qiladigan bolalarni "moslashmaganlar", pedagogik qarovsizlar, deb nomlaydilar. Rivojlanishda orqada qolayotgan bolalar ta'limiga AQSh va Angliyada shunday nuqtai nazardan qaraladi.

**Uchinchi yo'nalish** tarafdorlarini asosan Germaniya defektologlari tashkil etib, ular rivojlanishdan orqada qolib, maxsus ta'lim-tarbiyaga muhtoj bolalarni ahloqi buzilgan bolalar, deb qaraydilar. Ma'lum yoshdagi ta'lim-tarbiya bevosita ahloqni shakllantirish tarzida amalga oshiriladi.

**To'rtinchi yo'nalish** tarafdorlari A.Shtaus va L.Letinen tomonidan taklif etilgan oqimlarni rivojlantirayotgan ruhiyat doktorlari, ruhiyat-asab doktorlari va ruhshunoslarini o'z ichiga oladi. Bu oqimga asosan ta'limdagi barcha qiyinchiliklar ma'lum darajadagi markaziy nerv sistemasida bo'lgan rezidual qoldiq holatlar asosida yuzaga kelib, bu holatlar bolaning ilk rivojlanish davrlaridagi qo'pol bo'lmagan buzilishlar asosida kelib chiqadi, deb ko'rsatadilar. Bunday bolalar guruhini miyasi minimal buzilgan bolalar deb nomlaydilar<sup>7</sup>.

Muayyan o'rganish qobiliyatiga ega bo'lgan bolalarning aksariyati o'qishda muammolarga duch kelishadi, ya'ni disleksiya, deb ataladi. Bu, odatda, bolalarni tanib olish va manipulyatsiya qilish qobiliyatiga ta'sir qiladi va nutqida muammolarga duch kelishini ko'rishimiz mumkin. Disgrafiya bilan o'g'ri bolalar o'z fikrlarini tartibga solish va ifoda etishda qiyinchiliklarga duch kelishadi va yozish ko'nikmalari shakllanishida to'siqqa uchrashadi. Yana bir o'rganishdagi nuqson - eslab qolish va to'g'ri eslashda o'ziga xos muammolarga duch kelishdir.



1-rasm. Tarbiyachi-pedagogning Daun sindromi kasalligini bilish darajasi va bunday bolalar bilan ishlash ko'nikmasi (foizda)<sup>8</sup>

Shuningdek, yangi so'zlarni dekodlash va tanib olish bilan bog'liq muammolar ham daun sindromi bor bolalarda kuzatiladi. Daun sindromi bor bolalar to'g'ri va ravon o'qishni o'rganishda va o'zlashtirishda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Yozish qiyinligi (disgrafiya) o'qiyotganlar uchun yana bir muammoli akademik sohadir.

5 Междисциплинарный научно-практический журнал

6 Kathleen Fergus, Daun sindromining jismoniy va sog'liqni saqlash xususiyatlari (approby.com)


7 M.U. Xamidova. "Maxsus pedagogika". - T.: «Fan va texnologiya», 2018, 164+8 bet rasm.

8 Tadqiqot davomida muallif so'rovi natijasi



### TADQIQOT NATIJASI


O'rganilayotgan mavzu doirasida alohida e'tiborga muhtoj bolalar bilan ishlash texnologiyasini ishlab chiqish, daun sindromini kompleks o'rganish va korreksiyalash yo'llari, ijtimoiy hayotga moslashtirish masalalari yuzasidan joriy holatni bilish maqsadida anketa-so'rovnoma tashkil qilindi.



2-rasm. Tarbiyachi-pedagog va maxsus mutaxassislarining (Daun sindromi bo'yicha) alohida e'tiborga muhtoj bolalar bilan ishlashdagi hamkorlik darajasi<sup>9</sup>

So'rovnomada pedagoglarning ko'p qismi bu kasallik haqida ma'lumotga ega emasliklari ma'lum bo'ldi. Bundan ko'rinib turibdiki, tarbiyachi-pedagoglarga AEMB bilan ishlash ko'nikmasini rivojlantirish uchun ularga haftada bir marotaba inkluziv ta'lim to'grisida ilmiy seminar tashkil qilinishi kerak, ya'ni qaysi kasallik autizm, qaysi biri daun sindromi, ularni savodxonlikka o'rgatishda qanday metodlardan foydalanish kerakligi haqida semenarda qisqacha ma'lumot berish maqsadga muvofiq.

So'rovnomada tarbiyachilarning mutaxassislar bilan hamkorligi samarali yo'lga qo'yilmaganligi aniqlandi. Tadqiqot natijasidan shu narsa ma'lum bo'ldiki, tashkilot xodimlarining (tarbiyachi, logoped, psixolog, defektolog) o'zaro hamkorlikda ishlash jarayonini tizimli yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq.




3-rasm. Guruhda bolalar ta'lim-tarbiya jarayonida yordamga muhtoj tengdoshlariga ko'maklashish jarayonini aniqlash (foiz ko'rinishida)<sup>10</sup>

Tadqiqot natijasi shuni ko'rsatadiki, tarbiyachi-pedagoglarning tomonidan tarbiyalanuvchi bolalarda alturizm ko'nikmasini shakllantirish orqali o'z tengdoshlariga ko'mak berish usullarini o'rgatishlari kerak.

Tadqiqot natijasi shuni ko'rsatadiki, MTTlarda AEMB bilan ishlash jarayonida tarbiyachi-pedagoglarning uchun zarur metodik qo'llanmalar mavjud emas. Muammoning yechimi sifatida esa tarbiyachilarni zamonaviy metodik qo'llanmalar bilan taminlash maqsadga muvofiqdir.

Bunday tizimlar doirasida ilmiy-pedagogik kadrlar va ta'lim tashkilotlarining o'quv-moddiy bazasidan oqilona foydalanish maqsadga muvofiq. Respublikamizning bir qator olimlari tomonidan inkluziv ta'lim uchun maxsus "Moslashtirilgan o'quv dasturi" alohida ehtiyojga ega 2 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun ishlab chiqildi<sup>11</sup>

Nogiron bolalarga faqatgina nuqson jihatdan emas, balki bu bolalarga har tomonlama yondashish lozim. Bu esa maxus ehtiyojli bolalar uchun ta'lim masalasini rejalashtirayotgan uning butun hayoti davomida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ehtiyojini hisobga olgan holda tuzishni talab etadi. Bundan tashqari inkluziv ta'limda nogiron boladagi mavjud nuqsonlarni bartaraf etish, korreksiyalash, kompensatsiya qilish bilan bir qatorda, bilim ko'nikmalarga ega qilish, kasb-hunarga o'rgatish ishlarini parallel ravishda olib borish talab etiladi. Bu tamoyilning mohiyatida maxsus ehtiyojli bolalarga ilk yosh davrida erta yondashish ham yotadi.



4-rasm. Daun sindromli bolalar bilan ishlash uchun zamonaviy metodik qo'llanmalardan foydalanish ko'nikmasini aniqlash (foiz ko'rinishida).<sup>12</sup>

### TADQIQOT MUHOKAMASI

O'tgan yigirma yil davomida maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'lim muassasalari tizimida o'qitish borasida sezilarli ishlar amalga oshirildi. Ammo inkluziv ta'lim tizimini joriy qilish, asosan shaharlar miqyosida bo'lib, qishloqlardagi hududlarda hali-hamon maxsus ehtiyojli bolalar ta'limdan chetda qolib ketmoqda yoki qishloqlardagi ota-onalar nogiron farzandining shaharlardagi maxsus muassasalarga qatnashlarini ta'minlash uchun qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar. Shuning uchun ham maxsus ehtiyojli bolalarni inkluziv ta'limga jalb etish, barcha hududlarda qamrab olinishini ta'minlanish lozim. Maxsus ehtiyojli bolalar ta'limi boshlang'ich va o'rta-maxsus ta'limni olishlari bilan yakunlanmasligi kerak. Nogiron bolalarning kasb-hunar ta'limi va oliy ta'limi ham amalga oshirilishi talab etadi. Chunki inkluziv ta'lim tizimining vazifalaridan biri maxsus ehtiyojli bolalarni har tomonlama rivojlantirish, ularning barcha huquqlarini ta'minlashdan iboratdir.

Bu tamoyilning mazmuni shundaki, o'quv reja, dastur va darsliklar maxsus ehtiyojli bolalarning imkoniyatlariga moslashuvchan bo'lishi kerak. Bolaning maxsus ta'limga bo'lgan ehtiyojlari har qanday integratsiya faoliyatining asosini tashkil etishi kerak. Shaxs ehtiyojlarining darajalari va turlari har xil bo'lganligi tufayli bunday faoliyatlar moslashuvchan, o'zgaruvchan bo'lishi talab etiladi.

9 Muallif ishlanmasi

10 Muallif ishlanmasi

11 "Moslashtirilgan o'quv dasturi" I.V. Groshev A., E. N. Nazarova, E. A. Nekrasova, B. P. Abdullayev, U. T. Muxitdinova 2019.

12 Muallif ishlanmasi

MTTlarda inklyuziv ta'limni qo'llash bo'yicha SWOT tahlili<sup>13</sup>

S	W
<ul style="list-style-type: none"> <li>- inklyuziya kamsitilishlar oldini oladigan dastur;</li> <li>- alohida e'tiborga muhtoj bolalarni oddiy bolalar qatoriga qo'shib, sifatli ta'lim olishni taminlagan holda bolada ruhiy va jismoniy hissiyotlarni va xarakterlarni rivojlantrishi;</li> <li>- daun sindromli bolalar rivojlanishida yangi metod va texnologiyalardan foydalanib, bolalarni rivojlantrish darajasiga qarab ma'lum dasturga solishni qulaylashtiruvchi yo'nalish;</li> <li>- Sog'lom bolalarda AEB bolalarni qo'llab-quvvatlash, yordam berishga intilish-insonparvarlikni tarbiyalash.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- mutaxassislar yetishmasligi (logoped, defektolog, psixolog)lar;</li> <li>- ABE bolalar sog'lom bolalar tomonidan kamsitilishi;</li> <li>- ota-onalar bilan bog'liq hamkorlik muammosi, AEB bolalar hamma mashg'ulotlarda faol qatnasha olmasligi;</li> <li>- maxsus ehtiyojli bolalar uchun o'quv dasturlari hali ham moslashtirilmaganligi;</li> <li>- infratuzilma (texnik resurs) yetishmasligi.</li> </ul>
O	T
<ul style="list-style-type: none"> <li>- alohida e'tiborga muhtoj bolalarga o'z imkoniyatlarni o'zi uchun kashf etish imkoni;</li> <li>- bu ta'lim tizimi AEB larga yaqinlari va tengdoshlari davrasida imkon berishi;</li> <li>- ilgari ma'lum bo'lmagan imkoniyatlari ochilishi;</li> <li>- AEB lar bilan ishlashning samarali metodlari, jamiyat va davlat tadqiqoti uchun AEB lar orasida yangi iste'dodlar, g'oyalar egasi tarbiyalanishi</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- ushbu ta'lim tizimi oqlanmasa yo'qolib ketishi mumkin;</li> <li>- maxsus ta'lim tashkilotlariga ehtiyoj kamayishi;</li> <li>- diskriminatsiya yuzaga kelishi;</li> <li>- hamma bolalar ham nuqsonli bolalar bilan ta'lim-tarbiya olishni xohlamasligi;</li> <li>- nogiron bolalardagi mavjud muammolarni o'rganish, korreksiyalash kompensatsiya qilish, bilim ko'nikmalarni hosil qilish ishlarini bir vaqtning o'zida yonma-yon ravishda olib borishi qiyin kechishi,</li> </ul>

Maxsus ehtiyojli bolalar inklyuziv tarzda o'qitilayotgan sinflarda yuqori malakali o'qituvchilarning dars berishi talab etiladi. Bundan tashqari, inklyuziv sinf o'qituvchisi defektologiya sohasi bo'yicha ham malaka oshirgan bo'lishi kerak.

## 1). Izlab topish va jalb qilish bosqichi.

Nogiron odamlarning hayoti asosan yakka lab qo'yishlar bilan bog'liq. Ko'plab davlatlarda nogiron odamlarga past nazar bilan qaralib, ular hamjamiyatdan chetlashtirilmoqda. Buning oqibatida nogiron bolalarning ta'lim olish imkoniyatlari yanada chegaralanib qolmoqda. Millatning etnopsixologik xususiyatlaridan biri bo'lmish nogiron farzandini boshfalardan bekitish hollari esa nogiron bolalar kelajak hayoti uchun juda fojeali holatdir. Mana shunday salbiy oqibatlarni oldini olish maqsadida aholi o'rtasida targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borish lozim. Oilaga, ya'ni asosan ota-onalarga nogiron bola ham maktab ta'lim-tarbiyasini olishi shart ekanligini to'g'ri tushintirib bera olish kerak. Shunday usullar bilan ta'limdan chetda qolib ketgan nogiron bolalarni izlab topish imkoni yaratiladi. Ro'yxatga olingan bolalar o'z yaqin arofidagi umumta'lim maktablariga jalb etiladi.

2). Maxsus ehtiyojli bolalar bilan shug'ullanish bosqichi. Bu bosqichda umumta'lim muassasalari tizimiga kiritilgan maxsus ehtiyojli bolalar bilan olib boriladigan o'quv-tarbiyaviy, korreksion-rivojlantiruvchi vazifalar rejasini tuzib chiqiladi.

3). Reabilitatsiya bosqichi. Bu bosqichda bolalarning nogironligi tufayli bajara olmaydigan faoliyatlarini bajarish qobiliyatlari va ularning imkoniyatlari darajasini kengaytirish ishlari amalga oshiriladi. Shu sababli bu bosqichda nogiron odamlar nafaqat ta'lim-tarbiya, balki ularning ishlab chiqarish faoliyatlarini oshiruvchi treninglar ham olib boriladi. Ular "obyekt" emas, balki "subyekt" vazifasini o'taydi. Natijada nogiron bolalarning nima qila olmasligi emas, balki ular nimalar qilishga qodir ekanligi diqqat markazida turadi.

4). Integratsiya bosqichi. Bu bosqich inklyuziv tarzda o'qitilgan, reabilitatsiya jarayoni amalga oshirilgan nogiron bolalarni ijtimoiy jamiyatga to'la kiritish bosqichidir. Integratsiya bosqichida nogiron bolalar to'laligicha ijtimoiy jamiyatga kiritiladi. Ya'ni, bu bosqichda nogiron bolalarga ham o'zlarining teng imkoniyatlari va huquqlaridan foydalangan holda kasb va ishlash joyini mustaqil tanlash imkoniyati beriladi.

Maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'lim sharoitida o'qitish ularni o'ziga xos xususiyatlari, nuqson turi, darajasi va sinfdagi

bolalar sonini e'tiborga olgan holda tashkil qilinadi. Avvalo shuni ta'kidlash joizki, tarbiyalanuvchilarning yoshlari bir xil bo'lsada, lekin ular bir-birlariga o'xshamaydilar. Barcha bolalarning individual psixologik shaxs xususiyatlari, qabul qilish darajasi, zehn va idroki turlichadir. Shu bois maxsus ehtiyojga ega bo'lgan bola ta'lim olayotgan inklyuziv sinflardagi o'quv tarbiya jarayonini tashkil etish masalasi yanada murakkabroq muammolarni hal etishni talab etadi.

Inklyuziv sinfda o'qituvchi bolalarning imkoniyatini e'tiborga olib, darslarni shunga muvofiq rejalashtira olsa, bolalarning nogironligi bilim olishiga qanday ta'sir qilishini bilib, bu qiyinchiliklarni bartaraf etishning uslubiy yo'llaridan foydalansa, maktab va oila hamkorligini to'la yo'lga qo'ya olsa hamda nogiron bolaning kelajagiga ishonch bilan qaragagina dars jarayoni muvaffaqiyatli kechishiga erishish mumkin. Har bir bola o'z imkoniyat darajasida rivojlanadi, buni L.S. Vigotskiyning ilmiy qarashlariga ko'ra "Har qanday ruhiy yoki jismoniy nuqsonda ham taraqqiyot davom etadi", degan fikri bilan ham tasdiqlash mumkin.

Inklyuziv ta'limga yangicha fikrlarning talqin etilishi milliy, tashkiliy va uslubiy islohotlarni talab etadi. Maxsus ta'limga muhtoj bolalar hozirgi maktab tizimida ehtiyojlari qondirilmayotgan bolalardir. Shu sababdan maktablar barcha bolalarning turli xildagi va umumiy maqsadlari, intilishlari, qiziqishlariga javob berishi va ularning bilim olishlarini ta'minlashi lozim.

Inklyuziv ta'limni rivojlantirish uchun umumiy ta'lim tizimiga tarkibiy o'zgartirishlar kiritish muhimdir. "Umum ta'lim" va "maxsus ta'lim" o'rtasidagi to'siqlar olib tashlanishi kerak. Maxsus ta'lim oddiy ta'limning bir qismi bo'lishiga qaramasdan, o'zining o'quvchilari, o'qituvchilari, boshqaruv jamoasi va ta'minot tizimidan tashkil topgan ikkita ta'lim tizimi amalda qo'llanilib kelinmoqda. Barcha o'quvchilarning talablariga javob beruvchi "Inklyuziv maktab"da bunday tizimga ehtiyoj qolmaydi.

Islohotlar ta'lim maqsadlarining amaliyotini boshqarishi mumkin, lekin ularning pedagogik amaliyotini to'g'ridan-to'g'ri boshqara olmaydi. Shu sababdan samarali bo'lishi uchun islohotlar yaxshi muhokama qilinishi va ta'lim tizimi boshqaruvchilari hamda uni amalda qo'llovchilari tomonidan ko'rib chiqilishi kerak.

Inklyuziv ta'lim quyidagi shart-sharoitlarda tashkil etilishi mumkin: ommaviy maktabgacha tarbiya muassasalari, umumiy o'rta ta'lim maktab sinflari (guruhlari)da umumiy va alohida

13 Muallif ishanmasi



yordam olish, logoped xonalarida korreksion pedagogik yordam olish, korreksion sinf (guruh)larda maxsus ta'lim olish shaklida.

Inklyuziv ta'lim tizimiga maxsus yordamga muhtoj bolalarni viloyat (shahar, tuman) xalq ta'limi bo'limlari tomonidan tibbiy-psixologo-pedagogik komissiya faoliyatida "Respublika, viloyat, tuman tibbiy-psixologo-pedagogik komissiyalar to'g'risida"gi Nizom asosida qabul qilinadi.

Umumta'lim tizimida inklyuziv ta'limni joriy qilishda muassasa xodimlarining ish vazifalarida ham ko'zga ko'rinarli darajada islohotlar amalga oshirishi kerak.

Maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'lim tizimida o'qitish o'qituvchilardan ikki karra mas'uliyat bilan ishlashni talab etadi. Shuning uchun ham oliy pedagogik ma'lumotli va malaka oshirish kurslarini o'tab inklyuziv ta'lim pedagogik kvalifikatsiyasni olgan o'qituvchilargina inklyuziv sinf o'qituvchisi etib tayinlanishi mumkin. Inklyuziv sinf o'qituvchisi umumiy o'rta ta'lim muassasa Ustavida belgilangan vazifalar bilan bir qatorda:

- tarbiyalanuvchilarning jismoniy va ruhiy rivojlanishini korreksiyalash va me'yorga keltirish ishlarini olib boradi;
- bolalarning faolligini, ta'lim samaradorligini oshiruvchi metodlarni qo'llaydi;
- diqqat-e'tibor, xotirani, kuzatuvchanlik, sinchikovlik va boshqa qobiliyatlarni tarbiyalaydi;
- o'z-o'zini nazorat qilish malakalarini, bolalarning bilishga doir qiziqishlarini va qobiliyatini rivojlantiradi.

Inklyuziv ta'lim jarayonida muassasa tarbiyachisi ham alohida o'rin egallaydi. Tarbiyachi ish faoliyatini tashkil etishda o'qituvchi-defektologlar, ota-onalar va boshqa mutaxassislar bilan hamkorlikda sog'lom va alohida ehtiyojli bolalar bilan olib boriladigan mashg'ulotlarni rejalashtirishi hamda shu asosida olib borishi kerak. Shuningdek, tarbiyachi alohida ehtiyojli bolani oilada tarbiyalash masalasida ota-onalarga va qonuniy vakillarga metodik yordam ko'rsatadi, kerakli ish hujjatlarini yuritadi.

Muassasa psixologi har bir bolani psixologik jihatdan tekshiradi, doimiy ravishda psixologo-pedagogik jihatdan o'rganib boradi, individual rivojlantirish dasturlarini tuzadi, alohida ehtiyojli bolani oilada tarbiyalash bo'yicha ota-onalarga maslahatlar beradi, inklyuziv ta'lim muassasasining pedagog xodimlariga psixologik rivojlantirish masalalarida metodik yordam ko'rsatadi.

Inklyuziv ta'lim muassasasida ta'lim-tarbiya olayotgan maxsus yordamga muhtoj bolalarning ayrimlari doimiy ravishda tibbiy xizmatga muhtoj bo'lishi mumkin. Shunday qilib, inklyuziv ta'lim muassasasida ta'lim-tarbiya jarayoni har tomonlama amalga oshirilgan islohotlar asosidagina samarali kechadi.

## XULOSA VA TAVSIYALAR

Jamyatda ijobiy munosabatni ishlab chiqish, insonlar orasida nogiron bolalar haqida bilimlarning yetishmasligi oqibatida maxsus ehtiyojli bolalar ta'limdan chetda qolib ketmoqdalar. Bundan tashqari nogiron bolaning qobiliyatlari, huquqlari va ehtiyojlari muntazam ravishda qadrlanmasa, bolalarda o'ziga va qobiliyatlariga nisbatan salbiy munosabat shakllanadi.

Biz o'z tadqiqotimizda quyidagi taklif va tavsiyalarni ham berib o'tdik:

- Inklyuziv ta'lim muhitini rivojlantirish.

Inklyuziv ta'limning asosiy qismi - bolalarga bilim olish uchun do'stona munosabat va o'qishga imkon beruvchi muhitni yaratish lozim. Bolalar maktabga bexatar, qiyinchiliklarsiz yetib borish imkoniga ega bo'lishlari lozim. Bundan tashqari, amaldagi umumta'lim uslubiyatiga bolani moslashtirishdan ko'ra, dars jadvalini, sharoitni, uslubiyatni va o'quv qurollarini o'zgartirish kerak bo'ladi. Bunday o'zgartirishlar nafaqat maxsus ehtiyojli bolalar. Balki normal rivojlanishdagi bolalar uchun ham ta'lim sifatini yaxshilaydi.

- Ilk yoshdan aralashuv.
- Qisqa qilib aytganda bolaning hayotiga ertaroq, e'tibor berilsa, natijasi bolaning keyingi rivojlanishida samarali ta'sir ko'rsatadi.

- Ijobiy namuna bo'la oladigan insonlar obrazini yaratish.

Bolada o'ziga ishonch va o'zini qadrlash hissini rivojlantirishda kattalarning qiyofasi juda muhim. Lekin juda ko'p maxsus ehtiyojli bolalar o'sib, ulg'ayayotgan bir paytda o'zlariga o'xshagan maxsus ehtiyojli katta odamlarning uchratmaydilar va katta bo'lish qandayligini tasavvur ham qila olmaydilar. Shuning uchun ham maxsus ehtiyojli kattalar maxsus ehtiyojli bolalarning at'limida doimiy ishtirok etishlari kerak. Chunki katta yoshdagi maxsus ehtiyojli insonlar ota-onalarga farzandiga ta'lim berish muhimligini tushintirish mumkin. Buning uchun esa maxsus ehtiyojli kattalarni maktablarga taklif etish kerak. Shunda ular o'zlarining hayotda erishgan yutuqlari haqida gapirib beradilar. Buning natijasida inklyuziv ta'limni targ'ib qilishda katta imkoniyat yaratiladi.

- Mos siyosatni ishlab chiqishga ko'maklashish.

Inklyuziv ta'lim tizimini qo'llab-quvvatlashda siyosat asosiy rol o'ynaydi. Siyosat tomonidan inklyuziv ta'limning qo'llab-quvvatlanishi bu ta'lim tizimining samarasini va rivojini ta'minlaydi.

## SHIFOKORLARGA TAVSIYA:

Daun sindromli bolalar ota-onalari bilan suhbat o'tkazilganda tug'ruqxonadayoq shifokorlar tomonidan noto'g'ri informatsiya berilganligi ma'lum bo'ldi.

Daun sindromli bola yurmaydi, gapirmaydi, ismini aytib chaqirsangiz ham qaramaydi. Amaliyotda "farzandingizni olib ketasizmi yoki internatga berasizmi", degan gaplar bilan ota-onalarni stress holatiga solish va ular psixikasiga juda yomon ta'sir qilish uchraydi. Ota-onaga to'g'ri yo'nalish berish, yani "ko'p e'tiborga muhtoj bola", deb tushuntirish kerak.

## OTA-ONALARGA TAVSIYA:

- farzandingiz kech bo'lsa ham rivojlanadi;
- sog'lom bolangizga hayotiy ko'nikmalarni berishga ketadigan vaqtinizdan 2-3 barobar oshiqroq vaqt berishingiz, 4-5 marotaba emas 5-10 marotaba ko'proq takrorlashingiz kerak xolos;

- bitta ko'p xromosoma hech narsani hal qilmaydi;
- Daun bolalarning yaxshi rivojlanishi uchun uyingizda sog'lom muhit yarating. O'zining xonasi bo'lsin. Bu mustaqil bo'la olishiga ishorad. Xonasining devorlari rangli bo'lsin, lekin qizil, oq, yashil ranglar ko'p ishlatilsin (kiyim va kitob javonlari va boshqalarda);

- uni yashirmang, undan uyalmang, faxrlanishga harakat qiling, oila azolari, qarindosh-urug' bilan doim birga bo'lsin. Uning qiziqishlari va harakatlariga e'tibor bering;

- ular so'zlarni birlashtirib aytishga qiynalishadi, shuning uchun so'zlarni bo'g'inlab ayting, ko'p takrorlang.

- farzandingizda rassomlik, musiqa, hunarmandlik, dezaynerlik va boshqa qobiliyatlarni sezdingizmi, darhol rivojlantiring, tengdoshlari bilan vaqt o'tkazishiga to'sqinlik qilmang.

Angliyadagi badavlat oilalardan birida shunday sindromli bola dunyoga keladi. Ota-onasi uni zamonasining eng oldi o'qituvchilarini topib shug'ullantiradi, ko'rinishini o'zgartirish uchun plastik operatsiya ham qildiradi. Balog'at yoshiga yetgan bola esa o'zini osib o'ldiradi. Joniga qasd qilishdan avval otasiga xat qoldirib: "Meni borligimcha qabul qila olmadinglar", - deb yozadi.<sup>1</sup> Yigit oila a'zolarining uni o'zgartirishga urinishini hazm qila olmagan. Uni boricha qabul qiling.

## TARBIYACHILARGA TAVSIYA:

- Daun sindromli bola tarbiyalayotgan tarbiyachi etiborli bo'lishi kerak;

- mashg'ulotlar paytida so'zlarni to'liq talaffuz qilishi kerak;
- bolalar bilan birgalikda o'rganayotga [ harfni]yoki yangi so'zni takror-takror talaffuz qilish va bo'g'inlab aytishlari maqsadga muvofiq;
- bolaning diqqatini jamlovchi turli xil o'yinlardan foydalanishi;

- mashg'ulotlarda guash, plastilin, rangli qog'ozlar va boshqa bola qiziqishini, e'tborini jalb qiluvchi materiallardan foydalanilsa bolaning bilish jarayoni rivojlanadi.

14 Asosiy farqlari: xromosomasi va mehri biznikidan ko'pligida. Stereotiplar hayotini barbod qilishi mumkin bo'lgan Daun sindromli "quyosh bolalari" - Daryo

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. "Maxsus va inklyuziv ta'lim" R. Sh. Shomahmudova 2018-yil
2. T.A.Maxmudova "Quyosh bolalari", Daun sindromi Scientific Progress Volume 2 | ISSUE 7 | 2021 ISSN: 2181-1601. 387-b
3. "Moslashtirilgan o'quv dasturi" I.V. Groshev A., E. N. Nazarova, E. A. Nekrasova, B. P. Abdullayev , UT Muxitdinova 2019.
4. Legare F, Ratte S, Gravel K, Graham ID. Barriers and facilitators to implementing shared decision-making in clinical practice: Update of a systematic review of health professionals' perceptions. Patient Educ Couns. 2008;73(3):526–
5. M.U. Xamidova. "Maxsus pedagogika". – T.: «Fan va texnologiya», 2018, 164+8 bet rasm.
6. Inclusive education in Italy: Historical steps, positive developments, and challenges. Dario Ianes, Heidrun demo, Silvia Dell'Anna Prospects (2020) 49:249–263
7. "Педагогиканинг тараққиёт тенденциялари ва инновациялари" ТДПУ, п.ф.н., доц. М.Х. Умарова, катта ўқитувчилар А.У. Ахмадалиев, А.Б.Тўраев, М.П. Имомов 2016.
8. Qodirova. F.R. va boshq. "Maktabgacha pedagogika" (o'quv qo'llanma). –T.: Ma'naviyat, 2013.
9. Sodiqova Sh.A. "Maktabgacha pedagogika". Darslik. – Toshkent, 2017.
10. Solodyankina O.V. Vospitanie rebenka s ogranichennimi vozmojnostyami zdorovya v seme. – M.: Arkti, 2007.
11. "Pedagogika" fanidan izohli lug'at. -T.: 2010. 534-535 betlar
12. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
13. [www.ziyo.edu.uz](http://www.ziyo.edu.uz)
14. [www.istedod.uz](http://www.istedod.uz)
15. [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)
16. [www.daryo.uz](http://www.daryo.uz)



## KICHIK YOSHDAGI BOLALARDA ATROF-MUHITNI ASRAB-AVAYLASH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

Mirzaaliyeva Zumradxon

Qo'qon universiteti Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabasi

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATSIYA
<p><b>Qabul qilindi:</b> 24-may 2022-yil <b>Tasdiqlandi:</b> 26-may 2022-yil <b>Jurnal soni:</b> 4 <b>Maqola raqami:</b> 2 <b>DOI:</b> <a href="https://doi.org/10.54613/00217">https://doi.org/10.54613/00217</a></p>	<p>Maqolada maktabgacha kichik yoshdagi bolalarda atrof-muhitni asrab-avaylash va g'amxo'rlik qilish, bolada o'ziga xos ko'nikmalarni shakllantirish bosqichlarining qiyosiy tahlili batafsil yoritilgan. 3-4 yoshli bolalarni atrof-muhit va olam bilan tanishtirish, uni asrab-avaylash borasida dastlabki bilimlarni berish orqali ta'limning uzviy davom etishiga asos yaratish, bu bilim va tajribalar bilan bolalarni atrof-muhitga ehtiyotkorona va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, xorijiy tajribalarni o'rganish va tatbiq etish masalalari ko'rib chiqilgan.</p>
<p><b>KALIT SO'ZLAR</b></p> <p>Maktabgacha ta'lim tashkiloti, kichik yosh, tarbiyachi, mashg'ulot, sayr, tabiat, ekologik tarbiya, vatanparvarlik, qadriyatlar.</p>	

### KIRISH

Fan-texnika taraqqiyoti jadal sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan bir sharoitda inson va atrof-muhit o'rtasidagi muvozanatni saqlab qolish dolzarb muammolardan biridir. Bu masala mustaqil davlatimiz siyosatida o'z ifodasini topib, unda insonni o'rab turgan atrof-muhit, jamiyat bilan uyg'unligini ta'minlash ham nazarda tutilgan. Atrof-muhitning buzilishi bilan bog'liq muammolar bugungi kunda global tus oldi va zudlik bilan hal etishni talab qilmoqda. Bu borada xalqaro hamjamiyat tomonidan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bundan tashqari, ekologik muammolarning oldini olish zamonaviy O'zbekiston davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridandir.

XX asrning ikkinchi yarmida ekologik inqirozga moyil bo'lgan ob'ektlar va hududlarning kengayishi insonni bu muammolarga jiddiy e'tibor berishga majbur qildi. Hozirgi kunda dunyoning ko'pgina rivojlangan davlatlarida nafaqat tabiiy resurslardan samarali foydalanish, balki atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan qonunlar mavjud.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda ekotizimlar barqarorligini oshirish, biologik resurslar holatini saqlash va yaxshilash, ekologik xavflarni kamaytirishga qaratilgan muhim islohotlar amalga oshirildi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 55-moddasida: "Yer, uning yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy boyliklar milliy boylik bo'lib, ulardan oqilona foydalanish zarur va davlat muhofazasidir", deb belgilangan, qonun ijrosini ta'minlash ishlari keng yo'lga qo'yilgan.<sup>1</sup>

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi, "Atrof-muhitni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonunlari, O'zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyevning ekologiyaga oid asarlari, O'zbekiston hukumatining ekologiyaga doir qaror va me'yoriy hujjatlari, Sharq mutafakkirlarining ekologik tarbiya haqidagi fikrlari, ekologik muammolarga bag'ishlangan umumbashariy g'oyalari, inson va atrof-muhitning o'zaro aloqadorligi qonuniyatlarini bilishga oid falsafiy qarashlar, inson salomatligi va ma'naviyatining ekologik muammolarga bog'liqligi to'g'risidagi qoidalarga tayanildi.<sup>2</sup> Atrof-muhit boyliklari bo'lgan yer, suv, havo ifloslangan, o'simlik va hayvonot olami ayrim turlarining mavjudligi xavf ostida qolgan. Shu sababli, atrof-muhitni muhofaza qilish va uning zaxiralardan oqilona foydalanish asosiy masaladir.

Hozirgi paytda Respublikada istiqbolga, ya'ni atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy zaxiralardan oqilona foydalanish bo'yicha

2025-yilgacha mo'ljallangan Davlat dasturi ishlab chiqilgan. Atrof-muhitdan oqilona foydalanish va uni muhofaza qilish sohasidagi butun faoliyat ana shu dastur asosida tashkil etilgan. Dasturda respublikada ekologik vaziyatni sog'lomlashtirish, yirik shaharlar va shahar aglomeratsiyalari kabilarda ekologik keskinlikka barham berish yo'llari belgilangan.<sup>3</sup>

Bu borada amalga oshirilayotgan amaliy ishlar bilan bir qatorda, ayniqsa, yosh avlod o'rtasida tegishli ma'naviy-ma'rifiy ishlarni yo'lga qo'yish zarur. Mamlakatimizda atrof-muhitni asrab-avaylash maqsadida maktabgacha ta'lim tizimidayoq kichik yoshdagi tarbiyalanuvchilarga bu bilimlarni berish masalalari keltirib o'tildi.

Atrof-muhit muhofazasiga oid tarbiya g'oyalari o'rta asrlarda O'rta Osiyoda yashab ijod etgan buyuk mutafakkirlar Muhammad Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Amir Temur, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqa allomalarimizning asarlarida ilgari surilgan bo'lib, ularda atrof-muhit va jamiyat birligi, o'zaro aloqadorligi, atrof-muhitni muhofaza qilish, uning boyliklarini asrab-avaylash, saqlash va ko'paytirish, tashqi muhitning tirik organizmlarga ta'siri kabi masalalar ilmiy asoslab berilgan.

Ilmiy adabiyotlar tahlilidan ma'lum bo'ldiki, so'nggi yillarda ekologik ta'lim va tarbiyaga oid muammolarni hal etish bo'yicha ko'pgina olimlar izlanishlar olib borishgan, jumladan, P.S.Sultonov "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish asoslari" darsligini yaratdi. Umumiy ekologiyaning rivojlanishiga R.N.Kashkarov O'rta Osiyo universitetida o'qigan «Muhit va jamoa» deb nomlangan ma'ruzasi bilan hissa qo'shgan.

O'zbekistonda esa ekologik yo'nalishdagi ishlarning asoschilari D.N.Kashkarov va Ye.P.Korovin hisoblanadilar. 1930-yillarda ular tomonidan «Muhit va jamoa», «O'rta Osiyo va Qozog'iston cho'llarining turlari va ulardan xo'jalikda foydalanish istiqbollari», «Cho'llardagi hayot» kabi ilmiy asarlar chop etildi. Bu asarlarda ekologiya fani va uning vazifalari, atrof-muhitni asrab-avaylashda bolalik davridan boshlab ta'lim-tarbiya berishning o'ziga xos uslublari o'z aksini topgan.<sup>4</sup>

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni ma'naviy yetuk, axloqli, pok insonlar qilib voyaga yetkazishda oliy dargohlarda o'qitilib kelinadigan Atrof-olam va tabiat fani muhim ahamiyat kasb etadi. Uning maqsadi, maktabgacha ta'limda kichik yoshdan boshlab atrof-muhit bilan tanishtirish jarayonida unga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish, Vatanga mehri bo'lish,

1 O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 08.12.1992  
2 O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RO-683-sonli Qonuni, Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida  
3 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 18.01.2021 yildagi 23-son, O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida

4 P.S.Sultonov Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish asoslari O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan oliy o'quv yurtlari uchun darslik sifatida tavsiya etilgan, Toshkent-2007

ekologik ta'lim-tarbiyani amalga oshirish, atrof-muhit haqida mukammal bilimga ega bo'lgan kelajak yoshlarini tarbiyalashdir.<sup>5</sup>

Tadqiqot tahlilidan ma'lum bo'ldiki, maktabgacha ta'limda bolalarga uzviy va uzluksiz ta'lim berish asosida, kichik yoshdagi bolalarda atrof-muhitni asrab-avaylash ko'nikmalarini shakllantirish muammosi ilmiy-metodik jihatdan hal etilmagan. Bu hol bo'lajak mutaxassislarning kasbiy va ma'naviy faoliyatiga salbiy ta'sir etadi. Davr esa barcha insoniyatga jumladan, yoshlarni atrof-muhit bilan tanishtirish zarurligini taqozo etmoqda. Atrof-muhitni muhofaza qilish muammolari umuminsoniy ahamiyat kasb etayotgan, insoniyatning tabiiy muhitga yetkazgan salbiy oqibatlarini qayta ko'rib chiqilayotgan bir paytda shu narsa ma'lum bo'ldiki, aholining barcha qatlamlarida maktabgacha kichik yoshdagi bolalarda atrof-muhitni asrab-avaylash ko'nikmalarini shakllantirishning muammolari inson ongidagi o'zgarishlar bilan bevosita bog'liq jarayonga aylandi.

Bugungi kunda fan-texnika jadal sur'atlarda rivojlanib, inson va atrof-muhit o'rtasidagi tabiiy muvozanat buzilayotganligi, atrof-muhitga nisbatan jamiyat a'zolarida g'amxo'rlik sust ahvonga kelib qolganligi oqibatida atrof-muhitga katta ziyon etmoqda. Atrof-muhitga istiqbolni ko'zlab munosabatda bo'lish, kelajak avlodga uni go'zal va tabiiyligicha qoldirish bugungi kunning muhim vazifasi bo'lib turibdi. Chunki atrof-muhitga nisbatan inson qanchalik berahmlik bilan munosabatda bo'lsa, tabiat ham insonga nisbatan aynan ana shunday javob qaytaradi. Har bir inson ongida ekologik madaniyat qay darajada shakllansa, jamiyat ham shu darajada taraqqiy etadi.

Mustaqil O'zbekistonda olib borilayotgan ta'lim sohasidagi islohotlarning bosh maqsadi aynan mana shu masalaga qaratilgan. Yani, o'sib kelayotgan yosh avlod, mustaqil O'zbekistonimizning kelajagini, taraqqiyotini kafolatlaydi. Mana shu ustivor yo'nalishlardan kelib chiqqan holda, bolalar bog'chalarida farzandlarimizga beriladigan qar qanday bilim, ularda Vatanga sadoqat, o'z o'lkasini sevis, Vatan bilan g'ururlanish ruhini tarbiyalashi lozim. **Shunday ekan atrof-muhitni asrab-avaylashning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat bo'lishi lozim:**

Avvalambor, bolalarni o'z o'lkasini sevishga o'rgatish, tevarak-atrof bilan tanishtirish orqali bolalarda ilmiy dunyoqarashni rivojlantirish, bolalarda kuzatuvchanlikni rivojlantirish, o'zining, tengdoshlari va kattalarning mehnatini qadrlashga o'rgatish, atrof-muhit orqali psixik jarayonlarni rivojlantirish (sezgilar, idrok, xotira, xayol, tasavvur, nutq, diqqat), bolalarning xissiyotini, irodasini rivojlantirish, atrof-muhit in'om etgan ne'matlarni avaylab-asrashga o'rgatishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Yuqoridagi vazifalardan kelib chiqqan holda, bolalarga atrof-muhit orqali aqliy, axloqiy, estetik, jismoniy, mehnat, ekologik, iqtisodiy tarbiya berish lozim. Hozirgi kunda shaxslararo munosabatlardan tortib jamiyat va atrof-muhitning o'zaro aloqadorligi orasidagi ko'plab muammolar odamlar ongida kichik yoshdagi bolalarda atrof-muhitni asrab-avaylash ko'nikmalarini shakllantirishning talab darajasida emasligini namoyon etmoqda. Shunday ekan, kichik yoshdagi bolalarda atrof-muhitni asrab-avaylash ko'nikmalarini shakllantirishning samarali shakl va metodlarini ishlab chiqish shu kunning talabi bo'lib qolmoqda. Shuningdek, boshqa ko'plab internet manbalari orqali to'plangan ma'lumotlar tadqiqotimizning metodologiyasiga ham o'ziga xos usullar bilan yondashgan holda amalga oshirib, tahlil qildik va natijalarni keltirib o'tdik. O'ylaymizki, biz olib borgan mavzudagi tajriba-sinovlar kelgusida yana ham to'ldirilib, mukammal holga keltiriladi.

### TADVIQOT METODOLOGIYASI

Pedagogikada metod deyilganda katta yoshdagilar va bolalarning ma'lum ta'lim-tarbiyaviy natijalari, bilimlarni egallash, malaka ko'nikmalarini hosil qilish qobiliyatlarini o'stirish, aqliy va axloqiy sifatlar, xulq-odatlarini shakllantirishga erishishga mo'ljallangan hamkorlikdagi faoliyat tushuniladi.

Maktabgacha kichik yoshdagi bolalarda atrof-muhitni asrab-avaylash ko'nikmalarini shakllantirish jarayonida esa xilma-

xil metodlar: ko'rgazmali (kuzatish, rasmlarni ko'rish, diafilm, kinofilm va kompyuterlarni namoyish qilish), amaliy (o'yin metodi, mehnat, oddiy tajribalar) va og'zaki (tarbiyachining hikoyasi, badiiy asarlarni o'qish) suhbatdan foydalaniladi.

Maktabgacha kichik yoshdagi bolalarda atrof-muhitni asrab-avaylash ko'nikmalarini shakllantirish va qiyosiy tahlil qilishda turli xil zamonaviy metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun maktabgacha ta'lim tashkiloti xodimlari va tarbiyalanuvchilari bilan so'rovnoma o'tkazildi.

Shuningdek, SWOT tahlili yordamida zamonaviy ta'lim-tarbiya jarayonidagi muhim bo'lgan maktabgacha kichik yoshdagi bolalarda atrof-muhitni asrab-avaylash ko'nikmalarini shakllantirishning afzalliklari va kamchiliklari, imkoniyatlari hamda to'siqlarini tahlil qilishga erishdik. Ushbu metodlar yordamida bola jamoa fikri va bahsi bilan hisoblashishi, o'zining jamoa uchun zaruriyatini sezishi, u bilan g'ururlanishi, umumiy hayotning yoqimli va quvonchli bo'lishi uchun intilishi bu jamoaning yetarli darajada shakllanganligidan dalolat beradi.

Bola tashkilotga kelishi bilan bolalar jamoasining a'zosi bo'lib qoladi, u boshqa bolalar bilan o'ynashi, mehnat qilishi, atrof-muhitga ijobiy munosabatda bo'lishi orqali uni asrab-avaylash ko'nikmalariga ega bo'ladi. Tarbiyachi bunda har bir bolaning bilish va ongli munosabatda bo'la olish qobiliyatini alohida baholab borishi kerak.

Atrof-muhitga ongli munosabat natijasida ekologik madaniyat shakllanadi. Bu esa o'z navbatida, atrof-muhitga yetkaziladigan zararining oldini olish va bartaraf etishda munosib ishtirok etish, atrof-muhit boyliklaridan oqilona foydalanish, ekologik savodxonlikni tarkib toptirishdan iborat.

Bolalar bilishlari zarur bo'lgan atrof-muhit haqidagi bilimlar mazmunini aniqlab, o'qitish metodikasini ishlab chiqish ta'lim tizimi uchun muhim pedagogik muammo hisoblanadi. Shu jihatdan bolalarga tizimli ta'lim berish orqali ularning atrof-muhit bilan tanishtirishni tadqiq etish zaruriyati paydo bo'ldi. Ana shu zaruriyat bizni **"Kichik yoshdagi bolalarda atrof-muhitni asrab-avaylash ko'nikmalarini shakllantirish" mavzusini tanlashga yo'lladi. Bunda:**

- maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kichik yoshdagi bolalarda atrof-muhitni asrab-avaylash ko'nikmalarini shakllantirish masalalariga uzluksiz ta'lim jarayonining tarkibiy qismi sifatida qaralishi;

- kichik yoshdagi bolalarda atrof-muhitni asrab-avaylash ko'nikmalarini shakllantirish jarayoniga inson va atrof-muhit o'rtasidagi o'zaro aloqalarni uyg'unlashtiruvchi tizim sifatida yondashishi;

- bolalar yoshi, qiziqishini e'tiborga olgan holda, ularga beriladigan atrof-muhit haqidagi bilimlar mazmunini boyitish va kengaytirishi;

- bolalarda atrof-muhit haqidagi bilimlarni shakllantirishning zamonaviy metod va vositalaridan samarali foydalanishi;

- kichik yoshdagi bolalarda atrof-muhitni asrab-avaylash ko'nikmalarini shakllantirishni tarixiy, milliy, ekologik qadriyatlar hamda hozirgi zamon mahalliy, hududiy, umumbashariy ekologik muammolar bilan uzviy bog'lab amalga oshirish orqali bolalarning ekologik madaniyati darajasini oshirish mumkin va ularning atrof-muhitga nisbatan ijobiy munosabatlari rivojlanib boradi.

Kichik yoshdagi bolalarda atrof-muhitni asrab-avaylash ko'nikmalarini shakllantirishni bog'chadan boshlamoq zarur. Shunga ko'ra bolalar bog'chalarida murg'ak qalblarga ta'lim-tarbiya berayotgan tarbiyachilarning oldilaridagi eng muhim vazifalaridan biri ham bolalarning atrof-muhit go'zalliklarini ko'ra bilishi, ini sevishi, atrof-muhitda yuz beradigan voqea-hodisalar haqida to'g'ri tushunchaga ega bo'lishi, qolaversa atrof-muhit yaratgan boyliklardan oqilona foydalanish ruhida tarbiyalashdan iborat bo'lishi muhimdir.

**Mavzu yuzasidan o'rganilgan metodologik tadqiqotlarimizda quyidagi afzalliklarga ega bo'lgan metodlarimiz bilan tanishtirib o'tamiz.**

**1. PEDAGOGIK KUZATUV METODI.** Bola shaxsini tabiiy hamda maxsus tashkil etilgan sharoitlarda o'rganish, uning ruhiy-

5 <https://fayllar.org/mundarija-kirish-i-bob-bolalarni-sayr-orqali-tabiat-bilan-tani.html?page=3>

irodaviy hamda intellektual (aqliy) xususiyatlarini aniqlash, ularga tayangan holda bolaga muayyan ta'sir ko'rsatish xususida umumiy tasavvurni hosil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Kuzatish hikoya, suhbat vaqtida olib borilib, bolalar oldiga qo'yilgan asosiy maqsadni yechish, atrof-muhit va tabiiy voqeaylikni anglash uchun o'rtaga tashlangan savollarga javob topish maqsadida olib boriladi.

**2. SUHBAT METODI.** Mazkur metoddan ta'lim jarayonida samarali hamda o'rinni foydalanish bola shaxsiga xos bo'lgan xususiyatlardan to'laqonli ravishda xabardor bo'lish imkonini beradi. Biroq suhbat jarayonining samaradorligi tarbiyachi tomonidan muayyan shartlarga amal qilinishiga bog'liqdir. Chunonchi:

- suhbatni tashkil etishdan ko'zlangan maqsadning aniqligi;
- tarbiyachi va bola o'rtasida tashkil etilayotgan suhbatlarning har birining ma'lum mavzu doirasida bo'lishiga erishish;
- suhbat jarayonini yo'naltirib turishga xizmat qiluvchi savollarning qisqa, aniq hamda mantiqiy bo'lishiga e'tibor qaratish;
- suhbat uchun qulay sharoit (joy, vaqt, talabaning ruhiy holat)ning mavjudligi;
- suhbat jarayonida talabaning istagi, jismoniy, fiziologik va psixologik xususiyatlarini inobatga olish, suhbatning uzoq muddatli bo'lishining oldini olish;
- suhbat jarayonida talabaning o'z fikr-mulohazalarini ochiq-oydin, batafsil, erkin bayon qilishiga imkon berish, uning so'zini bo'lmaslik, mulohazalaridan kulmaslik, shuningdek, ko'pchilik ishtirokida o'tkazilayotgan suhbat jarayonida tasodifiy luqma, kinoyalarning bo'lishiga yo'l qo'yimaslik, talabaning fikrini hurmat qilishga erishish. Suhbat jarayonida tarbiyachi bolalarning bilish faoliyatini boshqarib boradi, ularni tegishli savollarga javob topishga yo'naltiradi, mulohaza qilish, o'ylash, javob berishga undaydi.

Hozirgi kunda pedagogik texnologiyalar yangi-yangi metodlar bilan boyishi va umumiy bilim berishning taraqqiylashib borayotganligi tufayli suhbat darsini kuzatuv, eksperiment va talabaning mustaqil ishi, tarqatma material va ko'rgazmali qurollardan foydalanish, diafilim, diapozitiv hamda telemateriallar bilan uyg'unlashgan holda o'tkazish maqbul deb topilgan. Murakkab nazariy muammolar suhbat usulida o'tilsa yaxshi natija beradi.

**3. SAVOL-JAVOB METODI.** Ushbu metod tarbiyachi va talaba o'rtasida faol muloqotni yuzaga keltirishda bir qator imkoniyatlar yaratadi. Savol-javoblar jarayonida bola tomonidan muayyan fan asoslari yuzasidan o'zlashtirilgan nazariy bilimlar darajasi, shuningdek, uning ma'lum voqea-hodisalarga munosabatini aniqlashga muvaffaq bo'linadi.

Savol-javoblar metodidan samarali foydalanish quyidagi holatlarga amal qilish orqali ta'minlanadi:

- tarbiyachi tomonidan ishlab chiqilayotgan savollarning talaba yoshi, psixologik va shaxsiy xususiyatlariga mosligi;
- savollarning muayyan mavzu yoki holat mazmunini tahlil etishga yo'naltirilganligi;
- savollarning bir-birini mantiqiy to'ldirib borishi, ular o'rtasida o'zaro aloqadorlik, izchillik hamda uzviylikka erishish;
- savollarga to'laqonli javob qaytarishi uchun bolaga imkoniyat berish;
- javoblarga nisbatan tanqidiy munosabatda bo'lish ularni inkor etish, javoblarning noto'g'ri ekanligi to'g'risida to'g'ridan-to'g'ri fikr yuritish holatlari yuzaga kelishining oldini olish;
- savol-javob jarayonida tarbiyachi hamda talaba o'rtasida ijodiy hamkorlikni yuzaga keltirish.

**4. "AQLIY HUJUM" METODI** – ta'limning noan'anaviy metodlaridan biri bo'lib, bolalarni o'zlarining ijodiy hamda tasavvur imkoniyatlaridan samarali foydalanish hamda fikrlashga, fikrini tahlil etishga, ularni boshqalarning fikrlari bilan taqqoslashga undaydi. Mazkur metod muayyan mavzu yuzasidan berilgan muammolarni hal etishda keng qo'llanilib, mashg'ulot ishtirokchilarini muammo xususida keng va har tomonlama fikr yuritish, shuningdek, o'z tasavvurlari va g'oyalaridan ijobiy foydalanish borasida ma'lum ko'nikma va malakalarni hosil qilishga rag'batlantiradi.

Aqliy hujum metodi qo'llanganda bildirilgan fikr-g'oyalar muhokama qilinmaydi va baholanmaydi. Bildirilgan har qanday fikr hatto to'g'ri bo'lmasa ham inobatga olinadi hamda fikr-g'oyalarni

to'ldirish va kengaytirish mumkin. Aqliy hujum metodi biror muammoni yechishda bolalar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to'plab, ular orqali ma'lum bir echimga kelinadigan eng samarali metoddir.

#### **5. QADRIYATLARGA ANIQLIK KIRITISH METODI.**

Qadriyatlarini o'rganish, tekshirish, ishonchli, himoyalangan muhitda munozara qilish imkoniyatini beradi. Avesto, Qur'oni Karim, hadis va buyuk mutafakkirlarning asarlaridan foydalanish shuningdek, ekologik hasharlar tashkil etilib, unda bolalar tomonidan ko'kalamzorlashtirish ishlarini olib borish, ariqlar tozalash, qurigan daraxt shox-shabbalaridan bog'larni tozalash ishlarini amalga oshiriladi.

#### **6. MA'RUZA METODI.**

Juda murakkab va bolalar uchun noma'lum material odatda ma'ruza (leksiya) metodi bilan o'tiladi. Ma'ruza suhbat bilan uyg'unlashgan holda o'qilib, bu paytda maqsadli savollar beriladi, muammoli vaziyat shakllanishiga undaladi. O'rtaga tashlangan masalalardan o'zaro bog'liqlik darajasi belgilanadi, bu esa o'z navbatida talabaning mavzuga qiziqishini uyg'otadi va mavzuni tegishli darajada to'liq o'zlashtirishga yordam beradi. Ma'ruzaning samaradorligida har bir bolaning bilimi, qobiliyatini kuchaytiradigan, qiziqish darajasini oshiradigan metodik prinsplarni qo'llash muhimdir. Tarbiyachi ma'ruza o'qish paytida talabaning konspektlashtirishi nihoyatda muhim, chunki konspektlashtirish talabaning mavzuga taaluqli adabiyotlardan mustaqil ravishda foydalanishga tayyorlaydi.

#### **7. MUNOZARALI MA'RUZA METODI** – bolalar faol bo'ladi.

Savol beradi, aniqlik kiritadi, norozilik bildiradi. Ma'ruza muhokamaga aylanadi. Dars sifati savol va javoblar natijasiga bog'liq. Tarbiyachi ma'ruza davomida savolga javob berishga tayyor bo'lishi kerak. Shu bois hududimizdagi sardobalarning kichik yoshdagi bolalarda atrof-muhitni asrab-avaylash ko'nikmalarini shakllantirishdagi ahamiyati, qolaversa, ularning atrof-muhitdagi o'rni atroflicha yoritib berildi. Bu metodlar pedagogikaning, ijodiy, istiqbolli yo'nalishi hisoblanadi.

**Xulosa qilganda, atrof-muhit haqidagi bilimlarini rivojlantirish bo'yicha ta'lim va tarbiyaning metodologik asoslariga quyidagilarni kiritish mumkin:**

1) Bolalar yoshini e'tiborga olgan holda, atrof-muhit haqidagi bilimlar mazmunini boyitish va kengaytirish hamda ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida fanlararo aloqalarni hisobga olgan holda, egallanadigan ilmiy bilimlar va ularning amalda tatbiq etilishining tarkibiy qismi sifatida qarab chiqish;

2) maktabgacha ta'lim tashkilotlarida atrof-muhitni yaxshilash sohasida amaliy faoliyat turlari tuzilmasi va axborot vositalaridan foydalanishni ishlab chiqish muhim sanaladi, bu esa kichik yoshdagi bolalarga atrof-muhitni shakllantirishga asos bo'ladi.

#### **"KICHIK GURUHLARDA ISHLASH" METODI**

Ta'lim oluvchilarni faollashtirish maqsadida ularni kichik guruhlarga ajratgan holda o'quv materialini o'rganish yoki berilgan topshiriqni bajarishga qaratilgan darsdagi ijodiy ish. Ushbu metod qo'llanilganda ta'lim oluvchi kichik guruhlarda ishlab, darsda faol ishtirok etish huquqiga, boshlovchi rolda bo'lishga, bir-biridan o'rganishga va turli nuqtai-nazarlarni qadrlash imkoniga ega bo'ladi. "Kichik guruhlarda ishlash" metodi qo'llanilganda ta'lim beruvchi boshqa interfaol metodlarga qaraganda vaqtning tejash imkoniyatiga ega bo'ladi. Chunki ta'lim beruvchi bir vaqtning o'zida barcha ta'lim oluvchilarni mavzuga jalb etadi va baholay oladi. Quyida "Kichik guruhlarda ishlash" metodining tuzilmasi keltirilgan.

Kichik guruhlarda ishlash metodining tuzilmasi

Kichik guruhlarda ishlash metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Faoliyat yo'nalishi aniqlanadi. Mavzu bo'yicha bir-biriga bog'liq bo'lgan masalalar belgilanadi.

Kichik guruhlar shakllantiriladi

Mavzu yoritiladi

1-guruhga topshiriq

2-guruhga topshiriq

3-guruhga topshiriq

4-guruhga topshiriq

Ko'rsatma berish va yo'naltirish

Muhokama va tahlil qilish

1-guruh taqdimoti

2-guruh taqdimoti



- 3-guruh taqdimoti  
4- guruh taqdimoti  
Baholash  
2. Kichik guruhlar belgilanadi. Ta'lim oluvchilar guruhlariga 3-6 kishidan bo'linishlari mumkin.  
3. Kichik guruhlar topshiriqni bajarishga kirishadilar.  
4. Ta'lim beruvchi tomonidan aniq ko'rsatmalar beriladi va yo'naltirib turiladi.  
5. Kichik guruhlar taqdimot qiladilar.  
6. Bajarilgan topshiriqlar muhokama va tahlil qilinadi.  
7. Kichik guruhlar baholanadi.


**"Kichik guruhlarda ishlash" metodining afzalligi:**

- o'qitish mazmunini yaxshi o'zlashtirishga yordam beradi;
- muloqotga kirishish ko'nikmasining takomillashishiga yordam beradi;
- vaqtni tejash imkoniyati mavjud;


- barcha ta'lim oluvchilar jalb etiladi;
- o'z-o'zini va guruhlararo baholash imkoniyati mavjud bo'ladi.

**"Kichik guruhlarda ishlash" metodining kamchilliklari:**

- ba'zi kichik guruhlarda kuchsiz ta'lim oluvchilarning bo'lganligi sababli kuchli ta'lim oluvchilarning ham past baho olish ehtimoli bor;
- barcha ta'lim oluvchilarni nazorat qilish imkoniyati past bo'ladi;
- guruhlararo o'zaro salbiy raqobat paydo bo'lib qolishi mumkin;
- guruh ichida o'zaro nizo paydo bo'lishi mumkin. Bu metodni olib borishdan maqsad maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berishda muammoli savollardan foydalanib, o'tkazish eng natijali usullardan biri hisoblanadi.



1-rasm. Atrof-muhitni tanitish va tabiatni asrash bo'yicha tarbiyalanuvchilar bilan kichik guruhlarda ishlash<sup>1</sup>



2-rasm. "Davra suhbat" metodi qo'llash yo'riqnomasi. <sup>2</sup>

**"DAVRA SUHBATI" METODI**

Aylana stol atrofida berilgan muammo yoki savollar yuzasidan ta'lim oluvchilar tomonidan o'z fikr-mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o'qitish metodidir.

"Davra suhbat" metodi qo'llanilganda stol-stullarni doira shaklida joylashtirish kerak. Bu har bir ta'lim oluvchining bir-biri bilan "ko'z aloqasi"ni o'rnatib turishiga yordam beradi. Davra suhbatining og'zaki va yozma shakllari mavjuddir. Og'zaki davra suhbatida ta'lim beruvchi mavzuni boshlab beradi va ta'lim oluvchilardan ushbu savol bo'yicha o'z fikr-mulohazalarini bildirishlarini so'raydi va aylana bo'ylab har bir ta'lim oluvchi o'z fikrini og'zaki bayon etadilar. So'zlayotgan ta'lim oluvchini barcha diqqat bilan tinglaydi, agar muhokama qilish lozim bo'lsa, barcha fikr-mulohazalar tinglanib bo'lingandan so'ng muhokama qilinadi. Bu esa ta'lim oluvchilarning mustaqil fikrlashiga va nutq madaniyatining rivojlanishiga yordam beradi. Quyida "Davra suhbat" metodining tuzilmasi keltirilgan:

Ushbu metod orqali ta'lim oluvchilar berilgan mavzu bo'yicha o'zlarining bilimlarini qisqa va aniq ifoda eta oladilar. Bundan tashqari ushbu metod orqali ta'lim oluvchilarni muayyan mavzu bo'yicha baholash imkoniyati yaratiladi. Bunda ta'lim oluvchilar o'zlari bergan savollariga guruhdagi boshqa ta'lim

1 Tabiat bilan tanishtirish metodikasi, O'quv-uslubiy majmua. Toshkent-2018, 12-bet

2 Tabiat bilan tanishtirish metodikasi, O'quv-uslubiy majmua. Toshkent-2018, 14-bet



oluvchilar bergan javoblarni baholashlari va ta'lim beruvchi ham ta'lim oluvchilarni ob'yektiv baholashi mumkin bo'ladi.

### 1-jadval

#### Kichik yoshdagi bolalarda atrof-muhitni asrab-avaylashda "T-sxema" metodining qiyosiy tahlili

+ (ha, ijobiy)	- (yo'q, salbiy)
Atrof-muhitni asrab-avaylashda mumkin bo'lgan holatlar: 1. Suvdan oqilona foydalanish; 2. Daraxtlar, ekinlar ekish; 3. Tabiat jonzotlariga shafqatli 4. munosabatda bo'lish; 5. Atrof-muhitni ozoda saqlash; 6. Ekologik ta'lim olish.	Atrof-muhitni asrab-avaylashda mumkin bo'lmagan holatlar: 1. Suvni isrof qilish; 2. Jonjotlarni qiynash va ziyon etkazish; 3. Ekinlarni payhon qilish; 4. Daraxt-nihollarni sindirish; 5. Ekologiyaga ziyon etkazish.

3-4 yoshli bolalarda atrof-muhitni asrab-avaylashda "T-sxema" metodining qollanish yo'riqnomasi.<sup>2</sup>

#### "T - SXEMA" METODI

"T" sxema asosida mustaqil faoliyatni tashkil etish.

Tarbiyachi: yangi mavzuni bayon qiladi va tarbiyalanuvchilarga ikki qarama-qarshi jihat haqida boshlang'ich ma'lumotlar beradi;

- topshiriqni yakka tartibda bajarishlarini so'raydi va 10 daqiqa vaqt ajratadi;

- vaqt tugagach tarbiyalanuvchilardan izohlarsiz o'z fikr-mulohazalarini o'qib eshittirishlarini aytadi;

- barcha xulosalar tinglangach, umumlashtiriladi va yakuniy xulosa shakllantiriladi.

Tinglovchi: mavzuni diqqat bilan tinglaydi;

- o'zi uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni daftoriga qayd qilib boradi;

- berilgan sxema asosida tushunchaga nisbatan o'zining mustaqil fikrini bildiradi;

- yakuniy xulosasi bilan o'tirganlarni tanishtiradi;

- reglamentga rioya qiladi. Kichik yoshli bolalarda atrof-muhitni asrab-avaylashda bu interfaol metod samarasi kattaligi bilan qolgan metodlardan ajralib turadi.

Kichik yoshdagi bolalarda atrof-muhitni asrab-avaylash ko'nikmalarini shakllantirishda xilma-xil metod va usullardan foydalanishning sababi bolalarning yoshi, psixologiyasi, atrof-muhit bilan turli darajada tanish bo'lganligidir. Bundan tashqari atrof-muhit bilan tanishtiriladigan ob'ektlarning mazmuni, hajmi, xususiyati va maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalarning bilish qobiliyatlari ham hisobga olinadi. Shuni unutmaslik kerakki, mavjud metodlar bir-biri bilan uzviy bog'langan, biri-birini to'ldiradi, biri-biriga xizmat qiladi.

#### TADQIQOT NATIJASI

O'tkazilgan tadqiqot natijalarimizga ko'ra, bu borada amalga oshirilayotgan amaliy ishlar bilan bir qatorda, ayniqsa, yosh avlod bilan tegishli ma'naviy-ma'rifiy ishlarni yo'lga qo'yish zarurligi, shu maqsadda mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimida kichik yoshli bolalarda atrof-muhitni asrab-avaylash bo'yicha qo'shimcha tadbirlarni kuzatdik va ishtirok etdik. Tashabbus O'zbekistondagi loyihalari koordinatori ofisi, Maktabgacha ta'lim vazirligi, Advisory Britaniya-O'zbekiston barqaror rivojlanish kompaniyasi va "Hashar haftaligi" ijtimoiy loyihasi bilan hamkorlikda amalga oshirildi. Loyiha doirasida yaratilgan yangi o'qitish metodikasi va didaktik o'yinni sinovdan o'tkazish rejalashtirilgan, buning natijasida bolalar chiqindilarni to'g'ri saralash asoslarini o'rganadilar, bu esa o'z navbatida ularda atrof-dagi dunyoga muhabbat va unga g'amxo'rlik qilish tuyg'usini uyg'otadi.

Dasturni tayyorlash uchun mutaxassislardan iborat maxsus ishchi guruhi tuzildi, uning tarkibiga professional psixologlar, o'qituvchilar, metodistlar, illyustratorlar kirdi. Tayyorarlik guruhiga dunyoning to'rtta davlatidan kelgan bolalar kiradi. Rivojlanishning asosiy maqsadi bolalarni chiqindilar bilan to'g'ri ishlashni o'rgatishdir. Asosiy elementi ekologik toza materialdan tayyorlangan va qayta ishlanadigan va qayta ishlanmaydigan

chiqindilar uchun toksik bo'lmagan bo'yoq bilan qoplangan maxsus rangli qutilardir. To'plam shuningdek, hayotda eng ko'p uchraydigan chiqindilarni tasvirlaydigan 34 ta kartani o'z ichiga oladi.


Bu loyiha nafaqat o'yin usulini nazarda tutadi. Dasturni ishlab chiqishda refleklarni rivojlantirish orqali bolaning xulq-atvorini shakllantirishni ta'minlaydigan xatti-harakatlar psixologiyasining tamoyillari hisobga olingan. Buning uchun mutaxassislar bolalarga har bir turdagi chiqindilarning o'z "uyi" - u yoki bu rangdagi axlat qutisi borligi batafsil tushuntiriladigan mexanizm tuzdilar. Mini-ma'ruzalar formatidagi rivojlanishning birinchi bosqichida maktabgacha yoshdagi bolalar atrof-dagi dunyo va sayyoramizning atrof-olam va tabiat, ekologik muammolari haqida tasavvurga ega bo'ladilar.

O'yin bosqichlarida, eng muhimi, bolalarga o'yin harakatlarini qanday qilib haqiqatga aylantirishni o'rgatish bo'ladi. Bu bog'chalar hududiga tegishli axlat qutilarini o'rnatish orqali amalga oshiriladi. O'yindan keyin bolalar axlatni mustaqil ravishda saralash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bundan tashqari, ekspertlarning ta'kidlashicha, ushbu mahoratni shakllantirishdan tashqari, bolalarga axlat hech qayerga yo'qolib ketmasligi va shunchaki ko'chaga yoki mashina oynasidan tashqariga tashlab bo'lmasligini yetkazish muhimligi to'g'risida amaliy ko'rsatmalar orqali ko'nikmalar shakllantirildi.<sup>3</sup>

**1-rasmda** keltirilgan "Kichik guruhlarda ishlash" metodida so'rovnoma o'tkazildi. So'rovnoma o'tkazish jarayonida "Bolalarning atrof-muhitni asrab-avaylash jarayoni rivojlanishi uchun qaysi usullarni tanlashimiz lozim?" degan savolimizga 49,2% kishi aynan manashu metodni tanlagan. Bu metodni olib borish texnologiyasi bilan tanishtirib o'tamiz.

**2-rasmda** keltirilgan "Davra suhbat" metodida so'rovnoma o'tkazildi. So'rovnoma o'tkazish jarayonida "Bolalarning atrof-muhitni asrab-avaylash jarayoni rivojlanishi uchun qaysi usullarni tanlashimiz lozim?" degan savolimizga 44,5 % kishi aynan mana shu metodni tanlagan. Bu metodni olib borish texnologiyasi bilan tanishtirib o'tamiz.

**1-jadvalda** keltirilgan "T-sxema" metodida so'rovnoma o'tkazildi. So'rovnoma o'tkazish jarayonida "Bolalarning atrof-muhitni asrab-avaylash jarayoni rivojlanishi uchun tarbiyachilar qaysi usullarni tanlashi lozim?" degan savolimizga 80,1 % tarbiyachi aynan mana shu metodni tanlagan. Bu metodni olib borish texnologiyasi bilan tanishtirib o'tamiz. Tadqiqotlarim natijasida o'rganilgan "T-sxema" metodi orqali quyidagicha taxliliy xulosaga ega bo'ldim.




#### 3-rasm. Atrof-muhitni asrab-avaylash ko'nikmalarini shakllantirishda bolani rag'batlantirishning psixologiyaga ta'siri diagrammasi.

1-savol. "Kichik yoshdagi bolalarni atrof-muhitni asrab-avaylash ko'nikmalarini shakllantirishda nimaga e'tibor berish kerak" degan savolimizga 24,4% kishi bolaning yoshiga, 31,4% kishi ruhiy holatiga, 46,5% kishi qiziqishlariga, deb javob bergan. Jan Plajening ta'kidlashicha, bolaga tarbiya berishda, eng avallo, uning qiziqishlarini inobatga olish lozim.

2 Tabiat bilan tanishtirish metodikasi, O'quv-uslubiy majmua. Toshkent-2018, 18-19-bet

3 Ekologik ta'lim bog'chada. 25-yanvar 2021



**4-rasm. Maktabgacha ta'lim tashkilotida ota-ona hamkorligi tahlili natijasi (foizda)**

Siz faoliyat yuritayotgan MTTda tarbiyachilar va ota-onalar hamkorligi yo'lga qo'yilganmi?, degan savolimizga 95.3% kishi ha deb, 3.5% kishi yo'q deb, 1.2% kishi bilmayman, deb javob berdi. MTTda tarbiyachi va ota-onalarning hamkorligini yanada rivojlantirish maqsadga muvofiq bo'ladi, chunki kichik yoshdagi bolalarni atrof-muhitni asrab-avaylash ko'nikmalarini shakllantirishda ota-onaning roli beqiyos. Shu maqsadida MTT tarbiyachilari bilan ota-onalarning hamkorligi uzviy bo'lishi kerak.

O'zlashtirishi past bo'lgan tengdoshlari orasida munosabati yaxshi bo'lmagan, atrof-muhitni ifloslantiradigan, yomon munosabatda bo'ladigan bolalarga qanday qaraysiz? degan savolimizga 69.8% bu noto'g'ri deb, 26.7% kishi ota-onasini ogohlantiraman deb, 3,5 % kishi esa shu yo'l bilan bolani qiziqtiraman degan variantni tanlashgan.

O'zlashtirishda orqada qoladigan bolalar bilan ishlash jarayonida tarbiyachi mutaxassislar kichik yoshdan boshlab atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish kerakligini ushbu tadqiqotimizda ta'kidlab o'tildi. Loyiha ishining emperik qismidan olingan ilmiy farazga asoslanib, biz tadqiqotimizning keyingi

bosqichini SWOT analiz orqali batafsil ochib berishga harakat qildik.

#### **S-afzalliklari**

1. Maktabgacha kichik yoshdagi bolalarda atrof-muhitni asrab-avaylash ko'nikmalarini shakllanadi;
2. Bola jamoa fikri va bahsi bilan hisoblashsa, o'zining jamoa uchun zaruriyatini sezadi;
3. Bolada emotsional yetuklik - emotsional barqarorlik namoyon bo'ladi;
4. O'qishga bo'lgan ehtiyoji va qiziqishi ortadi;
5. Bola shaxsida o'ziga bo'lgan ishonchi rivojlanadi.

#### **W-kamchiliklari**


1. Tarbiyachilarning atrof-muhitni asrab-avaylash va uni turli yosh bosqichlarida qanday yo'l-yo'riqlar bilan olib borish haqida to'liq bilimga ega emasligi;
2. Yetakchi mutaxassislar yetishmasligi;
3. Didaktik mashg'ulotlarning soni kamligi;
5. Ota-onalar bilan hamkorlik muammosi;
6. Infratuzilma (texnik resurs) yetishmasligi.

#### **O-imkoniyatlar**

1. Kichik yoshdan ilk atrof-muhitni asrashga oid ko'nikmalar shakllanadi;
2. Bilish orqali dunyoqarashi rivojlanishi imkoniyatini beradi;
3. Hamkorlikda ishlash orqali ota-ona hamda tarbiyachi pedagoglar bolaning atrof-muhit, olamni asrashdan xabardor bo'lishi;
4. Bola shaxsi jamoaga, muhitga erkin adaptatsiya qilish imkonini beradi.

#### **T- tahdidlar**

1. Tarbiyachi va hamkorlikda ishlamaslik natijasida bolalarda ekologik va ijtimoiylashuvning kechikishi;
2. Bolalarda bilish jarayonlarini rivojlantirishda zamonaviy metodlardan foydalana olamaslik;
3. Bolalarning ekologiyaning buzilishiga, atrof-muhit ifloslanishiga bepisandlarcha qarashi;
4. 3-4 yoshdan boshlab bilimlarning to'liq berilmasligi maktab ta'limiga o'tishda salbiy ko'rinishlarga olib kelishi.



**5-rasm. Kichik yoshdagi bolalarda atrof-muhitni asrab-avaylash ko'nikmalarini shakllantirish muammolari va yechimlarining SWOT tahlili metodi**

#### **TADQIQOT MUHOKAMASI**

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida atrof-muhit bilan yaqindan tanishtirmasdan turib, bolalarni jismonan rivojlantirish, nutq va tafakkurlarini boyitish vazifalarini amalga oshirish mumkin emas. Bolalarni har tomonlama rivojlantirish, ularni barkamol qilib o'stirish tug'ilgan kundan boshlab amalga oshirilishi zarur.

Bugungi kunda mustaqil O'zbekistonda olib borilayotgan ta'lim sohasidagi islohotlarning bosh maqsadi aynan bolalarga

qaratilgan. Yani, o'sib kelayotgan yosh avlod, mustaqil O'zbekistonimizning kelajagini, taraqqiyotini kafolatlaydi. Mana shu ustuvor yo'nalishlardan kelib chiqqan holda, bolalar bog'chalarida farzandlarimizga beriladigan har qanday bilim, ularda butun dunyoni ekologik va atrof-muhitni asrab-avaylashga o'rgatish orqali Vatanga sadoqat, o'z o'lkasini sevish, Vatan bilan g'ururlanish ruhini tarbiyalash lozim bo'ladi.

3-4 yoshli bolalar har kuni ko'plab savollarni beradi. Nima uchun yomg'ir yog'adi, nega shamol esib turadi, nima uchun quyosh porlashi mumkin. Tabiiy hodisalarning mohiyatini, tabiat qonunlarini kichik yoshdagi bolalarga tushuntirish oson ish emas. Albatta, aytish yoki ko'rsatib berishga harakat qilish va eksperiment o'tkazish mumkin. Bunda bolalar bog'chada "tajriba" burchagida ishlaydilar.

"Ilm-fan va tabiat markazida, tajriba sinov maydonchasida o'tkazilayotgan tajribalar bolalarda qiziqish uyg'otadi va ularni yangi ixtirolar qilishga undaydi. Bu markaz bolalarning tabiat va undagi hodisalarni bilishi uchun eng katta imkoniyat markazi hamdir. Markaz faoliyati to'g'ri tashkil etilsa bolalar atrof-olam va tabiat haqidagi bilimlarning 90% ini o'zlashtiradi. **Shunday ekan kichik yoshdagi bolalarda atrof-muhit bilan tanishtirish metodikasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat bo'lishi lozim:**

- bolalarni o'z o'lkasini sevishtirishga o'rgatish;
- atrof-muhit bilan tanishtirish orqali bolalarda ilmiy dunyoqarashni rivojlantirish;
- bolalarda kuzatuvchanlikni rivojlantirish;
- o'zining, tengdoshlari va kattalarning mehnatini qadrlashga o'rgatish;
- atrof-muhit orqali psixik jarayonlarni rivojlantirish (sezgilar, idrok, xotira, xayol, tasavvur, nutq, diqqat);
- bolalarning hissiyatini, irodasini rivojlantirish, atrof-muhit in'om etgan ne'matlarni avaylab-asrashga o'rgatish.

Darhaqiqat, atrof-muhitning o'z qonuniyatlari borki, biz uning sodir bo'lish sabablarini bilmasdan, mohiyatini tushunmasdan turib yoshlarga atrof-muhit haqida to'g'ri tushuncha bera olmaymiz.

Bog'cha sharoitida kichik yoshdagi bolalarda atrof-muhitni asrab-avaylash ko'nikmalarini shakllantirish yil fasllariga bog'lab amalga oshiriladi. Shunday ekan, atrof-muhitning bir manzarasini yilning to'rt faslida kuzatish jarayonida bolalarga buning hosil bo'lish sabablari, nima uchun kuz, qish, bahor va yoz bo'lishini aytib berish zarur. Yuqoridagi vazifalardan kelib chiqqan holda, bolalarni har tomonlama tarbiyalashda atrof-muhit orqali aqliy, axloqiy, estetik, jismoniy, mehnat, ekologik, iqtisodiy tarbiya berish lozim.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Loyiha ishi natijalari quyidagi ilmiy-metodik tavsiyalarni taqdim etishga imkon berdi, bular quyidagicha:

1. Kichik yoshdagi bolalarda ekologik madaniyatni shakllantirish;
2. Milliy va umumbashariy qadriyatlarga tayanish va ta'lim jarayonida ularning samarali imkoniyatlaridan foydalanish;
3. Ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanishning samaradorligini ta'minlash;
4. Kichik yoshdagi bolalarda atrof-muhitni asrab-avaylash ko'nikmalarini shakllantirishning uzluksiz ta'lim tizimini yaratish;
5. Kichik yoshdagi bolalarda atrof-muhitni asrab-avaylash ko'nikmalarini shakllantirishning umumbashariy ahamiyatini hisobga olgan holda, uning umummilliy ilmiy-metodik ta'minotini yaratish;
6. Bolalar ekologik madaniyatini shakllantirishda ajdodlarimiz qoldirgan ulkan ma'naviy meros, asrlar davomida to'plagan milliy qadriyatlar, urf-odatlar va an'analardan ta'lim jarayonida foydalanishga erishish;
7. Tashkilotlar bilan hamkorlikda ekologik tadbirlar, ko'rgazmali qurollar majmui va Respublika miqyosida ommaviy tadbirlar, bayramlar ssenariylarini yaratish va ko'rik tanlovlarni muntazam o'tkazish;
8. Bolalar o'rtasida "Yosh ekolog", "Ekolog - nazoratchi", "Atrof-muhitni sevuvchilar" klub va jamiyatlarini tashkil etish va bir qancha tavsiyalar berib o'tildi.

Bolada atrof-muhitni asrab-avaylash bilan ekologik madaniyatini shakllantirish mexanizmi yaratilib, quyidagi zanjir ekologik ong - ekologik bilim - ekotushuncha - ekotasavvur - ekomunosabat - ekofaoliyat - ekonatiya - ekomadaniyat tarzida ifodalandi. Kichik yoshdagi bolalarda atrof-muhitni asrab-avaylash ko'nikmalarini shakllantirishning innovatsion metodlaridan foydalanish zarurligi tajriba tasdiqladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, kichik yoshdagi bolalarda atrof-muhitni asrab-avaylash ko'nikmalarini shakllantirishda qiyosiy tahlil, pedagogik kuzatuv, anketa so'rovlar, tajriba-sinov kabi metodlar, ma'ruza, seminar, laboratoriya, amaliy mashg'ulot, sayohatlar (ekskursiya), intellektual o'yinlar; kompyuter, elektron darslik va internet vositalaridan keng foydalanish yuqori va samarali natijalarini ko'rsatadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - T.: O'zbekiston, 2017.
2. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. Toshkent 2020-y 23-sentyabr.
3. O'zbekiston Respublikasining «Bolalarni ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to'g'risida»gi Qonuni. 2016.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-son Farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 22-yanvardagi «2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini «Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili»da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to'g'risida»gi PF-5308 sonli Farmoni.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 30-sentyabrdagi «O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi PQ-3305-sonli Qarori.
7. «Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari» T.: 2018.
8. "Ilk qadam" davlat dasturi-T-2018
9. Edited by Mary Rafferty «Brief review of approaches to oral language development»-USA, 2014.
10. Ergashev A. Umumiy ekologiya. - T.: O'zbekiston, 2003. - 463 b.
11. Yusupova P.A. Ekologik tarbiya. Atrof-muhit bilan tanishtirishning yo'l va shakllari. // Maktabgacha tarbiya. - T.: 1992. - 63 b.
12. Luke Legner. Kids' screen time: How much is too much? <https://www.osfhealthcare.org/blog/kids-screen-time-how-much-is-too-much/>.



## 4 -5 YOSHLI BOLALARNING IJTIMOY HISSIY RIVOJLANISH KOMPETENSIYASINING QIYOSIY TAHLILI

**Odilova Shodiyaxon**

*Qo'qon universiteti Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabasi*

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATSIYA
<p><b>Qabul qilindi:</b> 24-may 2022-yil <b>Tasdiqlandi:</b> 26-may 2022-yil <b>Jurnal soni:</b> 4 <b>Maqola raqami:</b> 3 <b>DOI:</b> <a href="https://doi.org/10.54613/001218">https://doi.org/10.54613/001218</a></p> <p><b>KALIT SO'ZLAR</b> Hissiy rivojlanish, kompetensiya, bilish jarayonlari, ijodiy fikrlash, tarbiya jarayoni, emotsional holatlar, qiyosiy taxlil, "Men" konsepsiyasi.</p>	<p>Maqolada 4-5 yoshli bolalarning bilish jarayonlari, hissiy-emotsional holati va ularni rivojlanish kompetensiyasining qiyosiy tahlili batafsil yoritilgan. Bunda o'rta yoshdagi bolalarning bilish darajasiga ta'sir qiluvchi ko'plab hissiy jarayonlar va ularning ruhiyatida yuz beradigan o'zgarishlar xorij tajribalari asosida tadqiq etilib, tarbiyalanuvchilarni har tomonlama sog'lom, intellektual salohiyatli, ijtimoiy qilib tarbiyalashning o'ziga xos xususiyatlari o'rganilgan. Shuningdek, maxsus metodlar orqali maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalarning shaxsi va ularning ijtimoiylashuv jarayonlaridagi munosabatlarini tashxis qilishga o'rgatish hamda ko'nikma va malakalarini shakllantirish masalalari ko'rib chiqilgan.</p>

### KIRISH

Mamlakatimizda o'sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama yetuk, barkamol shaxs qilib tarbiyalash, ta'lim tizimini samarali tashkil etishdek masuliyatli vazifa maktabgacha ta'lim muassasalari zimmasidadir. Respublikamiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 30-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqaruvini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ 3955-sonli qaroriga ko'ra maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqildi. Ushbu konsepsiya maktabgacha ta'lim sohasidagi normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish, bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, bolalarning sifatli maktabgacha ta'lim bilan qamrovini amalga oshirish, undan teng foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash, mazkur sohada davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish, maktabgacha ta'lim tizimiga innovatsiyalarni, ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishni o'z ichiga olgan.

Ushbu konsepsiya maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirishga yo'naltirilgan dasturlar va kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun asos bo'ladi. Maktabgacha ta'limning maqsadi – bolalarni maktabdagi o'qishga tayyorlash, bolani sog'lom hamda rivojlangan, mustaqil shaxs bo'lib shakllantirish, qobiliyatlarini ochib berish, o'qishga, tizimli ta'limga bo'lgan ishtiyoqini tarbiyalashdir. Yurtboshimiz tomonidan 2017-yil 30-sentabrda "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari" yuzasida PF-5198 sonli Farmonida Maktabgacha ta'lim vazirligini tashkil etish to'g'risidagi qarori maktabgacha ta'lim tizimi uchun juda ko'plab imkoniyatlar yaratdi<sup>1</sup>. O'tgan yillarga nazar tashlasak, bolalarni maktabgacha ta'lim tizimiga qamrab olish uncha yuqori ko'rsatkichlarni ko'rsatmagan. Bugungi kunga kelib esa, bolalarni maktabgacha ta'lim tashkilotlariga qamrov darajasi 67 % yetgani bu sohada amalga oshirilayotgan ishlarning natijasidir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari Davlat talablari asosida faoliyat olib boradi. Davlat talablarining asosiy maqsadi - mamlakatda o'tkazilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni, xorijiy mamlakatlar ilg'or tajribasi hamda ilm-fan yutuqlari va zamonaviy information kommunikativ texnologiyalarni inobatga olgan holda maktabgacha ta'lim tizimida manan mukammal va intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalashdir.<sup>2</sup> Davlat talablarida tug'ilgandan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarning

har tomonlama rivojlanish jarayonlarini nazarda tutib, 5 ta sohaga bo'lingan:

- Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi;
- Ijtimoiy -hissiy rivojlanish;
- Nutq, muloqot, o'qish, va yozish malakalari;
- Bilish jarayonini rivojlanishi;

Maktabgacha davrda axloqiy tushunchalar borgan sari qat'iylasha boradi. Axloqiy tushunchalar manbai sifatida ularning ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanayotgan kattalar, shuningdek, tengdoshlari ham bo'lishi mumkin. Axloqiy tajribalar, asosan, muloqot, taqlid qilish, jarayonida, kattalarning maqtoov va tanqidlari ta'sirida o'tadi hamda mustahkamlanadi. Bu baho va maqtoovlar bolaning muvaffaqiyatga erishishiga bo'lgan harakatlarining rivojlanishida muhim o'rin tutadi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI

Ushbu ta'lim tizimi borasida bir qator olimlar ilmiy izlanishlar olib borganlar. Jumladan, Shvetsiyalik psixolog Jan Piajening, Avstriyalik psixiatr, psixolog Z.Freyd, Sobiq Ittifoq olimi D.B.Elkonin nazariyalaridan keng foydalanildi. Xususan, Jan Piajening kognitiv rivojlanish nazariyasiga ko'ra quyidagi to'rt rivojlanish bosqichi tahlilini ko'rishimiz mumkin : 0 dan 2 yoshgacha bo'lgan sensorimotor davr; 2 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan operatsiyadan oldingi davr; 7 yoshdan 12 yoshgacha bo'lgan aniq operatsiyalar davri va 12 yoshdan boshlab rasmiy operatsiyalar davri.

#### 1) Sensomotor davr;

Bolaning boshlang'ich mashqlari oddiy reflekslar bo'lib, asta-sekin ba'zilar yo'q bo'lib ketadi, boshqalari o'zgarishsiz qoladi, boshqalari esa, katta va moslashuvchan harakat birliklariga birlashadi.

Birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi reaksiyalar haqida aytganda, birinchisi reflektor faoliyatidan o'z-o'zidan hosil bo'ladigan faoliyatga ko'proq ongli ravishda o'tadigan ibtidoiy reflekslarga asoslangan sensomotor sxemalarni takomillashtirishni o'z ichiga oladi. Masalan, bosh barmog'ini so'rib olgan va uni takrorlaydigan bola, unga bu tuyg'u yoqadi.

Ikkilamchi reaksiyalar tashqi hodisalar bilan mustahkamlangan harakatlarning takrorlanishiga bog'liq. Ya'ni, agar bola chayqalishni silkitganda shovqin paydo bo'lishini ko'rgan bo'lsa, uni qayta tinglash uchun yana silkitib qo'yishadi, avval ular buni sekin va ikkilanmasdan qilishadi.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2017-yil 30-sentabrdagi PF-5198 sonli "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni <https://lex.uz/docs/-3362886>

2 "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi/ [https://hozir.org/pars-\\_docs/refs/29/28397/28397.pdf](https://hozir.org/pars-_docs/refs/29/28397/28397.pdf)



Uchinchi darajali dumaloq reaksiyalarda bola yangi vaziyatlarni hal qilish uchun yangi xatti-harakatlar ketma-ketligini yaratish qobiliyatiga ega bo'ladi. Ya'ni, bola o'zi uchun qiziq bo'lgan harakatlarni takrorlaydi. Bunga misol qilib, u chayqalishni chayqaganida, uni ko'tarib, yerga urishdan ko'ra boshqacha eshittirishini kuzatadigan bola bo'lishi mumkin.

Ushbu bosqich oxirida bola allaqachon o'z harakatlaridan o'zini ozod qilishga imkon beradigan aqliy tasavvurlarga ega bo'lishga qodir va ular kechiktirilgan taqlidni rivojlantiradilar, bu model mavjud bo'lmasa ham paydo bo'ladi.

### **2) Operatsiyadan oldingi davr;**

Ob'ektlar va hodisalar o'rnini so'zlar va raqamlar egallaydi. Bundan tashqari, ilgari jismoniy ravishda bajarishingiz kerak bo'lgan xatti-harakatlar endi ruhiy ravishda, ichki belgilar orqali amalga oshirilishi mumkin.

Ushbu bosqichda bola hali ramziy muammolarni hal qilish qobiliyatiga ega emas va dunyoni tushunishga urinishlarida turli xil bo'shliqlar va chalkashliklar mavjud.

Fikrlashda muammolarning idrok yetuvchi tomonlari, yagona jihatga (markazlashtirishga) e'tibor berish tendentsiyasi, o'zgarishligi va konvertatsiya qilishni amalga oshira olmasligi va transduktiv fikrlash yordamida ustunlik davom etmoqda (bola o'ziga xos narsadan boshqasiga o'tadi).

### **3) Aniq operatsiyalar davri;**

Ushbu bosqichda yuzaga keladigan asosiy yangilik operatsiyalardan foydalanishga asoslangan operatsion fikrlashning ko'rinishi. Boshqacha aytganda, ichki tuzilgan harakatlar (tashqi va kuzatiladigan sensorimotorlardan farqli o'laroq), butun tuzilishga birlashtirilgan, qaytariladigan orqaga qaytarilishni tushunish operatsiyani asosiy xususiyatlaridan biridir. U ikkita qoidaga asoslanadi: investitsiya va kompensatsiya.

Investitsiya bir yo'nalishda sodir bo'ladigan o'zgarishlarni teskari yo'nalishda ham amalga oshirilishini ta'minlaydi va kompensatsiya - bu transformatsiyani bekor qiladigan yoki o'rnini qoplaydigan yangi operatsiyani bajaradi.

Ushbu bosqichda bolalar allaqachon o'zlarini egallagan bilim qismi bilan aqliy operatsiyalarni bajarishga qodir, ya'ni qo'shish, ayirish, tartiblash va teskari o'zgartirish kabi matematik operatsiyalarni bajarishlari mumkin. Ushbu aqliy operatsiyalar operatsiyadan oldingi bosqichda mumkin bo'lmagan mantiqiy muammolarni hal qilishga imkon beradi.

Mantiqiy-matematik operatsiyalarga misol sifatida biz saqlanish, tasniflash, ketma-ketlik va son tushunchasini topamiz.

Tabiatni muhofaza qilish, ba'zi bir elementlarda ba'zi bir o'zgarishlarning sodir bo'lishiga qaramay, ikki element o'rtasidagi miqdoriy munosabatlar o'zgarishsiz qolishini va saqlanib qolishini tushunishdan iborat. Misol: bola plastilin to'pi yumaloq va cho'zilgan shaklda bir xil bo'lib qolishini bilib oladi. U cho'zilganligi uchun emas, balki yumaloq shakldan kattaroqdir.

### **4) Rasmiy operatsiyalar davri;**

Bunga abstraktsiyaning yuqori darajasini talab qiladigan va aniq yoki moddiy ob'ektlarni talab qilmaydigan barcha operatsiyalar kiradi. Misollar sifatida biz voqealar yoki munosabatlar bilan kurashish qobiliyati haqida gapirishimiz mumkin.

Amerikalik olimlar G. Amalin Dotti va S. Viktoriyalar "Maktabgacha ta'limda bolalarning ijtimoiy munosabatlarga kirishishdagi emotsiyalarning o'rni" kitobida bolalarning ijtimoiy-hissiy rivojlanishiga batafsil to'xtalib o'tganligini ko'rishimiz mumkin. Bola kattalar va tengdoshlar bilan aloqaga kirishishi natijasida u kishilarni angelaydi, ijobiy va salbiy munosabatlar bilan tanishadi.

Mashhur rus pedagogi Lesgaftning fikricha, insonning bog'cha yoshidagi davr shunday bir bosqichki, bu davrda bolalarda xarakter- xislatlarning namunalari shakllanib, axloqiy xarakter asoslari yuzaga keladi. Bolaning qiziquvchanlik holatini

Lesgaft axloqiy me'yorlarga solib o'rgangan. Bundan tashqari rus olimlarning turli qo'llanma, tadqiqot ishlarini internet saytlari hamda kutubxonalardan izlash orqali turli qiziqarli nazariy, amaliy ma'lumotlarni bilib olsak bo'ladi. Jumladan, rossiyalik X. Shinchenkova professor olimi maktabgacha yoshdagi 4-5 yoshli bolalarni o'rganish orqali ularning hissiy jarayonlarini amaliy tadqiqotlarida batafsil yoritganligini o'qish va natijalari bilan tanishib chiqish orgali o'rgandik. Bu esa bizning tanlagan mavzumiz yuzasidan juda ham katta manbalarni o'rganish tufayli to'laroq yoritishimizga yaxshi imkon tug'dirdi.

O'zbek olimlari ichidan esa Z. T. Nishonova, E. G'oziyev, M. Xolnazarovalardan tashqari biz tanlagan mavzuda tadqiqiy ishlarga qo'l urilmagan ekan. M. Xolnazarovanning "Yosh davrlari psixologiyasi" o'quv darsligida 4-5 yoshli bolalarning bilish jarayonlari, jumladan ulardagi hissiy jarayonlari va ularni rivojlanishi haqida bir qator nazariy ma'lumotlar berilganligini ko'rishimiz mumkin.

Z.T.Nishonova, N.G.Kamilova, D.U.Abdullayeva, M.X.Xolnazarovalarning "Rivojlanish psixologiyasi pedagogik psixologiya" kitobida bu yoshda bolalarning ijtimoiy hissiy rivojlanish jarayonida yuz beradigan inqirozlarni o'rgangan. Unga ko'ra, maktabgacha yoshda bola o'zini jismoniy alohida mustaqil individ sifatida anglashdan, o'z hissiyot va kechinmalarini anglashgacha bo'lgan yo'lni bosib o'tadi<sup>3</sup>.

O'z uyida yaqinlariga nisbatan quyidagi xulq-atvorni namoyon etadi: bolaga gapirganda javob reaksiyasi orasida tanaffusning paydo bo'lishi, ota-ona tomonidan buyurilgan ishni bajarishda vaqtni cho'zish, quloq solmaslik, qaysarlik, talabchanlik, injiqlik, maqtovni kutish kabi xulq-atvor shakllarini namoyon qiladi. Professor Y. Nurumbekovanning maktabgacha ta'lim va uni O'zbekistonda yangi istiqbollari haqidagi ko'plab tadqiqiy ishlari ham biz tanlagan mavzuga doir juda ko'p ma'lumotlarni taqdim etishiga guvoh bo'ldik. Yani, yosh avlodni har tomonlama yuksak saviyali va sog'lom qilib tarbiyalashdagi eng muhim ta'lim muassasasidan biri bu maktabgacha ta'lim ekanligi uning tadqiqotlarida yaqqol namoyon bo'lgan.

D. To'ramuhammedov va A. Abdullayevlarning "Bolalarda sog'lom tarbiya va ruhiyat" risolasida ham bolalarning rivojlanishida ijtimoiy-hissiy munosabatlar tahlili haqida juda ko'plab foydali ma'lumotlarga duch keldik. Eng asosiysi, bu kabi fikrlar biz tanlagan mavzu uchun juda ham kompetent bo'la oldi. Shuningdek, boshqa ko'plab internet manbalari orqali to'plangan ma'lumotlar orqali tadqiqotimizning metodologiyasiga ham o'ziga xos usullar bilan yondoshgan holda amalga oshirib, tahlil qildik va natijalarni keltirib o'tdik. O'ylaymizki, biz olib borgan mavzudagi tajriba-sinovlar kelgusida yana ham to'ldirib mukammal holga keltiriladi.

### **TADQIQOT METADOLOGİYASI**

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiylashuvi va emotsional rivojlanishini qiyosiy tahlil qilishda turli xil zamonaviy metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun maktabgacha ta'lim tashkiloti xodimlari va tarbiyalanuvchilari bilan ijtimoiy psixologik so'rovnoma o'tkazildi. Shuningdek, SWOT tahlili yordamida zamonaviy ta'lim-tarbiya jarayonidagi muhim bo'lgan bolaning ijtimoiy-hissiy rivojlanishi afzalliklari va kamchiliklari, imkoniyatlari hamda to'siqlarini tahlil qilishga erishdik.

Ushbu metodlar yordamida bola jamoa fikri va bahsi bilan hisoblashishi, o'zining jamoa uchun zaruriyatini sezishi, u bilan g'ururlanishi, umumiy hayotning yoqimli va quvonchli bo'lishi uchun intilishi, bu jamoaning yetarli darajada shakllanganligidan dalolat beradi. Bola muassasaga kelishi bilan bolalar jamoasining a'zosi bo'lib qoladi, u boshqa bolalar bilan o'ynashi, mehnat qilishi, kelishishi kerak bo'lsa yon bosishi o'rganib oladi. Tarbiyachi bunda har bir bolaning hissiy - ijtimoiy qobiliyatini alohida baholab borishi kerak.

3 Z.T.Nishanova, N.G.Kamilova, D.U.Abdullayeva, M.X.Xolnazarova "Rivojlanish psixologiyasi pedagogik psixologiya" kitobii Toshkent-2018

Bog'cha yoshidagi bolalar shaxsining shakllanishiga ko'ra, bu davrni 3 bosqichga ajratish mumkin:


– birinchi davr – 3-4 yosh oralig'ida bo'lib, emotsional jihatdan o'z-o'zini boshqarishning mustahkamlanishi bilan bog'liqdir;

– ikkinchi davr – 4-5 yoshni tashkil qilib, axloqiy o'z-o'zini boshqara olish bilan bog'liq;

– uchinchi davr esa, shaxsiy ishchanlik va tadbirkorlik xususiyatlarini shakllanishi bilan tavsiflanadi.

Maktabgacha davrda axloqiy tushunchalar borgan sari qa'tiytash boradi. Axloqiy tushunchalar manbai sifatida ularning ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanayotgan kattalar, shuningdek, tengdoshlari ham bo'lishi mumkin. Axloqiy tajribalar asosan muloqot, taqlid qilish, jarayonida, kattalarning maqto'v va tanqidlari ta'sirida o'tadi hamda mustahkamlanadi. Bu baho va maqto'vlar bolaning muvaffaqiyatga erishishiga bo'lgan harakatlarining rivojlanishida muhim o'rin tutadi.

4-5 yoshli bolalar oilada uy ishlariga ota-onasiga ko'maklashishi lozim. Uy mehnatida ishtirok etish orqali bolada saramjonlik, mehnatsevarlik, estetik did, ma'suliyatlilik sifatleri shakllana boshlaydi. Bolalar o'zlari o'ynaydigan, dam oladigan xonani yig'ishtirishi xonalarni bezatish, taom pishirishda ota-onasiga ko'maklashishi bolalarda kichik motivatsiyalarni shakllantiradi. Bolaning hissiy rivojlanishda ota-ona yaxshi o'rtoq bo'lishi, uni boshqalar bilan bir qatorda qo'yishi, farzandi to'g'risida g'amxo'rlik qilishi, shu bilan birga sen yolg'iz emassan, sen to'g'ringda boshqalar ham o'ylaydi, senga boshqalar ham g'amxo'rlik qiladi kabi so'zlarni aytishi ularning rivojlanishida ijobiy tasir ko'rsatadi. Ota-ona bolalarning xohishlarini inobatga olishi, qiziqishlarini o'rganishi, yutuqlarini baholab rag'batlantirib turishi kerak.



1-rasm. Didaktik o'yinlarning bolani rivojlantirishiga ko'ra ta'siri<sup>4</sup>

4 yoshga borib bola tengdoshini o'yin davomida sherik sifatida qabul qiladi. Bola o'z sherigiga oddiy takliflar, iltimoslar bilan murojaat qilishi mumkin. 5 yoshdagi bolalar tengdoshlarining qitmirlilik, tegajoqlik kabi salbiy jihatlarini baholay oladi. Bu yoshda tengdoshlari bilan muloqot qilish, birgalikda o'ynashga intilish shakllanib boradi. Kattalarning ta'siri ostida bolada vaziyatdan tashqari muloqotga kirishish kabi yangi shakllar yuzaga keladiki, bu sharoitda bola "odamlar dunyosiga" moslashadi. Bola insonni o'zi yashab turgan jamiyat vakili sifatida ang'lay boshlaydi, ijtimoiy hayotda o'zaro bog'liqlikni bila boshlaydi. Muloqot qilishning bunday shakli o'yinning shakllanishiga bog'liq, chunki o'ynash davrida bolalarni

insonlarning o'zaro munosabatlari, jamiyatdagi o'zlarini tutishlari qiziqtiradi.

Bolaning ijtimoiy rivojlanishida maqul o'yin turini tanlay olishimiz kerak. Tarbiyachi tomonidan didaktik o'yinlarning o'tkazilishi bolalarni aqliy o'sishiga, bilim egallash jarayonida zerikib qolmasligiga yordam beradi. So'rovnomaga o'tkazish jarayonida bolalarning hissiy rivojlanish jarayoni rivojlanishi uchun qanday o'yinlarni tanlashimiz lozim? degan savolimizga 53.5% kishi didaktik o'yinlarni tanlagan. Hozirgi "Moychechak guli" metodi orqali didaktik o'yinlarni foydali tomonlarini yoritib o'tamiz:

Bolani fikrlashga o'rgatish, uni aqliy mehnatga o'rgatish tarbiyachi oldida turgan oson ish emas. Tarbiyachi aqliy mehnat juda qiyin ekanligini unutmashligi kerak. Bolalarni aqliy mehnatga o'rgatish uchun bu ishni qiziqarli qilish kerak. Bunga erishish uchun turli usullar, qiziqarli metodlar bor. Didaktik o'yin bolalarning aqliy faoliyatini rivojlantirish uchun katta imkoniyatlarni yashiradi, chunki tarbiyachining o'zi ta'lim vazifasiga qarab ushbu o'yinlarning shartlarini o'zgartirishi mumkin. Yuqorida ko'rsatilgan moychechak guli metodida didaktik o'yinlarning ustunlik tomonlari yoritilgan.

Didaktik o'yinlar bolalar faolligini oshiradi, o'yin jarayonida bolani zeriktirib, charchatib qo'ymaydi. O'yinda birxillikni bartaraf etadi, bolalar bilim olishini osonlashtiradi. Shularni hisobga olib, tarbiyachi o'z mahoratini ko'rsatgan holda bolalarga didaktik o'yinlarni qiziqarli usullar orqali o'rgatishi lozim. 4-5 yoshli bolalar o'yin yakunidagi g'oliblik va mag'lublik hislarini o'zlarida his qiladi. Bu jarayonda bolalarda tushkunlikka tushish holatlari kuzatilishi mumkin. Shu kabi holatda tarbiyachi pedagoglar bolalar bilan shug'ullanib, ularni mag'lubiyatni yengishni o'rgatishi, g'oliblik sari ruhlantirishni bilishi lozim. Bu psixolog pedagoglardan juda katta mahorat talab qiladi.



2-rasm maktabgacha yosh bolada psixik yetuklik<sup>5</sup>

4-5 yoshli bolalarda psixik yetuklikni emotsional, intellektual, ijtimoiy kabi kichik ko'rinishlarga bo'lib o'rganamiz. Emotsional yetuklik-emotsional barqarorlikda namoyon bo'ladi. Intellektual yetuklik-idrokning differensiyasi, ixtiyoriy diqqatni to'plash, analitik tafakkurni charxlashda yuzaga chiqadi. Bunga misol qilib esa, bilim olishga qiziqish, og'zaki nutqqa ega bo'lish va boshqalarni kiritishimiz mumkin. Ijtimoiy yetuklik-bolalar bilan muloqotda bo'lish ehtiyoji, bolalar guruhiga qiziqish va ularni an'analarga bo'ysunishini o'z ichiga oladi.<sup>6</sup>

#### TADQIQOT NATIJASI

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bola shaxsini tadqiq qilish juda murakkab jarayondir, chunki ko'pgina shaxsni tadqiq qilish metodlari katta yoshli odamlarga mo'ljallangan va bolani o'z-o'zini tahlil qilish imkoniyatlariga asoslanmagan. Bundan tashqari psixodiagnostika yordamida o'rganaladigan shaxs

4 Muallif ishlanmasi

5 M.X.Xolnazarova, M.Q.Muxliboyeva "yosh va pedagogic psixologiya"

6 M.X.Xolnazarova, M.Q.Muxliboyeva "yosh va pedagogic psixologiya"



sifatlarini maktabgacha tarbiya yoshida to'liq shakllanmagan va beqarordir.


Shu rivojlanish sohaslaridan ijtimoiy-hissiy rivojlanish sohasiga alohida to'xtalib o'tamiz. "Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanish darajasiga qo'yilgan davlat talablari" asosida ishlab chiqilgan "Ilk qadam" dasturida ijtimoiy-hissiy rivojlanish sohasi bolalarni kattalar va tengdoshlar bilan muloqotchanligini shakllantirish va ularning atrofdegilarga nisbatan hissiy kechinmalari ifoda etish jarayonlariga qaratilgan. Bog'chaga borgan bolalar bilan bormagan bolalar o'rtasidagi juda katta farq mavjud.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida bola jamoa bilan tanishadi, do'stlar orttiradi, mashg'ulotlar davomida jamoa bo'lib ishlash, yutuqlardan zavqlanish, g'oliblik sari intilish hislari uyg'onadi. Bola 3 yoshga yetganida unda "Men" konsepsiyasi shakllanadi, individual ruhiy va jismoniy sifatlar uyg'onadi. Kattalar bilan muloqotchanlik darajasi ortadi va muloqotda sodda gaplarni qo'llaydi, kattalarga nisbatan taqlid qiladi. 4-5 yoshda turli xil aqliy-bilish jarayonlari ya'ni xotira, diqqat, idrok va boshqalar rivojlanishi bilan bir qatorda hissiy jarayonlar ham rivojlana boshlaydi.

Bu yoshning muhim xususiyati shundaki, ular ko'proq ongli va mustaqillik xususiyatiga ham ega bo'lishadi va irodaviy fazilatlar rivojlanadi. Bu esa ularning kelajagi uchun albatta foydalidir. Bu yoshdagi bolalar tengdoshlari bilan mehr - muhabbat, iliqlik va mamnunlik hissi bilan aloqada bo'ladi. Bola o'ziga yaqin bo'lgan kattalarning ruhiy holatini tushunadi, dardlariga hamdard bo'lishni o'rganadi.

Bolalar maqtovgacha ham, tanqidga ham juda ta'sirchan munosabatda bo'lishadi. Bu paytda bolalar hissiy otlarga o'ta beriluvchan bo'ladi. Chunki ular ayni shu davrda juda sezgir va zaif bo'lib qolishadi. Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, bu jarayonlar hozirgi davr bolalariga xos ajralib turadigan xususiyatlaridan biridir.

Bolalar teleekranlarda namoyish etilayotgan multfilm qahramonlariga taqlid qilishni boshlaydi. Salbiy qahramonlarga nisbatan nafrat uyg'onadi. Ularning hatti-harakatlarini atrofdegilarga solishtiradi. Bu turli xil qo'rquvlarni keltirib chiqarishi ham mumkin. Bola ertak qahramoni yoki xayoliy yirtqich hayvonlardan qo'rqishi mumkin. Bu jarayonlar ota-onalarni tashvishga solmasligi kerak. Sababi, bu davrdagi ajablanish, qo'rqish kabi hissiyotlar boshqa hissiy jarayonlarning rivojlanishiga, bu esa bolalar salbiy hislatlarni o'zlarida qo'llamasliklari hamda yomon va yaxshi fazilatlarini ajrata olish qobiliyatini namoyon qila boshlaydi.




3-rasm. Tarbiyachi-psixologlarning 4 va 5 yoshli bolalar bilan ishlash jarayonidagi eng ko'p foydalaniladigan metodlar

Maktabgacha ta'lim muassasalari xodimlari o'qitishda bolalarning psixologik va yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda hozirda qo'llanilayotgan, shaxsni shakllantirish va har tomonlama rivojlantirishga undaydigan dasturlar va rejalar asosida ish olib borishlari kerak bo'ladi. Shunday qilib, tarbiyachilar 4-5 yoshdagi bolalarning yosh xususiyatlarini

hisobga olgan holda bolani yangi tushuncha va qoidalar bilan tanishish uchun qulay va jozibali faoliyat turi bilan tanishtirib hissiy jarayonlariga ta'sir ko'rsatishsa maqsadga muvofiq bo'ladi.


4-5 yoshli bolalarning ijtimoiy-hissiy rivojlanish kompetensiyasini o'rganish jarayonini yanada takomillashtirish uchun turli xil zamonaviy metodlarni qo'llash maqsadga muvofiq.

MTT psixologlari 4-5 yoshli bolalar bilan ishlash jarayonida qanday metodlardan foydalanishadi? Ushbu savolga 89,5% respondent bola bilan ishlash jarayonida ko'p holatlarda diqqatni rivojlantiruvchi metodlardan foydalanishini ta'kidlab o'tishdi, 7% kishi xotirani rivojlantiruvchi metodlardan foydalanishini ta'kidladi, 3,5% oponentlarimiz maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlash uchun qo'lida maxsus metodlar yo'qligini ta'kidlashdi. Tadqiqotga ko'ra bolaning rivojlanishida maktabgacha ta'lim muassasalarida psixologlarning bilim va ko'nikma, malakalarini oshirishi hamda psixologlar amaliy ish qurollaridan ko'proq foydalanishi kerak.



4-rasm. Bolada "Men konsepsiyasi"ning shakllanishi-ning dastlabki bosqichi dinamikasi, (foizda)

Rasmdan ko'rinadiki, bolada "Men konsepsiyasi" shakllanishi bosqichi 79,1% kishi 3 yosh deb ta'kidlashdi, 4,7% "Men konsepsiyasi haqida endi eshitayotganligini ta'kidlab tahminan 4 yoshdan deb javob berishdi, 16,3% kishi "Men konsepsiyasini egoizm tushunchasi bilan adashtirib yubordi va 5 yoshda boshlanishi mumkinligini iddao qildi. Ijtimoiy psixologiyada "Men konsepsiyasi va ijtimoiylashuviga alohida urg'u berilgan bo'lib, bunda bolada, asosan, 3 yoshidan boshlab ijtimoiy men shakllanishi bu davrni qaltisligini inobatga olib bolaga amaliy yordam berish kerakligi tarbiyachi va ota-onalarga uqtirildi. Tadqiqotimiz natijasi shuni ko'rsatdiki, MTTda tarbiyachilar bolalarning ijtimoiylashuvi, men konsepsiyasi, egoizm haqida tushunchaga deyarli ega emasligini ko'rishimiz mumkin bunday vaziyatda biz tarbiyachilar va muassasa psixologlari hamkorlikda konsilumlar o'tkazish orqali muammoni bartaraf etish mumkinligi yagona yechim sifatida baholanmoqda.




5-rasm. Bolalarning MTTlarida ta'lim olish zarurligi va so'rov natijasi (foizda)

Bolaga tarbiya berishda MTT ning o'zni qanday degan savolga 89,5% kishi o'zni katta, 4,7% kishi unchalik ahamiyatga ega emas, 7% kishi bola tarbiyani uyda oladi deb javob bergan. Demak, Z.Freyd ta'kidlaganidek, bolaning ijtimoiy emotsional

rivojlanishida, avallambor, MTTni o'zni juda katta ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlab o'tgan.


MTTda bola shaxsining, asosan, bilish jarayonlari: diqqati, xotirasi, tafakkurining rivojida MTTning roli muhimligi qayd etib o'tildi.

4-savol. Bolaga tarbiya berishda, eng avvalo, nimaga e'tibor berish kerak degan savolimizga 24.4% kishi bolaning yoshiga, 31.4% kishi ruhiy holatiga, 46.5% kishi qiziqishlariga deb javob bergan. Jan Piajening takidlashicha, bolaga tarbiya berishda, eng avvalo, uning qiziqishlarini inobatga olish lozimligini ta'kidlab o'tadi.



**6-rasm. Bolaga yoshiga nisbatan tarbiya berish xususiyatlari bo'yicha tahlil natijasi (foizda)**

Sizning MTTingizda tarbiyachilar va ota-onalar hamkorligi yo'lga qo'yilganmi? degan savolimizga 95.3% kishi ha deb, 3.5% kishi yo'q deb, 1.2% kishi bilmayman deb javob berdi. MTTda tarbiyachi va ota-onalarning hamkorligini yanada rivojlantirish maqsadga muvofiq bo'ladi, chunki bola shaxslararo munosabatga kirishganida unda ijtimoiy adaptasiya bir oz qiyin kechadi. Buni oldini olish maqsadida MTT tarbiyachilari bilan ota-onalarning hamkorligi uzviy bo'lishi kerak.




**7-rasm. Sizning Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyachilar va ota-onalar hamkorligi tahlili (foizda)**

Quyidagi MTT da bolaning ijtimoiy- hissiy rivojlanishi uchun qanday o'yinlar o'ynashni ma'qul deb bilasiz? degan savolga 53.5 % kishi didaktik o'yinlarni, 9.3% kishi ermak o'yinlarni, 43% kishi sujetli o'yinlarni tanlashdi. Didaktik o'yinlarning asosiy turlari intellektual (aqliy) va harakatli hamda aralash o'yinlardan iborat.


Bu o'yinlar ishtirokchilarda aqliy - jismoniy, axloqiy, psixologik, estetik, badiiy tadbirkorlik, mehnat va boshqa ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Ta'lim tarbiya jarayonida, asosan, o'quvchilarda ta'lim olish motivlarini ularning turli yo'nalishdagi qobiliyat va qiziqishlarini oshiradigan biror kasbga moyilliklarini ko'rsatadigan didaktik o'yinlardan foydalaniladi. Demak, MTTlarda bolalarning bilish jarayonlarini

rivojlantirishda asosan didaktik o'yinlardan kengroq foydalanish maqsadga muvofiqligi aniqlandi.




**8-rasm. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni ijtimoiy-hissiy rivojlanishiga yordam beruvchi o'yin turlari**

Bolalarning muvaffaqiyatlarini rag'batlantirish ularning psixologiyasiga qanday tasir qiladi? degan savolga 91.1 % kishi bu bolaga o'ziga ishonchini oshiradi deb, 8.1% kishi bola raqobatga o'rganib qoladi deb, 2.3 % kishi maqtov so'zlarining o'zi yetarli deb javob bergan. Bolalarning o'ziga bo'lgan ishonchini oshirish maqsadida bola shaxsining individual psixologik holatidan kelib chiqib uni har bir qilgan ijobiy faoliyatini munosib rag'batlash bolaning kelajakda o'ziga bo'lgan ishonchini samarali oshirishi ushbu tadqiqotimizda keltirib o'tildi.



**9-rasm. Bolalarning rag'batlantirish ularning psixologiyasiga tasir qiluvchi omillar**

O'zlashtirishi past bo'lgan bolalarni tengdoshlari orasida urushishga qanday qaraysiz? degan savolimizga 69.8% kishi bu noto'g'ri deb, 26.7% kishi ota-onasini ogohlantiraman deb, 3.5 % kishi esa shu yo'l bilan bolani qiziqitiraman degan variantni tanlashgan.



**10-rasm. O'rta yosh guruhi bolalarning tengdoshlari bilan munosabatlari tahlili**

O'zlashtirishda orqada qoladigan bolalar bilan ishlash jarayonida tarbiyachi mutahassislar bola shaxsi bilan individual shug'illanishi kerakligi ushbu tadqiqotimizda takidlab o'tildi.

So'rovnomani Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'tkazildi. Unda MTT tarbiyachilari va ota-onalar ishtirok etdi. Javoblar tahlil qilinganda bolalarning jamiyatga kirishi, atrofdagilar bilan munosabati, bu jarayonda ularda emotsional hissiy kechinmalarning shakllanishi yuzasidan munozaralar bo'lib o'tdi. Bolalarning maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanishi, bu jarayonda tarbiyachi va ota-onalarning hamkorligining yo'lga qo'yishi bolalarning rivojlanishida, ularning istedodlarini yuzaga chiqishi, va kamchiliklarini bartaraf etishi uchun juda muhimligi aytib o'tildi. 4-5 yoshdagi bolalarni hissiy tarbiyalashda tarbiyaviy vaziyatlardan foydalanish metodikasida tarbiyachilar uchun asosiy o'qitish quroli bo'lishi kerak.

Ta'lim vaziyati - bu tarbiyachi tomonidan pedagogik jarayonda o'z-o'zidan paydo bo'ladigan vaziyatlarni ta'lim muammolarini hal qilish uchun maxsus loyihalash va ishlatisdir. O'qitish jarayonida ta'limning turli turlaridan (to'g'ridan-to'g'ri tashkil etilgan ta'lim faoliyati, rejim momentlari, bolalarning mustaqil faoliyati) va bolalar faoliyati (kognitiv, o'yin, musiqiy, vizual, kommunikativ, teatrlashtirilgan, badiiy o'qish)dan foydalanishni tashkil etishimiz mumkin.

Loyiha ishining emperik qismidan olingan ilmiy farazga asoslanib biz tadqiqotimizning keying bosqichini SWOT analiz orqali batafsil ochib berishga harakat qildik.

#### **S-afzalliklari**

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarni tizimli yondashuv asosida kattalar va tengdoshlari bilan muloqatchanlik oshadi;
2. Bola jamoa fikri va bahsi bilan hisoblashsa, o'zining jamoa uchun zaruriyatini sezadi;
3. Bolada emotsional yetuklik- emotsional barqarorlikda namoyon bo'ladi;
4. O'qishga bo'lgan ehtiyoji va qiziqishlari ortadi;
5. Bola shaxsida o'ziga bo'lgan ishonchi rivojlanadi.

#### **W- kamchiliklari**

1. Tarbiyachilarda ijtimoiylashuv va men konsepsiyasi haqida ko'nikma shakllanmaganligi;
2. Yetakchi mutaxassislar yetishmasligi;
3. Bolalar o'rtasida bir birini kamsitish rivojlanganligi;
4. Didaktik mashg'ulotlarning soni kamligi;
5. Ota-onalar bilan hamkorlik muammosi;
6. Infratuzilma (texnik resurs) yetishmasligi.

#### **O- imkoniyatlar**

1. Bola shaxsining kognitiv rivojlanish imkoniyatini beradi ;
2. Hissiy rivojlanish orqali dunyoqarashi rivojlanishi imkoniyatini beradi;
3. Hamkorlikda ishlash orqali ota-ona hamda tarbiyachi pedagoglar bolaning ruhiy holatidan habardor bo'lishi ;
4. Bola shaxsi jamoaga ,muhitga erkin adaptatsiya qilish imkonini beradi.

#### **T- tahdidlar**

1. Tarbiyachi va psixologlar hamkorlikda ishlamasligi natijada bolalarda ijtimoiylashuvning kechikishi ;
2. Bolalarda bilish jarayonlarini rivojlantirishda zamonaviy metodlardan foydalana olmaslik ;
3. Tarbiyachilarning o'rnini pedagog psixologlar egallashi ;
4. Hususiy bog'chalarga talab oshib ketishi.

#### **TADQIQOT MUHOKAMASI**

Maktabgacha yoshdagi bolalarni tizimli yondashuv asosida kattalar va tengdoshlari bilan muloqatchanlikka o'rgatish hissi, psixologik zo'riqishlarga nisbatan bardoshi bo'lish ko'nikmalarini shakllantirishga ko'maklashishimiz lozim. Bolalar jamoasini shakllantirish axloqiy tarbiya bilan chambarchas bog'liqdir. Bolalar o'z xulqlarining jamoa manfaati bilan bog'liqligi haqidagi bahoni eshitadilar. Bola jamoa fikri va bahsi bilan

hisoblashsa, o'zining jamoa uchun zaruriyatini sezsa, u bilan g'ururlansa, umumiy hayotning yoqimli va quvonchli bo'lishi uchun intilsa, bu jamoaning yetarli darajada shakllanganligidan dalolat beradi. Bola muassasaga kelishi bilan bolalar jamoasining a'zosi bo'lib qoladi, u boshqa bolalar bilan o'ynashi, mehnat qilishi, kelishishi kerak bo'lsa yon bosishi o'rganib oladi. Tarbiyachi bunda har bir bolaning hissiy - ijtimoiy qobiliyatini alohida baholab borishi kerak.

Vigotskiyning psixologiyaga kiritgan "psixik taraqqiyotning eng yaqin zonasi" tushunchasining asl mohiyati, bolaning mustaqil faoliyati kattalar bilan hamkorlikda, ularning rahbarligida amalga oshiriladi degan mazmuni o'z ichiga oladi. Bolaning psixik rivojlanishini harakatga keltiruvchi kuchlar murakkab va turli tumandir<sup>7</sup>.

4-5 yoshdagi bolalar kattalarning samimiy diqqatiga va hamkorlikda ish olib borishga intilmaydi, balki kattalar bolalarni hurmat qilishlarini, o'zaro tushunishlarini xohlaydi. Bu yoshdagi bolada tengdoshlari bilan muloqot qilish, boshqalar bilan o'zini solishtirish, taqlid qilishga nisbatan ehtiyoj kuchayib boradi. Faoliyatda ya'ni o'yin, mahsuldor faoliyatda tengdosh-sherigi sifatida qatnashadi. Tengdoshlari bilan muloqot davrida bolalar o'yinda va boshqa faoliyatda ma'lumotlar, rejalar, vazifalarning taqsimlanishi asosida birgalikda faoliyat olib borishga intiladi. Yoshga qarab muloqot bolaning hissiyatini, o'zaro tushunishini, tengdoshlariga nisbatan hissiy yaqinlikni tasvirlay boshlaydi. 7 yoshga borib bola tengdoshining shaxsiy xususiyatlarini ajrata boshlaydi ya'ni "qiziqarli o'yinlarni o'ylab topadi", "yaxshi yuguradi", " juda yaxshi bola" va boshqalarni misol keltirsak bo'ladi. Bitta guruhda bir necha yil birgalikda yurgan 7 yoshli bolalar jamoasi yetarlicha jipslashgan oila hisoblanadi. Bolalarning muloqot qilish intensivligi va kengligi aniq ko'rina boshlaydi. O'yin davrida bolalar jamoalarning turg'unligi osha boradi, jamoa 4-5 ta kishidan tashkil topadi, ayniqsa, o'g'il bolalar jamoalarda bolalarning soni 8-9 ta bolani tashkil qiladi. Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda muloqotga kirishish malakasi yuqori bo'ladi. Bolalar tomonidan beriladigan taklif, iltimos, baholanish ancha asoslangan holda ifodalanadi. Maktabgacha yosh davridagi bolalar rivojlanishining turli jihatlarini har tomonlama o'rganish shuni ko'rsatdiki, maktabning birinchi sinflari bilan taqqoslaganda bolalar bog'chasining maktabga tayyorgarlik guruhlarida o'qiyotganda ular o'zlarini xotirjam, psixologik jihatdan erkin va o'ziga bo'lgan ishonchni his qilishadi. Shunday qilib, bola mustaqil bo'lishni xohlaydi, shuning uchun siz unga bu imkoniyatni berishingiz kerak. U chizishni, plastilin va loydan durdonalar yaratishni orzu qiladi - siz unga aralashmasligingiz kerak. U tengdoshlari bilan muloqot qilishni xohlaydi. U do'st bo'lsin, janjallashib, sabr qilishni, kechirim so'rashni va kechirishni o'rgansin. Bu hayotiy tajribani to'plash, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish, atrofdagi dunyoni bilish imkon beradi.

#### **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, hozirgi vaqtda maktabgacha yoshdagi bolalarning aksariyati ko'p narsalarga noadekvat munosabatda bo'lishadi, buning asosiy sababi bola yetarli darajada shaxslararo munosabatga kiramasligini takidlashimiz mumkin negaki, bolaning birinchi tarbiyachilari birinchi galda televizor, zamonaviy gajetlar, ekanligi oqibatida bola shaxsida boshqa odamlarning his-tuyg'ularini e'tiborsiz qoldirish holatlari bot bot uchrab turibdi, o'z his-tuyg'ularini boshqarishga harakat qilmaydilar. Bu asosan, juda kam kommunikatsiya qilish bilan bog'liq. Ular qancha vaqtni shunday o'tkazishi, ota-onalari ularga qancha vaqt ajratishlari haqida ketmoqda. Natijada, maktabgacha yoshdagi bolalarda hissiy rivojlanish yetarli bo'lmay qolmoqda.

-Agar bola MTTga borib, tengdoshlari bilan muloqotga kirishsa, tarbiyachi pedagoglar tomonidan ko'rsatmalarga to'liq rioya qilsa, bola shaxsida ijtimoiylashuv oson kechishini takidlash lozimdir.

7 M.X.Xolnazarova, M.Q.Muxliboyeva "yosh va pedagogik psixologiya"

-Shuningdek, tarbiyachi pedagoglar bolalar bilan ishlash jarayonida har bir bolaga imkon qadar individual yondashish ularning xarakter, temperamentini hisobga olgan holda motivatsiya bera olishi bolalarda o'ziga bo'lgan ishonchni shakllanishiga olib keladi. Ammo bu albatta yetarli emas!

-Oiladagi qulay muhit va muntazam muloqot, rivojlantiruvchi o'yinlar va ijobiy his-tuyg'ular shaxsning uyg'un rivojlanishiga yordam beradi. Agar inson hissiy jihatdan yaxshi ta'minlangan bo'lsa, u hayotda katta muvaffaqiyatlarga erishadi, ko'proq maqsadga intiladi va atrofdagilar bilan qiynalmasdan shaxslararo munosabatlarga kira oladi.

-Hissiy farovonlik bolalik davrida shakllanadi. Agar otalar unga hozirgi vaqtlarini berishni xohlamasalar, ular uning kelajagini o'g'irlashadi. Maktabgacha yoshdagi bolaning ijobiy hissiy sohasi kognitiv jarayonlarga foydali ta'sir ko'rsatadi, bu otalar bilan aloqa qilmasdan amalga oshirilmaydi. Maktabgacha yoshdagi bolaning hissiy sohasi boshqa bolalar bilan muloqot qilish, o'yinlar, shu jumladan, ijodkorlik, o'qish, ishlash, musiqa tinglash paytida shakllanib, sayqallanadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob halqimiz bilan birga qo'ramiz. - Toshkent:O'zbekiston, 2017.-488 bet.2. Z. T. Nishonova. M. Xolnazarova. Rivojlanish psixologiyasi. Toshkent. 2019
2. Kulagina I, Yu. Agepsychology (Development of a child from birth to 17 years), 1999 Allhusen, V., Belsky, J., Booth, C. et al. (2003).
3. Early child care and mother-child interaction from 36 months through first grade. Infant Behavior and Development, 26(3), 345–370.
4. Barbarin, O.A., Early, D., Clifford, R. et al. (2008). Parental conceptions of school readiness. Early Education and Development, 19(5), 671–701.
5. Belsky, J., Bakermans-Kranenburg, M. & Van IJzendoorn, M. (2007).
6. For better and for worse. Current Directions in Psychological Science, 16, 300–304.
7. M.X.Xolnazarova, M.Q.Muxliboyeva “ yosh va pedagogic psixalogiya”
8. Z.T.Nishanova, N.G.Kamilova, D.U.Abdullayeva, M.X.Xolnazarova “Rivojlanish psixalogiyasi pedagogic psixalogiya” kirobi Toshkent-2018
9. <https://azkurs.org/2-mavzu-bolalarni-ijtimoiy-hissiy-rivojlanishi-2-soat.html?page=2>
10. <https://lex.uz/docs/-3362886>
11. <https://iti.bsuir.by/files/science/Conferenrence%20col lection%2C%20The%20End%2011.07.2020%20%D1%8F%D0%BD%D0%B3%D0%B8.pdf>
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2017-yil 30- sentabrdagi PF-5198 sonli “Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni <https://lex.uz/docs/-3362886>
13. 3. “Ilk qadam” davlat o'quv dasturi/ [https://hozir.org/pars\\_docs/refs/29/28397/28397.pdf](https://hozir.org/pars_docs/refs/29/28397/28397.pdf)
14. Saviya.uz
15. Archive.org Научный журнал “Молодой ученый” в социальных сетях
16. Pedagog.uz
17. Referat.uz



## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA BOLALARNI MA'NAVY-AXLOQIY TARBIYALASHDA MILLIY QADRIYATLARNING O'RNI

Oripova Gulibarno

Qo'qon universiteti Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabasi

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATSIYA
<p><b>Qabul qilindi:</b> 24-may 2022-yil <b>Tasdiqlandi:</b> 26-may 2022-yil <b>Jurnal soni:</b> 4 <b>Maqola raqami:</b> 4 <b>DOI:</b> <a href="https://doi.org/10.54613/001219">https://doi.org/10.54613/001219</a></p> <p><b>KALIT SO'ZLAR</b> milliy qadriyatlar, an'analar, vatanparvarlik, milliy ong, bolalar ma'naviyati, axloqiy tarbiya, milliy an'ana, umuminsoniy qadriyatlar, milliylik tamoyili,</p>	<p>Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlarining o'ri va ahamiyati, uning o'ziga xos xususiyatlari, bolalarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularga milliy urf-odatlar va an'analarimizni o'rgatish, axloqiy tamoyillar asosida ma'nan sog'lom qilib voyaga yetkazish masalalari tadqiq etilgan bo'lib, ayrim sharh mamlakatlaridagi maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiya usullarini o'rganilgan.</p>

### KIRISH

Milliy qadriyatlar deb, muayyan xalqning rasm-rusumi, an'anasi, fazilatlarini, axloq va odobi, yashash tarzi, bayramlari, shu xalqning aksariyat qismi tomonidan e'zozlanishga loyiq bo'lgan inshootlar, milliy kiyimlar, uy-ro'zg'or buyumlari, ro'zg'or tutishlari aytiladi. Misol uchun, o'zbeklarning mehnatsevarligi, mehmondo'stligi xushxulqligi va muloyimligi, g'ayratli va itoatgo'yligi, turli toifadagi odamlar bilan o'zaro inoqlashib ketishligi, kechirimlilik, mulohaza va tafakkur bilan ish ko'rish, tinchliksevarligi o'zbek milliy qadriyatlarini bo'lib hisoblanadi.<sup>1</sup>

Abdulla Avloniy hazratlari yozganidek: "Bolaning salomati va saodati uchun yaxshi tarbiya qilmak-tanini pok tutmak, yosh vaqtdan maslakini tuzatmak, yaxshi xulqlarini o'rgatmak, yomon xulqlardan saqlab o'sdurmakdir. Tarbiya qiluvchilar tabib kabi durki, tabib xastaning badanidagi kasaliga davo qilgani kabi tarbiyani bolaning vujudidagi jaxl holatiga "yaxshi xulq" degan davoni ichidan, "poklik" degan davoni ustidan berib, katta qilmak lozimdur. Zeroki, "Hassinu axloqakum" amri Sharifi uzra xalqimizni tuzatmakka amir o'linganmiz. Lekin xulqimizning yaxshi bo'lishining asosiy panjasi tarbiyadir"<sup>2</sup>

Aflotun go'dak bolaning hunar o'rganishga zo'r ishtiyoqi borligi tufayli u o'yin orasida eshik va uylarning qanday yasashini bilib olishini va keyinchalik shu hunarni o'rganib olishini, bu qobiliyatning foydasi tegishini aytadi.<sup>3</sup>

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Hayotimizda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan ta'lim-tarbiya tizimi haqida gapirganda, Abdulla Avloniy bobomizning dono fikrlarini takror va takror aytishga to'g'ri keladi: ta'lim-tarbiya - biz uchun hayot-mamot masalasidir. Qaysi sohani olmaylik, biz zamonaviy yetuk kadrlarni tarbiyalamasdan turib biron-bir o'zgarishga, farovon hayotga erisha olmaymiz. Bunday kadrlarni, millatning sog'lom genofondini tayyorlash, avvalo, maktabgacha ta'lim tizimidan boshlanadi"<sup>4</sup>

Mustaqil O'zbekistonni buyuk davlat darajasida taraqqiy etishi uchun jamiyat ma'naviyatini rivojlantirish zarur. Zero, ma'naviy kamol topgan insonlarga buyuk kelajak sari intiladilar. Ma'naviy yetuklikning eng muhim belgisi esa vatanparvarlikdir.

Kishining qurshab turgan cheksiz ko'p narsa va hodisalar, shu jumladan, milliy ma'naviyat ichidan ham, muayyan shaxs yoki ijtimoiy guruh, yoki konkret millat, yohud butun insoniyat

uchun alohida ahamiyatga, qadrga ega bo'lganlari qadriyat deyiladi.

Shaxs va shaxsiy qadr-qimmat, erkinlik (erkin tanlov va buning uchun javobgarlik), ijodkorlik va individuallik, o'zini bilish, o'z-o'zini ifodalashni hal qiluvchi qadriyatlarga aylanadi. Etnik pedagogik qarashlar madaniyat va ma'naviyatning bir qismi sifatida kishilarning ideal tarbiya jarayonini aks ettiradi. Qolaversa, xalq pedagogikasida o'z aksini topgan pedagogik qarashlari ham ulkan amaliy va hayotiy ahamiyatga ega.

Yaxshi va yomon bolalar haqidagi birinchi fikr ota-onalar tomonidan aytilgan ertaklardan erta yoshda o'rganadi. Yaxshilik va yovuzlik tushunchalari o'yinning noaniq shaklida shakllanadi. Ijtimoiylashuv jarayonida katta rol o'yinshda uning a'zolari o'rtasidagi munosabatlarga asoslangan oilada axloqiy tarbiya bo'ladi.

Bola doimiy ravishda keksalarni hurmat qilishi, akasi yoki singlisi bilan o'yinchoqlarni ulashishi, hayvonlarni xafa qilmaslik, aldamaslik haqida eshitadi. Ammo eng muhimi kattalarning harakatidir. Ota-onaning bir-biriga nisbatan befarqligi, xudbinligi, hurmatsizliklarini kuzatadigan bola axloqli bo'lib qolmaydi. Shuning uchun maktabgacha yoshdagi bolalarni axloqiy tarbiyalash, oiladan tashqarida bo'lishi mumkin emas.<sup>5</sup>

### ADABIYOTLAR TAHLILI

Ma'naviy-axloqiy tarbiyalash mavzusida bir qancha sharh allomalari o'z fikrlarini bayon qilishgan. Bundan ko'rinadiki, ma'naviy-axloqiy tarbiya faqat bugungi kunda emas, bizdan avvalgi davrlardan beri dolzarb mavzu bo'lib kelgan. Bu davr o'zining har tomonlama yuksakligi, yaratgan boy madaniy merosi, milliy qadriyatlarini, jahonga mashhur allomalarning etishib chiqqanligi bilan qimmatlidir. Sharh mutafakkirlarining ma'naviy madaniyat sohasiga qo'shgan ulushlari nihoyatda boy bo'lib, mazmunan qadriyatlarining barcha yo'nalishlarini qamrab olganligi bilan xarakterlidir. Ular:

1. Aqliy madaniyatni shakllantirish bilan bog'langan qadriyatlar;
2. Ma'naviy-ruhiy qadriyatlar;
3. Ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar;
4. Badiiy-nafis qadriyatlar;

1 Saidov J. S. Maktabgacha yoshdagi bolalarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash mazmuni va amaliy ahamiyati Academic research in educational sciences volume 2/Issue 9/2021. DOI: 10.24412/2181-1385-2021-9-1046-1050

2 Tohir Malik. Saodat saroyining kaliti. (Odamiylik mulkiga doir suhbatlar). Birinchi kitob. T.: "Yangi asr avlodi", 2019. 19-bet.

3 Hasanboyeva O. U., Avezova R. R., Shamaribxodjayeva G. J., Aliqulova X., Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. T.: "Fan va texnologiya", 2013, 42-bet. ISBN 978-9943-10-812-7

4 <https://kun.uz/47175005>

5 <https://uz.unistica.com/maktabgacha-yoshdagi-bolalarni-axloqiy-tarbiyalash>



#### 5. Diniy qadriyatlar tarzida o'z ifodasini topgan.<sup>6</sup>

Inson axloqi aqlga, xulq va xatti-harakati esa ilm-fanni o'rganishga va ma'rifatga asoslangandagina ma'naviy kamolotga erishadi. Mutafakkir allomalarning fikricha, insonparvarlik g'oyalarning amalga oshishi, ma'naviy barkamollikka erishuv chuqur bilim olish va ma'rifatli bo'lishga bog'liq. Shuning uchun ham ular ilmlilikni umuminsoniy qadriyat darajasida ulug'laydilar, jamiyatning barcha a'zolarini ilm egallashga chaqiradilar, ilmning inson ma'naviy hayotda tutgan o'rnini yuqori baholaydilar.

Forobiy pedagogik qarashlarini, ta'lim-tarbiya haqidagi ta'limotini o'rganishda inson hislatlari to'g'risidagi falsafiy fikrlari nihoyat muhim ahamiyat kasb etadi. Forobiy o'zining falsafiy qarashlarida odamning tuzilishini, ruhiyatini, moddiy va ma'naviy olamini o'rganishga ahamiyat beradi. Forobiy o'zining "Baxt-saodatga erishuv haqida", "Fanlarning tasnifi", "Falsafani o'rganishdan oldin nimani bilish kerakligi to'g'risida", "Ilmlar va san'atlar fazilati" kabi ko'plab risolalarida insonning ma'naviy rivojlanishi ilm-ma'rifatga bog'liqligini ta'kidlaydi.

Abu Rayhon Beruniy bilim umuminsoniy qadriyatlarni o'rganishning kaliti ekanligini alohida ta'kidlaydi. Ilm-ma'rifatli odam jamiyat taqdiri, insonlar taqdiri uchun kurashuvchan, barcha yomonliklardan uzoqdir. "Ilmning foydasi ochko'zlik bilan oltin-kumush to'plash uchun bo'lmay, balki u orqali inson uchun zarur narsalarga ega bo'lishdir".<sup>7</sup>

Yusuf Hos Hojib ta'lim va tarbiyaning uzviy bog'liq holda bo'lishini tavsiya etadi, o'g'il bolalarning bir necha san'at turlarini va hunarlarni tugal o'rganmog'i lozimligini ta'kidlaydi, bu-ularning kelajak hayotlari, jamiyat rivoji uchun zarurligini aytadi.

Mutafakkir olimlar yuksak ma'naviy fazilatlarini umuminsoniy qadriyatlar doirasida talqin etdilar, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida ma'naviy omillarni yuksak baholadilar. Ular "Fozil jamoa", "Fozil shahar", komil insonni shakllantirishning asosi ma'naviy omillarga bog'liq degan g'oyani ilgari surdilar

Xulosa shuki, ta'lim-tarbiyani o'rgatish uchun Sharq allomalarning bebaho asarlaridan to'g'ri foydalana ola bilish, nafaqat milliy qadriyatlarimiz va ma'naviyatimizni yuksaltiradi, balki yetuk inson shaxsini shakllantirishda ham muhim hissa qo'shadi. Sababi inson hayoti davomida qadrlanib, rivojlantirilib kelayotgan nazariy va amaliy sayqal topgan yaxshilik, adolat, do'stlik, tinchlik, tenglik, erkinlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, ota-ona, keksalarga hurmat, imyon, e'tiqod, ustoz va shogird va boshqa umuminsoniy fazilatlar keyinchalik milliy qadriyatlarining asosiy tarkibiy qismlariga aylanib qolgan.

Ushbu mavzu yuzasidan Saidov Jur'at Sodirovich va Abdurahimova Dilfuzaxon Aliyevna o'zlarining ilmiy ishlarini yoritishgan.

Tohir Malik "Saodat saroyining kaliti", Sodiqova Sh, Hasanboyeva O.U, Avezova R.R, Shamaribxodjayeva G.J, Aliqulova X, o'zlarining "Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti", Sodiqova Sh esa "Maktabgacha pedagogika" asarida milliy-axloqiy tarbiyaga to'xtalib o'tishgan.

#### TADQIQOT METADOLOGIYASI

Bola o'z yo'lini o'zi tuzadi, tarix va madaniyat olamiga kirib, qadriyatlar va ustuvorliklariga o'z munosabatini shakllantiradi. Maktabgacha ta'lim muassasalaridagi ta'lim faoliyati jarayon sifatida qaraladi. Madaniy qadriyatlarni o'rgangan bolalar, eng yuqori baho berish va qabul qilish qobiliyatiga ega bo'ladi. Bu ta'limning asosiy tarkibiy qismlarini qayta belgilash zaruriyatiga olib keladi.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning qiziqish va qobiliyatlarini - ma'naviy manbalar va hozirgi zamon talablari va ehtiyojlari nazarda tutgan xolda, tarbiyachilarning

tarbiyalanuvchi bilan aniq bir maqsadga qaratilgan o'zaro amaliy va nazariy muloqatida namoyon bo'ladi.

Quyidagi jadvalda Milliy qadriyatni qo'llash usullarini ko'rib chiqamiz (1-rasm).



1-rasm. Bollarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlarining qo'llash usullari

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalashda uning mohiyatini tushunib yetish kerak. Qadriyatlar o'zining mohiyatiga ko'ra bir necha turga bo'linadi. Jumladan, inson va uning hayoti eng oliy qadriyat hisoblanadi. Inson yo'q joyda biron narsaning qadr qimmatiga haqida so'zlash bema'nilikdir. Shuning uchun ham inson qadr-qimmatini e'zozlash, uning turmushini yaxshilash, bilimi va madaniy saviyasini rivojlantirish, sog'lig'ini saqlash, hayotini himoya qilish davlatimiz siyosatining asosiy yo'nalishini tashkil etadi. Jamiyatimizda ro'y berayotgan tub o'zgarishlarning, islohotlarning barchasi kishilar hayoti to'q, boy, go'zal bo'lishi, inson o'zini chinakam erkin his etishi, o'z mehnati natijasining, o'z taqdirining, o'z mamlakatining egasi bo'lishini ta'minlashga qaratilgandir.

#### Yondashuvlar

Axloqiy xarakterni shakllantirish uchun bir nechta yondashuvlar mavjud. Ular o'yin, mehnat, ijodkorlik, adabiy asarlar (ertaklar), shaxsiy misol orqali amalga oshiriladi. Bundan tashqari, axloqiy tarbiyaga har qanday yondashuv uning barcha shakllariga ta'sir qiladi.

Agar o'qituvchilar ushbu yo'nalishlarning har birida kamida bir oz ishlasalar, demak ular allaqachon ajoyib bazani yaratmoqdalar. Agar butun tarbiya va ta'lim tizimi bir xil sxema bo'yicha ishlasa, ko'nikma va bilimlar bir-biriga qatlam bo'lib, sifatlarining ajralmas majmuasini tashkil etgan bo'lar edi.

#### Maqsadlar

Katta maktabgacha yoshdagi bolalarni axloqiy tarbiyalashning maqsadlari: biron bir narsa haqida turli xil odatlar, fazilatlar va g'oyalarni shakllantirish; tabiatga va boshqalarga insonparvarlik munosabatini tarbiyalash; vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish va o'z mamlakatlari bilan faxrlanish; boshqa millat vakillariga nisbatan bag'rikeng munosabatni tarbiyalash; jamoada samarali ishlashga imkon beradigan aloqa qobiliyatlarini shakllantirish; o'zini o'zi qadrlashni yetarli darajada shakllantirish.

#### Imkoniyatlar

Maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash ba'zi vositalar va metodlardan foydalangan holda sodir bo'ladi, biz ularni quyida muhokama qilamiz.

Birinchi, bu ijodkorlik o'zining barcha ko'rinishlarida: musiqa, adabiyot, tasviriy san'at. Bularning barchasi tufayli bola dunyoni obrazli ravishda idrok etishni va uni his qilishni o'rganadi. Bundan tashqari, ijodkorlik o'z his-tuyg'ularingizni so'zlar, musiqa yoki rasmlar orqali ifoda etish imkoniyatini beradi.

Vaqt o'tishi bilan, bola har kim o'zini o'zi xohlaganicha anglash uchun erkin ekanligini tushunadi. Ikkinchi, bu sog'lom psixikani shakllantirishning zarur omili bo'lgan tabiat bilan aloqa. Dastlab, tabiatda vaqt o'tkazish har doim nafaqat bolani, balki har qanday odamni ham kuch bilan to'ldirishini ta'kidlaymiz. Atrofdagi dunyoni kuzatib, bola tabiat qonunlarini

<sup>6</sup> Тиллашев Х. Х. Обще педагогические и дидактические идеи учёных энциклопедистов Ближнего и Среднего Востока эпохи средневековья. Т.: Фан, 1989. с. 10.

<sup>7</sup> Abu Rayhon Beruniy. "O'ylar, hikmatlar, naqlar, she'rlar" Toshkent. Yosh gvardiya, 1973. 44- bet.



tahlil qilishni va tushunishni o'rganadi. Shunday qilib, chaqaloq ko'plab jarayonlarning tabiiy ekanligini tushunadi.

Uchinchidan, o'yinlarda, ishda yoki ijodda o'zini namoyon qiladigan faoliyat. Shu bilan birga, bola o'zini ifoda etishni, o'zini tutishni va o'zini qandaydir tarzda namoyon etishni, boshqa bolalarni tushunishni va muloqotning asosiy tamoyillarini amalda qo'llashni o'rganadi. Bundan tashqari, buning natijasida chaqaloq muloqot qilishni o'rganadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning muhim vositasi atrof-muhitdir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni axloqiy tarbiyalash vositalari, agar jamoada to'g'ri atmosfera bo'lmasa, samarasiz bo'ladi. Atrof-muhitning ahamiyatini ortiqcha baholash mumkin emas, chunki zamonaviy olimlar uning ulkan rol o'ynashini isbotladilar. E'tibor bering, agar inson hech narsaga intilmasa ham, muloqot muhiti o'zgarganda, u sezilarli darajada yaxshi tomonga o'zgaradi, maqsad va istaklarni egallaydi.

### **Amalga oshirish**

Maktabgacha yoshdagi bolalarda axloqiy fazilatlarini tarbiyalash ba'zi bir asosiy tushunchalarga asoslanadi. Ta'lim muassasasida siz bolaga bu erda uni sevishini tushuntirishingiz kerak. Tarbiyachi o'z mehrini namoyon etishi juda muhimdir, chunki u holda bolalar ushbu ko'rinishlarni barcha xilma-xillikda o'rganadilar, ota-onalar va tarbiyachilarning harakatlarini kuzatadilar.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni axloqiy tarbiyalashning asoslari muvaffaqiyat vaziyatlarini yaratish va bolalarni ularga javob berishga o'rgatish zarurligiga asoslanadi. Chaqaloq maqto'v va tanqidni to'g'ri qabul qilishni o'rganishi juda muhimdir. Bu yoshda, taqlid qila oladigan kattalarga ega bo'lish katta ahamiyatga ega.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy va axloqiy tarbiyasi asosan boshqa odamlar bilan muloqotga emas, balki mantiqiy muammolarni hal qilishga ham asoslangan. Ularning yordami bilan bola o'zini anglashni va uning harakatlariga tashqi tomondan qarashni, shuningdek, boshqa odamlarning harakatlarini talqin qilishni o'rganadi. O'qituvchilar uchun aniq maqsad - ularning his-tuyg'ulari va begonalarini tushunish qobiliyatini rivojlantirish. Tarbiyaning ijtimoiy qismi bolaning tengdoshlari bilan birgalikda barcha bosqichlarni bosib o'tishida. U ularni va uning yutuqlarini ko'rishni, hamdard bo'lishni, qo'llab-quvvatlashni va sog'lom raqobatni his qilishni kerak.

### **Ma'naviyat muammosi**

Axloqiylik aynan ma'naviyatga asoslanadi. Bolaga yaxshini va yomonni o'rgatish mumkin, yoki u o'zi nimani yaxshi va nima yomonligini tushunganida, siz uning ichida shunday ichki holatni rivojlantira olasiz. Diniy yo'nalishdagi bolalar bog'chalarida bolalar ko'pincha o'z mamlakatlari bilan faxrlanish hissi bilan tarbiyalanadilar.

Ba'zi ota-onalar farzandlariga diniy e'tiqodni o'zlari singdiradilar. Bu olimlar buni qo'llab-quvvatlaydi degani emas, lekin ba'zi hollarda bu juda foydali. Biroq, aksariyat hollarda chaqaloqlar diniy oqimlarning murakkab girdobida adashib qolishadi. Agar siz bolalarga buni o'rgatsangiz, unda bu juda to'g'ri bajarilishi kerak. Shaklanmagan odamga hech qanday ixtisoslashgan kitoblar bermang, chunki ular uni osonlikcha adashtiradi. Ushbu mavzu haqida tasvirlar va ertaklar yordamida aytib berish yaxshiroqdir.

### **Atrof-muhit komponenti**

Ayni paytda ekologiya ta'lim bilan chambarchas bog'liq, chunki yerning foydalariga insoniy va oqilona munosabatda bo'ladigan avlodni tarbiyalash juda muhimdir. Zamonaviy bolalar ta'limi va tarbiyasi bolalarda o'z yerlari va atrof-muhit uchun mas'uliyat hissini tarbiyalashning jiddiy vazifasi hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama axloqiy-vatanparvarlik tarbiyasini ushbu jihatsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Atrof-muhitni anglaydigan odamlar orasida vaqt o'tkazadigan

bola hech qachon ovchiga aylanmaydi, hech qachon axlatni ko'chaga tashlamaydi va hokazo. U o'z makonini tejashtan yoshligidan o'rganadi va bu tushunchani avlodlariga etkazadi. Maktabgacha yoshdagi bolada axloqiy tuyg'ularni tarbiyalash barcha tarbiyachilar intilishi mumkin bo'lgan yaxshi maqsaddir.<sup>8</sup>

Maktabgacha yoshdagi bolalarning axloqiy tarbiyalashning asoslari shundan iboratki, bolalar tengdoshlari bilan muloqot qilishni o'rgandilar, ularning faoliyati turlari sezilarli darajada kengayib boradi va atrof-fularidagi dunyo bilimlari doimiy ravishda to'ldirilib boriladi.<sup>9</sup>

### **TADQIQOT NATIJASI**

Tadqiqot obyekti sifatida Farg'ona viloyati Beshariq tumani 8-sonli maktabgacha ta'lim tashkilotida tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilari tanlab olindi. Tadqiqotda so'rovnomasi usulidan foydalanildi. So'rovnomasi usuli orqali 7 savolga jami 30 nafar respondent jalb qilindi. Shuningdek ushbu maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalar ham tadqiqotga jalb qilingan.

Tarbiyalanuvchilarga quyidagi ko'rinishdagi savollar yo'naltirilgan:

- Bolalar uylarida ota-ona, opa-singil, qo'ni-qo'shnilariga qanday munosabatda bo'lishlarini;

- Bolalar odatda bog'chaga qanday kiyim kiyishni xohlashlarini;

- Navro'z va shunga o'xshash umumxalq bayramlarimiz haqida yetarlicha bilim va tasavvurga ega yoki ega emasliklarini aniqladim.

Ular bilan bo'lgan suhbatdan so'ng tarbiyachilar bilan ham shu mavzuda so'rovnomasi metodini olib borishni lozim topdim.

So'rovnomasi savollari quyidagilar:

1. Milliy va ma'naviy qadriyat deganda nimani tushunasiz?

2. Bolalarga milliylik tamoyilini nech yoshdan singdirish kerak deb o'ylaysiz?

3. Bolalar bog'chasida ma'naviy qadriyatlardan saboqlar beriladimi?

4. Bu ular uchun muhimmi?


5. Bolalarni axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlarining o'rni qanday?

6. Xalq og'zaki ijodining milliy qadriyatlarimiz bilan o'zaro aloqador deb o'ylaysizmi?

7. Bolalar bog'chaga qanday kiyimlarni ko'proq kiyib kelishadi?

Tarbiyalanuvchilar bilan o'tkazgan so'rovnomadan quyidagi natijalar olindi.

Bolalar ushbu tadqiqotda keltirilgan so'rovnomasi haqida tushunchalarga ega ekanliklari haqida ma'lumotga ega bo'ldim. Ular ko'p vaziyatlarda, qayerda qanday o'zini tutishni bilishadi ammo amal qilishmaydi.



**2-rasm. Bolalarda milliylik tamoyilini singdirish bosqichlari<sup>10</sup>**

Yechim: Tarbiyachilar tarbiyalanuvchilarga faqatgina og'zaki emas amalda ham maktabgacha ta'lim tashkilotida milliy


<sup>8</sup> <https://uz.drunkentengu.com/nravstvennoe-vospitanie-detey-doshkolnogo-vozrasta-osnovniy-metodyi-10e0e88>

<sup>9</sup> <https://hozir.org/mavzu-maktabgacha-yoshdagi-bolalarni-axloqiy-badiiy-va-estetik-v2.html>

<sup>10</sup> Muallifning so'rovnomasi natijasi

qadriyatlar muhitini ko'rsatishlari, urf-odat va milliy an'analarni ularning ongida shakllantirish zarur.

Kuzatuvlarimizga ko'ra bolalarda bu ko'nikma yetarlicha shakllanmagan. Odob-axloq masalasida qadriyatlarimizning o'zni katta ekanligini 20 kishi umumiy tarzda fikrlari orqali yoritib berishgan. Qolgan 8 tasi esa bu bolalarga unchalik kerak emasligini, ular ko'proq o'qishga, yozishga jalb qilinishini aytishgan 9 kishi bolalarga qadriyatlarimizni 3-4 yoshdan o'rgatish kerak deb hisoblashdi. O'zlaridan nimaga - deb so'raganimda aynan shu yoshda bolada men konsepsiyasi shakllana boshlaydi - deb javob berishdi. 11 kishi esa 5-6 yoshni (yani katta guruhda) belgilashgan. 10 kishi esa tayyorlov guruhidan deb javob berishgan. Ushbu natijaga muvofiq 20 % respondent 2-3 yosh, 60 % respondent 6-7 yosh, qolgan 20 % respondent 4-5 yoshdan deb javob berishgan. Aslini olib aytganda milliylik tamoyillarini tarbiyalanuvchilarga, o'zlarining "Men konsepsiyasi" shakllangandan boshlab, ya'ni, 2-3 yoshdan o'rgatish maqsadga muvofiqdir.



**3-rasm. Bolalar bog'chasida ma'naviy qadriyatlardan saboq berish ko'rsatkichlari**

Ushbu rasmga muvofiq 17 % respondent "Yo'q" deb, 33 % respondent "Ha" deb, 50 % respondent esa "Yetarlicha emas" deb javob bergan. Bolalar bog'chasida ma'naviy qadriyatlardan saboq berish bugungi kunda haqiqatdan ham yetarli darajada emas. Sababi ayrim tarbiyachilarning o'zlarida pedagogik mahorat yetarli darajada emas. Buning uchun maktabgacha ta'lim tashkilotlari malaka oshirish institutlarida ushbu mavzuga chuqurroq yondashilsa va o'rgatilsa samarali bo'ladi.

Tarbiyachilar bilan bo'lgan so'rovnomaga xulosasiga ko'ra, eng avval tarbiyachilarning bilim va malaka darajasini oshirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida esa tarbiyalanuvchilarga milliy qadriyatlarini o'rgatish uchun kerakli muhit va sharoit yaratib berilishi va metodik qo'llanmalar yaratilishi zarur.

Bir tadqiqot ishining natijalariga ko'ra, amalga oshirilgan ilmiy tahlillar, taqdim etilgan metodik ishlanmalar va tavsiyalarni umumlashtirgan hamda ularning samaradorlik darajasini baholagan holda quyidagi xulosalarga kelindi:

1. "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi" asosida 3-6 (7) yoshli bolalarni ma'naviy tarbiyalash, ularda shaxsiy fazilatlar, jumladan, o'z tuyg'ularini boshqarish, ijtimoiy motivlarni uyg'otish, milliy an'analarga qiziqishni paydo qilish, yaqin kishilarga g'amxo'rlik qilish kabi ehtiyojlarni shakllantirishga qaratilgan uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqish.

2. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ezgu va savob ishlarni har kuni va hamisha qilishga tayyorlash va shunga kuchli ichki rag'bat, ehtiyoj, intilish fazilatlarini tarkib toptirish.

3. Bolalarimiz qalbida sog'lom hayot tarziga intilishni, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat-ehtirom tuyg'ularini bolalik paytidan boshlab shakllantirish zarur.

4. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining web sahifasida xalq og'zaki ijodi namunalari

vositasida bolalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi bilan bog'liq ijtimoiy video maruzalar yaratish.<sup>11</sup>

### TADQIQOT MUHOKAMASI

Maktabgacha yoshdagi bolalarni axloqiy tarbiyalash nima uchun kerak?

Ko'pgina olimlar bu savolga har xil javob berishadi, ammo har qanday holatda ham javob noaniq. Aksariyat tadqiqotchilar shunga qaramay, bolada bunday fazilatlarini tarbiyalash mumkin emas, faqat ularni singdirishga harakat qilishingiz mumkin degan fikrga qo'shilishadi. Har bir bolaning individual idrokini belgilaydigan narsani aniq aytilish qiyin. Ehtimol, bu oilaviy muhitga ham bog'liq. Agar bola xotirjam, yoqimli muhitda o'sgan bo'lsa, unda undagi bu fazilatlarini "uyg'otish" osonroq bo'ladi. Zo'ravonlik va doimiy stress sharoitida yashaydigan bolaga tarbiyachining urinishlari samarasizdir. Bundan tashqari, ko'plab psixologlarning ta'kidlashicha, muammo bolaning uyida va jamoada beriladigan tarbiya o'rtasidagi nomuvofiqlikda. Bunday qarama-qarshilik oxir-oqibat ichki ziddiyatga aylanishi mumkin.

Masalan, ota-onalar bolada egalik va tajovuzkorlik tuyg'usini tarbiyalashga, tarbiyachilar esa - xayrixohlik, do'stona va saxiylik kabi fazilatlarini tarbiyalashga harakat qilayotgan voqeani olaylik. Shu sababli, bola ma'lum bir vaziyat to'g'risida o'z fikrini shakllantirishda biroq qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Shuning uchun hozirgi paytda ota-onasi qaysi tamoyillarga amal qilishidan qat'i nazar, yosh bolalarni ezgulik, halollik, adolat kabi eng yuqori qadriyatlarga o'rgatish juda muhimdir. Buning yordamida bola ma'lum bir ideal variant borligini tushunadi va o'z fikrini shakllantira oladi.

Katta yoshdagi maktabgacha yoshdagi bolalarni axloqiy tarbiyalashning asosiy tushunchalari:

Tushunadigan birinchi narsa shundan iboratki, trening har tomonlama bo'lishi kerak. Biroq, zamonaviy dunyoda, biz bir tarbiyachidan ikkinchisiga o'tayotgan bola mutlaqo qarama-qarshi qadriyatlarini o'zlashtiradigan vaziyatni tobora ko'proq kuzatmoqdamiz. Bunday holda, odatdagi o'quv jarayoni mumkin emas, u tartibsiz bo'ladi. Hozirgi vaqtda maktabgacha yoshdagi bolalarni axloqiy-vatanparvarlik tarbiyasining maqsadi ham kollektivistning, ham shaxsning fazilatlarini har tomonlama rivojlantirishdir.

Ko'pincha tarbiyachilar shaxsga yo'naltirilgan nazariyani qo'llaydilar, buning natijasida bola nizoga tushmasdan o'z fikrini ochiq aytishni va o'z pozitsiyasini himoya qilishni o'rganadi. Shu tarzda o'z-o'zini hurmat qilish va ahamiyatlilik shakllanadi.

Biroq, maksimal natijalarga erishish uchun maktabgacha yoshdagi bolalarni axloqiy tarbiyalash usullarini maqsadga muvofiq ravishda tanlanishi kerak.

### XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o'rnida maktabgacha yoshdagi bolalarga axloqiy tarbiya hozirgi kunda suv va havodek zarur. Buning uchun qilinadigan vazifalar quyidagilardan iborat:

- Bolalarda axloqiy tasavvurlar va xatti-harakatlarni tarbiyalash.
- Xulq madaniyati va ijobiy munosabatlarni tarbiyalash.
- Bolalarda axloqiy his-tuyg'ularni tarbiyalash.
- Xulqdagi salbiy sifatlarni barham toptirish.
- Ularga milliy va ma'naviy qadriyatlarimizni yanada chuqurroq o'rgatish

Har xil bayramlar, ijtimoiy hayot voqealari, bolalar adabiyoti, musiqa, o'yin materiallari, ommaviy axborot vositalari televideniya, radio va boshqalar bolalarning axloqiy tarbiyasiga katta ta'sir ko'rsatadi. Kichik yoshli bolalar axloqiy tasavvur va bilimlarni faqat o'yin mashg'ulotlarida yaxshi o'zlashtirib oladilar. Bolalar tomonidan o'zlashtirib olingan axloqiy tasavvurlarni ularga ongli ravishda tushuntirish dastlab mashg'ulotlarda,

<sup>11</sup> Абдурахимова Дилфузахон Алиевна. Совершенствование системы духовно-нравственного воспитания детей дошкольного возраста посредством образцов устного

народного творчества. Автореферат диссертации доктора. Ташкент – 2020.

keyinchalik o'yin, mehnat jarayonlarida, sayrda, mustaqil faoliyatlar orqali amalga oshiriladi.

Yuqorida aytganimizdek bizning inson bo'lib yaratilganimiz eng oliy qadriyatimizdir. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ma'naviy-axloqiy tarbiyaning shakllanishida milliy qadriyatlarning o'rnini Yaponiya maktabgacha ta'lim tashkilotlari misolida ko'rishimiz mumkin. Yaponiyada individuallik degan tushuncha yo'q. Yaponiyada maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilari har doim kichik guruh tuzadilar.<sup>12</sup>

Ularda birgalikdagi faoliyat o'ziga xos birlik bo'lib xizmat qiladi. Shuni ta'kidlash kerakki, bolalar bog'chalarining asosiy vazifasi nafaqat ta'lim, balki ijtimoiylashuv jarayoni hamdir. Ya'ni, bolalar tengdoshlari va butun jamiyat bilan munosabatda bo'lishga o'rgatiladi, mehnat qadriyatlarini birgalikda bolalarda shakllantiradi. Biz g'arb mamlakatiga intilib, sharq mamlakatlarining qadriyatlariga tog'ri keladigan axloqiy me'yorlarni o'rganishimiz va tatbiq etishimiz kerak.

#### TADQIQOT YUZASIDAN TAKLIFLAR

- Mehnat qadriyatlarini shakllantirish maqsadida, tayyorlov guruhidagi tarbiyalanuvchilarni ekin maydonlariga xavfsizligini ta'minlagan holda olib borish va birgalikda ekin ishlarini boshlang'ich nuqtalarini bajarish
- Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ijtimoiy-milliy qadriyatlarni rivojlantirish uchun erkin muhit yaratish (mikroavtobuslar tashkil qilinish, avtobusda yurish, ko'chada yurish qoidalarini amaliy tarzda o'rgatish)
- Tarbiyalanuvchilarda har kuni shukronalik tuyg'usini shakllantirish, ular bilan ushbu mavzu yuzasidan erkin suhbat uyushtirish
- Bir oyda bir marotaba tarbiyalanuvchilar va ularning ota-onalari ishtirokida qiziqarli o'yin-musobaqalar tashkil etish.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Saidov J. S. Maktabgacha yoshdagi bolalarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash mazmuni va amaliy ahamiyati Academic research in educational sciences volume 2/Issue 9/2021. DOI: 10.24412/2181-1385-2021-9-1046-1050
2. Tohir Malik. Saodat saroyining kaliti. (Odamiylik mulkiga doir suhbatlar). Birinchi kitob. T.: "Yangi asr avlodi", 2019. 19-bet.
3. Hasanboyeva O. U., Avezova R. R., Shamaribxodjayeva G. J., Aliqulova X., Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. T.: "Fan va texnologiya", 2013, 42-bet. ISBN 978-9943-10-812-7
4. Ўзбекистон Республикаси президенти Шавкат Мирзиёев раислигида 19 октябрь куни мактабгача таълим тизимини тубдан такомиллаштириш масалаларига бағишланган йиғилиш <https://kun.uz/47175005>
5. Sodiqova Sh., Maktabgacha pedagogika. T.: "Fan va texnologiya", 2012, 128-bet.
6. <https://uz.unistica.com/maktabgacha-yoshdagi-bolalarni-axloqiy-tarbiyalash>
7. Тиллашев Х. Х. Обще педагогические и дидактические идеи учённых энциклопедистов Ближнего и Среднего Востока эпохи средневековья. Т.: Фан, 1989. с. 10.
8. Abu Rayhon Beruniy. "O'ylar, hikmatlar, naqlar, she'rlar" T.: Yosh gvardiya, 1973. 44- bet.
9. Д. Абдурахимова. Совершенствование системы духовно-нравственного воспитания детей дошкольного возраста посредством образцов устного народного творчества. Автореферат диссертации доктора. Т – 2020.
10. <https://uz.drunkentengu.com/nravstvennoe-vospitanie-detey-doshkolnogo-vozhraosta-osnovnyie-metodyi-10e0e88>
11. <https://hozir.org/mavzu-maktabgacha-yoshdagi-bolalarni-axloqiy-badiiy-va-estetik-v2.html>
12. <https://minikar.ru/uz/ezoterika/doshkolnoe-obrazovanie-yaponii-detskie-sady-v-yaponii-kak-vyzhivayut/>
13. Abdurahimova D.A. - Maktabgacha ёshdagi bolalarning ma'naviyaxloqiy tarbiyasi asoslari. (Xalq og'zaki ijodi materiallari asosida) Monografiya. – T: Nizomiy nomidagi TDPU nashriёti, 2016. - 200 b.
14. Abdurahimova D.A. Milliy qadriyatlar va ularning ijtimoiy taraqqiёtda sayqallanishi // Uzluksiz ta'lim tizimida hamkorlik pedagogikasi. Xalqaro konferentsiya materiallari. Toshkent, 2014. - B 202- 204

<sup>12</sup> <https://minikar.ru/uz/ezoterika/doshkolnoe-obrazovanie-yaponii-detskie-sady-v-yaponii-kak-vyzhivayut/>



## MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARNI QOIDALI O'YINLAR ORQALI TA'LIM TARBIYAGA O'RGATISH

Oxunjonova Maftuna

Qo'qon universiteti Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabasi

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATSIYA
<p><b>Qabul qilindi:</b> 24-may 2022-yil <b>Tasdiqlandi:</b> 26-may 2022-yil <b>Jurnal soni:</b> 4 <b>Maqola raqami:</b> 5 <b>DOI:</b> <a href="https://doi.org/10.54613/001220">https://doi.org/10.54613/001220</a></p>	<p>Maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarga qoidali o'yinlar orqali ta'lim-tarbiya berish usullari, ilg'or metodlar va bu jarayonda bolalar bilan ishlashning o'ziga xos xususiyatlari, mavjud muammolar tahlil etilib, xorijiy zamonaviy tajribalar o'rganilgan. Shuningdek, tarbiyalanuvchilarga ta'lim-tarbiya berishda qoidali o'yinlardan samarali foydalanish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar berilgan.</p>
<p><b>KALIT SO'ZLAR</b></p> <p>qoidali o'yinlar, harakatli o'yinlar, didaktik o'yinlar, o'yin kompetensiyasi, o'yin texnologiyasi, milliy xalq o'yinlari.</p>	

### KIRISH

Maktabgacha ta'lim tashkiloti uzluksiz ta'limning birinchi qadami bo'libgina qolmay, balki faol, ijodkor va ma'naviy jihatdan boy shaxsni shakllantiruvchi ilk pog'ona hamdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni hamda "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi Qarori bunga dalildir. Maktabgacha ta'lim tashkiloti (MTT)larida ta'lim-tarbiya jarayonini yuqori saviyada tashkil etish tarbiyalanuvchilarga ta'limning keyingi bosqichlarida bilimlarni qiyinchiliksiz o'zlashtirishga imkoniyatlar yaratadi.<sup>1</sup>

Mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki yillaridanoq navqiron avlodni jismonan sog'lom, ma'nau yetuk, intellektual salohiyatli shaxslar qilib tarbiyalashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Muhtaram Prezidentimiz tizim faoliyatiga oid ma'ruzasida bolaning jismoniy va psixologik rivojlanishidagi eng asosiy davr maktabgacha tarbiya davri ekanligini alohida qayd etgan. "Mustaqillikning birinchi yillaridan boshlab yutimizda sog'lom ona - sog'lom bola masalasi davlat siyosatining ustivor yo'nalishiga aylangani, keng ko'lamli umummilliy dasturlarimiz doirasida amalga oshirilayotgan ulkan ishlarimiz jahon miqyosida ham tan olingani bizga ma'lum. Ayni vaqtda bugungi shiddatli zamon, hayotning o'zi yosh avlod tarbiyasi borasida oldimizga yangi-yangi, o'ta muhim va dolzarb vazifalarni qo'yimoqda"<sup>2</sup>, deya ta'kidlagan.

O'zbekiston hukumati, ayniqsa 2017-yildan kichik yoshdagi bolalarni sifatli o'qitish va tarbiya qilishga katta e'tibor qaratmoqda. Maktabgacha ta'lim vazirligi tashkil etilgan vaqtdan beri 2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari doirasida qulay shart-sharoitlar hamda tizimli komponentlarni yaratish bo'yicha qator salmoqli ishlar olib borilyapti.<sup>3</sup>

YUNISEFning O'zbekistondagi vakolatxonasi tomonidan keng qamrovli islohotlar doirasida Maktabgacha ta'lim vazirligi bilan hamkorlik o'rnatilgan. 2018-yilda YUNISEF Maktabgacha ta'lim vazirligiga ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablarini qayta ko'rib chiqishda texnik jihatdan ko'maklashdi va bolaning rivojlanish

davrlari aniq ishlab chiqilishiga urg'u berildi. Shuningdek, YUNISEF bolaning har tomonlama rivojlanishiga qaratilgan yangi "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim tashkilotining davlat o'quv dasturini ishlab chiqishda amaliy yordam ko'rsatdi.<sup>4</sup> Yuqoridagi fikr-mulohazalardan kelib chiqib, shuni ta'kidlash mumkin, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning yetuk shaxs sifatida rivojlanishi, hayotiy bilim va ko'nikmalarining shakllanishida qoidali o'yinlar alohida o'rin egallaydi.

O'yin maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning asosiy faoliyati bo'lib, u orqali bola shaxs sifatida shakllanib boradi. O'yin bolaning kelajakdagi o'quv mehnat faoliyati va kishilarga munosabatining qay darajada shakllanishini belgilab beradi. O'yin bolalarning jismoniy rivojlanishida qo'l keladigan mustaqil faoliyati bo'lib, unda bolaning ruhiyati namoyon bo'ladi. Bola hayotining bir yoshidan boshlab uni o'rab turgan tevarak-atrofnii bilishga ehtiyoji ortib boradi. Qoidali o'yinlarga quyidagilar kiradi: didaktik o'yinlar, harakatli o'yinlar, musiqaviy o'yinlar, ermak o'yinlar. Bolalarga ta'lim-tarbiya berish maqsadida kattalarning o'yinni tanlay bilishi va unga to'g'ri rahbarlik qilishi "Ilk qadam"da belgilangan vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishni ta'minlaydi. O'yin bolalarni rivojlantirish va tarbiyalash vositasidir.

Psixologlar o'yinni maktabgacha yosh davrida yetakchi faoliyat, deb hisoblaydilar. O'yin tufayli bolaning yuqori rivojlanish bosqichiga o'tishini ta'minlovchi sifatlar shakllanadi, uning ruhiyatida sezilarli o'zgarishlar yuz beradi. O'yinda bola shaxsning hamma jihati bir-biriga o'zaro ta'sir etgan holda shakllanadi. O'ynayotgan bolani kuzatayotib uning qiziqishlari, tevarak-atrof to'g'risidagi tasavvuri, kattalarga va o'rtoqlariga bo'lgan munosabatini bilib olish mumkin. Shaxsdagi biror sifatni tarbiyalash uchun uning boshqa tomonlarini ham rivojlantirish kerak. Masalan, bolaning o'yinga qiziqishi, tashkilotchilik qobiliyatini rivojlantirish uchun mazmun jihatidan boy o'yinlar yaratilishi kerak. Bolalarning ijodiy o'yinlarini rivojlantirish uchun esa, o'z navbatida yaxshi tashkil etilgan bolalar jamoasi zarur bo'ladi.

O'yin bolalarni jismoniy tomondan tarbiyalash tizimida, MTTning ta'limtarbiya ishida axloqiy, mehnat va estetik

1. O.Yusupov, I.Mirzaeva, A.Mukhamedaminov, D.Shigabudinova, S.Nazarov, U.Muradov, T.Toshpulatov, Sh.Fayziev, Sh.Fayziev. Phraseological Units with Colour Designation Component as a Means of Reflecting the Self-Consciousness of the English People. *Linguistica Antverpiensia*, 2021. P. 719-731  
2. <https://pravacheloveka.uz/oz/news/my-reshelno-prodolzhim-kurs-demokraticeskikh-reform-na-osnove-strategii-razvitija-novogo-uzbekistana>  
3. Shavkat Mirziyoyev, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. "Yangi O'zbekistonning istedadli yoshlari"; ilmiy ishlar to'plami O'zbekiston Respublikasi |Oliy va o'rta talim vazirligi, O'zbekiston Respublikasi

istedodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash Ulug'bek jamg'armaasi. Tuzuvchi va nashr uchun mas'ullar O Salimov, A Toshqulov, M Bektemirov, Q uronboev, N Xalilov:- ta'lim nashriyoti., 2021. 344-b. ISBN 978-9943-368-05-7  
4. Shavkat Mirziyoyev, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. "Yangi O'zbekistonning istedadli yoshlari"; ilmiy ishlar to'plami O'zbekiston Respublikasi |Oliy va o'rta talim vazirligi, O'zbekiston Respublikasi istedadli yoshlarni qo'llab-quvvatlash Ulug'bek jamg'armaasi. Tuzuvchi va nashr uchun mas'ullar O Salimov, A Toshqulov, M Bektemirov, Q uronboev, N Xalilov- ta'lim nashriyoti., 2021. 344-b. ISBN 978-9943-368-05-7



tomonlama tarbiyalashda katta o'rin tutadi. O'yinda bola organizmiga xos bo'lgan talab va ehtiyojlar qodirladi, hayotiy faollik ortadi, bardamlik, tetiklik, quvnoqlik tarbiyalanadi. Shuning uchun ham bolalarni jismoniy tarbiyalash tizimida o'yin munosib o'rin egallaydi. O'yin ta'lim va mashg'ulotlar, kundalik hayotdagi kuzatishlar bilan uzviy bog'liq bo'lib, juda katta ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatga ega. Ijodiy o'yinlarda muhim bilim egallash jarayoni yuzaga keladi. Bu bolaning aqliy kuchini ishga soladi, tafakkuri, xayoli, diqqati, xotirasini faollashtirishni talab qiladi, bola masalalarni mustaqil hal qilish, o'ylagan narsasini amalga oshirish uchun yaxshiroq va osonroq usul o'ylab topadi, o'z bilimlaridan foydalanish va uni so'z bilan ifodalashga o'rganadi<sup>5</sup>.

O'yin bolalarga ta'lim-tarbiya berishning uslub va usulidir. O'yin jarayonida bolalarning bilimlari va tasavvurlari boyib, chuqurlashib boradi. U yoki bu rolni bajarayotib, bola o'zining butun diqqatini o'yinga qaratishi maqsadga muvofiq. Bola o'ynayotganda odamlar mehnati, ularning aniq va erkin harakatlari, munosabatlari to'g'risidagi tasavvuri yetarli emasligini sezib qoladi, buning natijasida kattalarga savol bera boshlaydi. Tarbiyachi bunday savollarga javob berib, ularning bilimlariga aniqlik kiritadi. Shunday qilib o'yin bolalardagi bilim va tasavvurlarni mustahkamlaydi. Bunda pedagogning to'g'ri rahbarligida uning tushunchalari kengayadi.

#### ADABIYOTLAR TAHLILI

Bolalar qoidali o'yinlari J.Piaget tomonidan o'rganilgan<sup>6</sup>. U o'z tahliliga qoidalar bilan o'yinni ijtimoiy-madaniy ta'lim sifatida, kattalarning me'yoriy dunyosining mikromodel sifatida ko'rib chiqishni kiritadi. J. Piaget uchun qoidalar bilan o'yindagi qoidaning o'ziga xosligi shundaki, bu o'yinning barcha ishtirokchilari uchun majburiy bo'lgan norma va qonunlardan iboratdir. U o'yin qoidasining dastlabki kelib chiqishi, hayotning birinchi yilining oxiriga kelib, bolalarda adaptiv motorli, deb ataladigan davrlarning paydo bo'lishi bilan bog'liq, ular takrorlanishi tufayli, zavqlanish uchun assimilyatsiya davrlariga aylanadi. Ya'ni, o'yinda bunday motorli sxemani yoki individual tadbirni takrorlash bolaga tartibliqlikni o'rgatadi, bu esa jamoaviy qoidani yanada rivojlantirish uchun zarur asos bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek, J.Piaget o'yinning rivojlanishini qoidalar bilan yevropalik bolalar uchun an'anaviy bo'lgan to'p o'yinini kuzatish asosida tahlil qiladi. U o'yinda uzatiladigan qoidani (ya'ni, katta yoshli bolalar o'ynagan o'yinning avloddan -avlodga o'tib kelayotgan) va o'z-o'zidan paydo bo'ladigan (ya'ni, bolalar o'rtasida birmuncha vaqt davomida paydo bo'lgan) ajratadi.

K. Garvey bolalarning birgalikdagi o'yinini tashkil etish uchun o'zaro munosabat kabi ta'sir va muloqotning universal qoidasini – sherigiga harakatlarning yo'nalishi va uning javobini kutishni o'zlashtirish zarur, deb hisoblaydi. Muayyan qoidalar (muayyan ob'yektlar bilan harakatlar, muayyan vaziyatlarda va hokazo), harakatning o'ziga xos naqshlari (roli va boshqalar) bilan bog'liq.

O'zbek olimlaridan F.R. Qodirova, Toshpo'latova va boshqa pedagog-olimlarning olib borgan tadqiqotlari o'yinga kompleks rahbarlik qilish orqali bolalarga o'yinning mazmuni, tashkil etilishi, tuzilishi, bolalarning axloqiy munosabatlari, bolalar o'yinining rivojlanish darajasiga ta'sir etish mumkinligini ko'rsatdi. Bolalar o'yini uning mazmuni, xususiyati, tashkil etilishiga ko'ra xilma-xildir. Ijodiy o'yinlarni bolalar o'zlari o'ylab topishadi. Unda oldindan belgilangan qoidalar bo'lmaydi. O'yin qoidasini bolalar o'zlari o'yin jarayonida belgilashadi. Qoidali o'yinlarning mazmuni va qoidasi kattalar tomonidan belgilanadi.

Qoidali o'yinlarga quyidagilar kiradi: didaktik o'yinlar, harakatli o'yinlar, musiqaviy va ermak o'yinlar.

Bolalarga ta'lim-tarbiya berish maqsadida kattalarning o'yinni tanlay bilishi, unga to'g'ri rahbarlik qilish "MTT ta'lim va tarbiya dasturi"da belgilangan vazifalarni muvaffaqiyatlar amalga oshirishni ta'minlaydi<sup>7</sup>.

P.F.Lestgaft "bolalar o'z o'yinlarida tevarak-atrofdan olgan taassurotlarni aks ettiradilar", deb qayd etgan. Shunday faoliyat bolaning rivojlanishida katta ahamiyatga egadir. Shunday qilib o'yinning ijtimoiy voqea ekanligini, o'yinda tevarak-atrofdagi borliq aks ettirilishini ilg'or olim va pedagoglar o'zlarining kuzatish va ilmiy tadqiqotlari orqali isbotlab berdilar. Tarbiyachilar bolalar o'yiniga rahbarlik qilishda quyidagilarga rioya qilishlari lozim:

O'yin faoliyati shu qadar universal, shu qadar ko'p qirrali va qudratli faoliyatdirki, barcha yoshdagi bolalar o'yin faoliyatida aktiv harakat qiladilar. O'yin faqat tashqi muhitdagi narsa va hodisalarni bilish vositasi bo'libgina qolmay balki, qudratli tarbiya vositasi hamdir. Yetakchi faoliyat shunday faoliyatki, bu faoliyat tufayli bolaning psixik jihatdan o'sishida jiddiy o'zgarishlar yuz beradi. Boshqacha qilib aytganda, mana shunday asosiy faoliyat jarayonida bolaning barcha psixik protseslari anchagina o'sadi<sup>8</sup>.

O'yinning kelib chiqishini birinchi bor G.V. Plexanov "Adressiz xatlar" nomli asarida shunday talqin qilgan edi. U san'atning kelib chiqishini tadqiq qilayotganda bolalar o'yinlariga e'tibor qiladi. U tarixda o'yinlar san'at kabi mehnat paydo bo'lgandan keyin, ayni chog'da uning asosida vujudga kelgan, degan fikrni aytish imkonini beradi. O'yinda insonlarni mehnat faoliyati o'z aksini topadi. "O'yin mehnat farzandi. U mehnatdan oldin paydo bo'lgan hodisadir". O'yin turli avlodlarni bog'laydigan va madaniy qadriyatlarni avloddan-avlodga o'tkazuvchi zanjir bo'lib xizmat qiluvchi vosita, deb hisoblaydi. Yan Amos Komenskiy o'yinga quvnoq bolalik va bolaning uyg'un rivojlanishi sharti sifatida qaraydi, kattalarga bolalar o'yinlariga e'tiborli munosabatda bo'lishini, ularga oqilona rahbarlik qilishni maslahat beradi<sup>9</sup>.

Shuningdek, ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda ekspert so'rov usuli deyarli barcha fanlar uchun umumiy xarakterdagi tadqiqot usuli hisoblanadi. Shuning uchun ham mazkur usuldan ob'yektlar yoki ijtimoiy-iqtisodiy hodisalarga oid miqdoriy ma'lumotlarni shakllantirish, ko'rsatkichlarni sifat jihatdan tasniflash, turli xil baholash mezonlarni ishlab chiqish, ishlab chiqilgan milliy va xalqaro indekslarni tasdiqlash, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni tahlilashda hamda ob'yektlar holatini miqdoriy baholash kabi masalalarni hal etishda keng foydalanib kelinmoqda.

S.D. Ilenkovo, L.M. Goxberg va S.Yu. Yagudinlarning muallifliklari ostida nashr etilgan adabiyotda ishlab chiqarishdagi texnikalarni almashtirish bo'yicha qaror qabul qilishda ekspert baholash usulidan foydalanilgan. Mazkur jarayon uchun "ekspertlar fikrining kelishuvchanlik darajasi" baholangan va uning olingan qiymatiga qarab ishlab chiqarishda yangi texnikani joriy qilish bo'yicha tegishli xulosa qabul qilingan.

E.Yu. Dyuyzen tadqiqotida ekspert baholash usulining nazariy jihatlari keng yoritilgan bo'lib, bunda ekspert tahlilning maqsadi va vazifalari, ekspert guruhlarini shakllantirish va ular tomonidan olingan ma'lumotlarni qayta ishlash masalalari atroflicha bayon etilgan. Mazkur ishning e'tiborli tomoni shundan iboratki, muallif ekspertlar sonini aniqlashda maxsus tengsizlikni taklif etgan va ushbu tengsizlikni ishlab chiqishda ekspertlarning kompetentlik darajasini inobatga olgan.

Xuddi shunday tadqiqotni T.Yu. Chernishevanning ilmiy izlanishida ham ko'rish mumkin. Muallif ekspertlarning minimal sonini aniqlashda o'z formulasini taklif etgan va bunda alfa

5. О.Н. Юсупов. Стилистика. I том, Ташкент, ТДПУ, 2017. 320 стр.

6. Yusupov O.N. Subtleties Of Literary Translation. İlköğretim Online (IOO) - Elementary Education Online 4 (4), 1987-1991

7. Fotima Qodirova, Shoista Toshpo'latova, Nargiza Kayumova, Malohat A'zamova. "Maktabgacha pedagogika" T. 2019. 316-b

8. Yusupov O.N. Subtleties Of Literary Translation. İlköğretim Online (IOO) - Elementary Education Online 4 (4), 1987-1991

9. Yusupov O.H. O'zbek poeziya namunalari tarjimasining ingliz tilidagi interpretatsiyasi. Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy axborotlari. 3 jild, 19 son, - TДПУ, 2019. B.146-150.



parametrlarni kiritgan. Uning fikricha, mazkur parametrning qiymatlari 0 va 1 oraliqda o'zgarib turadi hamda u butun ishning mazmunini o'zida aks ettiradi. Ammo, nazarda tutilgan parametrlar ekspertiza xatosining minimal darajasi bo'lib, uni qanday hisoblash mumkinligi mazkur tadqiqotda aniq bayon etilmagan. Muallif ekspert baholash masalasi va ekspertlarni tanlashda ijaraxik yondashuvga nisbiy ustunlik bergan.<sup>10</sup>

Ekspert baholash jarayonida eng muhim masalalaridan biri – ekspertlarning kompetentlik darajasini baholash masalasidir. Baholash jarayonida faqatgina kompetentlik darajasi yuqori bo'lgan ekspertlarni saralab olish maqsadga muvofiqdir. Chunki, kompetentlik darajasi yuqori bo'lgan ekspertlar tomonidan shakllantirilgan ma'lumotlariga baholanayotgan ob'yekt yoki ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar to'g'risida ob'yektiv xulosalar chiqarish imkoniyatini beradi.<sup>11</sup>

Amaliyotda ekspertlarning kompetentlik darajasini baholashda juda ko'plab usullar qo'llaniladi. Jumladan, A.F. Garifulin ekspertlarning kompetentlik darajasini baholashda ko'p o'lchovli indeks usullaridan foydalangan bo'lsa, A.N. Anoxin har bir ekspertning kompetentlik darajasini baholashda o'rtacha arifmetik qiymatdan foydalangan.<sup>12</sup>

Ekspert baholashda navbatdagi eng muhim masala – “ekspertlar fikrining kelishuvchanlik darajasi”ni baholash masalasidir. Ushbu jarayon konkordasiya koeffitsientini hisoblash yo'li orqali amalga oshiriladi. Mazkur koeffitsientning olingan qiymatlari asosida muayyan ob'yekt yoki ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar to'g'risida tegishli qarorlar qabul qilinadi. Konkordasiya koeffitsientini aniqlash usuli deyarli barcha adabiyotlarda bir xildir. Biroq, baholanayotgan ob'yekt yoki ijtimoiy-iqtisodiy jarayonga nisbatan ekspertlar tomonidan shakllantirilgan baholarning ustma-ust tushishi konkordasiya koeffitsientini hisoblash usulini ancha murakkablashtirib yuboradi.

Nazarda tutilayotgan jihatlarni inobatga olgan holda konkordatsiya koeffitsientini hisoblash jarayoni V.A. Mashin tomonidan nashr etilgan adabiyotda hamda G.F. Romashkina va G.G. Tatarovalarning ilmiy izlanishlarida atroflicha bayon etilgan va konkordatsiya koeffitsientining statistik ahamiyatligi Pirsonning -mezoni yordamida baholangan.<sup>13</sup>

### TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotimiz davomida ekspert so'rov usulidan foydalanib, Farg'ona viloyati Beshariq tumanidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida so'rovnoma o'tkazdik. Ekspertlar ma'lum bir yoki o'z sohasi bo'yicha yetakchi mutaxassislar bo'lib, ular o'zlarining vakolatlari doirasida u yoki bu hodisa va jarayonlar bo'yicha xulosalar ishlab chiqadilar. Ekspert baholash usulining mohiyati ekspertlar tomonidan muammolarning intuitiv-mantiqiy tahlil qilinishidan iboratdir. Ekspertlarning ishlov berishlari natijasida olingan umumlashma fikrlari muammoni hal qilish, deb qabul qilinadi. Intuitsiya, mantiqiy fikrlar va miqdoriy baholardan kompleks foydalanish muammoni samarali hal qilish imkonini beradi.

Ekspert baholash usulini qo'llash jarayonida, asosan ekspertlarni tanlash va ekspert guruhlarini shakllantirish, ularni kompetentlik darajasini baholash, ekspertlar fikrlarining kelishuvchanlik darajasini aniqlash, ekspertlar tomonidan ma'lumotlarni qayta ishlash va olingan natijalar yuzasidan muayyan qarorlar qabul qilish kabi masalalarga asosiy e'tibor qaratiladi.

Oddatda ekspertlarning guruhlardagi soni 7 tadan 20 tagacha bo'lishi maqsadga muvofiq deb hisoblanadi. Ba'zan bu miqdor 10 tadan 30 tagacha ham bo'lishi mumkin. Juda kam miqdordagi eksperlar soni ishonchsiz natijalarni keltirib

chiqarsa, juda ko'p miqdordagi ekspertlar soni esa tashkiliy xarakterdagi muammolarni keltirib chiqaradi. Shuning uchun ekspertlar sonining zaruriy miqdorini aniqlashda quyidagi tengsizlikdan foydalanish tavsiya etiladi:

$$m \leq \frac{3}{2 \cdot Q_{max}} \cdot \sum_{i=1}^{m^*} Q_i \quad (1)$$

Bunda  $m^*$  – nomzodlarning umumiy soni,  $Q_{max}$  – kompetentlik koeffitsientining maksimal qiymati,  $Q_i$  –  $i$  – ekspertning kompetentligi.

S.D. Ilenkova, L.M. Goxberg va S.Yu.Yagudinlar ekspertlarning minimal sonini aniqlashda quyidagi formuladan foydalanishgan:

$$N = 0.5 \left( \frac{3}{\alpha} + 5 \right) \quad (2)$$

Bunda  $\alpha$  – parametr ekspertiza xatoligining minimal darajasi bo'lib, uning  $0 < \alpha \leq 1$  qiymati oraliqda o'zgarib turadi.

Yuqoridagi aytib o'tilgandek, ekspertlarning kompetentlik darajasini aniqlashda turli xil usullar qo'llaniladi. Garifulin shunday usullardan birini quyidagi formula yordamida aniqlagan:<sup>14</sup>

$$K_j = \frac{\sum(X_{ij} \times M_i)}{\sum(M_i \times S_i)} \quad (3)$$

Bunda,  $K_j - j$  – ekspertning kompetentlik koeffitsienti,  $X_{ij} - j$  – ekspert tomonidan  $i$ - ob'yektga qo'yilgan baho,  $M_i - i$  – ob'yektning o'rtacha bahosi,  $S_i - i$  – ob'yektning baholari yig'indisi.

Ekspert so'rov usulida “ekspertlar fikrining kelishuvchanligi” juda muhim ahamiyat kasb etadi. Agar ekspertlar fikrining kelishuvchanlik darajasi yuqori bo'lsa, u holda ekspert so'rov natijalari ishonchli hisoblanadi. Ekspertlar fikrining kelishuvchanlik darajasini baholash uchun “konkordasiya koeffitsienti” hisoblanadi va uni Gubskiy quyidagicha aniqlagan:

$$W = \frac{12 \times S}{d^2 \times (m^3 - m)} \quad (4)$$

Bunda  $W$ - konkordasiya koeffitsienti,  $d$ -jalb etilgan ekspert-mutaxassislar soni,  $m$ -obyektlar soni,  $S$ -konkordatsiya koeffitsientidagi miqdoriy kattalik bo'lib, u quyidagicha aniqlanadi:

$$S = \sum_{i=1}^m \left( \sum_{s=1}^d r_{is} - \bar{r} \right)^2 \quad (5)$$

Agar mutaxassis-ekspertlar tomonidan baholanayotgan ob'yektlarga qo'yilgan baholar ustma-ust tushsa, u holda Jilyakova va Larinlar konkordatsiya koeffitsienti quyidagicha aniqlashgan:

$$W = \frac{12 \times S}{d^2 \times (m^3 - m) - d \times \sum_{s=1}^d T_s} \quad (6)$$

Ekspertlar fikrining kelishuvchanlik darajasi sifatini baholash uchun Xarringtonning verbal-sonli shkalasidan foydalanish tavsiya etiladi (1-jadval).

1-jadval

#### Xarringtonning verbal-sonli shkalasi<sup>15</sup>

Nº	Konkordasiya koeffitsientining son qiymatlari	Ekspertlar fikrining kelishuvchanlik darajalari
1	$0 \leq W \leq 0.2$	Kelishuvchanlik juda past
2	$0.2 \leq W \leq 0.37$	Kelishuvchanlik past
3	$0.37 \leq W \leq 0.64$	Kelishuvchanlik o'rta
4	$0.64 \leq W \leq 0.8$	Kelishuvchanlik yuqori
5	$0.8 \leq W \leq 1$	Kelishuvchanlik juda yuqori

10 Yunusov. O'zbek poeziya namunalari tarjimasining ingliz tilidagi interpretatsiyasi. Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy axborotlari. 3 jild, 19-son, -TDPU, 2019. B.146-150.

11 Анохин А.Н. (1996) Методы экспертных оценок. 82 ред. Москва: Обнинск: ИАТЭ

12 Анохин А.Н. (1996) Методы экспертных оценок. 82 ред. Москва: Обнинск: ИАТЭ.

13 Чернышева Т.Ю. (2009) Иерархическая модель оценки и отбора экспертов. Доклады ТУСУРа, 1(19), р. часть

14 С.Д.Ильенкова, Л.М.Гохберг, С.Ю.Ягудин и др. (1997) Инновационный менеджмент: Учебник для вузов. 327 ред. Москва: М.: Банки и биржи, ЮНИТИ.

15 Muallif ishlanmasi

1-jadvalga asosan ekspertlar fikrining kelishuvchanlik darajasi 0 va 1 oralig'ida o'zgarib turadi. Qiymat qanchalik birga yaqinlashsa, ekspertlar fikrining kelishuvchanlik darajasi shunchalik yuqori bo'ladi yoki aksincha.

Amaliyotda  $m > 7$  bo'lsa, u holda konkordatsiya koeffitsientining ahamiyatligini baholash uchun Galinovskiy, Samsonov va boshqalar  $x^2$  - mezon qabul qilishgan.  $x^2$  - taqsimot  $v = m - 1$  erkinlik darajasi bilan quyidagi qiymatni qabul qiladi:16

$$x^2 = \frac{12 \times S}{d \times m \times (m + 1) - \frac{1}{m-1} \sum_{s=1}^d T_s} \quad (7)$$

Agar  $W > x^2$  bo'lsa, ekspertlar fikrining kelishuvchanlik darajasi o'rindir, aks holda bunday kelishuvchanlik ahamiyatsiz bo'lib chiqadi.

Ekspert baholash jarayonida konkordatsiya koeffitsientining olingan yuqori qiymati ekspertlar fikri kelishuvchanlik darajasining yuqori ekanligini tasdiqlaydi. Bunday holatda odatda ekspertlarning baholanayotgan ob'ektga yoki ijtimoiy-iqtisodiy jarayonga nisbatan shakllangan fikrlari bir-biriga yaqin hisoblanadi.

### TADQIQOT MUHOKAMASI

Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi bolalarni qoidali o'yinlar orqali ta'lim-tarbiya berish jarayonlarini tadqiq etish maqsadida 7 ta ( $m=7$ ) guruhlar tanlab olindi va mazkur jarayonlarga baho berishda jami 5 ta ekspert(tarbiyachi)ning ( $d=5$ ) fikridan foydalanildi.

### 2-jadval

**Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi bolalarni qoidali o'yinlar orqali ta'lim-tarbiya berish hozirda qay darajada zaruriylik darajalariga ekspertlar tomonidan ko'rsatilgan ballar**<sup>17</sup>


Ob'ektlar (guruhlar)	Ekspertlar				
	N°1	N°2	N°3	N°4	N°5
00-guruh ( $O_1$ )	5	6	4	5	5,5
01-guruh ( $O_2$ )	4,5	5,5	6	5	6
02-guruh ( $O_3$ )	6	5,5	6,5	6	5
03-guruh ( $O_4$ )	6	6	5,5	6	7
04-guruh ( $O_5$ )	7	6	7	6,5	6
05-guruh ( $O_6$ )	6,5	7	6	7	5,5
06-guruh ( $O_7$ )	5,5	5	6	6	4

Shakllantirilgan ekspert guruhi a'zolaridan "maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi bolalarga qoidali o'yinlar orqali ta'lim-tarbiya berish hozirda qay darajada zarur?" mazmunidagi savolga javob berish talab etildi. Ushbu savolga ekspertlar tomonidan javob topish maqsadida "7 ballik baholash shkalasi" qabul qilindi. Mazkur baholash shkalasi quyidan yuqoriga tomon o'sib boradi va uning yuqorilab borayotgan qiymatlari mos ravishda ekspertlar tomonidan tegishli guruhlarda mavjud bolalarni qoidali o'yinlar orqali ta'lim-tarbiya berishning shu darajada zaruriyligini o'zida ifoda etadi.

2-jadval ma'lumotlari asosida ekspertlarning kompetentlik darajalari baholandi va buning uchun (4) formuladan foydalanildi. Olingan tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, tanlangan ekspertlar orasida 4-ekspertning kompetentlik darajasi eng yuqori va 5-ekspertning kompetentlik darajasi esa eng quyi bo'lib chiqdi (1-rasm).


2-jadvalda maktabgacha ta'lim tashkilotining guruhlarida bolalarga qoidali o'yinlar orqali ta'lim-tarbiya berishning hozirda zaruriylik darajalariga ekspertlar tomonidan qo'yilgan ballar o'z ifodasini topgan. Ekspert baholash natijalari shuni ko'rsatadiki,

guruhlarda bolalarga qoidali o'yinlar orqali ta'lim-tarbiya berishning hozirda zaruriylik darajalariga ekspertlar tomonidan qo'yilgan ballar minimum 4.0, maksimum 7.0 balni tashkil etdi. Tahlilga ko'ra, 05-guruhning o'rtacha ball 6.5 qiymatni ( $\bar{r} = 6.5$ ) tashkil etgani holda eng yuqori ko'rsatkichni ifoda qilgan bo'lsa, 00-guruhda esa mazkur ko'rsatkich = 5.1 qiymatni tashkil etgani holda eng quyi ko'rsatkichni ifoda qiladi.



1-rasm. Ekspertlarning kompetentlik darajalari ( $K_i$  - koeffitsientda)<sup>18</sup>

Maktabgacha ta'lim tashkilotining guruhlariga ekspertlar tomonidan ko'rsatilgan ballar dinamikasidagi variatsiya koeffitsientlari quyidagi tendensiyaga ega bo'ldi (2-rasm).



2-rasm. Guruhlarga ekspertlar tomonidan ko'rsatilgan ballar dinamikasidagi variatsiya koeffitsientlari tendensiyasi (foizda)<sup>19</sup>

Grafikdan ko'rinib turibdiki,  $O_5$  ob'jekt ya'ni, 4-guruh bolalarni qoidali o'yinlar orqali ta'lim-tarbiya berish bo'yicha qaror qabul qilishda ekspertlar tomonidan ko'rsatilgan ballar dinamikasidagi "tabaqalanish darajasi"ni Soatov o'z ilmiy izlanishida foydalangan (variatsiya koeffitsienti), boshqa guruh bolalarni qoidali o'yinlar orqali ta'lim-tarbiya bo'yicha qaror qabul qilishda ko'rsatilgan ballar dinamikasidagi tabaqalanishga nisbatan kuchliroq bo'ldi. 4-guruh ( $O_5$ ) bolalarida esa mazkur tabaqalanish nisbatan past ko'rsatkichni ifoda etdi.

### XULOSA VA TAKLIFLAR

Qoidali o'yin bolaning sensor rivojlanishini, taffakkur va nutqini, ixtiyorsiz diqqatini va xotirasini, har xil harakatlarini muntazam ravishda mashq qildirib borish imkonini beradi.

Har bir qoidali o'yin ma'lum didaktik maqsadga ega bo'lib, bolani umumiy rivojlantirishga qaratilgan bo'ladi.

Qiziqarli o'yin bolaning aqliy faolligini oshiradi. O'yinda aqliy rivojlanish bilan birga axloqiy sifatlar ham shakllanadi. Shuningdek, olingan tahlil natijalaridan ma'lum bo'lishicha, bolalarga qoidali o'yinlar orqali ta'lim-tarbiya berish bo'yicha qarorlar qabul qilishda ekspertlar fikrining kelishuvchanlik darajasi, ya'ni konkordatsiya koeffitsienti  $W=0.079$  ni tashkil etgani holda ushbu qiymat Xarrington verbal-sonli shkalasining

16 Машин В.А. (2008) Методическое руководство по оценке тестовых процедур, применяемых при работе с персоналом, Москва: www.mashinva.narod.ru

17 Muallif ishlanmasi

18 Muallif ishlanmasi

19 Muallif ishlanmasi

4-tartib raqamli oralig'ida joylashdi. Shu asnoda, konkordatsiya koeffitsientining olingan qiymatidan shunday xulosaga kelindiki, maktabgacha ta'lim tashkilotining guruhlarida bolalarni qoidali o'yinlar orqali ta'lim-tarbiya berish bo'yicha qaror qabul qilishda ekspertlar fikrining kelishuvchanligi yuqori darajada. Ushbu holat hozirda bolalarni qoidali o'yinlar orqali ta'lim-tarbiya berish zarurati mavjud, degan ilmiy xulosani shakllantirishga asos bo'lib xizmat qiladi.

Ekspert baholash natijalariga ko'ra, 6-guruhdagi bollarga qoidali o'yinlar orqali ta'lim-tarbiya berish bo'yicha qaror qabul qilishda ekspertlar tomonidan ko'rsatilgan ballar dinamikasidagi tabaqalanish ( $V=14.12$ ), boshqa guruh bolalarini qoidali o'yinlar orqali ta'lim-tarbiya berish bo'yicha qaror qabul qilishda ekspertlar tomonidan ko'rsatilgan ballar dinamikasidagi tabaqalanishlarga nisbatan kuchliroq bo'lib chiqdi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, yuqoridagi nazariy asoslardan foydalanish maktabgacha ta'lim-tarbiya ishlari samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim jarayoni va mustaqil faoliyati davomida qoidali

o'yinlardan foydalanish bolalarning qiziqishlarini oshiradi, diqqatini jamlaydi hamda ta'lim jarayonidan zerikmasligini ta'minlaydi. O'yinlar bolalarning ijtimoiylashuvi va mustaqilligini oshirishga yordam beradi. Shu boisdan biz ta'lim jarayoniga turli xil o'yin texnologiyalarini olib kirishimiz hamda amaliyotga joriy qilishimiz faoliyatimizning rang-barang va samarali bo'lishiga yordam beradi.

1. Qoidali o'yinlarni bolaning yosh guruhlariga qarab klassifikatsiya qilish zarur. Ya'ni har bir yosh guruhida bolaning qanday o'yinlarni o'ynay olishini hisobga olgan holda ajratish lozim;

2. Bolaning rivojlanish sohalari bo'yicha faoliyatlariga mos o'yinlar texnologiyasi ishlab chiqilishi kerak;

3. Ta'limiy va mustaqil faoliyatlarda o'yinlardan foydalanish uchun kerakli sharoit va didaktik vositalarning moddiy-texnika bazasini yaxshilash zarur;

4. AKT texnologiyalari va mobil vositalardan oqilona foydalanishda bolalar uchun samarali o'yin programmalari yaratish va faoliyatga joriy qilish foydali hisoblanadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob halqimiz bilan birga qo'ramiz. - Toshkent:O'zbekiston, 2017.-488 bet.2. Z. T. Nishonova. M. Xolnazarova. Rivojlanish psixologiyasi. Toshkent. 2019
- Kulagina I, Yu. Agepsychology (Development of a child from birth to 17 years), 1999 Allhusen, V., Belsky, J., Booth, C. et al. (2003).
- Early child care and mother-child interaction from 36 months through first grade. Infant Behavior and Development, 26(3), 345-370.
- Barbarin, O.A., Early, D., Clifford, R. et al. (2008). Parental conceptions of school readiness. Early Education and Development, 19(5), 671-701.
- Belsky, J., Bakermans-Kranenburg, M. & Van IJzendoorn, M. (2007).
- For better and for worse. Current Directions in Psychological Science, 16, 300-304.
- M.X.Xolnazarova, M.Q.Muxliboyeva " yosh va pedagogic psixalogiya"
- Z.T.Nishanova, N.G.Kamilova, D.U.Abdullayeva, M.X.Xolnazarova "Rivojlanish psixalogiyasi pedagogic psixalogiya" kirobi Toshkent-2018
- <https://azkurs.org/2-mavzu-bolalarni-ijtimoiy-hissiy-rivojlanishi-2-soat.html?page=2>
- <https://lex.uz/docs/-3362886>
- <https://iti.bsuir.by/files/science/Conferrence%20collection%2C%20The%20End%2011.07.2020%20%D1%8F%D0%BD%D0%B3%D0%B8.pdf>
- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2017-yil 30- sentabrdagi PF-5198 sonli "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni <https://lex.uz/docs/-3362886>
- "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi/ [https://hozir.org/pars\\_docs/refs/29/28397/28397.pdf](https://hozir.org/pars_docs/refs/29/28397/28397.pdf)
- Saviya.uz
- Archive.org Научный журнал "Молодой ученый" в социальных сетях
- Pedagog.uz
- Referat.uz



## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA BOLA SHAXSIGA YO'NALTIRILGAN O'QUV-TARBIYAVIY JARAYONNI TASHKIL ETISH

Po'latjonova Gulxumor

Qo'qon universiteti Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabasi

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATSIYA
<p><b>Qabul qilindi:</b> 24-may 2022-yil <b>Tasdiqlandi:</b> 26-may 2022-yil <b>Jurnal soni:</b> 4 <b>Maqola raqami:</b> 6 <b>DOI:</b> <a href="https://doi.org/10.54613/001221">https://doi.org/10.54613/001221</a></p>	<p>Maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bola shaxsiga yo'naltirilgan o'quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari, ta'lim tamoyillari va bilim berish metodlari o'rganilib, bolaning individual va xarakter xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim-tarbiya berishning o'ziga xos shakllarini qo'llash hamda pedagogik faoliyatda mashg'ulotlarni samarali va qiziqarli tashkil etish yo'llari tadqiq etilgan.</p>
<p><b>KALIT SO'ZLAR</b></p> <p>Bola shaxsi, shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim, bola shaxsiga yondashuv, bolani rag'batlantirish, axloqiy his-tuyg'ular, ta'lim texnologiyalari.</p>	

### KIRISH

Maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan har tomonlama rivojlantirish bugungi maktabgacha ta'lim tizimi oldida turgan dolzarb vazifadir.<sup>1</sup> Shu bois hukumati tomonidan «... maktabgacha ta'lim tizimida ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish, bog'cha xodimlarining professional tayyorgarligi va mahoratini oshirib borishning takomillashtirilgan tizimini joriy etish, 2022-2026-yillarda 160 mingdan ziyod pedagog kadrlarning malakasini oshirish, maktabgacha ta'lim-tarbiya jarayonlarini ilmiy asoslangan yondashuvlar asosida takomillashtirish...» tadbirlari amalga oshirilmogda.<sup>2</sup>

Ushbu e'tiborga javoban har bir zamonaviy pedagog tarbiyalanuvchilarni o'z yo'lini tanlashga o'rgatishi, ularning individual psixologik xususiyatlari, qadriyat va intilishlari asosida rivojlanishiga, har tomonlama kamol topishiga alohida e'tibor qaratishi lozim.

Binobarin, mamlakatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Bog'cha tarbiyasini olgan bola bilan bog'chaga bormagan bolani solishtirganda, ularning fikrlash darajasi o'rtasida yer bilan osmoncha farq borligini sezish qiyin emas. Shuning uchun ham biz maktabgacha ta'lim tizimini qayta ko'rib chiqish masala-sini davlat siyosati darajasiga ko'tarib, bu borada katta ishlarni boshladik. Agar shu ishni har tomonlama puxta o'ylab amalga oshirmasak, butun ta'lim tizimida sifat o'zgarishiga erishishimiz, ta'limning uzluksizligini ta'minlashimiz qiyin bo'ladi".<sup>3</sup>

Pedagog tomonidan tanlab olingan o'qitish uslublari bolaning intellectual rivojlanishiga yordam berishi, masalalarni ijodiy hal qilishi uchun shart-sharoitlar yaratishi, mustaqillik va mas'uliyatni o'rgatishi, bolalarga mashqlar davomida o'z xulq-atvorini boshqarishni o'rgatishi chuqur ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'limning boshlang'ich bo'g'ini hisoblanadi. Bog'cha sog'lom va rivojlangan bola shaxsining shakllanishini ta'minlashi, tizimli o'qitishga tayyorlash bilan birga unda o'qish-o'rganishga intilishni uyg'otishi zarurligi ushbu tadqiqot mavzusining dolzarbligini asoslab beradi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI

Ushbu tadqiqotni o'tkazish jarayonida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bola shaxsiga yo'naltirilgan o'quv-tarbiyaviy jarayonni samarali tashkil etish va ta'limning boshlang'ich

bo'g'inidagi muammolar yuzasidan tadqiqot olib borgan olimlarning ishlari o'rganib chiqildi. V.I.Andriyanova, Q.Yo'ldoshev, Sh.N.Majitova, U.Mahkamov, O.Musurmonova, S.Nishonova, M.Ochilov, S.Ochil, M.Quronov<sup>4</sup> va boshqalarning ishlarida barkamol shaxs tarbiyasi, uni samarali tashkil etish, bola shaxsining shakllanishida oila, ta'lim tashkilotlari hamda jamoatchilikning o'rni va roli, shuningdek, shaxsiga yo'naltirilgan boshlang'ich pedagogik faoliyat samaradorligini ta'minlash masalalari o'rganilgan.

Bola shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasida hamkorlikda o'qitish muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, bu biror bir vazifani, topshiriqni hamkorlikda bajarish emas, balki hamkorlikda o'qitishdir. Buyuk rus tarbiyashunosligining asoschilaridan biri A.S.Makarenko "Tarbiyalanuvchilarni tarbiyalash jarayonida o'zim ham tarbiyalanib bordim", deb yozadi. Demak, o'qitish jarayonida, pedagog bolalarni o'qitar, tarbiya berar ekan, ayni paytda o'zi ham o'qishga majburdir. Bu hamkorlikda o'qitish orqali amalga oshadi. Tarbiyalanuvchining shaxs sifatida shakllanishida L.V.Zankov, V.V.Davidov, A.N.Leontevlar ham o'z hissalarini qo'shganlar.

Bolani yo'naltirishda ularning his-tuyg'ularini hisobga olib, ichki kechinmalarini anglashimiz, xohish-istak va ehtiyojlarini baholay olishimiz zarur. Bu olimlar aynan shuni nazarda tutishgan. Bolani qo'llab-quvvatlash va unga ishonishimiz kerak. Haqiqiy yordam bolaning qobiliyatlarini, uning ijodiy tomonlarini ta'kidlashga asoslangan bo'lishi kerak. Bolani qo'llab-quvvatlash uchun quyidagilar zarur: bolaning kuchli tomonlariga tayanish, uning xatolarini ta'kidlamaslik, uning muvaffaqiyatsizliklarining vaqtinchalik xususiyatini ta'kidlash, bolani optimistik bo'lishga o'rgatish, bolaning individualligi, ko'proq mustaqillikni ta'minlash, unga hamdardlik ko'rsatishdir.

Buyuk mutafakkirlarimizdan Abu Ali Ibn Sinoning fikriga ko'ra, bola shaxsiga hurmat, bolaga bo'lgan sevgi, ishonch tuyg'usining shakllanishi uning o'ziga bo'lgan ishonchi ortishiga, erkin, mustaqil fikrlashiga yordam berar ekan. Uning barcha qiziqishlari yosh xususiyatlari bilan bog'liqligini aytib o'tadi.

### TADVIQOT METODOLOGIYASI

Bola shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim bu – berilgan standart ostiga "qayta yasalishi" va bo'ysundirilishi emas, balki shaxsning rivojlanishi, "uning qanday bo'lsa, shundayligicha qabul qilinishi"dir. Shaxsiy yondashuv ta'lim jarayoni sub'yektlarining shaxsiy majburiyatlarini

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4312-sonli qarori

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 - 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni

3 Ro'ziyeva D. I. Tolipov O'. Q. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat.

4 Yo'ldoshev H.Q. „Barkamol avlodni tarbiyalashda oila, mahalla, MTT konsepsiyasi“. T. 2018 y.

rivojlanishining to'laqonli namoyon bo'lishi uchun shart-sharoitlar yaratilishini ko'zda tutadi.

Shaxsiy funksiyalar – bu shaxs tomonidan “uyg'un rivojlangan shaxs bo'lish”dek ijtimoiy buyurtmani amalga oshiruvchi ma'lum bir sifatning namoyon qilinishidir.

Ta'lim jarayonini tashkil etishning asosi sifatida shaxsiy yondashuv bola shaxsining jamoa oldida tan olinishini, unda gumanistik o'zaro munosabatlarning hosil qilinishini asosiy deb biladi. Mana shu munosabatlarga bog'liq holda bola o'zini shaxs sifatida anglaydi, tengdoshlari va kattalarni ham shaxs sifatida ko'rishni o'rganadi. Har bir bolaning shaxsiy imkoniyatlarini yuzaga chiqarish yo'llari pedagogning qadriyatli yo'nalishlariga, ya'ni, uning xulq-atvorida ifodalanadigan moddiy va ma'naviy qadriyatlarga, yo'l-yo'riqlar, ishonch-e'tiqod, moyilliklarga nisbatan tanlama munosabatlariga bog'liq bo'ladi.

Pedagogning mahorati uning kasbiy faoliyati yo'nalishini belgilab beradi. Uning shaxsiy yondashuvi bolaga o'zini shaxs sifatida tanish hamda imkoniyatlarini aniqlashga yordam ko'rsatishni ko'zda tutadi.

Bola shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim tarbiyalanuvchilarning fikrlash va harakat strategiyasini inobatga olgan holda uning

shaxsi, qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltiriladi. Pedagog bilan tarbiyalanuvchi o'rtasidagi hamkorlik va qadriyatni mustahkamlashga yordam beradi. Bu o'rinda tarbiyalanuvchilarning “Men” konsepsiyasini shakllantirib, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni mustahkam va barqaror teran fikrlovchi, o'z mustaqil fikrini boshqalarning oldida erkin ifoda eta olishi, har qanday vaziyatda ham o'zini anglay oladigan shaxs qilib yetishtirishga qaratiladi. Bolalar nafaqat oilasida balki ijtimoiy muhitda ham o'zini xavfsiz, bexavotir his qilishlari o'ziga bo'lgan „meni” ortishiga sabab bo' ladi.

Biz quyidagi shiorga amal qilishimiz kerak: “Uning yonida yoki orqasida emas, birgalikda!”, ya'ni ular bilan teng qadam bosishimiz va o'zlariga qo'yib berishimiz kerak. Bolaning shaxsiyatini rivojlantirishda tarbiya birinchi o'rinda turadi. Tarbiya jarayoni o'zgaruvchan xususiyatga ega, ya'ni u bola shaxsi va tarbiyachi o'rtasida turuvchi mezondir. Tarbiya, ikki tomonlama xususiyatga ega bo'lib, u tarbiyalanuvchidan tarbiyachiga – tarbiyachidan tarbiyalanuvchiga yo'naltiriladi.



**1-rasm. Shaxsiga yo'naltirilgan ta'limda muhim e'tibor talab qiluvchi tomonlar**

Zamonaviy ta'lim texnologiyalari asosida shaxsiga yo'naltirilgan ta'limda quyidagi holatlarga e'tibor qaratiladi (1-rasm). Bunda eng asosiy omil tarbiyalanuvchining ongi, his-tuyg'usi, xulqiga ta'sir etishdir. Bundan keyingi o'rinlarda tarbiyalanuvchining tashqi ta'sir asosida o'z-o'zini tarbiyalashi, shaxs tarbiyasi bilan bog'liq barcha sohalarning o'zaro aloqasi, shaxsni shakllantirishda aqliy, axloqiy, estetik va boshqa tarbiyaning tarkibiy qismlari uyg'unligiga erishishi, shaxsni shakllantirish jarayonining tizimliliigi va tarbiyalanuvchining bilim darajasini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi.


Shaxsiga yo'naltirilgan yondashuv asosida bolalarning intellektual va emotsional-motivatsion rivojlanishi, ta'lim jarayoniga qadriyat sifatida yondashish munosabatini ta'minlash, faollikni oshirish, o'z-o'zini anglash va mustaqilligi, erkinligi, mas'uliyat hissini shakllantirish yotadi. Shaxsiga yo'naltirilgan yondashuv bolalarning haqiqiy shaxsiy qiziqishlari va ehtiyojlari amalga oshiriladigan, ularning shaxsiy tajribalari va bilimlari samarali to'planadigan o'quv muhitini yaratishni o'z ichiga oladi. Har bir o'quvchining individual xususiyatlariga mos keladigan, uning bilim olishga bo'lgan qiziqishini oshirishga xizmat qiluvchi



markazlashtirilgan texnologiyalar, ta'lim va tarbiyaning usul va vositalari aniqlangan.

Shu bilan birga, u turli xil ta'lim vositalaridan foydalangan holda bolalarning munosabati va faoliyatini tashkil qilishni o'zgartiradi (2-rasm).

Jumladan, tadqiqotlar bolalarda muammolarni yechish, izlanish, tajriba singari tomonlarining o'sishiga yordam beradi. Kommunikativ vositalar esa munozara, nutqni rivojlantirish, fantaziya, notiqlik qobiliyatlarini shakllantiradi. Bundan tashqari o'yinlardan va bolalarning o'z taqdirini o'zi belgilash, o'zini o'zi boshqarish, himoya qilish, o'zini o'zi tarbiyalash jihatlarini o'stiruvchi psixologik vositalardan foydalaniladi. Refleksiya esa bolalarda individuallik va o'ziga bo'lgan ishonchni oshirib borishga yordam beradi.



**2-rasm. Bolalarning shaxsini shakllantirishda foydalaniladigan ta'lim vositalari<sup>1</sup>**

Ta'limning an'anaviy tizimida tarbiyachi markaziy o'rin egallagan bo'lsa, zamonaviy ta'lim tizimida esa tarbiyalanuvchi asosiy subyekt sifatida e'tirof etiladi. Ya'ni, pedagogik faoliyat markazida an'anaviy ta'limda bo'lgani kabi o'qitish emas, balki ta'lim oluvchining bilish faoliyati, uning intellektual qobiliyatini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shaxsning intellektual salohiyatini shakllantirish fan asoslarini o'rganish va o'zlashtirish bilan birga aqliy faoliyatning maqsadga muvofiq usullariga ega bo'lishni ham nazarda tutadi. Aqliy faoliyat nafaqat bilim asoslarini egallash, balki o'zlashtirilgan bilimlarni qiyoslash, tahlil qilish, sintezlash, abstraktlash, umumlashirish va ularni turli vaziyatlarda amalda qo'llay olish tajribasiga ega bo'lishni ham anglatadi. Shu tarzda faoliyatning samarali usuli umumlashiriladi hamda turli ko'rinishdagi faoliyatni xilma-xil usullar yordamida bajara olishning umumiy metodi shakllantiriladi.

Bola shaxsini shakllantirishda uning mustaqil fikrlay olish qobiliyatiga ega bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Shu bois, ta'lim tizimida ta'lim oluvchilarni fikrlashga, o'zlashtirilgan bilimlarni mushohada qilishga o'rgatish zarurdir.

Fikrlash qobiliyatiga egalik, birinchidan, ma'lumotlarni, axborotlarni o'zlashtirish, ularni o'zaro qiyoslash va umumlashirish, ikkinchidan, o'zlashtirilgan bilimlarni turli vaziyatlarda faoliyatni tashkil etishda qo'llay olish tajribasini nazarda tutadi. Bunday ko'nikmani shakllantirish uchun bolalarni turli masalalarni mustaqil yechishga o'rgatish, ularni harakatlar tizimi, tarkibiga ko'ra dastlab oddiy, keyin esa murakkab mashqlarni yechishga o'rgatish muhim.

An'anaviy ta'lim bolalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishda u qadar katta imkoniyatlarga ega emas edi. Ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishning muhim sharti – bolalarning bilishga yo'naltirilgan faoliyatlarining ijodiy xususiyat kasb etishiga erishish, mazkur jarayonni faollashtirish sanaladi. Bunda bolaga tayyor bilimlarni yetkazish emas, balki:

- tarbiyachilarni bolalar bilan o'zaro hamkorlikka yo'naltirish;
- ta'lim jarayonida bolalarni tarbiyachilarning buyruqlarini bajartirishdan cheklab, ularning faoliyatlarini faollashtirishga tayyorlash.

Demak, bilim olishdagi faollik bolalarda ijodiy qobiliyatni rivojlantirishning muhim shartidir. Bilim olishdagi faollik – shaxsning bilim olishiga bo'lgan intilishi, aqliy bilishga diqqatini kuchaytirishi va iroda kuchini namoyon etishga doir shaxs faoliyati hisoblanadi. Bundan tashqari shaxsning intellektual qobiliyatini rivojlantirish davr talabi bo'lib, uni kamolga yetkazishning muhim asosi sanaladi. Yuqori darajada intellektual qobiliyatga ega shaxs:

- ✓ tez o'zgaruvchan hayotiy vaziyatlarga moslashgan holda o'zini boshqara oladi;
- ✓ hayotiy muammolarni hal etishda mavjud bilim, ko'nikma va malakalarini faol qo'llay oladi;
- ✓ voqea-hodisalarga tanqidiy munosabatda bo'lib, mavjud muammolarni tahlil etish, vaziyatdan chiqish yo'llarini izlab topa oladi;

- ✓ yangi g'oyalarni, ijodiy fikrlarni boshqalarga tushuntira oladi;
- ✓ axborotlarni savodxonlik bilan o'zlashtira oladi.

Bilim olishdagi faollik – bola shaxsining bilim olishiga bo'lgan intilishi, aqliy bilishga diqqatini kuchaytirishi va iroda kuchini namoyon etishga doir shaxs faoliyati holati bo'lib, u faoliyatning quyidagi holatlarida namoyon bo'ladi:

- ✓ bolaning ijodiy faoliyatida bilim olish jarayonida idrok, diqqat, xotira, tafakkurni intensiv rivojlantirish;
- ✓ ma'naviy-axloqiy me'yorlarni bilish va ularga amal qilish (yaxshilik va yomonlik, hamdardlik va ko'rolmaslik, jasurlik va qo'rqqoqlik)ning farqiga yetish;
- ✓ o'zining shaxsiy xususiyatlari hamda hayotiy muammolarning mohiyatini tushunish;
- ✓ shaxsiy imkoniyat va layoqatlarini namoyon eta olish;
- ✓ o'z ustida ishlash, shaxsiy kamchiliklarini tushunib, ularning oldini olish qobiliyatiga ega bo'lish;
- ✓ o'z qadr-qimmatini aniqlash va o'zini hurmat qilish;
- ✓ bilish faolligini oshirish, tasavvurlarini boyitish, bilimlarini, tajriba va qiziqishlarini kengaytirish.

✓ Bolalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish shart-sharoitlari quyidagilardan iborat:

- ✓ har bir mashg'ulotda bolalarning his-tuyg'ularini uyg'otish, o'z faoliyatidan qanoat hosil qilishga erishish;
- ✓ bolalarning o'z salohiyati va qobiliyati darajasini bilishga erishish;

- ✓ qobiliyatli bolalar bilan individual ishlash dasturlarini tuzish;
- ✓ turli ijtimoiy guruhlar bilan muloqotga kirisha olish;
- ✓ o'z axloqi, ilmiy salohiyati, madaniy darajasini o'stirish ustida mustaqil shug'ullana olish;

✓ atrof-olamni o'rab turgan narsalar va voqea-hodisalarning o'zaro aloqadorlik qonuniyatlariga ijodiy yondashib, o'zgarishlarga ijodiy munosabatda bo'lish;

- ✓ bilim olishga rag'bat, axloqiy talablarga rioya etish.

Mustaqil izlanish, ijodiy topshiriqlarni yechish, olingan natijalarni umumlashirish hissiy kechinmalar bilan bevosita bog'liq bo'lib, u tabiiy holda bola nutqida aks etadi. Shu sababli maktabgacha yoshdagi bolalarni shaxsga yo'naltirilgan ta'lim asosida tarbiyalashda til madaniyatini tarbiyalash talab etiladi.

Tilni bilish uning asosiy vazifalari – aloqa, xabar, bilish, faoliyatni rejalashtirish va muloqotni tashkil etish, hissiy-estetik va ma'naviy-axloqiy ta'sir etish, tarbiyalash vositasi sifatida inson ehtiyojlarini qondiradi. Psixologik-pedagogik tadqiqotlarning natijalariga ko'ra (A.V.Petrovskiy, B.M.Nemenskiy va boshqalar) inson shaxsi mantiqqa nisbatan fikr va hissiyot birligiga e'tibor qaratadi. Boshqacha qilib aytganda, hissiyotlar insonni insonga aylantiradi.

<sup>1</sup> Muallif ishlarnasi

Bu holat turli fikrlarni qiyoslash muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Zero, qiyoslash, chog'ishtirish asosida shaxsning mantiqiy va kognitiv tasavvurlari til vositasida ifodalanadi.

Qiyoslashning fikrlash va bilish jarayonidagi muhim ahamiyati taniqli olimlar – Muhammad Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sinolar tomonidan alohida e'tirof etilgan bo'lib, ularning fikrlaricha, axborot, ma'lumotni tushunish fikrlashning asosi sanaladi. Borliqda kechayotgan har qanday voqea-hodisalarning mohiyati qiyoslash asosida anglanadi. Shu bois bolalarni ta'lim jarayonida qiyoslashga o'rgatish maqsadga muvofiqdir.

Qiyoslash (chog'ishtirish) umumiy va o'ziga xoslikni ifodalaydi. Umumiylik barcha o'quv fanlari doirasi (tahlil, sintez, qiyoslash) da, o'ziga xoslik esa muayyan predmet bo'yicha o'quv materiallarini o'zlashtirish jarayonida aks etadi.

Mavjud adabiyotlarning tahlili qiyoslashning quyidagi to'rt bosqichdan iborat ekanligini tasdiqladi: dastlabki belgilarni ajratish; umumiy va muhim belgilarni aniqlash; qiyoslash uchun asosiylarini ajratish; berilgan asosiy belgilar bo'yicha qiyoslash.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim va e'tibor jamiyatga, xususan, inklyuzivlik, ijtimoiy hamjihatlik, tenglik, mehnat ishtiroki va boshqalarga chuqur ta'sir ko'rsatishi mumkin va bunda unga sarmoya kiritish muhim ijtimoiy va iqtisodiy samaralar beradi. Buning sababi, maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim va e'tibor to'g'ridan-to'g'ri ota-onalar va bolalarga, shuningdek bilvosita ota-onalar orqali bolalarga va mahalliy jamoalarga ta'sir ko'rsatadigan bir nechta qoidalardan biridir. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim va e'tibor ota-onalarning mehnat bozorida imkoniyatlariga va shu tariqa daromadga ta'sir qilishi mumkin.

Bundan tashqari, u mahalliy hamjamiyatlarning ijtimoiy hamkorligi va inklyuzivligini kuchaytirishi mumkin. Shubhasiz, barcha maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim va e'tibor bu ambitsiyalarni bajarmaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim va e'tibor kutilgan natijalarni berishi darajasi uning sifatiga bog'liq bo'ladi. Aniqrog'i, foydalanish imkoniyati, ishchi kuchi sifati, o'quv rejasi, qanday monitoring qilinishi va boshqaruv mexanizmlarining sifatiga bog'liq.

Bugungi kunda shaxsning dunyoqarashi, uning jamiyatda tutgan o'rnini, shaxs va shaxslararo munosabatlarning qaror topishi, shaxs va davlat, shaxs va jamiyat munosabatlari, uning burchi va mas'uliyati, ijodiy qobiliyati va intellektual salohiyatini tarkib toptirish muhim sanaladi. Zamonaviy pedagogika ta'lim jarayonini texnologik yondashuv asosida tashkil etish va uni shaxsga yo'naltirish g'oyalarning ustuvorligi bilan an'anaviy ta'limdan farqlanadi.


Tub ta'limiy islohotlar amalga oshirilayotgan mavjud sharoitda ta'lim jarayoni o'zaro hamkorlikka asoslanadi va o'ziga xos xususiyat kasb etadi. Zero, tarbiyaning samarali bo'lishiga bir qator omillar sezilarli ta'sir etadi, shu sababli sub'yektiv va ob'yektiv omillardan maqsadga muvofiq foydalanish, tarbiyachi va tarbiyalanuvchi o'rtasida o'zaro hamkorlikni qaror toptirish talab etiladi. Afsuski, bundan tashqarida turuvchi omillar ham borki, ular ushbu ta'lim jarayonini tashkil etishda to'siqlar hosil qiladi, shu kabi ta'lim jarayonini tashkil etishdagi ustunliklar va kamchiliklarga quyidagi "SWOT-tahlil" da to'xtalib o'tildi.



### 3-rasm. Bola shaxsini shakllantirishdagi yuzaga keladigan vaziyatlarning SWOT tahlili<sup>1</sup>


Ushbu tahlildan ko'rinib turibdiki, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bola shaxsiga yo'naltirilgan o'quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil etish uning shaxsiy individual xarakter xususiyatlarini hisobga olgan holda bosim o'tkazmasdan, ta'limning bolaga mos variantini ishlab chiqish va uning qiziqishlarini inobatga olish singari ustun tomonlarga ega. Afsuski, bu jarayonda rivojlanishida nuqsoni bor va imkoniyati cheklangan bolalarda tarbiyachi bir qator qiyinchiliklarga duch kelishi kabi muammolar ham mavjud.

Qo'qon shahridagi 3 ta maktabgacha ta'lim tashkilotlari (N°27, N°12 va N°6 – davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti)da mustaqil tarzda o'tkazilgan so'rovnoma orqali olingan natijalar ham shuni ko'rsatadiki, 50% dan yuqori qatnashuvchilar so'rovnomaning bosh savoli, ya'ni, shaxsni shakllantirishda pedagogik jarayonlarning ahamiyati yuqori, deb o'ylaydilar va bundan to'liq foydalanadilar.



### 4-rasm. Shaxsni shakllantirishda pedagogik jarayonlarning ahamiyati va ulardan foydalanishning darajasi (foiz ko'rinishida)<sup>1</sup>

Umumiy qatnashgan 50 nafar tarbiyachidan 20%i ba'zida foydalanib turishini ma'lum qilgan, qolgan 30 % foiz, ya'ni 15 nafar tarbiyachi esa ushbu jarayonlar mutloq ahamiyatsiz emasligini, lekin foydalanmasligini qayd etganlar. (4-rasm)



### 5-rasm. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarga beriladigan erkinlik darajasi

So'rovnoma jarayonida pedagogik shaxsiga yo'naltiruvchi texnologiya, ta'limiy va o'yin faoliyatlarida, shuningdek, erkin faoliyatlar davomida ta'lim amaliyotiga kirib kelayotgan yangiliklarni tatbiq qilish, tarbiyalanuvchilar o'z-o'zini anglashi va mustaqilligi, erkinligi, mas'uliyat hissini shakllantirish jarayoniga tayyorlashda kimlarning ko'proq mas'ulligi, maktabgacha yoshdagi bolalarni shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim asosida tarbiyalashda shaxsiga yo'naltiruvchi qanday pedagogik texnologiyalardan, metodlardan foydalanish, bolalarda shaxsni shakllantirishga yo'naltirilgan noan'anaviy usullardan foydalanishning ijobiy va salbiy tomonlari singari savollarga javob yig'ilib, quyidagi natijalar olindi.

Ta'limiy va o'yin, shuningdek, erkin faoliyatlar davomida ta'lim amaliyotiga kirib kelayotgan yangiliklarni tatbiq qilish, degan savolga deyarli 80 % tarbiyachi ham qo'llayman hamma vaqt, deya javob berdilar.

Tarbiyalanuvchilar o'z-o'zini anglashi va mustaqilligi, erkinligi, mas'uliyat hissini shakllantirish jarayoniga tayyorlashda kimlarni ko'proq mas'ul, deb o'ylaysiz?, degan savolga tarbiyachilarning 50% tarbiyachi va ota-ona, degan bo'lsa, qolgan 50% tarbiyachi, deb javob qaytarishdi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi bolalarga beriladigan erkinlik, mustaqillik darajasi xususidagi savolga 31 nafar tarbiyachi to'liq erkinlik variantini ma'qul ko'rishini, bunga sabab sifatida esa Mariya Montessori, Regio Emilia uslublarida ham birinchi o'rinda erkinlik turishini ko'rsatishgan. 19 nafar tarbiyachi "yo'q juda ham zarur emas", deb hisoblashgan, chunki yosh tarbiyalanuvchilar odatda ko'p narsani o'rganishga muhtojligi, ular mustaqil tarzda qolgan o'zini yolg'iz his qilishini sabab qilib ko'rsatishgan.(5-rasm)

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarida shaxsiy hislatlarini shakllantirish yuzasidan qo'llaniladigan metodlar so'ralganda tarbiyachilar turli xil metodlarni misol qilib keltiradilar. Masalan "Hikoya metodi", "Evristik metodidan", "Klaster", "6x6x6" metodini ko'rsatadilar, yana birlari esa oddiygina "kuzatish" metodini misol qilib keltiradilar.

Faoliyatingiz davomida an'anaviy metodlardan foydalanish qulaymi, yoki yangi pedagogik texnologiyalar, bandida esa 60 % tarbiyachilar an'anaviy metodlardan variant ma'qul, deb topgan chunki bu bolalarga odat sifatida singdirilgan va doimiy bajarib kelingan boshqa metodlar esa qo'llash uchun noqulay ko'riladi.

### TADQIQOT MUHOKAMASI

Bolani tushunish uchun – bolani bilishning o'zi yetarli emas, o'zingizni uning o'rniga qo'ya bilish, dunyoni uning ko'zi bilan ko'ra bilish kerak. "Hamma narsani tushunish qobiliyati" va "Bolalik tuyg'usi" V.A. Suxomlinskiyning nazarida pedagogik donolikning ko'rsatkichi sifatida qaraladi<sup>2</sup>. Bunda hamma narsani tushunish va bolalik tuyg'usini his qilish qobiliyati pedagog donoligining ko'rsatkichi hisoblanadi, ya'ni bolalik tuyg'usini his qilgan tarbiyachi, albatta, bola bilan birgalikda uning dunyosini ko'ra biladi.

Ichki olamini turli ma'lumotlar bilan boyitadi, ma'naviy ozuqa beradi, ruhiy holatini to'g'ri baholay oladi, imkoniyati va intilishlariga ishonch bildiradi. Bolaga rivojlanishi uchun qulay muhit yaratadi. Oilada ota-onasi, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida esa tarbiyachi bu muhitni yaratishga burchli. Bolalarning erishgan yutuqlari va kamchiliklari ota-ona bilan maktabgacha ta'lim hamkorligi natijasidir. Bola bilan ishlashda, ayniqsa, individual yondashuv jarayoni ham bolaning xususiyatlarini aniq ochib bera oladi, bunda bolaning yorqin individualligini rivojlantirish uchun e'tibor, mehr va ozroq sabr-toqat kerak bo'ladi, xolos.

Ma'lumki, insonparvarlik, insonning o'z qadr-qimmatini tushuntirish, uning jismoniy va axloqiy salomatligini tan olish, hayotning mazmuni va undagi faol mavqeini, shaxsiy erkinligi va

1 Manba muallif tomonidan ishlangan

1 Manba so'rovnoma natijalari asosida muallif tomonidan ishlangan

2 V.A. Suxomlinskiy."Hamma narsani tushunish qobiliyati" va "Bolalik tuyg'usi".

o'z salohiyatini maksimal darajada ro'yobga chiqarish imkoniyatlarini anglashni bolaga qadriyat sifatida singdirishimiz juda muhim. Ushbu vazifalarni amalga oshirish vositalariga tushunish, o'zaro muloqot va bola bilan hamkorlik kiradi.

Mashhur psixolog olim L.S.Vygotskiy bola shaxsi to'g'risida quyidagicha fikr yuritadi: shaxsga yo'naltirilgan ta'limda tarbiyachi quyidagi pozitsiyalarga ega bo'lishi zarur: bolaga optimistik yondashuv-tarbiyachi bilan bolaning shaxsiy salohiyatini rivojlantirish istiqbollari va uning rivojlanishini maksimal darajada oshirish qobiliyatini ko'rish istagini paydo qiladi. Bolaga o'z xohishi va tanlovi bilangina o'rgatishimiz hamda o'z faoliyatini ko'rsatishga qodir bo'lgan shaxs sifatida munosabatda bo'lishimiz dardkor.

Har bir bolaning shaxsiy layoqati va qiziqishlarini hisobga olib, bilim va ijtimoiylashuvga yetaklashimiz, ularni to'g'ri yo'naltirish va rivojlanishi uchun ko'maklashishimiz kerak. Chunki bola ijtimoiy muhitga kirishni xohlamasa, biz majburlaganimiz yoki qiziqirganimiz befoya. Shaxsga yo'naltirilgan ta'limning mazmuni kelgusida o'z shaxsiyatini qurish va hayotdagi shaxsiy mavqeini aniqlashda yordam berish, bola uchun muhim qadriyatlarni tanlash va ma'lum bir bilim tizimini egallash hamda qiziqish va hayotiy muammolarni aniqlash, ularni o'zlariga mustaqil hal qilish usullarini o'zlashtirishi, o'z "men"idagi dunyosini kashf qilish va uni boshqarishning asosiy qobiliyatidan iborat. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuvning mohiyati o'zaro bog'liq tushunchalar, g'oyalar va harakatlar usullari tizimiga o'z-o'zini anglash, o'z-o'zini qurish va bolaning shaxsiyatini o'z-o'zini anglash jarayonlarini ta'minlash va qo'llab-quvvatlash, uning noyob shaxsiyatini rivojlantirish imkonini beruvchi pedagogik faoliyatda uslubiy yo'nalishdir<sup>3</sup>.

Davlat, maktab, maktabgacha ta'lim tashkiloti va ota-onalar oldida o'ta muhim vazifa turibdi: har bir bolaning nafaqat jamiyatning ongli a'zosi, balki sog'lom va baquvvat inson bo'lib voyaga yetishini ta'minlash muhim ustuvor vazifadir. Ayni paytda mamlakatimizda ta'limni sifat jihatidan yangilash jarayoni jadal olib borilmoqda, uning madaniy, rivojlanish, shaxsiy salohiyati mustahkamlanmoqda.

Zamonaviy jamiyat kognitiv va faol, ijodkorlik va tadqiqot faoliyati, hayotiy muammolarni mustaqil va faol ravishda o'rganish va yechimlarni topishga qodir faol shaxsga muhtoj. Bunday shaxsning asoslari maktabgacha bolalik davrida qo'yilishi kerak (A.N. Poddyakov, Z.A. Mixaylova, V. Syurkevich, A.M. Matyushkin, Ya.A. Ponomarev). Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, maktabgacha ta'lim bolaning tadqiqot faoliyati va tashabbusini rivojlantirishni ta'minlash, o'zini o'zi rivojlantirish va anglash mexanizmlarini yaratish uchun mo'ljallangan.<sup>4</sup>

Tadqiqot faoliyati maktabgacha yoshdagi bolaning atrofdagi dunyoni bilishdagi sub'yektiv pozitsiyasini shakllantirishga yordam beradi va shu bilan maktabga tayyorligini ta'minlaydi. Shuni ta'kidlash kerakki, aynan katta maktabgacha yoshdagi bolalar uchun muhim shart-sharoitlar yaratilgan. Maqsadli bolalarning tadqiqot faoliyatini rivojlantirish: fikrlash imkoniyatlarini rivojlantirish (A.N.Poddyakov, I.S.Freydkin, O.M.Dyachenko), kognitiv qiziqishlarini shakllantirish (J.I.M.Manevtsova, N.K.Postnikova, E.V.Boyakova, M.JI.Semenova), ishlab chiqarishni rivojlantirish. (T.S.Komarova, N.P.Sakulina, N.A.Vetlugina) va ijodiy faoliyatni maktabgacha ta'limdagi ahamiyati to'g'risida tadqiqot olib borishgan.

Bularning barchasi rivojlanish uchun haqiqiy zamin yaratadi. Tadqiqot katta maktabgacha tarbiyachining ko'nikmalari va uning tadqiqot faoliyatini takomillashtirish va maktabgacha yoshdagi bolalarning tadqiqot faoliyatini rivojlantirishning mumkin bo'lgan vositalari orasida bolalar eksperimenti alohida e'tibor kerakligini A.N. Poddyakov o'z asarlarida ta'kidlaydi. Atrofdagi voqeilik ob'yektlarini bilish va o'zgartirishga qaratilgan faoliyat bolalarning tajriba ufqlarini kengaytirishga, tajribani boyitishga yordam berishi mustaqil faollik, bolaning o'zini o'zi rivojlantirishiga asos bo'lishini e'tirof etadi. Shu bilan birgalikda, hozirgi vaqtda bolalar eksperimentining ma'lum jihatlarini I.E. Kulikovskaya o'z ilmiy

ishlarining xulosalarida keltirib o'tgan. O.V. Dybina, A.I. Savenkova, O.V. Afanasyeva bolalarning o'ziga xosligi va turlari tajriba (A.N. Poddyakov), mifofaktoriy ob'yektlar bilan ishlash sharoitida maktabgacha yoshdagi bolalarni o'zgaruvchan qidirish xususiyatlari (A.N. Poddyakov), bolalar bog'chasida eksperimentni tashkil etish imkoniyatlari asoslarini ochib beradi. (O.V. Dybina, J.I.H. Proxorova, I.E. Kulikovskaya esa maktabgacha yoshdagi bolaning tadqiqot faoliyatining yosh potentsialini amalga oshirishni sezilarli darajada murakkablashtirishini keltirib o'tishgan va buni amaliyot tahlillari orqali tasdiqlab o'tishgan. Bu shuni ko'rsatadiki, har doim ham bolalar eksperimentida tadqiqot faolligi va bolaning yanada murakkab, qiziqarli muammolarni hal qilishga o'tish istagi ortib boravermaydi.

Bola tarbiya sub'yekti, pedagogik jarayon ishtirokchisidir va buning uchun u o'z tarbiyachisiga ishonishi, uni do'st sifatida ko'rish, uning yordamini his qilishi, tarbiyachi, ota-ona unga do'st ekanligini tushunishi kerak. Ana shu tamoyillarga amal qilgan holdagina bolada e'tibor, olijanoblik, mehr-oqibat, vatanparvarlik, mehr-oqibat, ishonch, burch, qadr-qimmat, aql-zakovat, go'zallik, madaniyatlilik, donolik, bilimlilik, mas'uliyat, anglash, vijdon, hamdardlik, mehr-oqibat kabi fazilatlarini tarbiyalash mumkin. Bu orqali bolalar adolat, rahm-shafqat, hamdardlik, xushmuomalalik, mehnatsevarlik, sharaf kabi tuyg'ularni e'zozlaydilar.

Bolaga hurmat – har bir bolada shaxsiyatni ko'rish, uni hurmat qilish tarbiyachining zaruriy fazilatlaridan biri ekanligini ta'kidlab o'tamiz.

Bolaga ishonning – pedagogik jarayon muvaffaqiyatining kaliti, bolaga ishonish sen uddalaysan, eplaysan so'zlarini aytish, ishonch hissini tuyishi uchun kuch berish kerak.

Bolani tanish – har bir bolaning ruhini bilmasdan turib, ta'lim olish mumkin emas.

Bolaning ma'naviy olami va tabiatiga g'amxo'rlik qiling. Barcha bolalar har xil, har birining o'ziga xos ma'naviy dunyosi bor, ular maktabgacha ta'lim tashkilotlariga o'zlarining shakllangan tajribasi, odatlari, qarashlari bilan kelishadi. Biz bolaning tabiatini o'zgartirishimiz, faqat to'g'riga yo'naltirishimiz bolaning hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Bola yoshlik chog'idanoq o'z qadr-qimmatini himoya qila olmaydi, lekin bu ishni tarbiyachi o'z bilimlari orqali bola shaxsiyatini shakllantirish davomida berib, bolaning pozitsiyasini aks ettiradi.

Bolani tushunish uchun uni bilishning o'zi yetarli emas, o'zingizni uning o'rniga qo'ya bilishingiz, dunyoni uning ko'zi bilan ko'ra bilishingiz kerak. Pedagog shaxsga yo'naltirilgan ta'lim asosida ta'lim-tarbiya berish uchun har bir bolaning xarakter xususiyatlari, temperamenti, psixikasini bilishi zarur. Pedagog bolaning shaxsiy xarakter xususiyatlarini o'rganishda uning ota-onasi yoki yaqin kishilari bilan muloqotda va hamkorlikda bo'lishi kerak.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Bola shaxsga yo'naltirilgan badiiy-estetik ta'lim natijalariga ko'ra, tadqiqotlardan shuni xulosa qilib keltirishimiz mumkin, bola o'zi uchun yo'nalish tanlar ekan har bir bolada estetik ong doirasi: hissiyotlar, baholashlar, didlar, mulohazalar, ideallar, qadriyatlar, imidjlar, qarashlar o'ziga xos tarzda rivojlangan bo'ladi va o'ziga xos shaxs sifatida kamol topishida, uning ehtiyojlari, hissiy-sezgilari, baholashlarini ochib berishga ko'maklashishni o'z burchimiz, deb bilmog'imiz muhimdir. Shularni inobatga olgan holda biz bola shaxsining intellektual rivojlanishi uchun, albatta, zamonaviy ta'lim tizimini tatbiq etishimiz zaruriyati vujudga kelganligini anglashimiz lozim. Bolada estetik munosabatlar va ularning xulq-atvori, idrok etishi, baho berish layoqati, birgalikda yaratish va mustaqil ijodkorlik, shuningdek, tahlil qilish kabi xususiyatlari asta-sekinlik bilan shakllantirishimiz zarur.

Shuni ta'kidlash kerakki, bolaning shaxsiyatini o'rganmasdan turib, bola shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni amalga oshirish mumkin emas. O'tkazilgan tadqiqotlar asosida yuqoridagi xulosalar bilan birgalikda quyida bir qancha takliflar ishlab chiqildi.

3 Cazden, C. B. (1996). *Selective traditions: Readings of Vygotsky in writing pedagogy*. In Hicks, D. (Ed.). *Child discourse and social learning*:

An interdisciplinary perspective, 165—186. New York: Cambridge University Press

4 Одаренность и возраст. Развитие творческого потенциала одаренных детей: Учебное пособие/Под. ред. А. М. Матюшкина. — Москва-Воронеж, 2004.

Bola shaxsiga g'amxo'rlik – bolaning his-tuyg'ularini hisobga olib, ularga o'zlari xohlagandan-da yuqoriroq g'amxo'rlik va muruvvat hissini ko'rsatish lozim.

Farzandlarga sevgi insonparvarlik tamoyilining eng muhim tarkibiy qismi ota-onaning tarbiyachining eng qimmatli va muhim sifati ekanligini uqtirishimiz kerak.

Shunday qilib, bolalar shaxsini shakllantirish va rivojlantirishda pedagogning ta'lim jarayonidagi o'rni juda katta, bir tomondan, u o'zi shaxs bo'lishi, bola undan kutgan idealga mos kelishi kerak, ya'ni kasbiy va shaxsiy axloqiy fazilatlarga ega bo'lishi va boshqa tomondan, u bolalarning o'z-o'zini

rivojlantirishiga ta'sir qilish uchun bunday kasbiy fazilatlarni, pedagogik malakani egallashi kerak.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti psixologi har bir bola bilan individual ishlashi hamda tarbiyachi bilan hamkorlikda ish olib borishi zarur. Tarbiyachi bolaga bosim o'tkazmasligi, uni qiziqishlaridan kelib chiqqan holda bir qolipga solmasdan ta'limning bolaga mos shaklini qo'llashi, xarakteri og'ir bo'lgan bolalar bilan ijtimoiy muhitga, jamoaga moslashtiradigan harakatli o'yinlar orqali rivojlantiriladi. Giperaktiv tarbiyalanuvchilarni rivojlantirish esa tinchlantiruvchi o'yinlar (pazl, lego va didaktik o'yinlar) orqali amalga oshiriladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4312-sonli qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 - 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son farmoni.
3. Ro'ziyeva D. I. Tolipov O'. Q. "Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat".
4. Yo'ldoshev H.Q. "Barkamol avlodni tarbiyalashda oila, mahalla, MTT konsepsiyasi". –T. 2018.
5. A. С. Макаренко. Педагогическая поэма
6. А. Н. Леонтьев. Деятельность. Сознание. Личность
7. А. А. Bodalev "Bolalarning muloqot psixologiyasi".
8. Cazden, C. B. (1996). Selective traditions: Readings of Vygotsky in writing pedagogy. In Hicks, D. (Ed.). Child discourse and social learning: An interdisciplinary perspective, 165—186. New York: Cambridge University Press
9. Одаренность и возраст. Развитие творческого потенциала одаренных детей: Учебное пособие/Под. ред. А. М. Матюшкина. — Москва-Воронеж, 2004





## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA BOSHQARISH VA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARINI BELGILASH

Rahimberdiyeva Yulduz

Qo'qon universiteti Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabasi

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATSIYA
<p><b>Qa bul qilindi:</b> 24-may 2022-yil <b>Tasdiqlandi:</b> 26-may 2022-yil <b>Jurnal soni:</b> 4 <b>Maqola raqami:</b> 7 <b>DOI:</b> <a href="https://doi.org/10.54613/001222">https://doi.org/10.54613/001222</a></p> <p><b>KALIT SO'ZLAR</b> professional mahorat, ta'lim standartlari, texnologik jarayonlar, avditoriya, ijtimoiy fikr, KPI tizimi.</p>	<p>Maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarini boshqarish va rivojlantirishning o'ziga xos usullari va vositalarini tatbiq etish masalalari o'rganib chiqilgan. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining boshqaruvini takomillashtirish va rivojlantirish texnologiyalarini amaliyotga joriy qilish masalalari tahlil etilgan. Chet el tajribasi asosida maktabgacha ta'lim tizimlarini boshqarishning dolzarb jihatlari ham alohida o'rganib chiqilgan. Tizimli boshqaruv jarayonidagi kamchiliklar o'rganilib, to'g'ri tashkil qilish yo'llari keltirilgan. Boshqaruv strategiyasining ta'lim tizimida tutgan o'rni haqida atroflicha to'xtalib o'tilgan.</p>

### KIRISH

O'tgan davr mobaynida mamlakatimizda o'sib borayotgan avlodni sog'lom va har tomonlama yetuk voyaga yetkazish, ta'lim-tarbiya jarayoniga samarali ta'lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etishga qaratilgan maktabgacha ta'limning samarali tizimini tashkil etish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-sonli qarori ushbu sohada tub o'zgarishlarning amalga oshishiga asos bo'ladi<sup>1</sup>

Ushbu konsepsiya O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'limni rivojlantirishning maqsadlari, vazifalari, ustuvor yo'nalishlari, o'rta va uzoq muddatli istiqboldagi bosqichlarini belgilaydi hamda maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirishga yo'naltirilgan dasturlar va kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun asos bo'ladi. Jumladan, ushbu konsepsiyaning 3-bobi Maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning maqsadlari va ustuvor yo'nalishlari qismida maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari quyidagilar etib belgilandi:

- maktabgacha ta'limni boshqarish tizimini takomillashtirish, maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatini moliyalashtirishning shaffofligi va samaradorligini ta'minlash;
- maktabgacha ta'lim sohasidagi me'yoriy-huquqiy bazani yanada takomillashtirish;
- bolalarni sifatli maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish ko'lamini oshirish, undan teng foydalanishi imkoniyatlarini ta'minlash, mazkur sohada davlat-xususiy sherikchiligi rivojlantirish;
- maktabgacha ta'lim tizimiga innovatsiyalarni, ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;
- maktabgacha ta'lim tizimiga xodimlarni tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish, tanlab olish va rivojlantirishga mutlaqo yangi yondashuvlarni joriy etish.

Shuningdek, maktabgacha ta'lim tizimida yagona davlat siyosatini amalga oshirish va bog'cha yoshidagi bolalarni MTTga qamrab olish bugungi kunning muhim masalalaridan biridir. Ushbu maqsadga erishishda Vazirlar Mahkamasining «Maktabgacha ta'lim sohasida davlat-xususiy sherikchilik munosabatlarini yanada qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar

to'g'risida»<sup>2</sup> gi qarori bog'chalar sonini oshirishda muhim rol o'ynadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini boshqarish va rivojlantirish istiqbollarini belgilashda maktabgacha ta'lim tizimiga menejment tushunchasi kirib kela boshlandi. Ko'p yillar davomida menejment eng kam xarajat evaziga eng yaxshi natijalarga erishish uchun bir guruh odamlarga ishlab chiqarish jarayonida o'z faoliyatini tashkil etish va muvofiqlashtirishga ta'sir qilishning uzluksiz va maqsadli jarayoni sifatida ta'riflangan.

Umuman olganda, menejment deganda rahbarning boshqa odamlarning mehnati, aql-zakovati va xatti-harakatlarining motivlaridan foydalangan holda o'z maqsadlariga erishish qobiliyati tushunilishi mumkin, boshqacha qilib aytganda, bu fan va san'atning uyg'unlashuvidir. Odamlarni boshqarish va ijtimoiy jarayonlarga quyidagi ta'rifni berish mumkin: Pedagogik menejment - ta'lim jarayonini boshqarishning uning samaradorligini oshirishga qaratilgan tamoyillari, usullari, tashkiliy shakllari va texnologik usullari majmuidir.<sup>3</sup>

**Biroq zamonaviy tadqiqotchilar quyidagicha fikr bildirishadi:** Maxsus faoliyat odamlarning birgalikdagi faoliyati va maqsadlariga erishish jarayonida ular o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan ta'lim menejmenti haqida G. Xamidova, O. Astanokulov, A. Matchanovlarning "Innovatsion menejment" kitoblaridan ham o'rganishimiz va shu asnoda turli xil yangiliklarni ishlab chiqishimiz mumkin. Bundan tashqari: G.K.Abdurahmonovning "Inson resurslarini boshqarish" darsligida ham inron resurslaridan samarali foydalanish, boshqaruvning zamonaviy uslublari, korxonalarini boshqarishda o'ziga xos samarali vositalardan foydalanish masalalari bayon etilgan. Eng asosiysi, D.X.Jo'rayev, S.T Turg'unovlarning "Talim menejmenti" kitoblari ham o'rganib, ulardagi ma'lumotlarni amalga qo'llash ko'nikmalarini ko'rib chiqamiz.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbarlari o'z tashkilotini boshqarishda innovatsion yondashuvlarga asoslanishi;

- kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan shaxsiy sifatlariga ega bo'lishi, ixtiyoriy vaziyatlarda o'zini-o'zi nazorat qila olishi;
- shuningdek, ta'lim muassasasida hukm suruvchi tarbiyaviy munosabatlarni e'tiborga olgan holda faoliyat olib borishi;
- turli xil masalalar va muammolarni hal etishda mavjud huquqiy-me'yoriy mezonlarga asoslanishi lozim.

1 O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 8-may 2019-yildagi PQ-4312-son qarori <https://lex.uz/docs/-4327235?ONDATE=10.05.2019>

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha ta'lim tizimini yanada rag'batlantirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018-yil 5-apreldagi PQ-3651-son qarorida belgilangan vazifalarning ijrosini ta'minlash, maktabgacha ta'lim sohasida davlat-xususiy

shariklik munosabatlarini yanada rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qarori. <https://lex.uz/docs/-4072945>

3 Tretyakov P.I., Belaya K.Yu. Maktabgacha ta'lim muassasasi: natijalar bo'yicha boshqaruv. M.: Yangi maktab, 2001; 2003. internet manbasi: <https://koreajob.ru/uz/menedzhment-v-doshkolnom-obrazovani-uchebnoe-posobie-menedzhment-v-doshkolnom/>.

Boshqaruv uslublari: avtoritar, demokratik, liberal kabilar to'g'risida R.X Jo'rayev. S.T. Turg'unovlarning "Talim menejmenti" kitobidan ko'rib, tahlil qilamiz.

### TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ta'limni boshqarish – bu mavjud resurslarni samarali boshqarish orqali ta'lim maqsadlariga erishish vositasi. U o'qitish va o'rganish maqsadlariga erishish uchun atrof-muhitdagi mavjud resurslardan yetarli darajada foydalanish bilan bog'liq. U har doim inson munosabatlari bilan bog'liq bo'lib, asosiy tamoyillar to'plamiga asoslanadi va bolalarni tarbiyalashga qaratilgan. U bir qator funksiyalarni bajarishi kerak: rejalashtirish, tashkil etish, yo'nalish, motivatsiya berish, nazorat qilish, muvofiqlashtirish, qaror qabul qilish va oxirgisi – hisobot. Bu butun ta'lim dasturini samarali va konstruktiv maqsad bilan boshqaradigan maxsus faoliyatdir.<sup>4</sup>

Sifatli va miqdoriy tadqiqotning ikkita metodologiyasi mavjud. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida vaziyat haqida yaxshi umumiy tasavvurga ega bo'lish uchun sifatli tahlil qilish qulaydir (Starrin va Svensson 1994). Sifatli tadqiqot aniq raqamlar va raqamlarni hisoblash o'rniga tadqiqotning nima uchun va qandayligini o'rganishga qaratilgan. Sifat – tadqiqot tahlil qiladigan raqamli bo'lmagan ma'lumotlar to'plami.

Zamonaviy menejment nazariyasini empirik ravishda o'rganish uchun sifatli tadqiqot strategiyasidan foydalaniladi. Asosiy tadqiqot, ayniqsa tadqiqotchi ishtirokchilar uchun hodisaning ma'nosini tushunishga qiziqqanida juda mos keladi (Merriam 2009).

Asosiy tadqiqotlar qiziqish va mavjud bilimlarni kengaytirish istagidan kelib chiqadi (Kowalczyk 2015). Bu tadqiqot uchun eng mos usul, chunki u faqat yangi bilim olishga qaratilgan (Jane 2006). Ushbu tadqiqotda zamonaviy menejment nazariyasini qo'llash bo'yicha Bule Xore o'qituvchilar malakasini oshirish kolleji ishtirokchilari bilan yarim tizimli intervyular va fokus-guruh muhokamasi asosida tadqiqot o'tkazildi.

Maktabgacha ta'limni yanada takomillashtirish uchun boshqaruv jarayonini to'g'ri yo'lga qo'ya bilish lozim. Ushbu tadqiqotda intervyu usuli orqali boshqaruv jarayonini o'rganish borasida 10 ta intervyu savollarini tuzib, 250 nafar tarbiyachi pedagog, metodist va mudiralardan intervyu olish orqali boshqaruv jarayonini o'rganib chiqdik. Bu orqali boshqaruv jarayonidagi muammolar ham o'rganildi.

Tadqiqotda so'rovnomalar metodidan ham foydalanildi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatganligi sababli, tarbiyachilarning shaxsiy rivojlanishi borasida anonim so'rovnomalar o'tkazish usulidan foydalanildi.

Boshqaruv jarayonida SWOT tahlilidan foydalandik. Bu orqali jamoa va sherikchilik munosabatlarini o'rganib chiqdik.

Kuzatish metodi orqali maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rahbar va xodimlar munosabatini o'rganishga erishdik.

Taqqoslash usulimiz orqali davlat va xususiy maktabgacha ta'lim tashkilotlarida boshqaruv tizimi qanday, ularda qanday rivojlantiruvchi ishlar amalga oshirilayotganligini o'rgandik.

Bundan tashqari eksperimental metod orqali amalga oshirmoqchi bo'lgan loyihamizning kichik qismini bog'chalarda qo'llab, turli ijobiy natijalarni qo'lga kiritdik. Bu orqali yangi texnologiyalarni tajriba sinovi sifatida qo'lladik. Boshqaruvda zamonaviy metodlarga maktabgacha ta'lim tashkiloti xodimlarining munosabatini ham o'rgandik.


### TADQIQOT NATIJALARI

Tadqiqotimizda biz tarbiyachilar va maktabgacha ta'lim tashkilotlari xodimlaridan intervyu oldik. Bu orqali boshqaruvdagi holat qay tartibda ekanini o'rgandik. Tadqiqotimiz natijalarini tahlil qilib chiqdik.

Tadqiqotchilarning fikr-mulohazalarini o'rganib chiqdik va turli ma'lumotlarni oldik. Tadqiqotimizda biz ma'lum muammolarni o'rganib chiqishga harakat qildik.

Yuqoridagi rasmdan ko'rinadiki, 72% tarbiyachi-pedagoglarning o'z kasbidan qoniqish darajasi pastligi kuzatildi va ular tomonidan MTTdagi faoliyatning to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligi,

ish haqidan qoniqmaslik, belgilangan vaqtdan ortiqcha ishlash, tarbiyachi-pedagoglarning kamligi sababli ish yuklamasining ko'pligi kabi omillar ta'kidlab o'tildi. Binobarin, MTTlarida faoliyat olib borayotgan tarbiyachi-pedagoglarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish, ularning dam olishlari va sog'lig'ini tiklashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.




1-rasm. Tarbiyachilarni o'z kasbidan (faoliyatidan) qoniqish darajasi (foizda)<sup>5</sup>

"Ha", degan tarbiyachilar "biz faoliyatimizdan qoniqamiz, rahbarimiz ham faoliyatimiz uchun sharoitlar yaratib beradi", deb javob berishdi. "Yo'q", deb javob bergan tarbiyachilar "biz faoliyatimizda turli muammolarga duch kelamiz, ishlashimiz uchun yetarli imkoniyatlarni yaratib berishmaydi" deb izohlashdi. "Qisman" deb javob berishgan tarbiyachilar "biz bu faoliyatni o'zimiz qiziqib tanlamaganmiz, shuning uchun faoliyatimiz bizni qisman qoniqtiradi", deb izoh berishdi.

Tarbiyachilarning faoliyatiga yetarlicha imkoniyatlar yaratib berishimiz lozim. Masalan, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar sonining ko'pligi ularning ish faoliyatini to'g'ri yo'lga qo'yish, mashg'ulotlarni boshlashga bo'lgan imkoniyatini chegaralaydi. Shuning uchun bolalar sonini har bitta guruhda 10 nafardan etib belgilansa, har bir bola bilan individual ishlash imkoniyati ortadi, ta'lim-tarbiya samaradorligi ortishiga erishamiz. (1-rasm)

Tadqiqot natijalarimiz shuni ko'rsatadiki, tarbiyachilarga beriladigan ish haqi, ularni qoniqtirmasligini aniqladik. Shu sababli maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ko'pchilik tarbiyachilar yarim va 0.25 stavka ishlashayotganining guvohi bo'ldik. Shu bois tarbiyachilarda ish faoliyatiga bo'lgan qiziqish birmuncha past.

Biz aynan tarbiyachilarning ish haqini belgilashda KPI tizimini yo'lga qo'yishni taklif etamiz. Bu orqali tarbiyachilar qiladigan ishlariga bo'lgan munosabati, harakati, ilmiy ishlari, turli yangiliklaridan kelib chiqqan holda ish haqini belgilanishi taklif qilamiz. Shunda tarbiyachilarning ishlash samaradorligi yanada oshadi. Yangiliklarga bo'lgan qiziqishi, shaxsiy o'sish ko'rsatkichlarini oshirishga katta yordam beradi. Biz buni qo'llash orqali maktabgacha ta'lim tashkilotlarini rivojlantirishimiz va boshqaruvning yengillashiga erishamiz. "Ha" javobini bergan tarbiyachilar "olayotgan ish haqimiz bizning ehtiyojlarimizni qondiradi" deb izohladilar. "Yo'q" deganlar "bizning malakamiz, mehnatimizga berilayotgan ish haqi kam" deya javob berishdi.



2-rasm. Xodimlarning ish haqidan qoniqish darajalarini ifodalaydi<sup>6</sup>

4 Bule hora university college of business and economics department of management maqolasidan olindi.

5 Muallifning so'rovnomalar natijasiga ko'ra hisob-kitobi  
6 Muallifning so'rovnomalar natijasiga ko'ra hisob-kitobi



### 3-rasm. Jamo va sherikchilik munosabatlarining SWOT tahlili<sup>7</sup>

Bu holat bo'yicha quyidagicha taklif bermoqchimiz. Maktabgacha ta'lim tashkilotlariga KPI tizimini joriy etishni taklif

qilamiz. Bu tizimning afzalliklari har bitta xodim qancha ishlasa, qanday yangiliklar qilgan bo'lsa, ilmiy ishlar bilan shug'ullansa shunga yarasha ish haqi oshib boraveradi. Bu tizimni joriy qilish orqali tarbiyachilarda ishdan qoniqish va mamnunlik hissini oshirishga erishamiz. (2-rasm).


Boshqaruv jarayonida muhurligi yuzasidan SWOT tahlilidan foydalandik. Bu orqali juda ko'p ma'lumotlarni o'rgandik va tahlil qildik. Jamo va sherikchilik munosabatlarini SWOT tahlili orqali o'rganib chiqdik.

Biz maktabgacha ta'lim tashkilotlarida jamo va sherikchilik munosabatini yanada takomillashtirishni taklif etamiz. Bunda har bir maktabgacha ta'lim tashkilotlarining xodimlarida o'zaro sheriklik, ya'ni bir-birini o'zaro qo'llab-quvvatlashlari, har bir yangilikni, qarorlarni birdamlikda qabul qilishlari kerak. Chunki maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim tizimini uzviy rivojlantirishda jamo va sherikchilik munosabatlari muhim o'rinda turadi. Shuning uchun biz maktabgacha ta'lim tashkilotlarida jamo va sherikchilik munosabatlarini yanada mustahkamlash uchun har bir bog'chada xodimlar o'rtasida turli guruh bo'lib o'tkaziladigan tadbirlar, turli munozaralarni tashkillashtirish ularning bir-biriga bo'lgan munosabatlarini yanada yaxshilashga va bir-birlari haqidagi fikr-mulohazalarining yanada yaxshilanishiga olib keladi. (3-rasm)

### 1-jadval

#### Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari va xususiy maktabgacha ta'lim tashkilotlarida boshqaruv tizimining taqqoslama tahlili<sup>8</sup>

Davlat MTT	Xususiy MTT	Farq
- Boshqaruv jarayonlaridagi xodimlar o'rtasidagi o'zaro nizolar.	- Boshqaruv jarayonining mukammalligi.	Davlat va xususiy bog'chalarning boshqaruv tizimidagi farqlar. Xususiy bog'chalarda boshqaruvning kuchliligi.
- Faoliyat uchun yetarlicha shart-sharoit yo'qligi	- Shart-sharoitlarning talabga javob berishi	Davlat va xususiy bog'chalarda ish haqidagi farqlar. Xususiy bog'chalarning oylik maoshi yuqoriligi.
- Talabning kamligi	- Talabning yuqoriligi	Davlat va xususiy bog'chalarning xodimlarga bo'lgan talablardagi farqlar. Xususiy bog'chalarda kadrlarga bo'lgan talab yuqori va ularning faoliyati doimiy nazoratda bo'lishi.
- Kadrlarga bo'lgan munosabatning pastligi	- Kadrlarga bo'lgan talabning yuqoriligi.	-
- Ish haqining kamligi.	- Ish haqining yuqoriligi.	-
- Ota-onalarning talablariga to'liq javob bermasligi.	- Ota-onalar yuqori qiziqish bildirishi.	-
- Qo'shimcha mashg'ulotlarning kamligi.	- Qo'shimcha mashg'ulotlarning ko'pligi	-




### 4-rasm. Rahbar va tarbiyachi o'rtasidagi ishdan tashqari munosabatlar tahlili (foizda)

**Jadval uchun xulosaviy izoh.** Tadqiqotimiz natijasida biz maktabgacha ta'lim tashkilotlarining xususiy va davlat bog'chalarining boshqaruv tizimidagi o'zaro farqlarni o'rgandik va 2-jadvalda ularning natijalarini birin-ketin yozib chiqdik.

Tadqiqotimiz natijasi shuni ko'rsatdiki, biz xususiy va davlat bog'chalarini o'zaro taqqoslaganimizda, xususiy bog'chalarning reytingi va salohiyati ancha yuqori chiqdi. Xususiy bog'chalarda nafaqat boshqaruv tizimi balki ta'lim tizimi ham juda yaxshi yo'lga qo'yilganining guvohi bo'ldik. Yuqoridagi jadvalimiz orqali buni ko'rib chiqish mumkin.


Tadqiqotimiz davomida biz rahbar va tarbiyachilar o'rtasidagi munosabatlarni o'rganib chiqdik. Bu jarayoni o'rganishimizda biz bir qancha muammolarga duch keldik. Ko'pchilik rahbarlarning xodimlarga bo'lgan munosabati qoniqarli emas. Bu holat tarbiyachilarning ish faoliyatiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi. Bu holatlar biz xohlaymizmi yo'qmi tashkilotning rivojlanishiga katta ta'sir qiladi. Shuning uchun biz o'zimiz ishlab chiqqan platformadagi zamonaviy HR kurslarini rahbar xodimlarga taklif qilamiz. Bu kurslarimiz orqali haqiqiy rahbarga xos xususiyatlar va bilim, malaka, ko'nikmalar o'rgatiladi.

Biz bu kursimiz orqali juda ko'p rahbarlarni qayta tayyorlashga erishamiz. "Ha" deb javob bergan tarbiyachilar rahbarlarini haqiqiy liderlar deb bilishlarini aytishdi. "Yo'q" deb javob berishganlari rahbarining munosabatlarini yaxshi deb hisoblashmasligini aytdilar. Rahbarlarga turli xil boshqaruv tizimiga oid seminar-treninglarni har oyda 1 marta o'tkizilishini taklif qilamiz. (4-rasm)



5-rasm KPI tizimi bo'yicha ishlash to'g'risida<sup>9</sup>

KPI tizimining ma'nosi: **KPI** – bu ma'lum bir korxonaning samaradorligini belgilaydigan koeffitsiyent: u qanchalik yaxshi ishlaydi, o'z maqsadlariga erishadimi yoki yo'qmi? KPI tizimi bu tarbiyachilarning ish faoliyatidan qoniqish hissini hosil qiladi. Har bir pedagog xodimlarning birinchi xohish va istagi bu moddiyat bilan bog'liq. Ularning yaxshi ishlashi, ish faoliyatining samarali tashkil etilganligi ham aynan moddiyat bilan bog'liq. Tarbiyachilar uchun oyligi yetarli bo'lsa, ko'p imkoniyatlar yaratilsa, ularning xohish-istagi to'liq qondirilsa shundan keyingina biz ulardan rivojlanish, tashkilotni yuksaltirishni kutishimiz mumkin. KPI tizimi aynan shu imkoniyatlarni beradi va har bir pedagog xodim uchun qo'l keladi.



6-rasm Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rahbar va xodim o'rtasidagi munosabatlar nisbatini aniqlash<sup>10</sup>

**Asosiy Ko'rsatkichlar** samaradorlik degan ma'noga ega. Biz bu tizimni maktabgacha ta'lim tashkilotlariga qo'llash bilan tarbiyachilarning ish faoliyatini rivojlantirishimiz va ishga bo'lgan qiziqishini yanada oshiramiz mumkin.


Tadqiqotimiz orqali biz ish faoliyatida xodimlarga bo'lgan munosabatlar ularning ish jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatishini o'rgandik. Bundan ko'rinib turibdiki, juda ko'p xodimlar rahbarlarining adolatli bo'lishlarini xohlashar ekan.

Ushbu so'rovnomaga orqali biz tarbiyachilardan intervyu oldik. Intervyuning natijasida quyidagicha ko'rsatkichlarni yig'ib, o'rganib

chiqdik. Juda ko'p tarbiyachilarning KPI tizimidan bexabar ekanliklarini ko'rdik, ko'p tarbiyachilar boshqaruv jarayoniga adolatli moslashuv yo'q, deb belgilashdi, bu intervyumiz orqali maktabgacha ta'lim tizimida turli muammolar ko'pligini ko'rdik.


Biz holatga quyidagicha yechim bermoqchimiz: biz maktabgacha ta'lim tashkilotlarining hamma xodimlari uchun bitta platforma ishlab chiqdik. Bu platformamiz orqali maktabgacha ta'lim tashkilotlarini takomillashtirish va rivojlantirish mumkin. Bunda boshqaruv jarayonlarini yanada takomillashtirish yuzasidan ham bir qancha yo'nalishlar mavjud.

Keyingi usullarimizdan yana biri anonim so'rovnomadir. Savollarimiz orqali tarbiyachilarning shaxsiy rivojlanishlariga alohida e'tibor berish bilan maktabgacha ta'lim tizimini yanada rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqdik.



7-rasm Tarbiyachilarning shaxsiy rivojlanishi uchun qulay vaqtni aniqlash.<sup>11</sup>

Biz quyidagicha ma'lumotlarga ega boldik: hozirgi kunda juda ko'p sohalarida shaxsiy rivojlanishga katta e'tibor qaratilmoqda. Aynan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ham tarbiyachilar o'zlarining shaxsiy rivojlanishiga alohida e'tibor qaratsa maktabgacha ta'lim tashkilotlarining rivojlanishiga katta e'tibor hisoblanadi.



8-rasm. Onlayn va offlayn dars mashg'ulotlaridan foydalanish darajasi, (foizda)<sup>12</sup>

Tadqiqotimiz davomida biz tarbiyachilarga ish jarayonida shaxsiy rivojlanishga e'tibor qaratishini taklif etamiz. Shuning uchun tadqiqotimizning asosiy qismini shaxsiy rivojlanishga qaratamiz. Bundan ko'rishimiz mumkinki, ko'pchilik tarbiyachilarning asosan kechki payt vaqtlari bo'ladi. Tadqiqotimiz orqali tarbiyachilarning shaxsiy rivojlanishi uchun qulay vaqtini aniqladik. So'rovnomamizda tushlikgacha (1) belgisini belgilash orqali, tushlikdan keyin(2) belgisini belgilash orqali, kechki payt (3) belgisini belgilashlari orqali aniqlab oldik. Tarbiyachilarning


9 Muallif ishlanmasi

10 Muallif ishlanmasi

11 Muallif ishlanmasi. Tarbiyachilarning shaxsiy rivojlanish uchun qulay vaqtni aniqlash

12 Onlayn va offlayn dars mashg'ulotlaridan foydalanish darajasi. Muallif ishlanmasi.

ko'pchiligi shaxsiy rivojlanishga e'tibor qaratmaydi. Hozirda O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimi uchun bir qancha imkoniyatlar yaratilgan. Ularning rivojlanishini tashkil etish orqali biz butun davlatning yosh bolalarining rivojlanishini, ta'lim olishini ta'minlaymiz. Statistika shuni ko'rsatadiki, 10 nafar tarbiyalanuvchiga 350 nafar bola to'g'ri keladi. Bundan ko'rishimiz



mumkin, tarbiyachilar soni juda ham kam foizni tashkil etadi. Malakali tarbiyachilarning soni va salohiyatini oshirishimiz zarur.

#### 9-rasm. Tarbiyachilarning ish faoliyati uchun sharoitlarni baholash ko'rsatkichlari (0-10 ballgacha)<sup>13</sup>

Tadqiqotimiz davomida biz tarbiyachilarning qulay vaqtlarini aniqlab, o'rganib chiqdik. Bunda tarbiyachilarning ko'pchiligi onlayn mashg'ulotlar ko'payishini xohlashdi. Ular ishlaridan uzilmagan holda onlayn kurslardan foydalanishi va uni ish tajribasida qo'llay olishlari mumkin. Bunda biz tarbiyachilar uchun onlayn kurslarni taklif etamiz. Tarbiyachilarning asosiy qismi ham aynan onlayn dars mashg'ulotlaridan foydalanishni istashini bildirishdi. (7-rasm)


Bundan ko'rishimiz mumkin, ko'pchiliklari telegram ijtimoiy tarmoqlaridan foydalanishar ekan. Tadqiqotimiz natijalaridan amin bo'ldikki, telegram tarmoqlari orqali maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun ko'p yangiliklar berilib borilar ekan.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagog-tarbiyachilarning ish faoliyatini interaktiv usulda tashkil etish uchun ularga turli sharoitlar yaratish kerak. Tarbiyachilar uchun maxsus xonalar, ya'ni ish faoliyatidan charchagan paytlari ruhiy hordiq chiqaradigan psixologik xonalar tashkil etish maqsadga muvofiq.

Bunday xonalarda asosan tinchlantiruvchi burchaklar tashkil etiladi.

“Yo'q” deb javob bergan tarbiyachilar “bizning ishlashimizga hozirgi imkoniyatlar ham yetarli” deb izoh bildirishgan. Ularga ishlash faoliyati uchun texnik jihatdan turli jihozlar, masalan internet tarmog'i, bolalarga turli multimediyalarni ko'rsatishlari uchun projektor va boshqa jihozlar bilan ta'minlab berishlarini xohlashlarini ma'lum qilishdi. Quyidagi yo'nalishlardan shaxsiy rivojlanishingiz uchun muhim bo'lgan mashg'ulotni tanlang. Ushbu so'rovnomizni 250 dan ziyod tarbiyachilar ishtirokida online va


offline tartibda amalga oshirdik va ularning 80 % dan yuqorisi o'zlarini rivojlantirishni istashlari va buning uchun ularga imkoniyatlar yetarli emasligini o'rgandik.



#### 10-rasm. MTT tarbiyachilarning ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish darajasi<sup>14</sup>

Ularga aynan o'zimiz yaratgan platformamizdagi super tarbiyachi qismidan foydalanishlari va o'zlarining kamchiliklarini bartaraf etish asosida maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlarini o'rgandik va qaysidir ma'noda uni amaliyotga tatbiq etdik.

Bu orqali maktabgacha ta'lim tizimini tizimli boshqarish va rivojlantirishimiz mumkin.



#### 11-rasm Tarbiyachilarning ish faoliyatini tashkil etishdagi imkoniyatlar darajasini aniqlash to'g'risida<sup>15</sup>

13 Muallif ishlanmasi. Tarbiyachilarning ish faoliyati uchun sharoitlarni baholash ko'rsatkichlarini ifodalovchi diagramma.

14 Muallif ishlanmasi.

15 Muallif ishlanmasi



Tarbiyachilar uchun shaxsiy rivojlanish mashg'ulotlari jadvali<sup>16</sup>

Mashg'ulot nomi	Soat	Muddat	Haftada bo'lish kuni	Qaysi kunlar
1. Kreativ tarbiyachi	40 min	2 oy	2 kun	Dushanba, Chorshanba
2. Tarbiyachining pedagogik mahorati	30 min	2 oy	2 kun	Seshanba, Payshanba
3. Zamonaviy ta'lim	40 min	1 oy	1 kun	Juma
4. Bola psixologiyasi	40 min	2 oy	2 kun	Chorshanba, juma
5. Inklyuziv ta'lim	45 min	2 oy	3 kun	Seshanba, Payshanba, Shanba.
6. Hujjatlar bilan ishlash.	30 min	1 oy	2 kun	Shanba, Yakshanba.
7. Vaqt taqsimlash mahorati.	45 min	1 oy	2 kun	Yakshanba, Dushanba.

**XULOSA VA TAKLIFLAR**

Olib borilgan tadqiqotlarimiz shuni ko'rsatdiki, maktabgacha ta'lim tashkilotlarini boshqarish va rivojlantirish istiqbollari belgilashda bevosita tashkilotlar rahbarlarining o'zni katta ahamiyat kasb etadi va biz maktabgacha ta'lim tashkilotlarining tarbiyachilaridan tashkilotidagi boshqaruv jarayoni qay darajada tashkil etilishini o'rgandik:

- Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilari o'zlarining tashkilot rahbarlaridan 70% natijada norozilik holatini oldik.
- Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida boshqaruv va rivojlanish sohalarini xususiy maktabgacha ta'lim tashkilotlarida yuqori ekanligini o'rgandik.
- Ko'pchilik maktabgacha ta'lim tizimida ishlab chiqilgan qarorlarning ijrosi ta'minlamayotganligining guvohi bo'ldik.
- Ko'pchilik tarbiyachilar o'z kasblaridan qoniqmaslik hissi yuqori ekanligini o'rgandik.
- Maktabgacha ta'lim tizimida innovatsion jarayonlar kamligini aniqladik.

Tadqiqotimiz natijalarini o'rgandik va turli muammoli vaziyatlarga quyidagicha yechimlarni berib o'tmoqchimiz.

1. Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarish va rivojlantirishni osonlashtirish maqsadida maxsus maktabgacha ta'lim tizimi uchun platforma ishlab chiqdik. Bu platforma orqali maktabgacha ta'lim tizimidagi har bir qatlamni qamrab oladigan ushbu platforma quyidagilarni o'z ichiga oladi. Maktabgacha ta'lim tizimidagi boshqaruvchilar uchun alohida bo'lim mavjud bo'lib, bu bo'limda boshqaruvchilar o'z bilimlarini yana takomillashtirish uchun o'quv mashg'ulotlari keltiriladi. Super tarbiyachilar bo'limida esa tarbiyachilar uchun maxsus o'quv mashg'ulotlari keltirilgan. Bundan tashqari tibbiy maslahat bo'limi ham mavjud.

Ota-onalar uchun ham bo'lim ajratilgan. Maktabgacha ta'lim tizimidagi yangiliklarni, qarorlarni, farmoyishlarni aynan shu platforma orqali olishlari mumkin. Ushbu platformamizga quyidagi havola orqali kirishingiz mumkin. <https://eduskills.siyratmedia.uz/>.

2. KPI tizimining O'zbekiston Respublikasi miqyosida barcha maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qo'llanilishini ta'minlash. Bu orqali tarbiyachilar va boshqa xodimlarning ishlash samaradorligi yanada oshadi.

3. "Research and development" tadqiqot markazini respublika miqyosida ochish va 5 yil rivojlanish bosqichidan so'ng viloyatlar kesimida shakllantirish. Bu orqali maktabgacha ta'lim sohasi yanada rivojlanadi. Ilmiy ishlar ko'rsatkichining ko'lamini yanada kengayadi.

4. 1940-yillarning oxirida, sifat guruhi, doktor Jozef M. Juran, Paretoning 80/20 qoidasini Paretoning Paretoning printsipi deb atagan. Paretoning printsipi yoki Paretoning qonuni sizning hayotingizdagi ishni birinchi o'ringa qo'yish va boshqarishda sizga yordam beradigan foydali vositadir. Bu orqali ishlash sarmoyasi yanada oshadi va kengayadi.

Tadqiqotimiz orqali maktabgacha ta'lim tizimida boshqaruv jarayonlarini tizimli o'rgandik. Turli muammolarni o'rgandik va tahlil qildik. Yuqoridagi muammolarga turli yechimlarni keltirib o'tdik. Tarbiyachilarning ko'p qismi o'z kasblarini sevasliklarini ko'rdik. Bu ish faoliyatiga bevosita o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. Tadqiqotimiz natijalariga ko'ra biz maktabgacha ta'lim tashkilotlarida 1 yilda 3 marta psixologlar tomonidan turli xil motivatsion treninglarni tashkillashtirishni taklif etamiz. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining asosiy vazifasi bu bolalarga kerakli ta'limni bergan holda maktab bosqichiga yetkazishdir.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Chak Robert (2019). "Odamlarni boshqarishda zamonaviy menejment nazariyalarining ahamiyati". Internet manba: [bizfluent.com](http://bizfluent.com).
2. JD Meier (2019). "Zamonaviy menejment tamoyillari". [jdmeier.com](http://jdmeier.com) saytidan olingan.
3. CFI (2020). "Menejment nazariyalari nima?" internet manba [Corporatefinanceinstitute.com](http://Corporatefinanceinstitute.com).
4. Citeman (2009). "Zamonaviy menejment yondashuvlari". [citeman.com](http://citeman.com).
5. Smriti Chand (2020). "Zamonaviy boshqaruv nazariyasi: boshqaruvga miqdoriy, tizimiy va kutilmagan holatlar" nomli maqola. Olingan: [yourarticlelibrary.com](http://yourarticlelibrary.com).
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori.
7. Modern Management Approach theory and Practices mavzusidagi maqola.
8. Which modern management techniques work best for schools? | UCL IOE Blog.
9. Abdurahmonova G.K "Inson resurslarini boshqarish" kitobi Toshkent-2019 nashri.
10. G. Xmidomova, O. Astanakulov, A. Matchanov "Innovatsion menejment" kitobi. Toshkent "Iqtisod-Moliya"-2019 nashri.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrda "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2707-sonli Qarori.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3261-sonli Qarori. 2017-yil.
13. Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 19-iyuldagi 528-sonli "Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari to'g'risida"gi Nizomi.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini

<sup>16</sup> Tarbiyachilarning shaxsiy rivojlanishi uchun muallif tomonidan ishlab chiqilgan ishlanma

- tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" PF - 5198-sonli Farmoni.
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017 - 2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2016-yil 29-dekabrda PQ-2707-son qaroriga muvofiq Vazirlar Mahkamasi qarori.
  16. Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida (Vazirlar Mahkamasining "Maktabdan tashqari ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2011-yil 28-fevraldagi 50-son hamda "Xalq ta'limi hududiy organlari tuzilmasini takomillashtirish to'g'risida" 2011-yil 1-martdagi 52-son qarorlari)" 2011-yil 20-iyundagi 183-son qaroriga (O'zbekiston Respublikasi QT, 2011-y., 6-son, 55-modda) ilovaning 12-bandi.
  17. Vazirlar Mahkamasining "Davlat maxsus maktabgacha ta'lim muassasalarining faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2010-yil 18-iyundagi 117-son qarori (O'zbekiston Respublikasi QT, 2010-y., 6-son, 32-modda).
  18. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017-yil 30-sentabrdagi PF-5198-sonli Farmoni.
  19. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017 - 2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2016-yil 29-dekabrda PQ-2707-son qaroriga muvofiq Vazirlar Mahkamasi qarori



## MAKTABGA TAYYORLOV GURUHIDAGI BOLALARNI AXBOROT TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHGA O'RGATISH

Saidova Mahliyo

Qo'qon universiteti Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabasi

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATSIYA
<p><b>Qabul qilindi:</b> 24-may 2022-yil <b>Tasdiqlandi:</b> 26-may 2022-yil <b>Jurnal soni:</b> 4 <b>Maqola raqami:</b> 8 <b>DOI:</b> <a href="https://doi.org/10.54613/001223">https://doi.org/10.54613/001223</a></p>	<p>Tadqiqotda maktabgacha talim tashkilotlarining axborot texnologiyalari bilan ta'minlanganlik holati tahlil qilingan. Shuningdek, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni axborot texnologiyalari bilan tanishtirish samaradorligini oshirish bo'yicha rivojlangan davlatlar tajribasi o'rganilgan. Maktabga tayyorlov guruhidagi bolalarga axborot texnologiyalari orqali ta'lim berishning samarali usullari ko'rsatib o'tilgan. Tadqiqotda mavzuga oid qiyosiy tahlillar amalga oshirilgan hamda so'rovnomalar o'tkazilgan. Shu asnoda Erikson tadqiqot markazi olib borgan so'rovnomalar savollaridan foydalanilgan.</p>
<p><b>KALIT SO'ZLAR</b></p> <p>IT, maktabgacha ta'lim, tayyorlov guruh, bola yoshi, texnologiya.</p>	

### KIRISH

Bugungi to'xtovsiz rivojlanib borayotgan davrda barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarning intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish va ularni har tomonlama rivojlangan yetuk shaxs etib voyaga yetkazish – davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylangan. Chunki jismoniy sog'lom va ma'naviy yetuk shaxslariga buyuk kelajakni yaratadi.

Mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnika bazasini yaxshilash, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini joriy etish, bolalarni har tomonlama axloqiy, estetik, intellektual va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida qator qonunlar, farmon va qarorlar, chora-tadbirlar ishlab chiqildi va sharoit taqozosidan kelib chiqib, takomillashtirilmoq. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 15-yanvardagi PF-52-sonli Farmoni tahririda Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 15.01.2022-y., 06/22/52/0029-son).

O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi huzuridagi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish jamg'armasidan O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi muassisligidagi "Axborot va pedagogika texnologiyalari innovatsion markazi" mas'uliyati cheklangan jamiyatiga beg'arazlik asosida bosqichma-bosqich 10 million AQSh dollari ekvivalentida, shu jumladan, 2018-yilda Markazni joylashtirish, jihozlash va saqlash bilan bog'liq tashkiliy-amaliy tadbirlarni moliyalashtirish uchun 2 million AQSh dollari ekvivalentida mablag' ajratilishi belgilangan. Ko'rinib turibdiki, so'nggi yillarda maktabgacha ta'lim tizimini bundan 5-10 yil oldingi davrga solishtirish planshetlar, kompyuterlar kabi raqamli texnologik qurilmalarning mavjudligi va ulardan foydalanish sezilarli darajada oshib bormoqda. Marshning ta'kidlashicha, "Hozirgi zamonaviy dunyoda bolalar tug'ilishdan boshlab texnologiya bilan yuz ko'rishmoqda".<sup>1</sup>

Yangi texnologiyalarning rivojlanishi nafaqat kattalarga, balki bolalarga ham hayotda o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Demak, texnologiyani bolalar hayotidan yo'q qilishning imkoni mavjud emas. Texnologiyani bolalar hayotiga ta'sir qilish darajasi juda yuqori hisoblanadi. Shu sababli bolalar uchun texnologiyalardan xavfsiz hamda samarali foydalanish bo'yicha tadqiqotlar o'tkazish va uning natijasida erishilgan yutuqlarni tezroq hayotga tatbiq

etish lozim. Bu bo'yicha dunyoning rivojlangan mamlakatlarida jarayonlar allaqachon boshlangan va erishilgan yutuqlar ta'lim tizimiga qo'llab ulgurilgan.

### ADABIYOTLAR TAHLILI

Maktabga tayyorlov guruhidagi bolalar aqliy, ruhiy va jismoniy tomondan maktab ta'limiga tayyor bo'lishlari kerak. Shuning uchun axborot texnologiyalarini o'rganish ular uchun hayotda yana bir imtiyoz bo'lib xizmat qiladi. AKTni dastlabki ta'lim tashkilotlariga integratsiyalashga muhim masala sifatida qaralishi lozim. Chunki kompyuterlar va boshqa texnologiyalar bolalarning o'qishini qo'llab-quvvatlaydi va individual rivojlanish imkonini beradi. Plowman, Stephen ven va McPakelarning izohlashicha "AKT bolaning o'z-o'zini hurmat qilishida muhim rol o'ynaydi va unda ishonch, shuningdek mustaqillikni qo'llab-quvvatlash hamda qiyinchiliklarni yengish qobiliyatini shakllantiradi". Bir nechta multimedia imkoniyatlari, masalan, grafikalar, filmlar va animatsiyalarning ta'lim muhitini boyitishda ahamiyati katta.<sup>2</sup>

Bolalar faol texnologiyalar yordamida ushbu muhitda faol ishtirok etishadi. AKTning yana bir muhim xususiyati maktabgacha ta'lim tashkilotlari bolalarning kognitiv [aqliy] qobiliyatlarini qo'llab-quvvatlashidir. Stephen va Plowmanlarning ta'kidlashicha, "AKTdan foydalanish matematika bo'yicha saralash, moslashtirish, shakl va naqsh solish kabi imkoniyatlarni taklif qiladi. Amaliy o'yinlar asosan bolalarning jismoniy rivojlanish jarayonlari, AKTga asoslangan multimedia imkoniyatlari bolalarni kognitiv [aqliy] faoliyatga jalb qilishda samara beradi".<sup>3</sup>

So'ngi bir necha yil ichida yosh bolalar uchun maxsus turli dasturlash tillari va robot texnologiyalar ishlab chiqilib, bozorga taqdim etildi. Bu texnikalar va dasturlash tillari hozirda juda ham ommabop hisoblanadi. Hozirgi kunda har bir bolaning tushuna olmaydigan telefon yoki plansheti yo'q. Ularning axborot texnologiyalari haqidagi bilimlarini yanada rivojlantirishimiz lozim. Sony korporatsiyasi asoschilaridan biri Masaru Ibukaning muhandislik g'oyalari dunyoni o'zgartirdi va Yaponiyani dunyoning yetakchi mamlakatlaridan bo'lishiga yordam berdi. Masaru Ibuka doim ta'lim va jamiyatning shakllanishida uning ahamiyati bilan qiziqqan. Sekin-asta uning qiziqishi bolalarning go'daklik davridagi ta'lim sohasiga qaratildi. Bu masalani chuqurroq o'rganib, bir qator kitoblar yozdi. Ulardan eng mashhuri – "Uchdan keyin kech". Unda har bitta go'dakda erta rivojlanishga tabiiy talab mavjudligi, uning kelajakdagi muvaffaqiyati bu talabning qondirilishiga bog'liqligi bayon qilingan".<sup>4</sup>

1 Marsh, J., Brooks, G., Hughes, J., Ritchie, L., Roberts, S. & Wright, K. Digital beginnings: young children's use of popular culture, media and new technologies. Retrieved July 22, 2015. <http://www.digitalbeginnings.shef.ac.uk/final-report.htm>.  
2 Plowman, L., Stephen, C., & McPake, J. Supporting young children's learning with technology at home and in Preschool. Research Papers in Education, 2010, 25(1), 93-113.

3 Stephen, C., & Plowman, L. (2003). Information and communication technologies in pre-school settings: A review of the literature. International Journal of Early Years Education, 11(3), 223-234.  
4 Masaru Ibuka. Uchdan keyin kech. Akademnashr, 2020-yil. 264 bet. ISBN: 978-9943-5652-7-2.

Bundan kelib chiqadiki, bolaga go'dakligidan berilgan e'tibor kelajakda unga ko'p eshiklarni ochib beradi. Uning tayyorlov guruhida axborot texnologiyalaridan ta'lim olishiga katta hissa qo'shadi. Bolalarda AKTni o'rganishga qiziqish uyg'otish va ularga bu ta'lim turini tizimlashtirgan holda olib borish, ularning kelajakda qaysi soha mutaxassisi bo'lishlaridan qat'iy nazar mavaffaqiyat sari borishlarini ta'minlaydi. So'nggi yillarda maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi maktabga tayyorlov guruhidagi bolalar axborot texnologiyalarini o'rganishga o'zlarida katta ehtiyoj sezmoqdalar.

Zamonamizning yosh olim va olimalari bugungi kunda biz o'ylagandan ham ko'proq yangiliklarni izlash va o'rganishga urinmoqdalar. Hozirgi kunda Koreya, Yaponiya, Xitoy va boshqa ko'plab mamlakatlarning maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarga kompyuter, mobil telefon, planshet kabi qurilmalardan unumli foydalanish uchun AKT mashg'ulotlari joriy etilgan. Shuning uchun ushbu mamlakatlardagi bolalar hozirgi kunda robotlar, web saytlar, har xil turdagi o'yinchoqlar yaratishmoqda. Bunday ixtirolar yaratilishining asosiy sababi ushbu davlatlarda bolalarga AKT mashg'ulotlaridan yetarli darajada samarali saboq berilayotganidir. Mamlakatimizda ham bolalarga ana shunday AKT mashg'ulotlarini tizimlashtirgan holda ta'lim berish maqsadga muvofiqdir.

To'g'ri, ayrim xususiy maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bu soha o'z faoliyatini boshlab ulgurgan ammo hammasida ham emas. Zamonaviy dunyoni axborot resurslari moddiy, energetika va mehnat resurslaridan kamroq ahamiyatga ega bo'lgan holda tasavvur qilish mumkin emas. Shuning uchun axborot maydoni kompyuter savodxonligiga ega bo'lishni talab qiladi. Shu sababli, axborot texnologiyalari vositalaridan imkon qadar tezroq, nafaqat boshlang'ich maktabda, balki maktabgacha yoshda ham foydalanishni boshlash muhimdir. Bugungi kunda axborot texnologiyalari maktabgacha ta'lim, ota-onalar, o'qituvchilar va mutaxassislarning imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirmoqda. Texnologiyalardan foydalanish bolaning qobiliyatlarini rivojlantirishni to'liq va sifatli amalga oshirish imkonini beradi.

### TADQIQOT METODOLOGIYASI


Ko'ngil ochish, xabardor bo'lish va bog'lanish hech qachon bugunchalik oson bo'lmagan. Sevimli shoularimiz, musiqalarimiz, ijtimoiy tarmoqlar va so'nggi yangiliklar endi 24/7 rejimida qo'limizda. Biz bu qulaylikdan bahramand bo'lsak, bolalar ham bundan bahramand bo'lmoqda. Haqiqatan ham bular juda ko'p.

Bolalarni smartfonlar, televizorlar, planshetlar, video o'yinlar va boshqa texnologiyalaridan foydalanish yoshi borgan sari oldingi avlodlarga qaraganda yosharib kunlik ular bilan band bo'lish vaqti ko'proq bo'lib bormoqda.

Raqamlar sizni hayratda qoldirishi mumkin. Kasalliklarni nazorat qilish va oldini olish markazlari (CDC) yosh guruhlari bo'yicha o'rtacha kunlik soatlar haqida hisobotiga ko'ra:

- ❖ 8-10 yosh: olti soat
- ❖ 11-14 yosh: to'qqiz soat
- ❖ 15-18 yosh: etti va 1/2 kunni tashkil etmoqda.

Bu raqamlar bolalarning maktab ishlari uchun ekran qarshisida o'tkazgan vaqtini o'z ichiga olmagani. Agar ularni ham qo'shadigan bo'lsak, ekranga sarflangan vaqt bundan ham ko'proqni tashkil etadi.



1-rasm. Kunlik sarflanayotgan vaqt miqdori


Ota-onalar ekran qarshisida ko'p vaqt o'tkazish farzandlarining sog'lig'iga ta'sir qilishini bilishi kerak. Shuningdek, ularning do'stlari va oilasi bilan sog'lom munosabatlarda bo'lish ko'nikmasini shakllantirish ham muhimdir.

OSF HealthCare pediatri, tibbiyot fanlari doktori Samina Yusuf: "Ko'p yillar davomida televizorlar Amerika uylarida jihaz bo'lib kelgan bo'lsa-da, ekran vaqti muammosi nisbatan yangi tashvishli masaladir, chunki smartfonlar paydo bo'lganiga hali ko'p vaqt bo'lgani yo'q", dedi Samina Yusuf.

So'nggi o'n yil ichida bu pediatrlar bolalar va ularning ota-onalari bilan muhokama qiladigan standart mavzuga aylandi.

"Tadqiqotlar ortiqcha ekran vaqti va bolalardagi turli jismoniy va ruhiy salomatlik muammolari, masalan, semizlik, depressiya, xulq-atvor muammolari va tashvish o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatmoqda", dedi doktor Yusuf. "Shuningdek, bu ularga har kecha tavsiya etilgan miqdorda uxlashlariga to'sqinlik qiladi, bu ularga jismonan zarar etkazadi va ularning sinfda ishlashiga ta'sir qiladi. Keyin ular maktabdan uyga qaytganlarida uy vazifasiga bag'ishlashlari kerak bo'lgan vaqtni qisqartiradi. Bu ularning ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishga ham ta'sir qiladi.

"Haqiqiy dunyoda o'zaro munosabatlarda sabrsizlik - ortiqcha ekran vaqtining eng katta natijalaridan biri", dedi doktor Yusuf. "Ekran bilan sabr qilish shart emas. Ammo kimdir bilan shaxsan gaplashayotganda sabr-toqat kerak bo'ladi. Shunday qilib, bolalar kutishni, tinglashni va javob berishni o'rganishlari muhimdir. Bu ularga nafaqat boshqa bolalar bilan muloqot qilishda, balki birga o'ynashda ham yordam beradi, chunki o'yinchoqlar bilan almashish juda muhimdir. Bularning barchasi ular o'sib ulg'aygan sari sog'lom munosabatlar va do'stlik munosabatlarini rivojlantirish uchun asos yaratadi".<sup>5</sup>



2-rasm. Ekrandan foydalanish vaqt me'yorlari

Madaniyatimizga singib ketgan ushbu elektron qurilmalar bilan ota-onalar farzandlari uchun qanday chegaralar belgilashlari kerak? Doktor Yusufning qayd etishicha, pediatrlar odatda quyidagi ko'rsatmalarni tavsiya qiladilar:

- ❖ 2 yoshgacha: oila yoki do'stlar bilan video suhbatdan tashqari, nol ekran vaqti;
- ❖ 2-5 yosh: kuniga bir soatdan ortiq ota-ona yoki aka-uka bilan birgalikda tomosha qilish;
- ❖ 5-17 yosh: odatda kuniga ikki soatdan ortiq emas, uy vazifasidan tashqari.

Ota-onalarning sa'y-harakatlarini qo'llab-quvvatlash uchun Amerika Pediatriya Akademiyasi (AAP) ota-onalarga AAPning Healthchildren.org veb-saytida osongina tuzilishi mumkin bo'lgan oilaviy mediadan foydalanish rejasini ishlab chiqishni tavsiya qiladi.

"Bu haqiqatan ham ota-onalarga farzandlariga ekran vaqtining qaysi turi to'g'ri kelishi va undan qachon va qayerda zavqlanishi mumkinligi haqida yo'l-yo'riq ko'rsatishga yordam beradigan ijobiy tarbiya vositasidir", dedi doktor Yusuf.

Ota-onalar uchun boshqa faol qadamlar quyidagilardan iborat:

- Ekransiz yotoqxonalar: yotoqxonada ekran bo'lmasligi kerak va bolalar odatda yotishdan oldin ikki soat davomida ekranni ko'rmasliklari kerak. Sababi, ekranning ko'k chirog'i miyaga uyquga tayyorlanish vaqti kelganini bilishiga xalaqit

5 <https://wol.iw.org/uz-Latn/wol/d/r506/lp-uzr/2018527> manba asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

berishi mumkin. Yotishdan oldin televizor tomosha qilish o'rniga, bolalar boshqa mashg'ulotlar bilan shug'ullanishlari kerak, masalan, o'qish bilan.

• Bo'sh joyni to'ldiring: agar siz farzandingizning ekrandan foydalanish vaqtini qisqartirishingiz kerak bo'lsa, uning bo'sh vaqtida nima qilishi kerakligini belgilab oling. Uni ijobiy narsa bilan almashtiring, masalan, ochiq havoda sport yoki boshqa mashg'ulotlar;

• Yuzma-yuz muloqotga e'tibor qaratting.

Biroq, doktor Yusufning qayd etishicha, ekrandan foydalanish vaqtini belgilashdan tashqari, ota-onalar farzandlari bilan yuzma-yuz muloqot qilishga e'tibor qaratishlari kerak.

"Kichik bolalar ekranda ko'rgan narsalarini haqiqiy hayotga o'xshatishmaydi. Biz shaxsiy suhbatlar paytida yuboradigan subliminal xabarlar ekranda bir xil bo'lmaydi", dedi u. "Siz yosh bola bilan o'ynaganingizda, siz ularga atrof-muhit bilan qanday munosabatda bo'lishni o'rgatasiz. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, siz ular bilan qanchalik interaktiv bo'lsangiz, ular shunchalik yaxshi bo'ladi, chunki ular tinglash, teginish va hidlash kabi his-tuyg'ularidan ko'proq foydalanadilar.

Ammo bola yosh yoki katta bo'ladimi, odamlarning o'zaro ta'siri ekranlar bilan almashtirib bo'lmaydigan foyda keltirishini anglashi lozim.

"Hammasi munosabatlarni rivojlantirish bilan bog'liq", dedi doktor Yusuf. "Siz keyingi hayotda sog'lom munosabatlarni saqlab qolishingiz kerak. Agar siz buni boshdan kechirmasangiz va yoshligingizdanoq munosabatlar qanday bo'lishi kerakligini ko'rsangiz, keyinchalik ularni takrorlamaysiz."

### TADQIQOT NATIJASI

Tadqiqotda biz SWOT tahlili usulidan foydalanib mamlakatimizdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi maktabga tayyorlov guruhidagi bolalarni axborot texnologiyalaridan foydalanishga o'rgatish natijasi qanday holatlarni keltirib chiqarishini ko'rib o'tamiz. SWOT tahlili - bu strategik rejalashtirish usuli bo'lib, u tashkilotning ichki va tashqi muhiti omillarini aniqlash imkonini beradi. Buni to'rt toifaga bo'lish orqali ifodalaniadi:

AKTdan foydalanishning kuchli tomoni. Endi bolalarning AKTni o'rganishidan ko'riladigan foydalar haqida gaplashib o'tamiz. Real hayotda biz uchun biror qiziqarli bilimni o'rganganimizda miyamizda bir burmalanish sodir bo'ladi, ya'ni miyamizda chaqmoq chaqqandek bo'ladi. Bu holat miya va tananing rivojlanishiga yordam beradi. Faqat bu holatni biz ular uchun foydali tomonga yo'naltirishimiz lozim. Bola qachon o'rganishni xohlamaydi, qachonki berilayotgan ma'lumot bola uchun qiziqarli bo'lmasa. Axborot texnologiyalarini o'rganish bolalarga telefon, planshet, kompyuterlardan unumli foydalanishni o'rgatadi. Ularning aqliy tomondan rivojlanishlarini ta'minlaydi. Tengdoshlari bilan raqobatga tayorlaydi. O'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi. Vaqti kelib bir ma'lumotni aniqlashtirish kerak bo'lsa uni qayerdan va qanday topishni o'rgatadi.

Bugungi kunda robotlardan foydalanish bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda, ta'lim robotlari ishlab chiqilmoqda, bu robotlar sinf muhitida sinovdan o'tkazilmoqda. Tadqiqotlar qanday ketayotganini aniqlash va takomillashtirish maqsadida so'rovnomalar amalga oshirilmoqda. Ushbu sohadagi tadqiqotlarga misol keltirsak, Tanaka va Kimura ta'lim muhitini boyitish maqsadida maktabgacha ta'lim sinflarida va doimiy ravishda foydalanish uchun robot ixtiro qildi.<sup>6</sup> Yun va boshqalar o'qituvchi bo'lgan Engkey nomli robotni ishlab chiqdi. Uni masofadan turib boshqarish va ingliz tilini o'rgatishda foydalanish mumkin.<sup>7</sup>

Bugungi kunda bolalarga maktabgacha ta'lim tashkilotlaridan boshlab ingliz tilidan ta'lim berilmoqda. Yaratilgan

robot bolalarga o'zgacha ta'sir ko'rsatishini olimlar o'z tadqiqotlarida takidlab o'tishgan. Li, Noh va boshqalar sinab ko'rish uchun Mero nomli robotni ishlab chiqdi. Bolalarga tovush va talaffuzni o'rgatish uchun.<sup>8</sup> O'tkazilgan tadqiqotlarda ta'lim robotlari ta'lim muhitini takomillashtirish uchun ishlab chiqilgan. Yaratilgan robotlar bolalarga yaxshi ta'lim vositasi va yaxshi tarbiyachilar uchun ta'lim berishda qo'shimcha materialdir.

Bolalarga ta'lim berish jarayonida o'yinchoqlar ham yordam berishi mumkin. Aqlli o'yinchoqlar - bu texno-texnik vositalar bilan boyitilgan klassik o'yinchoqlardir. Boshqa o'yinchoqlardan farqli o'laroq, aqlli o'yinchoqlar o'zgaruvchan, vaziyatlarga moslashish va o'zaro munosabatda bo'lish qobiliyatiga ega. U bolalarga fikr-mulohaza bildiradi, ovozi o'gohlantiradi, maslahatlar beradi va hokazo. Bu yerda aqlli robot o'yinchoqlarning yaratilishi haqida so'z yuritilyapti. Bunga misol tarzida Turkiyada o'tkazilgan tadqiqotni keltirib o'tamiz. Tadqiqotda qatnashgan aqlli o'yinchoqning nomi - Maya bo'lib, Mevlude Akdeniz va Fatih Özdinchning tadqiqotlarida yozilishicha bolalarga ta'lim berishda tarbiyachiga yordamchi sifatida ishlab chiqilgan. U bolalarga matematika, ranglar, shakllar, ijtimoiy olamdan ta'lim beradi. Ular bilan so'zlashadi, fikr almashadi, kerak bo'lganda sodda o'yinlarni birga o'ynaydi.<sup>9</sup>

Jahon olimlarining ta'kidlashlaricha, yillar o'tib real hayotimizda mavjud kasblar raqamlashtirilishi, ya'ni inson qo'li bilan amalga oshiriladigan ish faoliyatlarini robotlar yoki kompyuter dasturlari amalga oshirishi mumkin. Bu kabi jarayonlar ustida sezilarli siljishlar kuzatilmoqda. Shuning uchun bola maqsadsiz o'yinlarni o'ynab vaqtini zoya ketkazgandan ko'ra, axborot texnologiyalarini tizimlashtirgan holda ta'lim olishi lozim. Bola harakat qilsa, yonidagilar yordam bersa har qanday texnologiyani o'rganishi, har qanday muammoni hal qila olishi, aqliy salohiyatini toblagan holda muvaffaqiyatga erishishi mumkin. Agar yonidagi insonlar uni qo'llab-quvvatlasa, unga har tomonlama motivatsiya bersa u muvaffaqiyatga erishadi. Chunki maktabgacha ta'lim yoshidagi hamma bola dunyoni ilk bor o'tanasining ko'zi bilan ko'radi, ular so'zlagan so'zlar umrbod uning xotirasida muhrlanib qoladi.

AKTdan foydalanishning kuchsiz tomoni. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar uchun axborot texnologiyalaridan foydalanish har doim ham samarali usul bo'lib xizmat qilmaydi. Erikson Instituti o'tkazgan so'rovnomada aniqlangan imtiyozlarga qaramay, ota-onalarning 72 foizi texnologiyadan foydalanishdan xavotirda ekanligi ma'lum bo'ldi. Ayniqsa, juda ko'p ekran yaqinida bo'lish, ularga noto'g'ri kontent kelishi, texnologiyadan noto'g'ri va meyardan ortiq foydalanganda uyqu vaqtining buzilishi, bola hayolini noto'g'ri tomonga yo'naltiradigan multi videolar bola tabiatini buzishidan xavotirda edilar.<sup>10</sup> Axborot texnologiyalari tabiatda olib boriladigan mashg'ulotlarning o'rnini bosa olmaydi. Ochiq havodagi mashg'ulotlarda bola jismonan harakat qiladi va chiniqadi. Tabiat qo'ynida toza havoda oddiy sayr qilish ham bolaning tasavvurini boyitadi. Bola texnologiyaga berilib ketgan taqdirda u real hayotdan uzilib qolishi mumkin.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar telefon, planshetlardan noto'g'ri foydalanganlari sababli ko'rish darajalari pasayib bormoqda. Bunga ularning vaqtini samarali taqsim qilmaslik va texnologiya imkoniyatlarini to'raligicha tushuntirmaslik sabab bo'lmoqda. ITni o'rganish bolani jasur emas qo'rqoq qilib qo'yishi mumkin. Chunki ITni o'rganish jarayonida bolaning faqat intellektual qobiliyatlarini rivojlanib borishi mumkin. Bunda uning jismonan zaif bo'lib ulg'ayishi ehtimoli katta. Bola virtual olamda sport o'yinlarini o'ynashi, hatto u o'yinlarda g'olib bo'lishi, ularni yetarli darajada mashq qilish jarayonlarini tomosha qilishi mumkin lekin amaliy hayotda o'yindagidan farqli ekanini anglashi uchun u bu hayotda bola bo'lib o'ynashi zarur.

Bolaning real hayotda doimiy do'stlari orasida bo'lishi uni ijtimoiy hayotga moslashishga tayorlaydi. Uni odob-ahloq

6 Tanaka, F., & Kimura, T. Care-receiving robot as a tool of teachers in child education. *Interaction Studies*, Volume 11, Issue 2, Jan 2010, p. 263 - 268. <http://dx.doi.org/10.1075/IS.11.2.14tan>.

7 Yun, S., Shin, J., Kim, D., Kim, C. G., Kim, M., & Choi, M. T.: En-gkey: Tele-education robot. In *International conference on social robotics*, 2011. pp. 142-152.

8 Lee, S., Noh, H., Lee, J., Lee, K., & Lee, G. G. Cognitive effects of robot-assisted language learning on oral skills. In *Second language studies: Acquisition, learning, education and technology*, 2010. pp. 1-4.

9 Mevlude Akdeniz, Fatih Özdiçin. Maya: An artificial intelligence based smart toy for pre-school children. *International Journal of Child-Computer Interaction*, Volume 29, Issue C, Sep 2021. <https://doi.org/10.1016/j.ijcci.2021.100347>

10 Erikson Institute. *Technology and Young Children in the Digital Age. A Report from the Erikson Institute*, 10, 2016. <https://www.erikson.edu/wp-content/uploads/2018/07/Erikson-Institute-Technology-and-Young-Children-Survey.pdf>



mevorlarini o'rganishga targ'ib qiladi. Bugungi kunda Finlandiya mamlakati maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarining bog'chada telefon, planshet, kompyuterlardan foydalanishini taqiqladi. ITni o'rganishni maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar uchun zararli, deb hisoblab, ushbu qarorni qabul qildi. Finlandiya dunyoning ko'zga ko'ringan mamlakatlaridan hisoblanadi. Davlat mutasaddilarining xabar berishicha, ITdan foydalanish bolani tabiatdan, ijtimoiy olamdan yiroqlashtiradi.

Maktabgacha ta'lim sohasida T.V. Volosovets, N.E. Verax, E.M. Dorofeeva, T.S. Komarova, Ti. Aliyeva, I.I. Komarov, K. Belaya va boshqa tadqiqotchilar AKTga qarshi o'z nuqtai nazarlarini bildiradilar. AKT muxoliflari uzoq vaqt davomida kompyuterda bolalarning sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatadigan dalillarni keltirib chiqarmoqda.<sup>11</sup> AKT tarafdorlari innovatsion ta'limning afzalliklarini isbotladilar va kompyuterning bolaga salbiy ta'sir ko'rsatadigan omillarini kamaytirish yo'llarini ko'rsatib o'tishdi. Hozirda maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda asab kasalliklari uchramoqda. Ularning vaqti-vaqti bilan boshlari og'riyapti, quyoshdan yetarli vitaminlarni o'z vaqtida qabul qilmaganliklari sababli rahit kasali (oyoqlarning qiyshiq o'sishi) rivojlanib bormoqda. Deyarli ko'p bolalarda telefonni me'yordan ortiq o'ynash jarayonida o'z-o'zidan baqirib yuborish, oyoqlarni besabab qimirlatib o'tirish holatlari kuzatilayapti. Ayniqsa real hayotda bola telefonda o'ynayotgan o'yinida yutqizib qo'ysa telefonni otib yuborish, kuchanib jahl qilish, biror narsani tepib yuborishining guvohi bo'lyapmiz. Bunday holatlar bolalarning aqliy, ruhiy hamda jismoniy rivojlanishlariga o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi.

Bola me'yordan ortiq telefonda foydalanganda uning qo'l barmoqlari motorikasi yetarli darajada o'z funksiyalarini bajarmaydi, nafaqat qo'ldagi barmoqlar asab tizimi ham bolalarga xos barqaror holatini yo'qotadi. Bolaning o'zini boshqarishida muammolar yuzaga kela boshlaydi. Chunki jahon pedagoglarining ta'kidlashlaricha, bola uchun qo'l barmoqlari bilan amalga oshiriladigan ta'lim faoliyatlari juda muhim. Masalan, plastilindan narsa yasash, rasm chizish, qum o'ynash, chinni xamirdan foydalanib narsa yasash, loy o'ynash, lego va mozaikalar yig'ish orqali bolaning barmoqlaridagi qobiliyatlari shakllanadi. Ulardan foydalanayotganda bolaning asab tizimi barqaror holatga keladi. Aynan qo'l barmoq motorikasi rivojlanayotgan bolada aqliy intellektual qobiliyatlari yuqori saviyada o'sib boradi.

Kattalar misolida ham ko'rishimiz mumkinki, agar sizning hayot faoliyatingiz davomida biror inson bilan ziddiyat yuzaga kelgan taqdirda siz o'zingizni bosish uchun oddiy qo'lda kir yuvsangiz kifoya. Psixologlarning aniqlashicha, hozirgi zamonaviy ayollarning asabiy bo'lib qolishining sabablaridan biri ularning qo'lda kir yuvmayotganliklari ekan. Chunki qo'lda kir yuvganda barmoqlar bir-biriga ishqalanadi. Bu holat o'z-o'zidan nerv asab tizimi tinchlanishiga sabab bo'ladi. Qo'llarimizning aynan mana shu qismida juda katta asab tolalari joylashgan. Biz kattalarda shunday ekan bolalarda ham huddi biznikidek holatlar kuzatilishi tabiiy hol hisoblanadi.

O-imkoniyatlar. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tayyorlov guruhidagi bolalarni axborot texnologiyalaridan foydalanishga o'rgatish ularga juda ham ko'p imkoniyatlar beradi. Ularni bir faoliyatni mukammal amalga oshirishga, har qanday muammoning yechimini izlab topishga undaydi. Bolalarda har narsani o'rganishga intilish mavjud. Faqat bu intilishni ular uchun foydali bo'lgan tomonga yo'naltirish zarur. Ma'lumki, zamonamiz bolalari kerak bo'lsa telefon, planshetlarni siz bilan bizdan yaxshi o'rganishmoqda. Kerakli o'yinlarni qayerdan saqlab olish va uni qanday o'ynashni o'zlari tengdoshlaridan o'rganib olishyapti. Bu yerda tarbiyachi va ota-onalarning qiladigan ishlari ma'lumot bazasi shakllanayotgan bolaning takomillashishiga yordam berishdan iborat.

Agar bu holat jilovini ikkala taraf ham o'z qo'lga olmasa shakllanayotgan bolaning yo'li o'zgalar tomonidan noto'g'ri tarafga yo'naltirilishi mumkin. Biz axborot texnologiyalari orqali ta'lim berishimiz yoki bolaga mustaqil ta'lim olish yo'llarini ham

o'rgatishimiz mumkin. Bolaga mustaqil ta'lim olishi uchun qulay axborot texnologiyasi bu multfilm yoki qiziqarli dasturlardir. Chunki visual, ya'ni ko'rish orqali ham bolaning axborotni qabul qilishi, tushunishi osonlashadi. Bu holat tarbiyachiga hamda tarbiyalanuvchiga yengillik yaratadi. Bola IT sohasidan qancha erta ta'lim olsa bu uning uchun kelajakdagi yutuq hisoblanadi.

Yaponiya davlati maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bola maktab yoshiga yetib, tayyorlov guruhini tamomlayotganda bitta o'yinchoq yasagan bo'lishi kerak ekan. O'zi uchun-mi, do'sti uchun-mi buning ahamiyati yo'q. Shuni ham aytib o'tish kerakki, u yerdagi maktab bolalari maktab yoshidanoq robotlar, o'zlarining murakkab bo'lmagan oddiy dasturlarini ishlab chiqishyapti. Bunga yagona sabab ularga maktabgacha ta'lim tashkilotlaridan boshlab AKTdan saboq berilayotganidir.

AKTning maktabgacha ta'lim tashkilotlari tayyorlov guruhi bolalari uchun beradigan imkoniyatlari juda ham katta. Misol uchun: harf va raqamlarni o'rgatishdagi qulayliklar. Bolalarga erta savodxonlik tushunchalarini va matematik hisoblashlarni amalga oshiradigan turli xil ilovalar va dasturlar mavjud. Bolalarga matematika va savodxonlik ko'nikmalarini erta egallashga yordam beradigan ikkita tadqiqot mavjud. Birinchisi harflarni aniqlash va harf tovushlarini sanash, saralash va guruhlashgachadir. Bu bolalar uchun qiziqarli o'rganish imkoniyatini beradi va raqamlar bilan ishlash malakasini oshiradi. Shuningdek, bolalarning savodxonligi va matematik qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam berish uchun kengaytirilgan dasturiy paketlardan foydalanish ham qo'shimcha qulaylik yaratadi.

Faol o'yinni targ'ib qilish. Bolalar tanasini o'yindan ajratib turish imkonini beruvchi dasturiy ta'minotdan foydalanib, sinfingizda faol o'yinni rag'batlantirishingiz mumkin. Misol uchun, muhim saboqni o'rganayotganda o'yinda muayyan maqsadlarga erishish uchun bolalarning harakatlanishini talab qiladigan dasturiy ta'minotni yuklab olishga harakat qiling. Texnologiyalar yordamida bolalar o'ynab o'rganishlari mumkin! Bu ular uchun juda ham qiziqarli bo'lib, ilovaga qarab harakat qilish orqali so'z boyliklarini oshirishlari, she'r yod olishlari, oyoq-qo'llarini mashq qildirishlari mumkin.

Hayvonlar haqida bilib olish. Bolalar hayvonlar haqida bilishlari va yosh guruhiga mos keladigan ma'lumotli videolarni tomosha qila olishlari uchun ularni texnologiyadan foydalanishga undash zarur. Shuningdek, hayvonlarning anatomiyasini o'rganish uchun turli ilovalar ishlab chiqilgan. Bolalar ushbu ilovalar yordamida hayvonlarning tashqi ko'rinishini ko'rish uchun barmoqlari bilan hayvonlarning rentgen nurlarini bo'yashlari yoki uning ichki anatomiyasini ko'rish uchun tashqi ko'rinishini bo'yashlari mumkin.

Ijodkorlikni rag'batlantirish. Texnologiya bolalarga ijodiy rivojlanish uchun ko'plab imkoniyatlarni beradi. Bolalarning chizmachilik dasturlari va ilovalaridan foydalanishini rag'batlantirish, so'ngra boshqa turdagi texnologiyalarni qo'shib borish zarur. Bolalarga rasmga olish va uni tahrirlash, qisqa videolar yaratish va uni xona sharoitida bajarishga ko'maklashish kerak.

Raqamli savodxonlikni rivojlantirish. Texnologiya bolalarga ijodiy rivojlantirish uchun ko'plab imkoniyatlarni beradi. Bolalarni chizmachilik dasturlari va ilovalaridan foydalanishni boshlash uchun rag'batlantirish, so'ngra boshqa turdagi texnologiyalarni bog'lab borishlari mumkin. Bolalarga rasmga olish va uni tahrirlash, qisqa video yaratish va uni sinf blogiga joylashtirishga yordam berish yoki texnologiya talab qiladigan shunga o'xshash harakatlarni amalga oshirishga yordam berish kerak.<sup>12</sup>

## TADQIQOT MUHOKAMASI

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar texnologiyalardan foydalanish orqali davlatlarning madaniyati, kelib chiqish tarixi, yashash sharoitlari, urf-odatlari, tabiati, iqlim sharoitlari bilan tanishib borishlari mumkin. AKTdan foydalanish

<sup>11</sup> Design, development and use of a smart toy for preschool children: a design and development research a thesis submitted to the graduate school of natural and applied sciences of middle east technical university. Prof. Dr. Gulbin Dural Ünver Dean, Graduate School of Natural and Applied Sciences. Prof. Dr. Soner Yıldırım Head of Department, Computer Education and Inst. Tech. Prof. Dr. Kürşat

Çağiltay Supervisor, Computer Education and Inst. Tech., METU June 26, 2015

<sup>12</sup> Kaplan Early Learning Company. 5 Ways to Use Technology for Preschoolers. <https://www.kaplanco.com/ii/technology-for-preschoolers>

ota-onalarning va tarbiyachilarning vaqtini taqsimlashga yordam beradi. Bolalar uchun bir qator imkoniyatlarni taqdim etadi.

Quyida Turkiyada maktabgacha yoshdagi bolalarni AKTdan foydalanib, bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot yuzasidan olingan xulosalar keltirib o'tiladi.

Tadqiqotda tahlilni amalga oshirish uchun dastlab suhbatlar va intervyular o'tkazilgan. Shuningdek, maktabgacha yoshdagi bolalarning ta'lim sohasidagi ehtiyojlarini aniqlash uchun ham so'rovnomma o'tkazilib, so'ng tahlil yakunlangan. Intervyuda quyida keltirilgan savollar berilgan va javoblar tahlil qilingan.

Tadqiqot davomida tarbiyachilarning AKT texnologiyalaridan foydalanish darajasi hamda o'quv mashg'ulotlarida AKTni samarali qo'llash masalalari tahlil qilinib, mavzuga doir davra suhbatlari turli davlat va xususiy maktabgacha ta'lim tashkilotlarining tarbiyachilari orasida so'rovnomma o'tkazilgan. Har bir suhbat tarbiyachi faoliyat yuritadigan maktabgacha ta'lim tashkilotining xonasida tashkil etildi. Suhbatlar o'rtacha 27 daqiqa davom etdi.

Maktabgacha yoshdagi bola ta'limining ahamiyati va tarbiyachilarning aqlli o'yinchoqlardan ta'lim maqsadlarida foydalanish haqidagi fikrlari o'rganildi. Suhbatlar 10 daqiqa davom etdi. Birinchi suhbat bosqichida ishtirok etgan tarbiyachilar bilan o'tkazilgan ehtiyoj tahliliga ko'ra aqlli hikoya qiluvchi o'yinchoq - StoryTech ishlab chiqildi. StoryTech bolajonlar uchun taqdim etildi va aqlli o'yinchoq haqida yetarli ma'lumot berildi (1-rasm).



### 1-rasm. Maktabga tayyorlov guruhi bolalarining StoryTech o'yinchoq`ini ishlatish jarayoni

O'quv dasturini qo'llab-quvvatlash uchun aqlli o'yinchoqni loyihalashda qanday dizayn tamoyillaridan foydalanish ko'rib chiqildi va buni maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyachilari va ular faoliyat yuritayotgan muassasasining maxsus guruhlar bilan tajriba qilib ko'rildi.

Guruh uchrashuvlari o'rtacha 75 daqiqa davom etdi. Rivojlanish bosqichida prototiplarning bolalar bilan foydalanish imkoniyatini sinovdan o'tkazish, tarbiyachilar bilan suhbatlar va olimlar bilan fokus-guruh uchrashuvlari o'tkazildi. Prototiplarni sinab ko'rish va ishlab chiqish oxirida yakuniy mahsulotni ishlab chiqish bosqichiga o'tildi. Birinchi prototip ishlab chiqilgandan so'ng, formativ baholash uchun bolalar, tarbiyachilar va olimlarga taqdim etildi. Formativ baholashning birinchi bosqichida maktabgacha yoshdagi bolalarning o'yinchoqdan foydalanish imkoniyatlari tekshirildi. Asosiy vazifa birinchi prototip bilan o'ynay olish edi. Foydalanish imkoniyatiga 7 nafar bola taklif etildi. Prototip bilan o'ynashda ularni kuzatish uchun videokamera ishlatilgan.

Bolalarni kuzatishda videokameradan foydalanish uchun zarur ruxsatnomalar olindi. Har bir bola prototip bilan alohida o'ynadi va har bir maktabgacha ta'lim muassasasida tarbiyachi va bola foydalanishi davomida hamrohlik qilindi. Foydalanish testini boshlashdan oldin tadqiqotchi har ikkala ta'lim muassasasida bolalarga hamroh tarbiyachilarga aqlli o'yinchoqning ishlash mexanizmi va o'yinni qanday davom ettirish kerakligi haqida ma'lumot berdi. Bolalar sinov paytida kuzatildi va kuzatuv 13 daqiqa davom etgan.

Asosiy vazifa aqlli o'yinchoqning oxirgi versiyasi bilan boshidan oxirigacha o'ynash edi. Sinovlarni tahlil qilishda aqlli o'yinchoqni o'ynash 4 qismga bo'lingan, ya'ni tanishtirish, shaxsiy parvarishlash ko'nikmalari va naqshidagi kognitiv ko'nikmalarni egallashga qaratilgan. Ushbu 4 ta qismga asoslangan vazifalarni o'z ichiga olgan kuzatish varaqasi yaratildi.

Ushbu tadqiqot davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilari orasida o'tkazildi. Tadqiqotchi aqlli o'yinchoqni 2 hafta davomida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qoldirdi. Ya'ni, tarbiyachilar 2 hafta dars davomida aqlli o'yinchoqdan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Bu vaqtni qadrlashning o'zgacha usuli edi. 2 haftadan keyin tadqiqotchi tarbiyachilar bilan suhbatlar o'tkazish uchun maktabgacha ta'lim tashkilotiga bordi. Har bir suhbat tarbiyachi ishlagan maktabgacha ta'lim tashkilotining xonasida o'tkazildi. Bu biz ta'kidlayotgan maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga axborot texnologiyalaridan unumli va qiziqarli foydalanish uchun olib borilgan tadqiqot ishidan namuna.

T-xavf xatarlari. Turkiyada olib borilgan tadqiqotga asosan tanlab olingan maktabgacha ta'lim tashkilotida 18 tarbiyachidan 11 nafari texnologiyaning bolalar ijtimoiylashuviga salbiy ta'sirlari haqida so'zlagan. Tarbiyachilar buni quyidagicha izohlagan: Texnologiya bolalarning do'stlari bilan o'zaro aloqa o'rnatishiga to'sqinlik qiladi. Undan foydalanayotganda bolalar tashqarida yetarli darajada o'ynamasliklari sababli, deyarli ko'p vaqtlari uydada o'tadi. Bu ularning do'stlari bilan muloqot qilishiga to'sqinlik qiladi. Bu haqiqat. 5 ta tarbiyachining javoblariga asosan, texnologiya bolalarning ijtimoiylashuviga to'sqinlik qiladi deb hisoblaymiz.

Masalan; bolalar tashqarida o'ynashdan ko'ra kompyuterni tanlashadi yoki televizor ko'rishadi. Shunday qilib, bola endi jamiyatga qo'shilib o'ynashdan ko'ra uydada kompyuter va televizor qarshisida o'ynaydi. Bundan tashqari, yana 5 nafar tarbiyachi texnologiyadan foydalanish bolalarning vaqtini zo'ra ketkazish, deb ta'kidlaydi. 4 nafar tarbiyachi esa bolalar texnologiyadan foydalananda istalmagan narsalarga duch kelishini aytib o'tdi.

Bir tarbiyachi buni quyidagicha izohladi: ko'pgina bolalar internetga qanday ulanishni bilishadi va buni qilganlarida kerak bo'lmagan narsalarga duch kelishlari mumkin. Ayniqsa, 4 nafar tarbiyachi bolalarning texnologiyadan foydalanishi ulardagi psixologik muammolarni keltirib chiqarishini qayd etdi. Misol uchun, bir tarbiyachi aytadi: bolalar yoshiga mos kelmaydigan jangovar kompyuter o'yinlari bolalarning tajovuzkor bo'lishiga olib kelishi mumkin.

Bundan tashqari, texnologiyadan nazoratsiz foydalanish bolalar uchun xavfli hisoblanadi. Undan ortiqcha foydalananda bolalarning sog'liqlarida bir qator muammolar kelib chiqadi. Kompyuter oldida uzoq vaqt o'tirish bolalarning jismoniy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, chunki ko'p vaqt harakatsiz holda qolishadi. Bolalar uchun texnologiyadan foydalanishning kamchiliklaridan yana biri nutqdagi muammolar va qaram bo'lib qolish holatlari hisoblanadi. Kompyuter yoki telefonidan uzoq vaqt biror inson bilan muloqot qilmay foydalananda uning nutqida bir qator muammolar paydo bo'lishi mumkin. Bundan tashqari boshqa xavf-xatarlar ham mavjud. Masalan; sifatsiz mahsulotlardan ishlab chiqarilgan texnik o'yinchoqdan foydalanish bolaning sog'lig'i uchun xavfli hisoblanadi.

Bola psixologiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan texnologiyalar qatoriga bugungi kunda internet orqali o'ynaladigan jangari o'yinlar kiradi. Ushbu o'yinlar mentalitetimizga xilof ravishda ishlab chiqilgan bo'lib, jadallik bilan yoshlar o'rtasida ommalashmoqda. Bunday o'yinlarni o'ynash orqali bolada jangari temperament shakllanishi mumkin. Misol uchun, dunyoda eng keng tarqalgan PUBG o'yini bugungi kunda nafaqat katta yoshdagilar, hatto yosh bolalarning ham sevimli o'yiniga aylanib ulgurdi. Bu o'yin dasturiga nisbatan ayrim davlatlarda josus o'yin sifatida hatto taqiq ham qo'yildi. Eng achinarli tomoni bu o'yinlarga mukkasidan ketgan yoshlarning psixologiyasida juda katta salbiy o'zgarishlar ro'y berishidir. Bundan ota-onalar o'ta xushyor bo'lishi va also bunday o'yinlarni o'ynamasliklarini nazorat qilmoqlari lozim.

Virtual olamdagi faol ilovalar sirasiga bugungi kundagi ijtimoiy tarmoqlarni misol qilishimiz mumkin. Bolalar ular ichidan mentalitet va bola psixologiyasiga mos kelmaydigan turli videolarni tomosha qiladilar va tushunib-tushunmay ularni real hayotda takrorlaydilar. Bu holat ularning dunyoqarashi buzilishiga va sog'liqlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ota-onalar va murabbiylar maktabgacha yoshdagi bolalarning hozirda mashhur ijtimoiy tarmoqlardan foydalanmasliklarini ta'minlashi lozim. Har narsaning ijobiy va salbiy tomonlari bo'lgani kabi, bolalar uchun ham maxsus ijtimoiy tarmoqlar ishlab chiqilgan. PlayKids Talk, GoBubble, Kidzworld: Chat Room & Forums, Grom Social kabi

ijtimoiy tarmoqlar bolalar uchun maxsus ishlab chiqilgan bo'lib, ulardan cheklangan vaqt oralig'ida foydalanishlari mumkin.

### XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni AKTdan cheklashning imkoni yo'q, demak biz buni tizimlashtirgan holda bolalarga ta'lim berishimiz kerak. Shundaygina ular bu sohada ma'lumotga ega bo'ladilar. Elektron o'yinlar, ijtimoiy tarmoqlar, ta'lim beruvchi robotlar – bularning hammasini nazorat qilish, vaqti kelganda to'xtatishning imkoniyatlari mavjud. Buning uchun ota-ona va tarbiyachidan AKT sohasidan xabardorlik, ma'lumot bazasiga ega bo'lish talab etiladi. Shundaygina bolani tashqi xavflardan va kelajakda paydo bo'lishi mumkin bo'lgan muammolardan himoya qila olishadi. Ota-ona imkoniyat doirasida bolaning yosh xususiyatini hisobga olgan holda uni biror yumush bilan yoki ta'limiy faoliyat bilan band qilishi, uning kun tartibini tuzib, nazorat doirasida erkinlik berishi kerak. Bolani doimiy nazorat qilish uning o'zini bir faoliyatda sinab ko'rishini cheklaydi.

Zamonamiz texnologiyalaridan foydalilardan biri bu SMART WATCH qo'l soatlaridir. Bu qurilmada bolaga qo'ng'iroq qilish mumkin, soatga o'rnatilgan mikrofon va dinamika sabab bolangiz sizni eshita oladi va javob qaytaradi, GPS treker mavjudligi sababli farzandingiz joylashgan joyni xaritada ko'rib turasiz, shuningdek SOS tugmasi ham mavjud. Yani zaruriyat holatida "shoshilinch chaqiruv" uchun SOS tugmasini bir marotaba bosish orqali farzandingiz sizga qo'ng'iroq qila oladi. Soatga SMS va qisqa ovozi xabar yuborish mumkin, shu bilan birga "Yashirincha kuzatish" funksiyasi ham bor. Ya'ni, siz istalgan paytda bolangiz bilmagan holda, u kim bilan va nima haqida gaplashayotganini eshitib tura olasiz. Siz xaritada belgilab qo'ygan chegaralardan bolangiz chiqib ketisa bundan siz xabar topasiz hamda bola 30 kun ichida qayerlarga borganini xaritadan ko'ra olasiz. Agar soatning quvvati kam qolsa, siz bundan xabar topasiz, buning uchun maxsus datchigi bor. Agar soat bolaning qo'lidan yechilsa, siz bundan xabar topasiz. Yana bir qiziqarli jihati qadam o'lchagich funksiyasi orqali yurilgan qadamlarni bilib olsa ham bo'ladi. Qo'shimcha

ravishda soatni yo'qotib qo'ymaslik uchun Bluetooth qurilmasi ham bor.

Ota-ona nazorati uchun dasturlar - bu gadgetlarning ma'lum funksiyalarini cheklaydigan, shaxsiy kompyuter yoki noutbuklar uchun odatda dastur, planshet va smartfonlar uchun esa ilova sifatida o'rnatiladigan maxsus dasturlardir. Ota-ona nazorati ilovalari bolaning noto'g'ri saytlardan va uzoq vaqt Internet yoki o'yinlar ta'siridan himoya qilish uchun ishlatiladi. Virtual olam nafaqat sizni, balki farzandingizni ham tortib olganida, siz xavfsizlik haqida o'ylay boshlaysiz. U yerda nima o'qiya? Kim bilan suhbatlashmoqda va u qanday videolarni tomosha qiladi? Birinchi tahdidlarda ota-ona virtual dushmanga shiddat bilan hujum qiladi va keraksiz kontentni olib tashlaydi. Bugungi kunda bunday ilovalarning soni va turi juda ko'p.

Ota-ona nazorati uchun ilovalarning eng keng tarqalganlari bular Kids360, Kaspersky Safe Kids, Norton Family Parental Control, ESET Parental Control, Kidslox, Mobile Fence Parental Control, Kids Place, ScreenTime, Locategy, Boomerang, FamilyTime Premium, Kid's Shell, Kidix va boshqalarni keltirib o'tish mumkin. Bular ichida bepul eng foydalilari Qustodio, OpenDNS FamilyShield, KidLogger, Spyrix Free Keylogger, Kaspersky Safe Kids, Google Family Link, FamilyKeeper, Safe Lagoon hisoblanadi. Dastur/ilova orqali ota-ona bolaning har xil saytlarga, ma'lumot turlariga va bolaning yoshiga mos kelmaydigan o'yinlarni yuklab olishiga taqiq qo'yishi mumkin. Dasturni o'rnatib olgan ota-onada bolaning bir o'yinni qancha vaqt davomida o'ynashini belgilab berish imkoniyati mavjud.

Yuqorida keltirilgan fikrlarni umumlashtirgan holda shuni aytishimiz mumkinki, bugungi raqamli asrda bolalarni turli gadgetlar va ulardagi ilovalardan ayro holatda tassavvur etib bo'lmaydi. Faqat shuni yodda tutish kerak-ki har narsaning ikki tomoni bo'lgani kabi ushbu insoniyat yutuqlaridan kerakli o'rinda, meyor darajasida foydalangandagina foydali bo'ladi. Ayniqsa, O'zbekiston o'z oldiga Uchinchi renessans qurishni maqsad qilib qo'ygan ekan, buni albatta raqamli texnologiya yordamida qurilishini inobatga olgan holda bolalarning maktabgacha yoshdagi davrdan boshlab kompyuter, gadgetlardan to'g'ri foydalanish malakasini shakllantirish lozim bo'ladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mevlüde Akdeniz, Fatih Özdiñ. Maya: An artificial intelligence based smart toy for pre-school children. International Journal of Child-Computer Interaction, Volume 29, Issue C, Sep 2021. <https://doi.org/10.1016/j.ijcci.2021.100347>
2. Marsh, J., Brooks, G., Hughes, J., Ritchie, L., Roberts, S. & Wright, K. Digital beginnings: young children's use of popular culture, media and new technologies. Retrieved July 22, 2015. <http://www.digitalbeginnings.shef.ac.uk/final-report.htm>
3. Plowman, L., Stephen, C., & McPake, J. Supporting young children's learning with technology at home and in preschool. Research Papers in Education, 2010, 25(1), 93–113.
4. Masaru Ibuka. Uchdan keyin kech. Akademnashr, 2020-yil. 264 bet. ISBN: 978-9943-5652-7-2.
5. Майсак О. С. SWOT-анализ: объект, факторы, стратегии. Проблема поиска связей между факторами // Прикаспийский журнал: управление и высокие технологии. — 2013. — № 1 (21). — С. 151-157. — ISSN 2074-1707.
6. Kaplan Early Learning Company. 5 Ways to Use Technology for Preschoolers. <https://www.kaplanco.com/ii/technology-for-preschoolers>
7. Tanaka, F., & Kimura, T. Care-receiving robot as a tool of teachers in child education. Interaction Studies, Volume 11, Issue 2, Jan 2010, p. 263 - 268. <http://dx.doi.org/10.1075/is.11.2.14tan>.
8. Yun, S., Shin, J., Kim, D., Kim, C. G., Kim, M., & Choi, M. T.. En-gkey: Tele-education robot. In International conference on social robotics, 2011. pp. 142–152.
9. Lee, S., Noh, H., Lee, J., Lee, K., & Lee, G. G. Cognitive effects of robot-assisted language learning on oral skills. In Second language studies: Acquisition, learning, education and technology, 2010. pp. 1–4.
10. Amanatiadis, A., Kaburlasos, V. G., Dardani, C., & Chatzichristofis, S. A. Interactive social robots in special education. In 7th international conference on consumer electronics, 2017. pp. 126–129.
11. Erikson Institute. Technology and Young Children in the Digital Age. A Report from the Erikson Institute, 10, 2016. <https://www.erikson.edu/wp-content/uploads/2018/07/Erikson-Institute-Technology-and-Young-Children-Survey.pdf>
12. Luke Legner. Kids' screen time: How much is too much? <https://www.osfhealthcare.org/blog/kids-screen-time-how-much-is-too-much/>.



## MAKTABGACHA TA'LIM YOSHDAI BOLALARDA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISH

Sodiqova Dilrabo

Qo'qon universiteti Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabasi

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATSIYA
<p><b>Qabul qilindi:</b> 24-may 2022-yil <b>Tasdiqlandi:</b> 26-may 2022-yil <b>Jurnal soni:</b> 4 <b>Maqola raqami:</b> 9 <b>DOI:</b> <a href="https://doi.org/10.54613/001224">https://doi.org/10.54613/001224</a></p>	<p>Maqolada bolalarning bilim sohasini boyitadigan, mustahkamlaydigan, sinovdan o'tkazadigan va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradigan maxsus faoliyat turi bo'lgan didaktik o'yinlar haqida so'z yuritiladi. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda didaktik o'yinlardan foydalanish usullari, ularning kognitiv rivojlanish bosqichlarini yosh xususiyatlariga ko'ra didaktik o'yinlardan foydalanish samaradorligi, bolalarning aqliy faoliyati, ularni aqliy va ma'naviy jihatdan sog'lom qilib tarbiyalash bo'yicha tadqiqot olib borilgan. Tadqiqot davomida didaktik o'yinlardan foydalanish xususiyatlari yuzasidan pedagog-tarbiyachilarga interfaol usullar haqida tavsiyalar ishlab chiqilgan.</p>
<p><b>KALIT SO'ZLAR</b></p> <p>Maktabgacha ta'lim, maktabgacha yosh, o'yin faoliyati, didaktika, didaktik o'yin, didaktik mashg'ulot, kognitiv rivojlanish, tanqidiy fikrlash.</p>	

### KIRISH

Mamlakatimizda o'sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama yetuk, barkamol shaxs qilib tarbiyalash, ta'lim tizimini samarali tashkil etishdek mas'uliyatli vazifa maktabgacha ta'lim muassasalari zimmasidadir. Respublikamiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 30-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3955-qaroriga ko'ra maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqildi.

Ushbu konsepsiya maktabgacha ta'lim sohasidagi normativ-huquqiy ba'zani yanada takomillashtirish, bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, bolalarning sifatli maktabgacha ta'lim qamrovini amalga oshirish, undan teng foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash, mazkur sohada davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish, maktabgacha ta'lim tizimiga innovatsiyalarni, ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishni o'z ichiga olgan.

Konsepsiya maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirishga yo'naltirilgan dasturlar va kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun asos bo'ladi. Maktabgacha ta'limning maqsadi – bolalarni maktabdagi o'qishga tayyorlash, sog'lom hamda rivojlangan, mustaqil shaxs etish shakllantirish, qobiliyatlarini ochib berish, o'qishga, tizimli ta'limga bo'lgan ishtiyoqini tarbiyalashdir. Yurtboshimizning 2017-yil 30-sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5198-sonli Farmoni asosida "Maktabgacha ta'lim vazirligini tashkil etish to'g'risida"gi qarori maktabgacha ta'lim tizimi uchun juda ko'plab imkoniyatlar yaratildi.

Bugungi zamonaviy ta'limda bolalarga ta'lim-tarbiya berish eng dolzarb masalalardan biridir. Bolalarga ta'lim berishning dastlabki bo'g'ini bu maktabgacha ta'lim tashkilotidir. Chunki maktabgacha yosh davri – inson hayotining o'ziga xos, muhim davri hisoblanadi. Uning o'ziga xosligi alohida sezgirlik, atrofdagi voqealikni o'zlashtirishga nisbatan qiziquvchanligi va xotirasining mustahkamligidadir. Maktabgacha yoshdagi bolalar ko'plab bilimlarni ta'limiy o'yinlar orqali o'zlashtiradilar. Bu o'yinlar maktabgacha yoshdagi bolaning asosiy faoliyati bo'lib, o'yin davomida bolaning tafakkuri, xarakteri, xotirasi, tasavvuri, his-tuyg'ulari, irodasi rivojlanib boradi. Shuning uchun ham didaktik o'yinlar maktabgacha ta'limda o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi kunda bolalar bog'chasida maktabgacha yoshdagi bolalarning qiziqishini uyg'otadigan didaktik mashg'ulotlarni o'tkazishning strategiyalari va zamonaviy vositalaridan foydalangan holda maktabgacha yoshdagi bolalarni faol jalb qilishning yangi usullari aniqlanib, amaliyotga joriy qilinmoqda. Jumladan, mashg'ulot jarayonida didaktik o'yinlardan foydalanish, bolalarning faol ishtirokini ta'minlash, ularga o'yin orqali ta'lim berish va jamoaviy ishlash ko'nikmalarini shakllantirish ishlari olib borilmoqda.

Har bir o'yin bolaning yangi his-tuyg'ulari, ko'nikmalari, muloqot tajribasi, jamoaviy va individual faoliyatini rivojlantiradi. Didaktik o'yinlar kognitiv, intellektual va axloqiy qobiliyat va ehtiyojlarni rivojlantirishga yordam beradi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI

Adabiyotlarni nazariy o'rganish, zamonaviy pedagoglar, psixologlarning mahorati va muammo bo'yicha amaliy faoliyati natijalari tahlildan xulosa qilishimiz mumkinki, didaktik o'yin qadim zamonlardan beri maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashda doimo muhim hisoblangan. Bu o'yinlardan foydalanishning didaktik usuli pedagogikada F.Ferebl tomonidan 2000-yil taqdim etilgan. U nutqni boyitish, tafakkur va tasavvurni rivojlantirishda o'yinga katta tarbiyaviy ahamiyat beradi. F.Ferebl o'yinni bolalar bog'chalarida bolalarni o'qitishning asosi, deb hisobladi va u bolalar uchun turli didaktik o'yinlarni ishlab chiqdi.<sup>2</sup>

Keyinchalik esa E.I Tixeeva didaktik o'yinlarning rolini ochib berishda alohida xizmat ko'rsatdi (2013). U didaktik o'yin bolaning xilma-xil qobiliyatlarini, uning idrokini, nutqini, tafakkurini rivojlantirishga imkon beradi, deb hisoblar edi. E.I Tixeeva ko'plab didaktik o'yinlarni ishlab chiqqan va ular hali hanuz bolalar bog'chasida qo'llanilmoqda.<sup>3</sup>

Ko'pgina tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, maktabgacha yoshdagi bolaning o'yinlari uning hayotining mazmunidir. "Bu uning qo'rquvdan panohi, jang maydoni, yutuqlar va muvaffaqiyatlar, tinchlanish va orzulari edi", deb ta'riflar keltirilgan. O'yinda bolaning istaklari, intilishlari, his-tuyg'ulari, fikrlari va o'zi yashayotgan muhitda faol harakatlarga bo'lgan ehtiyojlari birinchi o'ringa chiqadi. O'yin bolalarning biologik va psixologik ehtiyojlarini qondiradi, ularning aqliy, hissiy, ijtimoiy va axloqiy rivojlanishiga yordam beradi. O'yinlardagi turli rollar, bolalar fantaziyasining mahsuli bo'lsa-da, ularga yaxshilik va yomonlik, xatti-harakatlarda nima ijobiy va nima salbiyligi haqida

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2017-yil 30-sentyabrdagi PF-5198-sonli "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"ga Farmoni <https://lex.uz/docs/-3362886>  
2 Stephen Worchel. Social Behaviors and Relationships Between Groups e-ISSN 2310-4635 <http://dx.doi.org/10.20511/pyr2020.v8n2.524>

The Role of the Didactic Games in Enhancing Cognitive Activity at Preschool Children, 4 p.  
3 Social Behaviors and Relationships Between Groups e-ISSN 2310-4635 <http://dx.doi.org/10.20511/pyr2020.v8n2.524> The Role of the Didactic Games in Enhancing Cognitive Activity at Preschool Children, 4 p



shaxsiy tajriba orttirish imkonini beradi. Ular kuchli ta'lim vositasidir, chunki o'yin orqali bolalar bilim oladi, tajribasini boyitadi, ko'nikma va odatlarni rivojlantiradi.<sup>4</sup>

Ta'lim jarayonida qo'llaniladigan didaktik o'yinlar maktabgacha ta'limda, maktablarda qiziqish va e'tirofni oshirmoqda. Bu o'yinlar orqali ta'lim olish an'anaviy ta'lim modeliga nisbatan shubhasiz afzalliklarga ega. Didaktik o'yinlardan foydalanish va ko'plab fanlarni o'qitish samaradorligi o'rtasidagi bog'liqlik haqida ko'plab tadqiqotlar mavjud. Johan Huizing Rojer Kaylua o'yin insonning asosiy faoliyati sifatida muhimligini isbotlagan. Hozirgi kunda ham aynan ular Ludologiyaning (ya'ni o'yinlar fanining) eng ko'zga ko'ringan tarafarlari hisoblanib kelmoqda. (Surdiq, 2007).

Shu o'rinda bir qator olimlarning didaktik o'yin haqidagi fikrlariga to'xtalib o'tamiz. Olga Belyakovaning ta'kidlashicha: "O'yinsiz to'laqonli aqliy rivojlanish mavjud bo'lishi mumkin emas. O'yin - bu bolaning ma'naviy olamiga hayot beruvchi g'oyalar va tushunchalar oqimi oqib o'tadigan ulkan yorqin oyna. O'yin - bu izlanuvchanlik va qiziquvchanlik uchqunlarini yoqadigan uchqun".<sup>5</sup>

Leontyevning fikriga ko'ra, didaktik o'yinlarni "chegaraviy o'yinlar" deb ataydi. Ushbu o'yinlar o'rganishning asosi bo'lgan kognitiv faollikni, intellektual operatsiyalarni rivojlantirishga yordam beradi.<sup>6</sup>

Yana bir tadqiqotchi olim V.A.Suxomlinskiy o'z asarlarida "maktabgacha yoshdagi bolalar uchun o'yin yetakchi faoliyatdir. Bu ularning butun hayotini qamrab oladi, keng qamrovli ma'lumot manbai, bolalarni o'qitish va tarbiyalash usulidir. Uning yordami bilan ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish, bolaning har tomonlama rivojlanishi uchun sharoitlar yaratiladi"<sup>7</sup> degan.

N.N. Palaginaning qayd etishicha, didaktik o'yin uni bir vaqtning o'zida o'rganish va o'yin faoliyati shakli sifatida tavsiflovchi tuzilishga ega ekanligini ta'kidlagan. Didaktik o'yinda uning quyidagi tarkibiy qismlarini ajratib ko'rsatish mumkin: didaktik vazifa; o'yin vazifasi; o'yin harakatlari; o'yin qoidalari; natija (yakunlash) va uning tavsifiga ko'ra didaktik vazifa o'qituvchi tomonidan tuzilgan ta'limiy va tarbiyaviy ta'sirning maqsadi bilan belgilanadi. U tarbiyaviy faoliyatni aks ettiradi.<sup>8</sup>

Didaktik o'yindagi vazifa o'yin vazifasi orqali amalga oshiriladi. U o'yin harakatlarini belgilaydi, bolaning o'z vazifasiga aylanadi. Eng muhimi: o'yindagi didaktik vazifa - bolalar oldida o'yin rejasi topshiriq shaklida paydo bo'ladi.

Didaktik o'yinlar turli xil mazmun, o'yin materiali, o'yin harakatlari, kognitiv faoliyatga ega. A.K.Bondarenkon didaktik o'yinlarni tashkil etishda quyidagi bosqichlarni ajratib ko'rsatib o'tgan: o'yinga tayyorgarlik, o'yinni o'tkazish, o'yinni tahlil qilish. O'yin bo'yicha ko'rsatma tarbiyachiga beriladi. Yetakchilik didaktik vazifalarni o'yin vositasida, ya'ni o'yin harakatlari va qoidalarni qo'llash orqali amalga oshirishda namoyon bo'ladi. Biroq, rahbarlik bilan bir vaqtda tarbiyachi o'yin ishtirokchisiga aylanadi. O'yinlarni boshqarishda tarbiyachining so'zi katta ahamiyatga ega. Bolalarga murojaat, tushuntirishlar, o'yin mazmuni va qahramonlarning xatti-harakatlarini ochib beradigan qisqa hikoyalar, o'yin harakatlarini obrazli tushuntirishlar, bolalarga savollar - bularning barchasi o'yin mazmunini va bolalarning undagi ishtirokini ochib beradi. Bolalarning o'yinga kiritilgan vazifalarni tushunishiga hissa qo'shadi.


#### TADQIQOT METODOLOGIYASI

Didaktika - yunoncha so'z bo'lib, "didasko" - o'qitish, "didaskol" - o'rgatuvchi degan ma'nolarni bildiradi. Didaktika

atamasi ilk bor Yevropada XVII asrda o'qitish va ta'lim jarayoni haqida asar yaratgan olimlar tomonidan qo'llanila boshlangan.<sup>9</sup> Didaktika ilmiy bilimlar tizimi sifatida birinchi marta chex pedagogi Yan Amos Komenskiyning "Buyuk didaktika" (1657-yil) asarida ochib berilgan.<sup>10</sup>

**Didaktik o'yinlar** - ta'lim mazmuni, bolalarning bilish faolligi, o'yin harakatlari va qoidalari, bolalar jamoasining tashkil etilishi va munosabatlari, tarbiyachining roli bilan farqlanadi. Didaktik o'yinlar foydalaniladigan materialning xususiyatiga ko'ra quyidagilarga bo'linadi: **Ob'yektlar bilan o'yinlar** bolalarning bevosita idrokiga asoslanadi, bolaning ob'yektlar bilan harakat qilish va ular bilan tanishish istagiga mos keladi. Ob'yektlar bilan o'yinlarda bolalar solishtirish, ular orasidagi o'xshashlik va farqlarni aniqlashni o'rganadilar. Ushbu o'yinlarning ahamiyati shundaki, ular yordamida bolalar ob'yektlarning xususiyatlari, hajmi, rangi bilan tanishadilar. Bunday o'yinlarda bolalarni tabiat bilan tanishtirishda tabiiy materiallardan (o'simlik urug'lari, barglari, turli gullar, konuslar, novdalar, sabzavot, mevalar va boshqalar) foydalaniladi va bu bolalarda katta qiziqish va o'yinga faol ishtiyok uyg'otadi. Bunday o'yinlardan: "Xato qilmang", "Bu mavzuni tasvirlab bering", "Bu nima?", "Avval nima, keyin nima" va boshqalarni misol keltirish mumkin.

**Stol - bosma o'yinlari** - bu bolalar uchun tashqi dunyo, hayvonlar va o'simliklar dunyosi, jonli va jonsiz tabiat hodisalari bilan tanishishda qiziqarli hisoblanadi. Stol o'yinlari yordamida nutq ko'nikmalari, matematik qobiliyatlar, mantiq, e'tiborni muvaffaqiyatli rivojlantirish, hayot sxemalarini modellashtirish, o'z-o'zini nazorat qilish qobiliyatlari va qarorlar qabul qilishni o'rganish mumkin. Stol o'yinlari atrof-muhit haqidagi g'oyalarni aniqlashtirish, bilimlarni tizimlashtirish, fikrlash jarayonlari va operatsiyalarini (tahlil, sintez, umumlashtirish, tasniflash va boshqalar) rivojlantirishga qaratilgan.



1-rasm. Didaktik o'yin turlari

Stol o'yinlarini bir necha turlarga bo'lish mumkin:

**1. Juftlangan rasmlar.** O'yinning vazifasi rasmlarni o'xshashligi bo'yicha moslashtirishdir.

**2. Loto.** Ular juftlashtirish prinsipi asosida qurilgan: kichik kartalardagi bir xil tasvirlar katta kartadagi rasmlarga mos keladi. Lotto mavzulari eng xilma-xildir: "O'yinchoqlar", "Idishlar", "Kiyimlar", "O'simliklar", "Yovvoyi va uy hayvonlari" va

4 Social Behaviors and Relationships Between Groups e-ISSN 2310-4635 <http://dx.doi.org/10.20511/pyr2020.v8n2.524> The Role of the Didactic Games in Enhancing Cognitive Activity at Preschool Children, 4 p

5 <https://hungry-bags.ru/uz/nardy/statya-na-temu-didakticheskaya-i-gra-rol-didakticheskikh-igr-v/>

6 <https://hungry-bags.ru/uz/nardy/statya-na-temu-didakticheskaya-i-gra-rol-didakticheskikh-igr-v/>

7 <https://hungry-bags.ru/uz/nardy/statya-na-temu-didakticheskaya-i-gra-rol-didakticheskikh-igr-v/>

8 <https://avtovokzal-tver.ru/uz/regulatory-documents/doshkolnoe-ob-razovanie-tema-opyta-sensorno-razvitiye-detei.html>

9 <https://uz.wikipedia.org/wiki/Didaktika>

10 <https://fayllar.org/boshlangich-talim-pedagoqikasi-innovatsiya-va-integratsiyasi-v9.htm> |



boshqalar. Lotto o'yinlari bolalarning bilimlarini aniqlaydi, so'z boyligini oshiradi.

**3. Domino toshlari.** Ushbu o'yinda juftlik prinsipi keyingi harakatda rasmi kartalarni tanlash orqali amalga oshiriladi. Dominoning mavzusi lotto kabi xilma-xildir. O'yin aqlni, xotirani, sherikning harakatini oldindan bilish qobiliyatini va boshqalarni rivojlantiradi.

**4. Tasvirlangan ob'yekt yoki syujet bir necha qismlarga bo'lingan rasmlar va kublar.** O'yinlar diqqatni rivojlantirish, jamlash, fikrlarni aniqlashtirish, butun va qism o'rtasidagi munosabatlarga qaratilgan.

**5. "Labirint"** kabi o'yinlar katta maktabgacha yoshdagi bolalar uchun mo'ljallangan. Ularda fazoviy yo'nalish, harakat natijasini oldindan ko'rish qobiliyati rivojlanadi.

**So'z o'yinlari** bolalarda mustaqil fikrlash va nutqni rivojlantirishni tarbiyalashning samarali usuli hisoblanadi. Ular ishtirokchilarning so'zlari va harakatlariga asoslanadi. Bolalar turli xil aqliy vazifalarni mustaqil ravishda hal qilishadi: ob'yektlarni tavsiflash, ularning xarakterli xususiyatlarini ajratib ko'rsatish, tavsifga ko'ra ularni taxmin qilish, ushbu ob'yektlar va tabiat hodisalari o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarni topish kabilar. O'yin jarayonida bolalar tabiat ob'yektlari va uning mavsumiy o'zgarishlari haqidagi tasavvurlarini aniqlaydilar, mustahkamlaydilar, kengaytiradilar. Bu guruh o'yinlariga "Bo'yoqlar", "Sukunat", "Oq-qora" kabi ko'plab xalq o'yinlari kiradi. O'yinlar diqqatni, zukkolikni, tezkor munosabatni, izchil nutqni rivojlantiradi.<sup>11</sup>

Ekspirimental faoliyatda didaktik o'yin - bolalarning atrof-muhitga kognitiv qiziqishini shakllantirishga yordam beradi, asosiy aqliy jarayonlarni, kuzatishni, fikrlashni rivojlantiradi. Didaktik o'yin shaklida turli yoshdagi bolalarning rivojlanishi uchun katta imkoniyatlar mavjud. Ushbu ko'ngilochar va ma'rifiy tadbirlarni tanlashda tizimli yondashuvga rioya qilish, bola rivojlanishining barcha jihatlariga e'tibor berish muhimdir. Shu bilan birga, ushbu foydali o'yin-kulguning samaradorligini oshirish uchun yosh chegarasiga rioya qilish muhimdir. Shuni esda tutish kerakki, bolalarning ishtiroki va qiziqishi o'yinning afzalliklarini va ushbu jarayon orqali maktabgacha yoshdagi bolalar tomonidan yangi bilim va ko'nikmalarni faol ravishda o'zlashtirishni belgilaydigan asosiy omillardir.

Didaktik o'yin turli xil faoliyat shakllari va ularning kombinatsiyasi bilan tavsiflanishi mumkin. Keyinchalik murakkab intellektual va irodaviy vazifalarni kiritish katta yoshdagi bolalarda didaktik o'yinlarga qiziqishning namoyon bo'lishiga yordam beradi. Jumladan, bolalarning o'yindagi amaliy faoliyati ongli tarzda faol bo'lishni talab qiladi: u jarayonning o'ziga emas, balki ko'proq natijaga erishishga qaratilgan bo'ladi.

Didaktik o'yinning natijasi - bu bolaning erishgan yutug'i: bilimlarni o'zlashtirishi, aqliy faoliyatni rivojlantirish va munosabatlarda namoyon bo'ladi. O'yin vazifalari, harakatlari, qoidalari, o'yin natijasi o'zaro bog'liq bo'lib, ushbu komponentlardan kamida bittasining yo'qligi uning yaxlitligini buzadi, tarbiyaviy ta'sirni kamaytirishga olib keladi.<sup>12</sup>

O'yin harakatlari o'yinning asosidir. O'yin harakatlari qanchalik xilma-xil bo'lsa, o'yin jarayoni ham bolalar uchun shunchalik qiziqarli bo'ladi va kognitiv vazifalar shunchalik muvaffaqiyatli tarkib topadi. O'yin qoidalari, mazmuni va diqqati bolaning shaxsiyatini shakllantirishning umumiy vazifalari, kognitiv mazmuni va o'yin harakatlari bilan belgilanadi. Qoidalarda axloqiy talablar va bolalarning xatti-harakatlar normalarini bajarish uchun munosabatlari mavjud.<sup>13</sup>

Natija - o'yin tugagandan so'ng darhol amalga oshiriladi. Didaktik o'yindan keyin natijalarni umumlashtirish lozim. O'yinni

jamoaviy tahlil qilish juda muhim hisoblanadi. Bolalar tomonidan o'yin harakatlarini bajarish tezligi va sifati ham baholanishi lozim. O'yinda bolalarning xulq-atvori va ularning shaxsiy fazilatlarini namoyon bo'lishiga e'tibor berish juda muhimdir.

Ushbu tadqiqot jarayonida eksperimental tajriba va anketa so'rovnomaga metodlaridan foydalanildi va quyidagi natijalarga erishildi. Eksperimental tajriba metodi Namangan viloyati6 Namangan tumanidagi 30-maktabgacha ta'lim tashkilotida o'rta guruh bolalarini kuzatish asosida olib borildi. Shuningdek, anketa so'rovnomaga metodi orqali ko'plab pedagog-tarbiyachilarning fikrlari o'rganib chiqildi. Bu so'rovnomaga 100 nafar tarbiyachi jalb qilindi.


#### TADVIQOT NATIJASI

Didaktik o'yin shakllaridan foydalanish, birinchi navbatda kognitiv jarayonlarni rivojlantirishga qaratildi. Shu nuqtai nazardan, bolalarda fikrlashni rivojlantirish, didaktik o'yinning kognitiv jarayonlarga ta'siri o'rta guruh tarbiyalanuvchilarida ko'rib chiqildi. Maktabgacha yoshdagi bolalarga tashxis qo'yishda, birinchi navbatda, kognitiv jarayonlarga e'tibor berildi. Bolalarning kognitiv jarayonlarini tahlil qilish uchun "Absurd" va "Bu yerda nima ortiqcha?" o'yinlaridan foydalanildi. "Absurd" usulini qo'llashda bolaning atrofidagi dunyo haqidagi elementar obrazli tasavvurlari va bu dunyoning ba'zi ob'yektlari o'rtasidagi mantiqiy aloqalar va munosabatlar baholanadi.

Ushbu usulning tartibi quyidagicha: birinchi navbatda, bolaga hayvonlar bilan bir nechta kulgili vaziyatlar mavjud bo'lgan rasm ko'rsatiladi. Rasmni ko'rishda bola ko'rsata oladi: "Bu rasimga diqqat bilan qarang va hamma narsa o'z joyidami, to'g'ri chizilganmi yoki yo'qligini ayting. Agar biror narsa sizga noto'g'ri, o'rinli yoki noto'g'ri chizilgandek tuyulsa, uni ko'rsating va nima uchun bunday emasligini tushuntiring. Keyin qanday bo'lishi kerak?". Ko'rsatmaning ikkala qismi ham ketma-ket bajariladi.

Avvaliga bola oddiygina barcha absurdlarni nomlaydi va rasmda ularga ishora qiladi, keyin esa, aslida qanday bo'lishi kerakligini tushuntiradi. Tasvirning ekspozitsiya vaqti va topshiriqning bajarilishi uchun daqiqalar bilan cheklangan. Bu vaqt ichida bola imkon qadar ko'proq kulgili vaziyatlarni sezishi va nima noto'g'ri ekanligi, nima uchun bu mumkin emasligi va haqiqatda qanday bo'lishi kerakligi tushuntirishi kerak.

Tadqiqot natijasida quyidagicha natijaga erishildi.



**2-rasm. Absurd o'yining foiz ko'rsatkichlari<sup>14</sup>**

Yuqoridagi rasmdan ma'lumki, kuzatish natijasida 25 % bola berilgan vazifani 3 daqiqada to'liq tasvirlab va xatolarni topib, asli qanday bo'lishi kerakligini aniq va batafsil tasvirladi, 35 % bola o'rtacha tasvirladi bunga sabab bolalar rasmi tushungan bo'lsada to'liq tasvirlay olmadi, 15 % bola qisman tasvirladi chunki ular mashg'ulotga bor diqqat-e'tiborini qaratmagan, 25 % bola diqqatini bir joyga jamlay olmagan va

<sup>11</sup> <https://kayabaparts.ru/uz/didakticheskie-igr-y-opredelenie-struktura-vidy-primery/>

<sup>12</sup> <https://avtovokzal-tver.ru/uz/regulatory-documents/doshkolnoe-obrazovanie-tema-opyta-sensornoe-razvitiye-detei.html>

<sup>13</sup> <https://avtovokzal-tver.ru/uz/regulatory-documents/doshkolnoe-obrazovanie-tema-opyta-sensornoe-razvitiye-detei.html>

<sup>14</sup> Muallif so'rovnomaga tadqiqoti asosida ishlab chiqilgan

mashtg'ulotga qiziqmagani uchun umuman tasvirlab bera olmadi.

"Bu yerda nima ortiqcha?" Bu o'yin bolada tahlil qilish va umumlashtirishning aqliy operatsiyalarini o'rganish uchun mo'ljallangan. Bu metodikada bolalarga quyidagi ko'rsatma bilan birga turli xil ob'yektlar tasvirlangan bir qator rasmlar

beriladi: "Bu rasmlarning har birida unda tasvirlangan to'rtta ob'yektdan biri ortiqcha bo'ladi. Suratlariga diqqat bilan qarash va qaysi element va nima uchun ortiqcha ekanligini aniqlash kerakligi tushuntiriladi. Muammoni hal qilish uchun 3 daqiqa vaqt ajratiladi. Natijalarni quyidagi jadvalda ko'rish mumkin.

1-jadval.

"Bu yerda nima ortiqcha" o'yining natijasi


Rejalashtirilgan vaqt oralig'i davomida muammolarni hal qilish o'yini.	Baho	Eksperimental guruh bolalari soni 22	Nazorat guruh bolalari soni 22	Ko'rsatkichlar
To'g'ri javoblar bir daqiqada barcha rasmlar.	8-9	18	8	Juda baland
2. 1-1,5 daqiqada to'g'ri yechim	6-7	1	2	Yuqori
3. 1,5-2 daqiqada to'g'ri yechim	4-5	1	3	O'rtacha
4. 2-2,5 daqiqada to'g'ri yechim	2-3	2	6	Past
5. 3 daqiqada to'g'ri yechim	-	0	3	Juda past

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, bir daqiqada barcha rasmlarga to'g'ri javoblar natijalar eksperimental guruh bolalarining 81,9 % ni va nazorat guruhi bolalarining 36% dan yuqori ekanligini ko'rsatadi. Past ko'rsatkichlar ham shunga mos ravishda o'zgarib boradi. Shunday qilib, natijalar eksperimental guruhdagi bolalarning 9% va nazorat guruhidagi bolalarning 27% ni tashkil qiladi. Didaktik o'yinlar davomida dinamika o'zini namoyon qilib, bu o'yinlarda kognitiv faollik va motivatsion imkoniyatlarning ortib borishini ko'rsatdi. Shuni ta'kidlash kerakki, absurd usuli bolalar uchun juda katta qiyinchilik tug'dirdi. Bolalar o'rtacha 4-6 absurdni topdilar. "Bu yerda nima ortiqcha?" usuli qiyinchiliklarga olib kelmadi, umuman olganda, bolalar topshiriqni tez va aniq bajarishdi. Shunday qilib, eksperimental tadqiqot maktabgacha yoshdagi bolalarda kognitiv jarayonlarning rivojlanishini didaktik o'yinlar yordamida o'rganish samaradorligini tasdiqladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv jarayonlarini rivojlantirish bo'yicha ishlar ular bilan ishlashda didaktik o'yinlardan tizimli foydalanish bilan samaraliroq bo'ladi.

#### ANKETA SO'ROVNOMA METODI


Tadqiqot davomida anketa so'rovnoma orqali pedagog-tarbiyachilarga savollar berildi va quyidagicha natijalarga erishildi.

Anketa so'rovnoma 100 nafar tarbiyachi (respondent) ishtirok etdi. Tadqiqot natijasida 70 nafari (70 %) didaktika haqida tushunchaga ega ekanliklari ma'lum bo'ldi. Tarbiyachilardan 1 nafari (1 %) didaktika to'g'risida hech qanday tushunchaga ega emasligi, 29 bafarii (29 %) esa juda oz ma'lumotga ega ekanliklari ma'lum bo'ldi.



3-rasm. Pedagog-tarbiyachilarning didaktika haqida tushunchaga egaligi darajasi, foizda<sup>1</sup>

Berilgan natijalardan ma'lumki, ko'plab pedagog-tarbiyachilar didaktika haqida tushunchaga ega ekanlar. Biz qolgan tarbiyachilarga ham bu haqida treninglar o'tib, ularga ham tushunchalar berish va didaktik o'yinlarni o'rgatishimiz lozim.



4-rasm. Didaktik o'yin turlaridan xabardorlik daraja, foizda<sup>2</sup> O'quv seminarlari tashkil etish.

Didaktik o'yinlarning turlari haqidagi savolga quyidagi rasmga ko'ra javob olindi. 100 nafar tarbiyachidan 10 nafari (10 %) didaktik o'yinlarning turlarini to'laqonli ajratib bera olishdi, tarbiyachilardan 87 nafari (87 %) farqlay olishmadi, 3 nafari (3 %) esa didaktik o'yin turlarini deyarli ajratib berishdi (4-rasm).

Biz ushbu savolimizni tahlil qiladigan bo'lsak, ko'plab tarbiyachilar didaktik o'yin turlarini farqlay olmasligi ma'lum bo'ldi. Buning uchun biz maktabgacha talim tashkilotida tajribali pedagoglar bilan mahorat darslari tashkillashtirishimiz kerak.


Didaktik o'yinlardan mashg'ulot davomida 100 nafar tarbiyachidan 15 nafari (15 %) mashg'ulot jarayonlarida didaktik o'yinlardan foydalanishi, 85 nafari (85 %) umuman foydalanmasligi aniq bo'ldi, chunki tarbiyachilar didaktika haqida tushunchaga ega emasligi ma'lum bo'ldi.

Yuqoridagi rasmdan ma'lum bo'lishicha, 85 % tarbiyachilar mashg'ulot davomida didaktik o'yinlardan foydalanishmas ekan. Didaktik o'yinlardan foydalanish uchun, eng avvalo didaktikaga oid o'quv materiallarini tayyorlash va mashg'ulot xonalarini jihozlab olish lozim.

Shuningdek, Maktabgacha ta'limda didaktik o'yinlarning ahamiyati to'g'risida quyidagicha javob oldik.


1 Muallif so'rovnoma tadqiqoti asosida ishlab chiqilgan

2 Muallif tomonidan so'rovnoma tadqiqoti asosida ishlab chiqilgan



**5-rasm. Didaktik o'yindan mashg'ulotda foydalanish daraja, foizda<sup>3</sup>**

100 nafar tarbiyachidan 10 nafari (10 %) "Bolalarning har tomonlama o'sishi, rivojlanishi va keng fikrlashiga yordam beradi deb o'ylayman", 30 nafari (30 %) "Bolani aqlan, jismonan yetuk bolishiga hamda motorikasi shakllanishiga yordam beradi. Didaktik o'yinda bola ham o'ynaydi, ham ilm oladi", 25 nafari (25 %) "Juda ham muhim", 35 nafari (35 %) "Bolalar uchun qiziqarli" singari javoblarni berishdi.



**6-rasm. Maktabgacha ta'limda didaktik o'yinlarning ahamiyati darajasi, foizda<sup>4</sup>**

Maktabgacha ta'limda didaktik o'yinlarning ahamiyati juda katta. Bunga sabab didaktik o'yin orqali bola ham ta'lim, ham tarbiya oladi. Didaktik o'yinlar bolaning qiziquvchanligi, aqliy muammolarini mustaqil ravishda hal qilish qobiliyati, tanqidiy va tahliliy fikrlashi va jamoa bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

5. Maktabgacha ta'limda mashg'ulotlarda didaktik o'yinlarning samaradorligi haqida quyidagicha javob oldik.

• Tarbiyalanuvchilarning ijodkorligi, topqirligi, zehni oshadi.

• Albatta samarali, chunki bolaga oson yo'l bilan murakkab bo'lgan mashg'ulotlarni osonlashtirib o'tamiz, amaliy salohiyatini oshiramiz.

- Bolalarda harakatlanish tezligini oshiradi.
- Jamoaviylikni shakllantiradi.
- Mashg'ulotga bo'lgan qiziqishini orttiradi.
- Barchani birdek qiziqtirib, o'ziga torta oladi.
- Tez o'zlashtirishga yordam beradi.


"Didaktik o'yinlarni mashg'ulotlarda kunning qaysi vaqtida o'tkazish ma'qul" degan savolga tarbiyachilar quyidagicha javob berdilar:

<sup>3</sup> Muallif tomonidan so'rovnoma tadqiqoti asosida ishlab chiqilgan

<sup>4</sup> Muallif tomonidan so'rovnoma tadqiqoti asosida ishlab chiqilgan

100 nafar tarbiyachidan 20 nafari (20 %) "Kunning birinchi yarmida", 10 nafari (10 %) "Kunning ikkinchi yarmida", 15 nafari (10 %) "Ertalab o'tkazgan ma'qul, chunki kun boshida bolalar o'zlarini tetik his qilishadi". 5 nafari (5 %) "Xohlagan vaqtda", 50 nafari (50 %) "Mashg'ulot davomida o'tkazgan ma'qul", deb javob berishdi. Fikrimizcha, mashg'ulot davomida o'tkazgan ma'qul. Chunki bolalar mashg'ulotda o'tgan yangi mavzularini mustahkamlaydilar va takrorlaydilar.


Maktabgacha ta'lim tarbiyachilari faoliyatlari davomida didaktik o'yinlardan qay darajada foydalanishlari o'tkazilgan so'rovnoma aniqlandi. Aksariyat tarbiyachilar (15 %) faoliyatlari davomida didaktik o'yinlardan doimo foydalanishlari, (5 %) faoliyatlari davomida didaktik o'yinlardan kamdan-kam foydalanishlari ma'lum bo'ldi va buni quyidagi rasmda ham ko'rishimiz mumkin. 80 nafari (80 %) umuman foydalanmasliklari aniqlandi.



**7-rasm. Mashg'ulot o'tish chog'ida mashg'ulotning qaysi qismida didaktik o'yindan foydalanish natijalari, foizda<sup>5</sup>**

Rasmdagi ma'lumotda didaktik o'yinlardan foydalanish sababi to'g'risida quyidagicha javob oldik:

- Qiziqarli bo'lgani uchun;
- maktabgacha ta'lim uslubchilari tavsiya qilganliklari uchun;
- tarbiyalanuvchilarning bilim darajasi va ijodkorligini rivojlantirishda juda muhim;
- bolaga o'z tushunchasi doirasida o'rgatishga qulay;
- mashg'ulotni osonlashtiradi.



**8-rasm. Didaktik o'yindan qay darajada foydalanish, foizlarda<sup>6</sup>**

<sup>5</sup> Muallif tomonidan so'rovnoma tadqiqoti asosida ishlab chiqilgan

<sup>6</sup> Muallif tomonidan so'rovnoma tadqiqoti asosida ishlab chiqilgan

## TADQIQOT MUHOKAMASI

Yuqoridagi tadqiqotimizni tahlil qiladigan bo'lsak, bolalarning kognitiv va aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishda, nutqi, tafakkuri, xotirasi, bolaning ijtimoiy va axloqiy rivojlanishida didaktik o'yinlarning ahamiyati katta rol o'ynaydi. Didaktik o'yinlar bu maktabgacha yoshdagi bolalarni o'qitishning o'yin usuli va bolalarni o'qitish shakli, mustaqil o'yin faoliyati va bolani har tomonlama tarbiyalash vositasi hisoblanadi.

Tadqiqot davomida o'rganish va o'yin o'rtasidagi bog'liqlik borligi, o'yin jarayonining tuzilishi, didaktik o'yin vositalarining asosiy shakllari va usullari, maktabgacha ta'limda didaktik o'yinlarni yetakchi faoliyatga aylantirishni tashkil etish va o'yin faoliyatini yaxshilashga intilish bilim faolligini oshirishi o'rganildi. Didaktik o'yin bolalarni o'qitish shakli sifatida ikkita tamoyilni o'z ichiga oladi: ta'lim (kognitiv) va o'yin (ko'ngilochar) bosqichlari. Bu vaziyatda pedagog o'qituvchi rolini o'ynaydi, shu bilan birga o'yinda ichtirokchi vazifasini bajaradi.

Quyida bolalarning rivojlanishida didaktik o'yinlarning ahamiyati to'g'risida alohida to'xtalib o'tamiz:

1. **kognitiv va aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishda:** yangi bilim va ko'nikmalarni olish, ularni umumlashtirish va mustahkamlash, ob'yektlar va tabiat hodisalari, o'simliklar, hayvonlar haqidagi tasavvurlarini kengroq anglab yetish, diqqat, xotira, e'tibor, kuzatish, o'z mulohazalarini ifoda etish, xulosa chiqarish qobiliyatini rivojlantirishda yordam beradi.

2. **bolalar nutqini rivojlantirish:** so'z boyligini orttirish va faollashtirish, kattalar va bolalar o'rtasidagi muloqotni, dialogik, monologik nutqni rivojlantirish.

3. **maktabgacha yoshdagi bolaning ijtimoiy va axloqiy rivojlanishi:** kattalar, jonli va jonsiz tabiat ob'yektlari o'rtasidagi munosabatlar haqidagi bilimlar sodir bo'ladi, unda bola tengdoshlariga nisbatan sezgir munosabatda bo'ladi, adolatli bo'lishni o'rganadilar.

I.S.Grinenko, A.P.Usova, V.N. Avanesov maktabgacha ta'lim muassasalari uchun didaktik o'yinning uchta funksiyasini ajratadi:

1. **Ta'lim funksiyasi.** Bilimlarni takomillashtirish va mustahkamlash. Didaktik o'yinning bu funksiyasining mohiyati shundaki, bolalar turli mazmundagi yangi bilim va ko'nikmalarni o'zlashtiradilar.

2. **Tarbiyaviy funksiya.** O'yinda ishtirok etayotgan bolalar uchun didaktik o'yinning tarbiyaviy ahamiyati ochiq ko'rinmaydi, u o'yin vazifasi, o'yin harakatlari, qoidalari orqali amalga oshiriladi. Shu bilan birga, bola bilimlarni o'rganilgan shaklda shunchaki takrorlamaydi, balki uni o'zgartiradi, o'yin holatiga qarab u bilan ishlashni o'rganadi.

3. **Rivojlanayotgan funksiya.** Didaktik o'yinning kognitiv mazmuni dastur mazmuni bilan belgilanadi va har doim o'yin shakli bilan birlashtiriladi. Bolalar o'yinlarining asosi o'yin suyetini qurish, ob'yektlar bilan turli xil o'yin harakatlari haqida g'oyalarni shakllantirishadi. Keyinchalik bu bilim va g'oyalarni mustaqil, ijodiy o'yinlarga o'tkazish uchun sharoit yaratilishida muhimdir. Bunda tarbiyaviy funksiyaga katta ahamiyat beriladi, shuning uchun didaktik o'yinga shaxsni har tomonlama tarbiyalashning eng muhim vositasi sifatida qaraladi.<sup>7</sup>

## DIDAKTIK O'YINNING VAZIFALARI

1. **Aqliy tarbiya.** Didaktik o'yinlarning mazmuni bolalarda ijtimoiy hayot hodisalari, tabiat, atrofdagi dunyo ob'yektlariga to'g'ri munosabatni shakllantiradi, Vatan, turli kasb va millat vakillari haqidagi bilimlarni tizimlashtiradi va chuqurlashtiradi.

2. **Estetik tarbiya.** Didaktik material gigiyenik va estetik talablarga javob berishi kerak: o'yinchoqlar yorqin ranglar bilan bo'yalgan, badiiy dizaynlashtirilgan, saqlash uchun qulay bo'lgan quti va papkalarga joylashtirilgan bo'lishi kerak. Yorqin, chiroyli didaktik o'yinchoqlar bolalarning e'tiborini tortadi, ular bilan o'ynashga intiladi. Didaktik o'yinlar uchun barcha materiallar

guruhda ma'lum bir joyda saqlanadi, undan foydalanish uchun bolalarga sharoit yaratiladi.

3. **Jismoniy tarbiya.** O'yin davomida bolalarning motor faolligi, miyasi rivojlantiriladi. Ayniqsa, didaktik o'yinchoqlar bilan o'yinlar muhim ahamiyatga ega, ular davomida qo'llarning mayda motorikalari rivojlanadi va mustahkamlanadi, bu ham bolalarning aqliy rivojlanishiga, bolaning qo'lini yozishga, tasviriy san'atga tayyorlashga ijobiy ta'sir qiladi.

Didaktik o'yinlar madaniy va gigiyenik ko'nikmalarni shakllantiradi. O'yinda bolalar ijtimoiy his-tuyg'ularini yorqin ifodalaydi, hamma narsani birgalikda qilishga intiladi. O'yin jamoaviy his-tuyg'ularni, tajribalarni kuchaytiradi. O'yinlarda bolaning bunday xarakterli xususiyatlari ham namoyon bo'ladi, ular boshqalarga o'rnak bo'lishi mumkin: do'stlik, sezgirlik, kamtarlik, halollik. Pedagog bolalarning e'tiborini ushbu fazilatlariga qaratadi, buni juda ehtiyotkorlik bilan bajaradi. Didaktik o'yinlar bolalarni o'qitish va tarbiyalash uchun pedagogika tomonidan maxsus yaratilgan qoidalarga ega o'yinlarning bir turi. Ular bolalarni o'qitishning o'ziga xos muammolarini hal qilishga qaratilgan, lekin ayni paytda o'yin faoliyatining ta'lim va rivojlanish ta'sirini ko'rsatadi. Bolalarni maktabgacha va boshlang'ich maktab yoshida o'qitish vositasi sifatida didaktik o'yinlardan foydalanish zarurati bir qator omillar bilan belgilanadi. O'yinlarning bunday bo'linishi materialdan foydalanish bo'yicha tasniflash bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

- Matematik (vaqt, fazoviy joylashuv, ob'yektlar soni haqidagi qarashlarini birlashtirish uchun);

- Sensor (rang, o'lcham, shakl haqidagi tasavvurlarini birlashtirish uchun);

- Nutq (so'z va gap bilan tanishish, nutqning grammatik tuzilishini shakllantirish, nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash, lug'atni boyitish uchun);

- Musiqiy (balandlik, tembr eshitish, ritm tuyg'usini rivojlantirish uchun);

- Tabiat tarixi (jonli va jonsiz tabiat narsa va hodisalari bilan tanishish);

- Atrof-muhit bilan tanishish (ular yasalgan buyumlar va materiallar, odamlarning kasblari va boshqalar).

Matematika o'yinlari maktabgacha yoshdagi bolalarda elementar matematik tushunchalarni shakllantirishga qaratilgan. Ular pedagogga bolalarni hisoblashga o'rgatish ("Raqqam nima?", "Nima ko'proq?", "Raqqamni nomlash" didaktik o'yinlari) va arifmetik muammolarni hal qilish ("Ko'ngilochar vazifalar" o'yinlari "Qancha bo'ladi?" va hokazo.) jarayonini amalga oshirishga imkon beradi. Qadriyatlarini o'zlashtirish, oddiy bog'liqliklar va o'lchash faoliyati (bular "Kim baland?", "Narvon" o'yinlari), bolalarning fazoviy va vaqtinchalik munosabatlari va yo'nalishlarini idrok etish ( didaktik o'yinlar "Soat necha", "Bu qachon bo'ladi?" va hokazo ) yanada qiziqarli hisoblanadi.

Sensorni o'yinlar bolalarni ob'yektlarni tekshirishga o'rgatish, hissiy standartlar haqida g'oyalarni shakllantirishga qaratilgan. Ularning aksariyati ob'yektni tekshirish, belgilarni ajratish bilan bog'liq bo'lib, ular ushbu belgilarni og'zaki belgilashni talab qiladi ("Ajoyib sumka", "O'xshash va farqli", "Rangli yo'llar", va boshqalar). Ba'zi o'yinlarda bola ob'yektlarni u yoki bu sifatga ko'ra guruhlashni o'rganadi ("Qo'g'irchoqlar uchun tugmalar", "Xizmat" va boshqalar). Bolalar o'xshash va har xil xususiyatlarga ega bo'lgan narsalarni solishtiradilar, ularning eng muhimini aniqlaydilar. Shunday qilib, didaktik o'yinlar yordamida bolalar hissiy me'yorlarni egallashga olib boriladi.

Nutq o'yinlari bolalar nutqning rivojlanishiga hissa qo'shishi. Bunday o'yinlarning mazmuni ham xilma-xil bo'lib, pedagog ulardan qanday maqsadlarda foydalanishiga bog'liq. "Xona bo'ylab sayohat qiling", "Kim nima qilmoqda?", "Bir so'z bilan nomlang", "Boshqacha ayting", "Gapni tugating", "Kundalik tartib", "Kim muomala qiladi?", "Hayvonot bog'i", "Ob'yektlarni solishtiring", "Biz telefonda gaplashamiz", "Nima bo'ladi .... Nima

7 <https://m-eng.ru/uz/cesspool/osobennostyu-didakticheskoi-igrv-doshkolnika-yavlyayetsya-organizatsiya.html>

bo'ladi ...", "Avval nima, keyin nima", "Kimligini taxmin qiling?", "Tirik so'zlar" va hokazo.

Musiqali o'yinlar musiqiy ta'lim muammolarini dastur talablariga muvofiq hal etishga qaratilgan. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashda "Kim balandroq?", "Qaysi asbob yangraydi?", "Mendan keyin takrorlang", "Qanday qo'shiq yangraydi?", "Men nima o'ynayman", "Quyosh va yomg'ir", "Kim kuylaydi", "Kulguli eslatmalar" kabi o'yinlar o'tkaziladi.

Tabiat tarixi o'yinlari bolalarda tabiatga muhabbatni rivojlantirishga yordam beradi. Shaxsiy didaktik o'yinlarda bola o'ynab, tabiatda sodir bo'ladigan qonuniyatlar, dunyodagi hamma narsaning o'zaro bog'liqligini tushunishni o'rganadi, tabiat jamoalari va hodisalari haqida, o'yindagi roli haqida ko'p narsalarni bilib oladi. "Ta'rif bo'yicha bil", "Ko'chib yuruvchi qushlar", "Kim qayerda yashaydi?", "Ob-havo qanday?", "Rassomning xatosini toping" va boshqalar.

Vizual faoliyat bo'yicha didaktik o'yinlar maktabgacha ta'lim muassasalarining maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish, ularning tasviriy san'at, badiiy hunarmandchilik bo'yicha bilim va ko'nikmalarini shakllantirish uchun juda katta ahamiyatga ega. "Modelga ko'ra bo'yash", "Nima chizilgan", "Gulni yig'ish", "Uni boshqacha chizish", "Yaproq nimaga o'xshaydi", "Nima o'zgardi?", "Nima yetishmayapti?", "Qanday rasm?" - bu maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashda ishlatilishi mumkin bo'lgan didaktik o'yinlarning kichik bir qismi. Sanab o'tilgan didaktik o'yinlarning barcha turlari pedagog tomonidan dastur talablariga muvofiq tashkil etiladi.<sup>8</sup>

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqotlarimiz natijasiga asoslanib, maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyachilar didaktik o'yinlardan yuqorida aniqlangan ko'rsatkichlardan ham ko'proq foydalanishlari zarur, degan xulosaga keldik. Hozirgi kunda tarbiyachilarga yanada qulaylik yaratish va didaktik o'yinlardan kengroq foydalanishlari uchun quyidagi tavsiyalar muhim:

1. Maktabgacha ta'limda didaktik o'yinlardan samarali foydalanish bolalarni tahliliy va tanqidiy fikrlash, fikrini to'liq bayon qilish, aqliy qobiliyatlarini rivojlantirish va muammoli vaziyatlarda bolalarni to'g'ri yechim topishga o'rgatadi.

2. "Ilk qadam" o'quv dasturidan kelib chiqqan holda, tarbiyachilar uchun mashg'ulot davomida foydalanishga qulay yillik, oylik, haftalik va kunlik rejalariga asoslangan holda didaktik o'yinlar qo'llanmasini yaratish maqsadga muvofiq.

3. Mashg'ulot xonasida bolalarga ixtiyoriy didaktik o'yin o'ynash imkoniyatini beradigan shunday o'yin materiallari, didaktik o'yinchoqlar jamlangan burchak tashkil qilinishi zarur.

4. Mashg'ulot yakunida yangi mavzuni mustahkamlash uchun mavzuga bog'liq 5-10 minut didaktik o'yin o'tkazish lozim va bunda bolalarning o'rgangan yangi tushunchalarini yanada mustahkamlash ko'zda tutiladi.

5. Har oyda pedagog-tarbiyachilar bilan didaktik o'yinlar haqida treninglar tashkil qilish, mashg'ulot jarayonini didaktik o'yinlar bilan bog'lab o'tishning yangicha usullarini tatbiq etish joiz.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. <https://fayllar.org/boshlangich-talim-pedagogikasi-innovatsiya-va-integratsiyasi-v9.html>
2. <https://uz.wikipedia.org/wiki/didaktika>
3. <https://hungry-bags.ru/uz/nardy/statya-na-temu-didakticheskaya-igra-rol-didakticheskikh-igr-v/>
4. <https://avtovokzal-tver.ru/uz/regulatory-documents/doshkolnoe-obrazovanie-tema-opyta-sensornoe-razvitiye-detei.html>
5. Social behaviors and relationships between groups
6. E-issn 2310-4635  
<http://dx.doi.org/10.20511/pyr2020.v8n2.524>
7. The role of the didactic games in enhancing cognitive activity at preschool children, 4p
8. Bondarenko A.K. Bolalar bog'chasida didaktik o'yinlar. [matn] - m., 2010.
9. I.B. Deryabina // maktabgacha pedagogika. 2014. 1-son.
10. Kachanova I., Trifonova E. Erta va maktabgacha yoshdagi bolalarni ta'lim va tarbiyalashning yangi namunali umumiy ta'lim dasturida o'yin // o'yin va bolalar. 2005. 2-son.
11. I.B. Kutuzova // maktabgacha ta'lim 2003. 5-son.
12. Vasilyeva M.A., Komarova T.S., Herbova V.V. Bolalar bog'chasida ta'lim va tarbiya dasturi. [matn] / ed.- m.: 2006 yil.
13. N.A. Rogaleva // maktabgacha pedagogika. - 2010. 4-son.
14. Sorokina A.I. Bolalar bog'chasidagi didaktik o'yinlar [matn] - Moskva, 2007-yil

8 <https://m-eng.ru/uz/cesspool/osobennostyu-didakticheskoi-igr-doshkolnika-yavlyaetsya-organizatsiya.html>





## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA BOLALARNI SAN'AT VA MADANIYAT RUHIDA TARBIYALASH

**Turdiqulova Shirinoy**

*Qo'qon universiteti Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabasi*

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATSIYA
<p><b>Qabul qilindi:</b> 24-may 2022-yil <b>Tasdiqlandi:</b> 26-may 2022-yil <b>Jurnal soni:</b> 4 <b>Maqola raqami:</b> 10 <b>DOI:</b> <a href="https://doi.org/10.54613/001225">https://doi.org/10.54613/001225</a></p>	<p>Maqolada maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni san'at va madaniyat ruhida tarbiyalashning shakllari hamda ularni qo'llash usullari haqida fikr yuritilgan. Tarbiyalanuvchilarga didaktik o'yinlar orqali san'at va madaniyatga o'rgatish ko'nikmalarini berish yo'llari yoritilgan. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tasviriy faoliyat mashg'ulotlari jarayonida bolalarda amaliy san'at haqida tushunchalar kengroq rivojlantiriladi. Pedagogning ijodkorlik mahorati amaliy tarzda shakllantirilishi haqidagi tavsiyalar berilgan.</p>
<p><b>KALIT SO'ZLAR</b></p> <p>Maktabgacha ta'lim, madaniyat, san'at, tarbiya usullari, musiqa, san'at, ijodkorlik, didaktik o'yinlar.</p>	

### KIRISH

O'tgan davr mobaynida mamlakatimizda o'sib borayotgan avlodni sog'lom va har tomonlama yetuk voyaga yetkazish, ta'lim-tarbiya jarayoniga samarali shakl hamda usullarni joriy etishga qaratilgan maktabgacha ta'limning samarali tizimini tashkil etish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi.

XXI asrda jamiyatning innovatsion rivojlanishini ta'minlovchi kadrlarni tayyorlash, ta'lim xizmatlari sifat va samaradorligini oshirishda xususiy sektor vakillari bilan davlat sektori sifatida ta'lim muassasasining o'zaro manfaatli aloqalarni yo'lga qo'yish ehtiyojlari tobora o'sib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvarda qabul qilingan "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risi"dagi PF-60-sonli Farmonning 4 bandi 38-41 maqsadlarida maktabgacha ta'lim tizimi uzluksiz ta'limning birlamchi, eng asosiy bo'g'ini ekanligi, o'tgan vaqt mobaynida maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirish - ta'lim sohasidagi ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilab olinganligiga alohida e'tibor qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi<sup>2</sup>, "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi farmon 3 va qarorlarining ijrosini ta'minlash bugungi kunda ushbu yo'nalishning qanchalik darajada dolzarbligidan dalolat beradi.

Hozirgi kunda dolzarb masala sifatida maktabgacha ta'limni boshqarishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish, tarbiya va o'quv jarayonini takomillashtirish, maktabgacha ta'lim muassasalarining infratuzilmasi va moddiy-texnik jihozlanishini yaxshilash bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish nazarda tutilmoqda.

Jahon ta'lim tizimida zamonaviy fanlarning muammolaridan biri sifatida ta'limni rivojlantirish har bir bolaning ijodiy individualligini shakllantirishga qaratilmoqda. Bu boradagi psixologik va pedagogik tadqiqotlar natijasiga ko'ra, maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy tasvirlashga oid kompetensiyalarni shakllantirish ularni ijodkorlikni rivojlantirish uchun eng samarali vositalardan biri sifatida

qaralmoqda. Shuning uchun iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlar, jumladan AQSH, Yaponiya, Janubiy Koreya, Rossiya Federatsiyasi kabi mamlakatlar tajribasida maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilishi, jamiyat tomonidan moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlanishi soha rivojlanishini ta'minlashda yetakchi omil ekanligi bois qator ishlar amalga oshirilyapti. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni san'at va madaniyat ruhida tarbiyalash, ularni milliy vatanparvarlik hislarini shakllantirish, bilim olish ehtiyoji, o'qishga intilish moyilliklarini kuchaytirish, muntazam ravishda ta'lim jarayoniga tayyorlash, bolalarning tafakkurini rivojlantirish, o'zining fikrini mustaqil va erkin ifodalash malakalarini shakllantirish, bolalarning jismoniy va ruhiy sog'ligini ta'minlash, shular jumlasidan.

O'zbekiston Respublikasining milliy qonunchiligida maktabgacha ta'lim sohasida qabul qilingan me'yoriy hujjatlar ushbu tizimni tubdan isloh qilishga qaratilgan bo'lib, so'nggi yillarda tizimga oid maktabgacha ta'lim-tarbiya sohasiga daxldor bo'lgan farmonlar, qaror va farmoyishlarning qabul qilinishi, tom ma'noda maktabgacha ta'lim tizimidagi o'zgarishlar va yangilanishlar jarayonini boshlab berdi.

Zero "...maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlarini tatbiq etish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, ta'lim muassasalarining moddiy texnika bazasini yaxshilash"<sup>4</sup> masalalari o'z navbatida maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning ko'plab yo'nalishlari belgilab berilganligi muhim ahamiyat kasb etadi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI

O'zbekistonda maktabgacha ta'limning yosh avlodni san'at va madaniyatga oid qiziqishlarini shakllantirishdagi o'rnini S.Abdullayev, K.Akilova, E.Asilxonov, Yu.Bedjanova, S.Bulatov, A. Inagamov va A.Sulaymonovlarning tadqiqotlarida ochib berilgan. Maktabgacha yoshdagi bolalar tasviriy faoliyatini rivojlantirish muammosini hal qilish bilan shug'ullangan tadqiqotchilar R.Abdukodirov, F.Valixojayeva, D.Sabirova, U. Ibragimov, D.Xalimova, T.Chabrovlar<sup>5</sup> tomonidan olib borilgan.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvarda qabul qilingan PF-60-sonli "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risi"dagi Farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/3090103>

3 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/3362881>

4 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrda qabul qilingan "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2707-sonli Qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-3090103?ONDATE=09.01.2017&ONDATE2=04.09.2017&action=comp>

5 Maxmudova O. "Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatish metodikasini takomillashtirish". pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (phd) dissertatsiyasi

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi tadqiqotchilari tomonidan maktabgacha yoshdagi bolalarda san'at va madaniyatning tarbiyadagi o'rni va xususiyatlari V.Androsova, M. Bayrambekov, N.Boychenko, L.Blashuk, maktabgacha tasviriy faoliyatining metodik asoslari L.Ayvazyan, N.Vershinina, T. Doronova, T. Kazakova, R.Kazakova, R.Kalistru, N. Kakauridze, T. Komarova, V.Muxina, A.Melik-Pashayev, R.Nauruzbayeva, I.Likova, N.Sakulina, K.Seydekulova, N. Xalezova, Ye.Flyorinalar<sup>6</sup> tomonidan tadqiq etilgan.

T.S.Komarova maktabgacha yoshdagi bolalar o'rtasida g'oyaning rivojlanishini quyidagicha tavsifladi: o'ylab topilgan harakat rejasini faoliyat hisoblanadi<sup>7</sup>. Uning ta'kidlashicha, bolalarda (2-4 yosh) g'oya darhol rivojlanmaydi. Bolalarda go'zallikni his qilish, o'zlariga xos, bolalarcha, biroq go'zallik qonuniyatlari bo'yicha harakat qilish ishtiyogini uyg'otishga yordam beradi.

Rus kompozitori D.B.Kabalevskiy "Go'zallik eziglikni uyg'otadi" – deb hisoblaydi. Bolaning xulq madaniyatida talablarning tizimlari va doimiylik hal qiluvchi o'rin tutadi.

Ma'naviy tarbiya bo'yicha bo'ladigan barcha faoliyatda pedagogik jarayonning mazmunini tashkil qiluvchi hamma narsaga ijobiy munosabatda bo'lish alohida ahamiyatga egadir. Xuddi mana shunday tarbiyalash san'ati, har bir bolaning qiziqish va qobiliyatlarini aniqlash ko'nikmasi juda to'liq namoyon bo'ladi<sup>8</sup>.

Ta'lim va ijodkorlik o'rtasidagi bog'liqlik muammosini tushunish, bolalarning vizual faoliyati mazmuni va maktabgacha yoshdagi barcha o'quvchilarda ijodiy ko'rinishlarni shakllantirishga imkon beradigan o'rgatishning shunday usullarini topish juda muhimdir.

Bolalar muassasalarida, N.P.Sakulina fikricha, o'rganish ijodkorlikning rivojlanishiga to'sqinlik qilmaydi<sup>9</sup>. Uning shakllanishi va rivojlanishiga hissa qo'shadi. Bolalarning ta'limi, mustaqil badiiy va ijodiy faoliyati bir-biri bilan uzviy bog'liq, bir-biriga ta'sir qiladi hamda bir-birini qo'llab-quvvatlaydi. Ijodkorlik zarur ko'nikmalarni o'rganish bilan cheklanmasligi kerak.

E.A.Flerina o'z vaqtida o'rganish va ijodkorlik o'rtasidagi munosabatlarning juda aniq formulasini bergan. Uning ta'kidlashicha, o'qitish xarakteridagi har bir darsda ijodkorlik uchun joy bo'lishi va har biri jodiy darsda o'rganish elementlari bo'lishi kerak.

Tadqiqot muammosiga oid ilmiy-tadqiqot ishlarini o'rganish va tahlil qilish natijalari shuni ko'rsatdiki, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni san'at va madaniyat ruhida tarbiyalash yo'llarini takomillashtirish bo'yicha materiallar yetarli darajada emas. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni san'at va madaniyat ruhida tarbiyalash mavzusi doirasida xorijiy va o'zbek olimlari tomonidan tadqiqotlar o'rganilmagan. Mamlakatimizdagi olimlar tomonidan maktabgacha ta'lim tizimida tasviriy faoliyatga o'rgatish metodikasi, musiqa hamda tasviriy san'atni rivojlantirish muammolari tadqiq qilingan. Bugungi kunda ushbu mavzu doirasida tadqiqotlarni kengaytirish dolzarb masala ekanligini ko'rsatmoqda.

Tadqiqotning **maqsadi** maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarni san'at va madaniyat ruhida tarbiyalashning shakllari hamda ularni qo'llash usullarini takomillashtirish borasida tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning **vazifalari** esa maktabgacha yoshdagi bolalarni san'at va madaniyat ruhida tarbiyalash xususiyatlarini yoritish, mahalliy va xorijiy tadqiqotchi olimlarning ilmiy qarashlari, ularning mavzuga bo'lgan yondashuvlarini hamda g'oyalarini tahlil qilishdan iboratdir.

## TADVIQOT METODOLOGIYASI

Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarni har tomonlama yetuk inson qilib tarbiyalashda san'at va madaniyatning o'rni beqiyosdir. Prezidentimiz ham "Kuy-qo'shiqqa, san'atga muhabbat, musiqa madaniyati xalqimizda bolalikdan boshlab, oila sharoitida shakllanadi. Uyda dutor, doira yoki boshqa cholg'u asbobi bo'lmagan, musiqaning hayotbaxsh ta'sirini o'z hayotida sezmasdan yashaydigan odamni bizning yurtimizda topish qiyin, desak, mubolag'a bo'lmaydi"- deya musiqiy madaniyatning tarbiyaviy kuchiga yuksak baho bergan<sup>10</sup>.

Ajdodlarimiz ham san'at va madaniyatning tarbiyaviy kuchiga alohida e'tibor qaratgan. MTT yoshdagi bolalarni san'at va madaniyat ruhida tarbiyalash ta'limining sifati, samaradorligini butkul o'zgartirib, tarbiyachidan esa o'z kasbini sevish, pedagogik mahorat, izlanuvchanlik, fidoiylilik, o'z mas'uliyatini yuqori darajada his etishni talab qiladi.

Aynan, ushbu tadqiqot doirasidagi manbalardan foydalanilgan holda o'rganishni ta'minlashga qaratilgan nazariy (tarixiy-qiyosiy, statistik tahlil), diagnostik (so'rovlar, suhbat, so'rovnoma, kuzatish, tarbiyalanuvchilar tasviriy faoliyatini tahlil qilish) kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotni amalga oshirish jarayonida olib borilgan tajriba-sinov ishlari, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni san'at va madaniyat ruhida tarbiyalashning asosiy maqsadi tarbiya jarayonining asosiy sub'yektlari bo'lgan tarbiyachi hamda tarbiyalanuvchilar o'rtasida yuzaga keluvchi muloqotning samarali bo'lishi bu tizimning yangicha mazmun kasb etishiga erishishdan iboratdir.

Mazkur tadbirlar vositasida quyidagi pedagogik vazifalarning ijobiy hal etilishi nazarda tutildi:

- Mashg'ulotlarda tarbiya jarayonini o'yinlar asosida tashkil etish borasidagi nazariy-amaliy bilimlarini o'zlashtirishlari uchun muayyan shart-sharoit yaratish;

- Tarbiyachilarda tarbiya jarayonini tashkil etishga nisbatan ijodiy yondashuvni qaror toptirish, mahoratini oshirish;

- Respublika miqyosida, shuningdek, xorijiy mamlakatlarda to'plangan tajribalardan tarbiyachilarni xabardor etish.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni san'at va madaniyat ruhida tarbiyalashning asosiy vazifalari quyidagilardan iboratdir:

1. San'at va madaniyatga qiziqishni o'stirish.
2. Bolalarning estetik tajribasini boyitish (musiqiy va badiiy asarlar asosida).
3. Bolalarni oddiy estetik va madaniy tushunchalar bilan tanishtirish, musiqa tinglash, kuylash, musiqiy ritmikasi borasida malakalarni rivojlantirish.
4. Bolalarda emotsional hisni shakllantirish.
5. Estetik didni o'stirish (musiqiy va badiiy taassurotlar asosida).
6. Bolalarda ijodkorlikni o'stirish (barcha faoliyatlar asosida).

San'at insonparvarlik va odamiylik hamkorligi ruhida uning hissiyotini o'stirishda yordam berib, ijodkorlik qobiliyatini rivojlantiradi. Hozirgi zamon yoshlariga estetik idroklarini tarbiyalash borasida g'amxo'rlik qilar ekanmiz, san'at bilan shug'ullanishdan hosil bo'ladigan his-hayajondan o'z hayoti va faoliyatida foydalana olishga o'rgatishimiz kerak.

"Ilk qadam" Davlat o'quv dasturi ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, uni ham shaklan, ham mazmunan zamon talablariga moslashtirish, ta'lim sifat samaradorligini uzluksiz takomillashtirib borishga yo'naltirildi<sup>11</sup>. Bu esa maktabgacha ta'lim tashkilotlarida san'at va madaniyat ruhida tarbiyalashni

avtoferati.file:///C:/Users/mganiyeva/Downloads/16461095689436070daraja%20(1).pdf.

6 Maxmudova O. "Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatish metodikasini takomillashtirish". pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (phd) dissertatsiyasi avtoferati. file:///C:/Users/mganiyeva/Downloads/16461095689436070daraja%20(1).pdf.

7 <https://minikar.ru/uz/horoscopes/razvitie-izobrazitelnyh-sposobnostei-i-tvorcheskih-zamyslov-detei-v-processe/>

8 "Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim jarayonini mavzuli rejalashtirish (katta guruh)". Metodik qo'llanma. Toshkent. 2018 yil.

9 <https://minikar.ru/uz/goroskopy/razvitie-izobrazitelnyh-sposobnostei-i-tvorcheskih-zamyslov-detei-v-processe/>

10 Xalilova M. "Maktabgacha ta'lim tashkilotida musiqa ta'lim tarbiyasining dolzarbligi". Ilmiy maqola. «SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal ISSN: 2181-1601. Volume: 1, ISSUE: 5.

11 "Ilk qadam" Maktabgacha ta'lim muassasasining Davlat o'quv dasturi. <https://lex.uz/docs/-3805404?otherlang=1>

tasviriy faoliyatni rivojlantirish orqali amalga oshirishda zamin bo'ladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining tasviriy faoliyat, nutq o'stirish, musiqa va jismoniy madaniyat kabi birlamchi yo'nalishi maktabgacha yoshdagi bolalarni san'at, madaniyat va badiiy-estetik tarbiyalash vazifasini bajaradi. Bu yo'nalishning samarasi estetik va madaniyatning barcha yo'nalishi asosiy vositalari (teatr, musiqa, badiiy adabiyot, rasm chizish, applikatsiya va boshq.) kompleks tarzda qo'llanilgandagina aniq bo'ladi.


Maktabgacha ta'lim muassasalarida o'tiladigan "Tasviriy faoliyat" mashg'ulotlari bolalarga beriladigan estetik tarbiya masalalarini yechishda katta ahamiyatga ega. Chunki tasviriy faoliyat o'z xususiyatiga ko'ra badiiy faoliyat hisoblanadi. Badiiy faoliyat mashg'ulotlarining barcha turlari bolalarda go'zallikni bilish uchun, borliqqa emotsional-estetik munosabatni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlarni ochib beradi.

"Tasviriy faoliyat" mashg'ulotlari jarayonida:

- badiiy didni tarbiyalash;
- amaliy badiiy faoliyat va malakani rivojlantirish;
- fantaziya, ijodiy fikrlash va tasavvur qilish, idrok qilishni rivojlantirish;
- qo'lning aniq harakatlari va barmoqlarning mayda motorikasini rivojlantirish;
- kasbiy badiiy-ijodiy faoliyat kurtaklarining namoyon bo'lishi uchun imkon yaratish kabi ta'limiy va tarbiyaviy masalalar hal etib boriladi.

#### TADQIQOT NATIJASI

O'tkazilgan tadqiqotlar natijasida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida san'at va madaniyatning tarbiyadagi o'rni beqiyos ekanligi aniqlandi. Bolalar ongida san'at va madaniyatga oid fazilatlarini shakllantirish asosan tasviriy, musiqa, nutq o'stirish hamda jismoniy madaniyat kabi faoliyatlar orqali kechadi.




**1-rasm. Bolalarni san'at va madaniyat ruhida tarbiyalashning samaradorligi**

Keltirilgan savol yuzasidan 92% dan ortiq ovoz "ha" javobiga to'g'ri keldi. Darhaqiqat, san'at va madaniyat inson ma'naviy olamini yuksaltiradi, milliy urf-odat va an'analar ruhida tarbiyalaydi. Insonda vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantiradi.

Tasviriy faoliyat, nutq o'stirish, musiqa kabi mashg'ulotlar bolalarni axloqiy tarbiyalaydi. Bolalar ishlarida o'z hayotida, jamiyatda bo'layotgan voqea-hodisalarni aks ettiradilar, ulardan mamnun bo'lalilar, hayajonlanadilar. Tasviriy faoliyat, nutq o'stirish, musiqani o'rganish jarayonida bolalarda irodaning sifatleri-boshlagan ishini oxiriga yetkazish, oldiga maqsad qo'yib, o'shani bajarishga tomon intilish, qiyinchiliklarni yengish, o'rtoqlariga yordamlashish kabi xususiyatlar tarbiyalanadi. Jamoa ishini yaratish jarayonida bolalarda bir-biriga yordam, kelishib ishlash, ishini baholash jarayonida ularda o'rtoqlarining


ishiga nisbatan real munosabatda bo'lish, to'g'ri baholash, o'zining va o'rtoqlarining ishidan xursand bo'lish kabi axloqiy sifatlar shakllanadi.



**2-rasm. Bolalarning san'at turlariga qiziqishi**


Musiqa va tasviriy san'at madaniyatning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. So'rovnomada natijasidan ma'lum bo'ldiki, eng ko'p foizlarda tasviriy san'at (31 %) va amaliy san'at (44 %) o'rgatish foydali bo'ladi, degan fikr berildi. Asosiy maqsadlardan yana biri zamonaviy musiqa va tasviriy san'at orqali bolalardagi qobiliyat hamda imkoniyatlarni aniqlab, ularni to'g'ri shakllantirish va yuzaga chiqarishdan iboratdir.

Har bir tarbiyachi tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchilar egallashlari lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malaka talablarini yaxshi bilishi hamda mashg'ulotlar shu mezonlar asosi va darajasida bo'lishini ta'minlashi kerak. Shunday ekan kichikintoylarni har tomonlama rivojlantirishda mashg'ulotlarda san'at va madaniyat ruhida tarbiyalashning munosib o'rni borligini hisobga olgan holda dasturlarni shunga mos ravishda tayyorlashi lozim.



**3-rasm. Tarbiyachi-pedagogning bolalarni san'at va madaniyatga o'rgatish tahlili**

Ushbu so'rovnomani tahlil qiladigan bo'lsak, bugungi kunda tarbiyachi kasbiy kompetentlikka ega bo'lishi hamda o'z vazifalarini mukammal bajarishi lozimligi aniqlandi. Zamon talabidan kelib chiqib, o'z vazifalarini amalga oshirishda yaxshi (63 %) ko'rsatkichga erishishgan.



**4-rasm. Musiqa mashg'ulotlarini o'tkazish uchun mutaxassislarning yetishmasligi**

Mashg'ulotlarda bolalardagi badiiy did va ijodiy qobiliyat o'sadi va bu orqali maktabda o'qishga tayyorlanib boriladi. Chunki bolalar predmetlar bilan uzviy bog'lanadilar, ularning o'ziga xos sifatleri, shakli, rangi, katta-kichikligi bilan tanishadilar, farqini, o'xshashligini aniqlaydilar, b u esa bolalarni sensor tarbiyalashga, ko'rgazmali, obrazli fikr yuritishlariga imkon beradi.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimida qator islohotlar o'tkazilmoqda, ularning bari bolalar va pedagoglar manfaatlari yo'lida xizmat qilish, shuningdek maktabgacha ta'lim sifatini yaxshilashga qaratilgan. Ammo, anketa-so'rov natijalari shuni ko'rsatdiki, olib borilayotgan islohotlarga qaramasdan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni san'at va madaniyat ruhida tarbiyalashda qator muammolar tizim rivojiga to'siqlik qilar ekan. Masalan, guruhlarda bolalar sonining ko'pligi, DMTTlarida moddiy-texnika bazasining yetishmasligi (musiqqa asboblari, tasviriy faoliyat bilan shug'ullanish ushuni materiallar, jismoniy madaniyatni shakllantirish uchun shart-sharoitlar va b.q.), binolar rekonstruksiya qilinmaganligi, oliy ma'lumotli pedagog-tarbiyachilar hamda soha mutaxassislarining yetishmasligi aniqlandi.

T-jadval asosida maktabgacha ta'limda bolalarni san'at va madaniyatga oshno qilib tarbiyalashning milliy va zamonaviy ruhdagi afzallik va kamchiliklari tahlil qilindi.

**1-jadval**  
**Bolalarni san'at va madaniyat ruhida tarbiyalashga oid takliflar**

MILLIY MUSIQA	ZAMONAVIY MUSIQA
1. Milliylikimiz saqlanib qoladi.	1. Zamon bilan hamnafas bo'ladi.
2. Ota-onaga e'tibor tuyg'usi shakllanadi.	2. O'z shaxsiy qarashiga ega bo'ladi.
3. Mentalitet yo'qolmaydi.	3. Erkin bo'ladi.
4. Milliy brendimiz saqlanadi.	4. Dunyoqarashi kengayadi.
5. Milliy musiqalarimiz vatanimizni boshqa davlatlardan ajratib turadigan jihati.	5. Xorijdagi tengdoshlari bilan muloqotga kirishishi osonlashadi.
6. Tarbiya jarayonida muhimdir.	6. Zamonaviy raqslarni o'rganadi.
7. Ma'naviyatni shakllantiradi.	7. Innovatsion fikrlash doirasi shakllanadi.
8. Milliy raqslarimizni o'rganadi.	8. Kayfiyati yaxshilanadi.
9. Milliy musiqqa videolavhalaridan milliy kiyimlarimiz, matolarimiz haqidagi tasavvurlari shakllanadi.	9. Chet tillarini o'rganishi osonlashadi.

Tadqiqot kuzatuvidan ko'rinadiki, maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalar san'at va madaniyat ruhida tarbiyalanganda ularda milliy va zamonaviy qarashlar shakllanadi, milliylikimizni saqlab qolgan holda zamon bilan hamnafas bo'lib ulg'ayadi, kattalar va tengdoshlari bilan muloqotga kirishish, o'zaro hurmat tuyg'usi hosil bo'ladi.

### TADQIQOT MUHOKAMASI

San'at madaniyatning tarkibiy qismi sifatida go'zallikning mohiyati, estetik va axloqiy hissiyotlarning birligi, san'atning xalqchilligi to'g'risidagi ta'limotga suyanib, bolalarning ob'yektiv dunyo haqidagi bilimni kengaytiradi va chuqurlashtiradi, ijodiy qobiliyat va iste'dodini o'stiradi hamda ularda yuksak ma'naviy fazilatlarining tarkib topishiga yordam beradi. Bolalarda estetik his-tuyg'u va fikrlarni rivojlantirish, go'zallikni ko'ra bilish va ulardan zavqlana olishdan iborat, deb tushuniladi.

Bolaning san'at va musiqqa ruhida tarbiyasi murakkab pedagogik jarayondir. Bu estetik tuyg'ularning rivojlanishiga asoslanadi.

San'at – ijtimoiy ong va inson faoliyatining o'ziga xos shakli <sup>12</sup>. San'at qadimiy tarixga ega bo'lib, u jamiyat taraqqiyotining ilk bosqichlarida mehnat jarayoni bilan, kishilar ijtimoiy faoliyatining rivojlanishi bilan bog'liq holda vujudga kela boshlagan. Keyinchalik madaniyatning o'sishi natijasida san'at alohida soha sifatida asta-sekin ajrala bordi.

San'at insonning moddiy va ma'naviy faoliyatidagi bilimi, tajribasi, mahorati va qobiliyatlarini namoyon etuvchi badiiy ijodiyot mahsulidir. San'atni tushunish, uning kishilar hayotidagi o'rnini aniqlash masalasi butun madaniyat tarixi davomida jiddiy bahslarga sabab bo'lgan.

Madaniyat inson faoliyati va shu faoliyatning ahamiyatini belgilovchi ramziy qurilmalar va asarlar majmuidir <sup>13</sup>. Madaniyat musiqqa, adabiyot, badiiy tasvir, me'morchilik, teatr, kinematografiya, turmush tarzi kabi faoliyatlarda namoyon bo'lishi mumkin. U san'at bilan chambarchas bog'liqdir.

Madaniyat va san'atning o'ziga xos murakkabliklarini tushunib, uning nozik qirralarini maktabgacha yoshdagi bolalarga ulashish mahoratiga ega bo'la oladigan tarbiyachilarni yetishtirib chiqarish bugungi kunda dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Madaniyat va san'at vositasida bolalarning estetik qobiliyatlarini shakllantirishda tarbiyachining o'zni beqiyos. U chuqur bilim va yuqori malakaga ega bo'lishi, buning uchun muntazam ravishda o'z ustida ishlashi, o'zining ilmiy nazariy saviyasini tinimsiz ko'tarishi, ilg'or tajribalarga tayanishi kerak.

San'at, madaniyat va xalq og'zaki ijodi, o'z xalqining an'analariga mehr-muhabbatni shakllantiribgina qolmay, balki shaxsning vatanparvarlik ruhida kamol topishiga ham xizmat qiladi.

Aslida estetik tarbiyaning maqsad va vazifalari bu bilan chegaralanib qolmaydi, Bolalarni go'zallik va xunuklikni, yuksaklik va tubanlikni, shodlik, kulfatni anglash va ko'ra bilishga o'rgatadi. Estetik tarbiya umuminsoniy va milliy qadriyatlar qaror topishiga xizmat qiladi. Ayonki, tarbiya inson ongiga, his-tuyg'ulariga, tasavvuriga, e'tiqodiga, dunyoqarashiga, xatti-harakatlariga, xulq-atvoriga ta'sir o'tkazadi.

San'at va madaniyatning inson ruhiyatiga ta'sir qilishining tugallanmas imkoniyatlari qadimdan musiqashunoslar, mutafakkirlar va olimlar diqqatini o'ziga tortgan. Faylasuflar, psixologlar, pedagoglar va jamoat arboblari san'atlar ichida musiqqa san'atining insonni shaxs sifatida shakllanishiga ta'sir qiladigan xususiyatlarini aniqlashga uringanlar.

San'at va madaniyat estetik tarbiyaning muhim omili sifatida shaxs shakllanishiga kuchli ta'sir etadi. Oilada, bog'chada, maktabda musiqqa mashg'ulotlarini maqsadga muvofiq tarzda uyushtirish yosh avlodning ichki dunyosini boyitish va san'atni to'g'ri tushunishdagi samarali yo'ldir.

Inson his-tuyg'ulari, orzu-umidlari, xohish-istaklarini o'ziga xos badiiy tilda ifoda etadi va kishining his-tuyg'ulariga faol ta'sir etadi.

Kelajak jamiyat a'zosining insoniy va ijobiy fazilatlarini aynan bolalikdan boshlab shakllana boradi. Aynan shu davrda san'at va madaniyat ijobiy sifatlarini shakllantiruvchi vosita hisoblangan.

Hozirgi kun talabi maktabgacha ta'lim muassasalari oldiga san'at va madaniyat ruhida tarbiya berish borasida aniq vazifalarni qo'yadi:

1. bolalarni tabiat go'zalliklari, badiiy asarlarni idrok etish;
2. estetik did va hissiyotni shakllantirish;
3. hayotda go'zallik tushunchasini to'liqlikicha anglashni o'rgatish;
4. bolalarga badiiy ijodkorlikni shakllantirish;
5. go'zallikni o'z hayotlari, o'z faoliyatlariga olib kirishni o'rgatish va hokazo.

L.S. Vygodskiyning fikriga ko'ra, san'at va ijodkorlik nafaqat buyuk asarlar yaratilgan joyda, balki bola tasavvur

12 <https://uz.wikipedia.org/wiki/San%CA%BCat>

13 <https://uz.wikipedia.org/wiki/Madaniyat>



qiladigan, o'zgartirgan, yangi narsalarni yaratgan joyda ham mavjud bo'ladi.

Bugungi kunda bolalarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Mamlakatimiz ta'lim tizimida bolalar qobiliyatini izchil ijodiy rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar mavjud emas. Shuning uchun qobiliyatlar asosan kutilmaganda rivojlanadi va natijada bolalar rivojlanishining yuqori darajasiga erisha olmaydi.

Sifatlar xotira, tasavvur, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish uchun muhim omil hisoblanadi. Aynan shu fazilatlar bolalarning samarali fikrlash, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun asos bo'lib, ijodiy va izlanish faolligini oshiradi.

Shunday qilib, bolalarning ijodiy qobiliyatlarini tarbiyalash, agar u tez va maqsadli jarayon bo'lsa, bu jarayonda pedagogik vazifalar hal qilinadi, qo'yilgan vazifani bajarishga qaratiladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotining tarbiyachisiga mustaqil ijodiy faoliyatni boshqarishda bevosita ko'plab usul va metodlar tavsiya etilgan bo'lib, turli xildagi sahnaviy mashg'ulotlar jarayonida bolalar bilan ishlash shakli ham berilyapti. Ulardan biri teatr faoliyati hisoblanadi. Teatr faoliyati bo'yicha mashg'ulotlar mazmuni quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Spektakllarni oldin va keyin tomosha qilib, suhbat qurish va bolalar teatrlariga tashrif buyurish;
2. Mashg'ulotlarga o'yin-dramatizatsiyani kiritish;
3. Turli ertak va insenirovkalarni tayyorlash va o'ynash;
4. Ifodali ijro shakllanishi uchun mashqlar (verbal va noverbal);
5. Bolalarning ijtimoiy-emotsional rivojlanishi maqsadida mashqlar bajarish.

Sahnalashtirish faoliyati mashg'ulotlarining mazmuni nafaqat asarning adabiy matni bilan tanishish, balki mimika, harakat, kostyum, mizansensa (spektaklning ayrim paytlarida dekoratsiya va aktyorlarning joylanishi), imo-ishora, ya'ni "belgilar", ifodali nutqda rol ijro etishdan iborat. Teatr faoliyatidagi mashg'ulotlar bir qator funksiyalarni bajaradi:

1. Bilim, ta'lim va taraqqiyot. Ularning vazifasi nafaqat o'yinlarga tayyorgarlik ko'rish. Ushbu vazifani olib borishning mazmuni, shakllari va usullari bir vaqtning o'zida uchta asosiy maqsadni amalga oshirishi kerak;
2. Nutq va teatrlashtirilgan qobiliyatlarini rivojlantirish;
3. Ijodkorlik muhitini yaratish;
4. Bolalarni ijtimoiy va hissiy jihatdan rivojlantirish.

Shunga qo'shimcha ravishda tarbiyachi tarbiyalanuvchilarning ota-onalari bilan ham ushbu mashg'ulotda o'tilgan voqealarni, sahna asarlarini takrorlayotganliklarini nazorat qilib borishi zarur.

Musiqqa nafaqat o'yin-kulgi va na qo'shimcha, balki hayotda o'z xohishiga ko'ra foydalanish mumkin bo'lgan "garnitura" emas, balki hayotning ko'zi, umuman hayot va har bir shaxs, shu jumladan har bir maktab o'quvchisi hayotining muhim qismidir.

Bolalikda musiqani idrok etishning ajralmasligi asta-sekin yengib chiqiladigan jarayondir. Uni mazmunli eshitish uchun asos tayyorlanadi. Bunday omillar:

Aloqa tajribasi, kommunikativ omil, nutq va motorli o'yin tajribasi, shuningdek, hissiy tajriba – fazoviy va visual hislar va tasavvurlar. Asta-sekin musiqani yanada tabaqalashtirilgan eshitishga, uning melodik, ritmik, garmonik va boshqa xususiyatlarini farqlashga olib keladigan eng muhim omil bu bola rivojlanishining dastlabki bosqichlarida kommunikativ tajriba omili turli xil muloqot holatlaridagi bola musiqqa bilan aloqa qiladi.

Shu bilan birga bu guruhlariga musiqqa mashg'ulotlarini ko'proq qo'ysak, bolani tezda charchatib yoki mashg'ulotimizdan zeriktirib qo'ymagan holda davom etaveramiz. Bilamizki, bolalarda tez charchash, toliqish, xorg'inlikni oldini olish uchun musiqqa mashg'ulotlari bilan birin-ketinlikda, o'rin almashtirgan holda amalga oshirsak bolaga yaxshi ta'sir ko'rsatadi. Tayyorlov guruhlar uchun alohida

musiqiy dasturlarni ishlab chiqish lozim va mashg'ulotlarni shu alohida ishlangan dasturlardan foydalangan holda olib borish taklifini beramiz.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni san'at va madaniyat ruhida tarbiyalash borasida olib borilgan tadqiqot ishining asosiy xulosa va natijalari quyidagilardan iborat:

1. Ilmiy, psixologik-pedagogik adabiyotlar tahlili maktabgacha ta'lim tarbiyasidagi tasviriy faoliyatning ilmiy-nazariy asoslariga asrlar davomida ahamiyat berilganligini ko'rsatadi. Zero, bu ijtimoiy-ta'limiy zaruriyat barcha davrlarda barkamol shaxs tarbiyalashning muhim masalalardan biri bo'lib kelgan.

2. Maktabgacha yoshdagi bolalarni san'at va madaniyat ruhida tarbiyalash muammosi bilan ko'plab olimlar shug'ullanishgan. Mazkur olimlarning ilmiy-tadqiqotlari bolalarni san'at va madaniyatga o'rgatishda u yoki bu umumiy muammolarning yechimiga qaratilgan. Biroq, ushbu faoliyatning metodikasini takomillashtirish masalasi zamonaviy olimlar tomonidan tadqiq etilmagan.

3. O'zbekiston Respublikasining milliy qonuchiligidagi maktabgacha ta'lim sohasida qabul qilingan me'yoriy hujjatlar ushbu tizimni tubdan isloh qilishga qaratilgan bo'lib, maktabgacha yoshdagi bolalarni o'qitish va tarbiyalash kelajakda yaxshi ko'rsatkichlarga erishishda ijobiy samara berishini tasdiqlaydi. Bu esa, o'z navbatida maktabgacha ta'lim tizimidagi san'at va madaniyatni rivojlantirishning ilmiy-nazariy va huquqiy asoslarini takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Maktabgacha katta yoshli tarbiyalanuvchilarni san'at va madaniyat ruhida tarbiyalash, ko'nikmalarni shakllantirish, rivojlantirish va takomillashtirish masalasi diqqat markazida bo'lgan tadqiqot ishi qo'yidagi g'oyaning nazariy asoslarini belgilash va ularni amalda qo'llash vazifasini zimmasiga olgan.

*Shu maqsadda quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi.*

1. San'at va madaniyatning barcha turlarini tizimli ravishda rejalashtirish. Jumladan:

2. qobiliyatlarni rivojlantirish dasturi imkoniyatlarini kengaytirish;

3. belgilangan vazifalarning har biri bir vaqtning o'zida mustaqil mexanizm va yagona ijodiy jarayonning tarkibiy qismi ekanligini unutmaslik;

4. ta'lim jarayonini ushbu mavzuviy rejalashtirishda tarbiyachilarni metodik ta'minot bilan qurollantirish.

5. maktabgacha yoshdagi bolalarni metodik ta'minot bilan qurollantirish.

6. Bolalar o'zlarining badiiy, ijodiy mahoratlarini, qobiliyatlarini bemalol, erkin namoyish qilishlari uchun tarbiyachi kerakli shart-sharoit yaratish.

7. "Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan talablar" va "Ilk qadam" davlat o'quv dasturining asosida mavzuli haftalik rejalashtirish maktabgacha yoshdagi katta yoshli bolalarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish mazmuni ustida ijodiy yondashish.

Bolalarning ta'limi, mustaqil, badiiy va ijodiy faoliyati bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Ular bir-biriga ta'sir qiladi va qo'llab-quvvatlaydi. Ijodkorlik zarur ko'nikmalarni o'rganish bilan cheklanmaslik lozim.

O'rganilgan adabiyotlar tahlili asosida maktabgacha yoshdagi bolalarda san'at va madaniyatni tarbiyalashni rivojlantirish jarayoni muayyan shakllanish bosqichlaridan o'tishini aniqladik.

Tarbiyachi bolalar ijodiyotini rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarga mos ravishda qobiliyat va g'oyalarni rivojlantirishga yordam berishi, bola tasavvurining faolligini cheklamagan holda, guruhda ijodkorlik va o'rganishning optimal muvozanatini topishi, bilim va ko'nikmalar ijodkorlikning namoyon bo'lish vositasiga aylanishi kerak.



## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Apraksina O.A. "Maktablarda musiqiy tarbiya metodikasi".
2. Asadullaeva M.A. "Ёшларни маънавий тарбиялашда қўшиқчилик санъатининг тутган ўрни". 2020 у.
3. Ijtimoiy axborot ta'lim portal: www.ZiyoNET.uz
4. "Ilk qadam" Maktabgacha ta'lim muassasasining Davlat o'quv dasturi.
5. Kayumova N. "Maktabgacha pedagogika" T.: TDPU, 2013.
6. Махмудова О. "Maktabgacha katta ёшдаги болаларни тасвирий фаолиятга ўргатиш методикасини такомиллаштириш". педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати.
7. "Maktabgacha таълим ташкилотларида таълим жараёнини мавзули режалаштириш" (катта гуруҳ). Методик қўлланма. Тошкент. 2018 йил.
8. Мухиддинова М.С. "Maktabgacha таълим ташкилотларида ахборот-компьютер технологияларини муסיқа тарбияси воситаси сифатида қўллашнинг хусусиятлари". 2020 у.
9. Маҳкамova Sh.R. "Имконияти чекланган болалар ва ҳар томонлама етук авлодни тарбиялашда муסיқанинг ўрни". 2020 у.
10. Маҳкамova S.R., & Shahzod, G. (2021). «O'quvchilar tarbiyasida musiqa fanining tutgan o'rnini». Scientific progress, 1(5).
11. Маҳкамova S.R., & Obidova, S. P. (2021). «Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni musiqiy tarbiyalash va ta'lim berish». Scientific progress, 1(3).
12. Маҳкамova Ш.Р. (2020). «Хазрат Навоийнинг муסיқий тафаккури». Science and Education, 1(Special Issue 4), 215-222.
13. Маҳкамova, Ш.Р. (2020). «Муסיқа илми ва ислом дини: талқин муаммоси». Academic research in educational sciences, (3).
14. Маҳкамova, Ш.Р., & Асадуллаева, М. А. (2020). «Великий шёлковый путь»: взаимодействие культур запада и востока в контексте проблемы модернизации музыкального образования в узбекистане. Science and Education, 1(Special Issue 4).
15. Nurmatova M.Sh., Xasanova Sh.T. "Rasm buyum yasash va bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatish metodikasi". "Cho'lpon", T.:2010 y.
16. Qodirova.F.va boshqalar. "Maktabgacha pedagogika".-T., "Ma'naviyat", 2013.
17. Sodiqova Sh.A. "Maktabgacha pedagogika". T.: Tafakkur bo'stoni, 2013
18. Soipova D. Musiqadan o'qitish nazariyasi va metodikasi.
19. Xalilova M. Maktabgacha ta'lim tashkilotida musiqa ta'lim tarbiyasining dolzarbligi. Ilmiy maqola. «SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal ISSN: 2181-1601. Volume: 1, ISSUE: 5.
20. Xasanboyeva O.U. va boshq. "Maktabgacha ta'lim pedagogikasi". T.: Ilm ziyo, 2006.
21. Yusupova P. "Maktabgacha tarbiya pedagogikasi". T.: O'qituvchi, 1993.
22. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrda qabul qilingan "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2707-sonli Qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-3090103?ONDATE=09.01.2017&ONDATE2=04.09.2017&action=compare>
23. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi:www.uzedu.uz
24. Sharipova G., Najmekdinov G'. Musiqa o'qitish metodikasi praktikumi.
25. Sharipova G.M. Musiqa o'qitish metodikasi.
26. <https://minikar.ru/uz/horoscopes/razvitie-izobrazitelnyh-sposobnostei-i-tvorcheskih-zamyslov-detei-v-processe/>
27. <https://minikar.ru/uz/goroskopy/razvitie-izobrazitelnyh-sposobnostei-i-tvorcheskih-zamyslov-detei-v-processe/>
28. <https://uz.wikipedia.org/wiki/San%CA%BCat>
29. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Madaniyat>
30. <https://minikar.ru/uz/goroskopy/razvitie-izobrazitelnyh-sposobnostei-i-tvorcheskih-zamyslov-detei-v-processe/>



## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA BOLALAR FOLKLORIDAN FOYDALANISHNING ZAMONAVIY USULLARI

Xasanova Nasibaxon

Qo'qon universiteti Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabasi

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATSIYA
<p><b>Qabul qilindi:</b> 24-may 2022-yil <b>Tasdiqlandi:</b> 26-may 2022-yil <b>Jurnal soni:</b> 4 <b>Maqola raqami:</b> 11 <b>DOI:</b> <a href="https://doi.org/10.54613/001226">https://doi.org/10.54613/001226</a></p> <p><b>KALIT SO'ZLAR</b> folklor, janrlar, estetika, madaniyat, qo'shiqlar, ertak, topishmoq, alla, kichik yosh, ta'lim tizimi, maktabgacha ta'lim, jamiyat.</p>	<p>Maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kichik yoshli bolalarga folklor namunalari o'rgatishning joriy holati, tarbiyachilarning o'quv mashg'ulotlardagi tajribasi pedagogik kuzatish, suhbat, taqqoslash metodlarini qo'llagan holda tahliliy yoritilgan. Aniqlangan kamchilik va muammolarni bartaraf qilish uchun uslubiy tavsiyalar berilib, kichik yoshli bog'cha bolalariga og'zaki ijod namunalari o'rgatishning interfaol usullari haqida ilg'or fikrlar bayon qilingan. Maqolada bolaning nutqiy kompetensiyalarini shakllantirishda folklor asarlarini o'rganishning ahamiyati ilmiy jihatdan nazariy asoslanib, amaliy ishlanmalar keltirish orqali isbotlab berilgan.</p>

### KIRISH

Jamiyat hayotimida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan ta'lim-tarbiya tizimi haqida so'z borganda, Abdulla Avloniyning fikrlarini keltirish joiz: "Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir".<sup>1</sup>

Millatning sog'lom genofondini tayyorlash, avvalo, maktabgacha ta'lim tizimidan boshlanadi. Maktabgacha ta'lim tizimi uzluksiz ta'limning birlamchi, eng asosiy bo'g'ini hisoblanadi. Mutaxassis va pedagoglarning ilmiy xulosalariga ko'ra, inson o'z umri davomida oladigan barcha axborot va ma'lumotning 70 foizini 5 yoshgacha bo'lgan davrda oladi. Ana shu dalilning o'zi bolalarimizning yetuk va barkamol shaxs bo'lib voyaga yetishida bog'cha tarbiyasi qanchalik katta ahamiyatga ega ekanini yaqqol ko'rsatib turibdi.

Bog'cha tarbiyasini olgan bola bilan bog'chaga bormagan bolani solishtirganda, ularning fikrlash darajasi o'rtasida yer bilan osmoncha farq borligini sezish qiyin emas. Shuning uchun ham maktabgacha ta'lim tizimini qayta ko'rib chiqish masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, bu borada katta ishlar bajarib kelinmoqda.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, yangi bog'chalar qurish bo'yicha davlat dasturining qabul qilinishi fikrimizning dalilidir. Rivojlangan davlatlar tajribasi hisobga olinib, nodavlat ta'lim muassasalari, jumladan, nodavlat bog'chalar tarmog'ini kengaytirishga ham katta ahamiyat qaratilmoqda. Bu esa tizimda sog'lom raqobatni shakllantirish hamda ta'lim xizmatlari turini ko'paytirishga xizmat qiladi.

Ta'lim tizimining asosiy bo'g'ini hisoblangan maktabgacha ta'lim tashkilotlari sog'lom, yetuk, ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, bolalik kattalik uchun tayyorgarlik emas, balki kichik odamning to'liq hayotni anglab borish davri hisoblanadi. Bunda bolaga hayotni to'laqonli anglab borishda bolalar folklorining ahamiyati beqiyosdir.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, bolani folklorga jalb qilishni maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kichik yosh guruhlaridan boshlash kerak. Xalq ijodkorligining ajoyib xususiyatlari tufayli musiqiy va ovoqli taassurotlarni to'plash, his-tuyg'ularni to'g'irlash, aqliy faoliyatni rivojlantirish, estetik madaniyatni shakllantirish, an'ana va qadryatlarga hurmat uyg'otish – ularning barchasi folklorning doimiy ahamiyatini belgilaydi.

Bolalar folklori hamma zamonlarda ham o'z ijodkori bo'lgan xalqning orzu-armonlarini ifodalab keldi, qolaversa, xalqning o'z-o'ziningina emas, balki bolalarning ham ma'naviy-axloqiy jihatdan shakllanishlarida muhim tarbiyaviy vosita

vazifasini bajarmoqda. Bolalar xalq ijodiyotidan ota-bobolarining hayot tajribasini, mehnat va kurash ilmini o'rganib kelayotirlar.

Ular xalq qo'shiqlaridan, doston-u ertaklaridan, afsona-yu rivoyatlaridan sevish-sevilish, samimiyat, insoniylik, sabr-u qanoat, mehnatda fidoiylilik, eng muhimi, otalari yashab obod etgan Vatan tuyg'ularini idrok etish asnosida yurt erki va ozodligi uchun kurashgan buyuk ajdodlari To'maris, Shiroq, Spitamen, Muqanna, Temur Malik, Jaloliddin Manguberdi, Mahmud Torobiy va Amir Temurlarning jasoratlaridan saboq olmoqdalar, yashash va yaratish baxtidan surur tuymoqdalar.

Binobarin, xalq ijodiyoti qadim zamonlardan hozirgacha bolalar uchun ham ezgulikni qadrlash va yovuzlikdan nafratlanish sabog'i bo'lib, avloddan avlodga o'tgani sayin muttasil to'lishib, mukammallashib, og'izdan-og'izga ko'chgani sayin tobora sayqallanib, xalq milliy ruhini teranroq aks ettirgan holda asrlar davomida avlodlar ma'naviy-axloqiy vorisligini ta'minlab keldi, jamoa ijodi namunasi sifatida xalq zakovatini, iste'dodini va til boyligini namoyish etdi, xalq uchun o'zligini anglash, o'z tarixini sevish vositasiga aylanib qoldi. Bu silsilada bolalarning o'z folklori ham muayyan ro'l o'ynadi. Binobarin, "bolalar folklori – kichiktoylar olami bilan kattalar dunyosining o'zaro uyg'unlashuvi oqibatida yuzaga kelgan o'yinlar, qo'shiqlar va musiqiy poetik janrlarning yaxlit bir tizimiga aylangan xalq og'zaki ijodiyotining o'ziga xos tarmog'idir".<sup>2</sup>

Shunday ekan, bu ijod durdonalarini o'rganish, uni yosh avlod ta'lim-tarbiyasida oqilona qo'llash, bolalar folklori materiallaridan foydalanishning yangicha usullarini topish va amalda qo'llay olish orqali bu tizimni rivojlantirish bugungi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat ko'rsatayotgan barcha pedagoglarning asosiy vazifalaridan bo'lishi kerak, deb hisoblaymiz. So'nggi yillarda yurtimizda bolalar ta'limi va tarbiyasida keng ko'lamli islohotlarning o'tkazilishi Uchinchi Renessans sari odimlayotgan O'zbekiston uchun asosiy dasturilamdir. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-sonli Qarori va shu asosda maktabgacha ta'lim muassasalarida normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish, maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, bolalarning sifatli maktabgacha ta'lim bilan qamrovini oshirish, undan teng foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash, mazkur sohada davlat-xususiy sherikchiligini rivojlantirish, maktabgacha ta'lim tizimiga innovatsiyalarni, ilg'or pedagogik va axborot kommunikatsiya

1 Abdulla Avloniy. "Turkiy guliston yoxud axloq". "Yoshlar" nashriyot uyi, 2018-y.

2 O.Safarov, R.Barakayev, B.Jamilova. "Bolalar adabiyoti". Buxoro davlat universiteti. 2018., 335 bet.

texnologiyalarini joriy etish borasida amalga oshirilayotgan ishlar fikrimizning dalilidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori misolida ko'rsak, mazkur konsepsiya maktabgacha ta'lim tizimini yana-da takomillashtirish, bolalarning sifatli maktabgacha ta'limdan teng foydalanishini ta'minlash, maktabgacha ta'lim xizmatlarini rivojlantirish, bir so'z bilan aytganda, maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning maqsadli vazifalarini qamrab olgan bo'lib, jarayonning ustuvorliklari va bosqichlarini belgilab beradi.

Konsepsiya tasdiqlangandan so'ng o'tgan bir yildan ortiq vaqt mobaynida maktabgacha ta'lim tizimida yangi Qonun qabul qilindi, yangi loyihalar, islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirilib kelinmoqda.

Xususan, 2019-yilda "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilindi. Mazkur Qonunda maktabgacha ta'lim va tarbiyaning asosiy tamoyillari, ushbu sohada davlat siyosati yo'nalishlari, shuningdek, Vazirlar Mahkamasi, Maktabgacha ta'lim vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, egaligida maktabgacha ta'lim tashkilotlari bo'lgan davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlarining vakolatlari belgilangan.

Qayd etilgan Konsepsiyada 2030-yilgacha 3-7 yoshdagi bolalarning 80,8 foizini maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishining ta'minlanishi ko'zda tutilgan. Xususan, 2020-yilda yangi maktabgacha ta'lim tashkilotlari binolarini qurish, mavjudlarini rekonstruksiya qilish, bir paytlar bog'cha bo'lgan binolarni qayta Maktabgacha ta'lim vazirligi hisobiga qaytarish, maktabgacha ta'limning muqobil shakllarini joriy etish kabi chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda<sup>3</sup>.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining eng asosiy vazifalaridan biri bu "maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarida ona tilida nutq o'stirish ishlarini yo'lga qo'yish"dir.<sup>4</sup>

Konsepsiyada aytilishicha, ona tilini o'qitish orqali shu til bo'yicha egallanadigan nutqiy faoliyatning asosiy to'rt turi: nutqni tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozish amallari bo'yicha har bir sinfda taqozo etiladigan malaka va ko'nikmalar me'yorini rivojlantirish, bunda o'qish hamda mehnat jarayonida, oila va jamoat joylarida yuzaga keladigan turli nutqiy vaziyatlarda mustaqil ravishda fikr almasha olish va fikr bayon eta bilish, eshitilgan materialni idrok etish, shuningdek, yozma manbalarni o'qish orqali axborot olish, voqea-hodisalarga o'z munosabatini bildirish tarzida muloqotga kirishish malakasini egallab borish dinamikasi nazarda tutiladi.

Ma'lumki, vatan beshikdan boshlangani kabi, ta'lim-tarbiya ham beshikdanoq, hattoki, bola tug'ilmasidanoq berila boshlanishi kelajakdagi ijobiy natijalarga sabab bo'ladi. Mamlakatimiz yoshlariga erta ta'lim-tarbiya berish mas'uliyatini hozirda yurtimizda faoliyat yuritayotgan maktabgacha ta'lim muassasalari o'z zimmasiga olgan. Maktabgacha ta'lim muassasalarida bilimlarni berish shakli mashg'ulotdir.

Mashg'ulotlar jarayonida bolaning nutqi rivojlanib, undagi grammatik va fonetik qirralari sayqallanib, til boyligi oshib borish bilan bir qatorda undagi psixologik va intellektual jihatlari rivojlanib boradi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida 5 ta metodika bo'yicha bolalarga ta'lim-tarbiya saboqlari berib boriladi. Bulardan eng asosiysi «Nutq o'stirish mashg'ulotlari» desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki, nutq o'stirish nafaqat bolaning so'z boyligini oshirish, balki uning muloqot qobiliyatini rivojlantiradi, undagi bilish jarayonlarining, shu jumladan bolaning tafakkurini o'stirishda ham muhim vosita bo'lib hisoblanadi.<sup>5</sup>

Bolalar bog'chasida asosan nutqiy faoliyatning 2 ta turi: tinglab tushunish va gapirish amallari bo'yicha amaliy ishlar olib boriladi. Tarbiyachi va metodistlar folklor materiallari ustida ishlayotganda ana shu ikkita jihatga e'tibor berishi kerak.

#### ADABIYOTLAR TAHLILI

Rus bolalar folklorini kichik yoshlilarga yetkazishda K.D.Ushinskiyning hissasi katta. Uning 1861-yilda "Ona tili" nomli asari chop etildi. Mazkur asar Konstantin Dmitriyevichning bolalarga birlamchi savod o'rgatish va ularni tarbiyalash bilan bog'liq pedagogik g'oyalar hamda estetik tamoyillarining o'ziga xos yakunlari va amaliy ifodasi bo'ldi. O'qish kitobining butun mazmuni muayyan tizim bo'yicha berilgan. «Ona tili» kitobi nafaqat bilimlar qomusi, balki badiiy ensiklopediya ham hisoblanadi. Uning 1-qismidan 19 ta ertak, 30 ta topishmoq, 123 ta maqol va matal, 13 ta tez aytish, 14 ta qo'shiq, 14 ta turli shoirlar she'rlari hamda Ushinskiyning o'zi yozgan 43 ta hikoya joy olgan. Ushinskiy birinchi bor kitoblarida bolalarni o'z zamondoshlari - Tyutchev, Nekrasov, Ogarev, Turgenev asarlari, shuningdek, Karamzin, Lermontov, Krilov asarlari bilan tanishtirdi.

Ushinskiy 6 yoshgacha bo'lgan bolalar nutqini tavsiflar ekan, uning ayrim xususiyatlarini, masalan: tovushning tushunarsizligi, lug'at boyligining yetarli emasligi, o'zaro bog'liqlikning yo'qligini alohida ta'kidlagan.

U bolalar bilan mashg'ulot o'tkazishning turli shakllarini taklif qilgan:

- bolalar hayotidan hikoyalar;
- bolaga narsalarning xususiyatlarini ko'rishda, 6 yoshga kelib esa narsalar juftligini bir-biriga taqqoslash, ular o'rtasidagi umumiylik va farqlarni topishda yordam beruvchi mashqlar;
- suratlar asosida hikoya qilish, bu bolalarga savollarga javob berish, so'ngra esa ravon, tushunarli va erkin hikoya qilib berishni o'rgatadi;
- bolalarni o'qish va yozishga tayyorlovchi amaliy mashqlar.<sup>6</sup>

Bolalar folklorini yaqindan o'rgangan va sohada ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirgan Elbek tomonidan yig'ilib, tartib berilgan va 1937-yilda chop etilgan "Bolalar qo'shig'i", O.Safarov tartib bergan "O'zbek xalq ijodi" seriyasida 1984-yilda bosilib chiqqan "Boychechak" to'plamiga kiritilgan bolalar folklori janrlari asarlari bilan yaqindan tanishdik. O'zbek bolalar folklorini o'rganish o'tgan asrning 60-yillaridan boshlangani va Z.Husainovanning "O'zbek topishmoqlari" (1966), G.Jahongirovning "O'zbek bolalar folklori" (1975), shuningdek, O.Safarovning "Bolalarni erkalovchi o'zbek xalq qo'shiqlari" (1983), "O'zbek bolalar poetik folklori" (1985), "Alla-yo alla" (1999), "Chittigul" (2004), "O'zbek xalq bolalar o'yinlari" (2012), Sh.Galiyevning "O'zbek bolalar o'yin folklori" (1998) singari tadqiqotlar yaratilganini aniqladik. Yuqoridagi ilmiy tadqiqotlarni o'rganar ekanmiz, bolalar folklori to'plamlaridan joy olgan asarlar mavzu ko'lami jihatdan tasniflanganini, lekin bolalar yoshiga doir ajratilmaganining guvohi bo'ldik. Agar MTMda bolalar folkloridan foydalanish ilk bolalik davridan boshlanishini hisobga olsak, bolalar folklori asarlarining yoshga doir xususiyatlar asosida ajratib chiqilmaganligi tarbiyachilar uchun katta qiyinchilik tug'diradi.

MTM tarbiyalanuvchilarining yoshiga mos tavsiya etilgan folklor namunalari tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning ishini ancha yengillashtiradi va bolalarda ortiqcha yuklamalarning oldini oladi.

Zamonaviy odamlarning o'ziga xos tasavvurlari o'zgarib borayotgan bir sharoitda aytim, ermak qo'shiqlari, aytishmashoqlar, tez aytishlar, laparlar, ovunmashoqlar kabi yillar davomida avloddan avlodga o'tib kelgan og'zaki ijod namunalari insonlar hayotidan chiqib ketmoqda. Lekin shu bilan

3 O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi.

4 Ona tili fani bo'yicha O'zbekiston Respublikasi uzluksiz ta'lim milliy o'quv dasturlari. Toshkent, 2021.

5 D.R. Babayeva. "Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi". (Darslik). - T.: «Barkamol fayz media», 2018, - 432 b.

6 D.R. Babayeva. "Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi". (Darslik). - T.: «Barkamol fayz media», 2018, - 432 b.

birga maktabgacha yoshdagi bolalar uchun bunday ijod namunalari muhimligini alohida qayd etmoq kerakdir.

Tadqiqotchi Zamira Ibrohimovaning kichikintoylar uchun tayyorlagan "Gulgina" deb nomlangan majmuasida bolalarbop asarlar quyidagicha yosh davrlari asosida tasniflangan: chaqaloqlik davri (1 yoshgacha), ilk yosh davri (1-3 yoshgacha), kichik yosh davri (3-4 yoshgacha), o'rta yosh davri (4-5 yoshgacha). Ushbu majmuada bolalar folklorining bir qator janrlari, jumladan, alla, erkalama, ovutmachiq, hukmlagich, sanama, aytishmachiq, tez aytish, maqollardan namunalar keltirilgan. To'plamdagi folklor materiallaridan foydalanishda tarbiyachilardan kreativlik talab qilinadi. Qachon va qay vaziyatda bolalar folkloriga murojaat qilishni bilish, tanlangan materiallar tarbiyalanuvchilar yoshi va saviyasiga mos bo'lishi ta'minlanishi zarur.

### TADDIQOT METODOLOGIYASI

Inson dunyoga kelgan ilk kunlaridan boshlab, allaning yoqimli ohangidan ruhan tinchlanadi, orom olib uxlaydi. 4 - 5 oylikdan boshlab esa kuy tovushlariga, erkalama, ovutmachiqqa hissiy javob qaytarishga harakat qiladi. 9 - 10 oylik chaqaloq bola ana shu emotsional ta'sirlanishini qiqirlab kulish, chapak chalish, qo'lchalarini o'ynatish va boshqa harakatlar orqali ochiq namoyish eta boshlaydi. "Ikki yoshga qadam qo'ygan bola jismoniy hamda ruhiy jihatdan jadal rivojlana boshlaydi"<sup>7</sup>. Ayniqsa, kichikintoylarning mustaqil yurish ko'nikmasini egallaganligi uning tevarak-atrof bilan "muloqot" o'rnatish imkoniyatini kengaytiradi.

Endilikda folklor namunalarini yordamida bolaning nutqini rivojlantirish, boshlang'ich diqqat, tinglash qobiliyatini tarbiyalashga e'tiborni kuchaytirish kerak.

Shuning uchun bolaga bir yarim yoshdan boshlab alla, ovutmachiq, erkalamalar bilan bir qatorda, ertak va hikoyalar ham tavsiya etiladi. Asarlar qiziqarli, ixcham shaklda, ishtirokchilari kam, tili soddada, ravon va tushunarli bo'lishiga ahamiyat beriladi. Uch yoshli bolalar "... jismonan ancha chiniqib, asab tizimi taraqqiy etadi. Ular asta-sekin o'z xatti-harakatlarini idora qilish ko'nikmasini egallay boshlaydilar, mustaqillik tobora ortib boradi"<sup>8</sup>. Bu davrda bolada idrok, xotira, nutq, tafakkur ancha rivojlanadi. Ammo diqqat barqaror bo'lmaganligi sababli ular tezda charchab qoladilar. Shuning uchun bu yoshdagi bolalarga ham qisqa ertak, tez aytish va she'rlar tavsiya etiladi. Bolalar kattalar tomonidan so'zlab yoki o'qib berilayotgan asarni tinglab, qahramonlar xatti-harakatlarini ancha qiziqish bilan kuzata boshlaydilar. Tushunganlarini qisman gapirib bera oladilar.

"Bola to'rt yoshga yetganida uning miyasi tez rivojlanadi... Boladagi asosiy harakatlarining rivojlanishida jiddiy sifat o'zgarishlar sodir bo'ladi, ularni bajarishda tabiiylik ortib boradi"<sup>9</sup>. Bu yoshdagi bolalarda qiziquvchanlik keskin o'sadi. Pedagoglarning ta'kidlashlaricha, ulara voqea-hodisalarning sodir bo'lish sabablariga qiziqish kuchayib, ko'plab savollar bera boshlaydilar. Bolalarning nutqida, idrok va tafakkurida ham muhim o'zgarishlar yuz beradi. Lug'at boyligi ortadi, fikrlarini ancha murakkab gaplarda ifodalay boshlaydilar. Demak, bu yoshdagi bolalarga tavsiya etiladigan asarlar yanada murakkablashadi, syujeti bir necha voqealardan tashkil topadi, personajlar soni ko'payadi.

Demak, yuqoridagi fikrlar asosida shunday xulosa qilish mumkin, alladan tortib dostonigacha har bir yosh bosqichiga moslab, oddiydan murakkabga tamoyili asosida mashg'ulotlar tashkil etish kerak. Oltin meros qo'shiqlarimiz bolalarning murg'ak qalblarini hayajonlantirish orqali, ularni ma'naviy-estetik jihatdan tarbiyalaydi, ona tilimizdagi tovush ohanglari jozibasini his etishga, asta-sekin so'zlar ma'nosini tushuna borishlariga yaqindan ko'mak beradi.

Ish mazmun-mohiyatini yoritishda Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi tarbiyachilar o'rtasida pedagogik kuzatishlar

olib bordik, pedagoglar bilan suhbatlar hamda ular o'rtasida so'rovnomalar o'tkazdik. Farg'ona viloyati Rishton, Oltiariq va Qo'qon shahridagi MTMLarda faoliyat ko'rsatayotgan 70 nafar tarbiyachilar o'rtasida o'tkazilgan so'rovnomalarda asosiy e'tiborni ular faoliyatida qo'llayotgan interfaol usullarga qaratdik.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida xalq qo'shiqlaridan foydalanish juda ham keng tarqalgan. Bolalarga bag'ishlangan o'zbek xalq qo'shiqlarida chaqaloqqa nafaqat uxlatayotganda, balki uyg'onganda, yig'laganda, tili chiqqanda, o'tira boshlaganda, toy-toy turganda, yurganda, yugurganda, chapak chalganda, yangi kiyim kiydirilganda, cho'miltirayotganda aytiladigan qo'shiqlar bor. Bu qo'shiqlarning nomi olqish qo'shiqlar deyiladi. Ya'ni kattalar bolalarning ilk harakatlarini olqishlaydilar.

Ushbu qo'shiqlarning yaxshi tomoni shundan iboratki, ularni oila sharoitida bolaga kun davomida aytish mumkin. Yasli va kichik guruh tarbiyachilari ham bu qo'shiqlarga tez-tez murojaat etsalar, nur ustiga nur bo'lar edi. Zero, shunday qilinganda, eng avvalo kichikintoy bilan tarbiyachi o'rtasida jonli, mehri munosabat vujudga keladi, bog'cha muhiti oila muhitiga yaqinlashtiriladi, natijada bola bog'cha sharoitiga nisbatan yengillik bilan moslashadi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida xalq og'zaki ijodining kichik janrlari: alla, erkalama, ovutmachiq, qiziqmachoqlarga bag'ishlangan mashg'ulotlarni qismlarga bo'lib o'tkazish maqsadga muvofiq.

Mashg'ulotlarning qismlari bir-biri bilan uzviy bog'liq tarzda, bosqichma-bosqich bir necha kun davomida o'tkaziladi. (Agar bolalar tushunishga qiynalsalar yoki yana bir bor eshitishga istak bildirishsa, mashg'ulotning alohida qismini bemalol takroran o'tish mumkin.) Tayanch dasturida bolalarning qiziqish, o'zlashtirish darajalariga qarab, mashg'ulot vaqti belgilangan: kichik guruhlarda 5-10 daqiqa, o'rta guruhlarda 12-15 daqiqa.

Tarbiyachi mashg'ulot samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi ko'pgina omillarga e'tibor berishi kerak. Jumladan, mashg'ulot uchun tanlangan matn o'rganib chiqishi, uni kichikintoylar qalbiga yetkazish usullarini izlashi, bolalarning yosh va tabiatiga xos asosiy xususiyatlarga alohida ahamiyat berishi, kichik va o'rta guruhlarda ko'rgazmali materiallardan, didaktik o'yinlardan unumli foydalanishi zarur. Bu usullar bolalarning diqqatini bir nuqtaga qaratishda tarbiyachiga qulaylik yaratadi, mashg'ulotning qiziqarli bo'lishini ta'minlaydi hamda badiiy asarning emotsional-estetik qimmatini yanada oshiradi. Shuningdek, tarbiyachi bu mashg'ulotlar, avvalo, bolalar uchun ekanligini unutmasligi lozim. Buning uchun guruhdagi har bir kichikintoy shaxs sifatida hurmat qilish, ularning mashg'ulotda faol ishtirokini ta'minlash, bildirayotgan fikrlarini samimiy gaplar bilan qo'llab-quvvatlash o'ta muhimdir.

Fikrimizning dalili sifatida "Alla" qo'shig'iga bag'ishlangan mashg'ulot bayonini to'liq keltiramiz. Avvalo, alla haqida ikki og'iz so'z. Inson dunyoga kelib eshitgan ilk qo'shig'i ona allasi hisoblanadi. Shuning uchun xalqimiz orasida alla bolaga ona suti bilan kiradi, degan ibora bor. Jumladan, Sharqning buyuk qomusiy olimi Abu Ali ibn Sino shunday degan edi: "Go'dakning tanasini chiniqtirish uchun ikki narsa zarur. Biri - uni asta tebratish, ikkinchisi - ona allasi. Birinchisi bolaning tanasiga, ikkinchisi esa ruhiyatiga zarur".

Demak, oila sharoitida yosh ota-onalar allaning bir nechta xilini yodlab, farzandlarini uxlatayotgan paytda ohangi bilan aytisalar, foydadan xoli boimaydi. Yuqorida aytganimizdek, maktabgacha ta'lim muassasalarida qo'shiqni bolalarga o'rgatish ancha erta boshlanadi. Ya'ni 3-4 yoshdagi bolalarga "allia" yodlatish uchun tavsiya etiladi. Mashg'ulot gilam ustida o'tkaziladi. Imkoniyat darajasida gilamning to'rt tomoniga ko'rpachalar to'shaladi, xonaning bir tomoniga beshik qo'yiladi. Birinchi qismda tarbiyachi guruhga yo'rgaklangan qo'g'irchoq

7 O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yilgan davlat talablari, Toshkent 2018 yil.

8 Yuqoridagi manba.

9 Yuqoridagi manba.



bilan kiradi. Bolalarning faol ishtirokida unga chiroyli ism qo'yiladi.

Ma'lumki, ilk va kichik guruh bolalarining diqqat, idrok etish kabi ruhiy jarayonlari hali yaxshi rivojlanmaganligi tufayli, tashqi ta'sirga juda tez beriluvchan bo'ladi. Mashg'ulot jarayonida ham ular tarbiyachining qo'lidagi qo'g'irchoqqa qiziqib, uning gaplariga e'tibor bermay qo'yishlari, bir-birlari bilan gaplashib, shovqin ko'tarishlari mumkin. Tarbiyachi bunday vaziyat yuzaga kelmasligi uchun, qo'g'irchoqqa haqiqiy chaqaloqqa qaraganday munosabatda bo'lishi, bolalar e'tiborini chaqaloqning nihoyatda kichikligiga qaratib, uni avaylash, ehtiyot qilish, uxlaganda shovqin qilmaslik, sekin-asta gapirish zarurligi haqida uqtirib boradi. Agar shovqin-suronli vaziyat yuzaga kelsa, tarbiyachi "chaqaloq" – qo'g'irchoqqa qarab, quyidagi so'zlash usulini qo'llashi mumkin:

"Kichkinaginam, shovqindan qo'rqib ketdingmi? Qo'rqmagin, asalim, guruhimizdagi bolalarning hammasi yaxshi, aqlli, odobli. Ular chaqaloqlarning yonida qattiq gapirishmaydi, Erkin ham yaxshi bola. Ana, qaragin, Olimjon ham endi shovqin qilmayapti. To'g'rimi, Olimjon? Ko'rdingmi, ularning hammasi yaxshi bolalar. Faqat bugun ular chaqaloq uxlayotganda shovqin qilish mumkin emasligini bilmay qolishibdi".

Tarbiyachi mashg'ulotning ikkinchi qismida bolalar bilan birgalikda qo'g'irchoq-chaqaloqni beshikka belaydi va asta tebratib "alla" aytadi.

*Alla, bolam, alla-yo,*

*Ko'rar ko'zim, alla-yo.*

*Suyar so'zim, alla-yo,*

*Alla, bolam, alla-yo.*

*Shirin jonim, alla-yo,*

*Issiq nonim, alla-yo.*

*Alla, bolam, alla-yo, alla,*

*Do'mboqqinam, alla-yo, alla.*

Qo'g'irchoq-chaqaloq "uxlagach", beshik boshqa joyga olib qo'yiladi. Endi mashg'ulotning bevosita "alla"ga oid uchinchi qismi boshlanadi. Asosiy qismda tarbiyachi qo'shiq haqida qisqacha so'zlaydi. "Bolajonlarim, "Alla" qo'shig'i juda qadim zamonlarda yaratilgan. Katta momolarimiz, katta buvilarimiz beshikni asta tebratib alla aytganlar. Beshikda yotgan chaqaloq alla kuyidan orom olib uxlagan. Chaqaloq paytingizda oyijoningiz ham sizni uxlatish uchun alla aytgan... Esingizdami?" deb bolalarga quvnoq ohangda murojaat etilsa, ularning yuzida tabassum paydo bo'lganligining guvohi bo'lasiz. Bolalar o'z xotiralari bilan o'rtoqlashsa yoki beshik, allaga oid biror voqeani ikki og'iz so'z bilan hikoya qilib bersalar, demak, bilingki, sizning mashg'ulotingiz o'zlashtirilyapti.

Ma'lumki, kichikintoylarga atalgan xalq allalari, erkalama va ovutmacholarda bola obrazi markaziy o'rinni egallaydi. Ularda kattalar: buvi, bobo, ota-ona, amma, xola, opa-aka va boshqalar dunyodagi eng aziz, eng dilbar so'zlar bilan kichikintoyni erkalaydilar, sevib ardoqlaydilar. Tarbiyachi ham ana shunday so'zlarga, o'xshatish va sifatlashlarga alohida e'tiborini qaratishi lozim. Ayrim shunday so'zlarning ma'nosini sharhlash orqali bolaning oilasiga, onasiga bo'lgan mehr-muhabbat tuyg'usi kuchaytiriladi. Shu jihatdan, kichik guruh bolalariga yodlatish uchun tavsiya etilayotgan "Alla"ning birinchi to'rtligini ko'rib chiqamiz: Tarbiyachi bolalarga allaning so'zlari juda ma'noli ekanligi haqida gapirib, "Onajonlarimiz o'z bolalarini "ko'rar ko'zim" deb erkalaydilar. Bu yerda tarbiyachi bolalarga so'zlar ma'nosi tushunarli bo'lishi uchun interfaol usullarni qo'llashi mumkin. Shirintoylarim, agar odamning ko'zlari ko'rmasa, unga qanchalik qiyin. Qani, ko'zlarimizni bir zumga yumib ko'raylik-chi, atrof qop-qorong'i, to'g'rimi? Endi ko'zlarimizni ochamiz, hammayoq yop-yorug', charog'on, chunki biz ko'ryapmiz, qanday yaxshi. Onajonlarimiz o'z bolalarini sevib, erkalab ko'rar ko'zga o'xshatishadi".

Xalq qo'shiqlariga bag'ishlangan mashg'ulotlar bolalarning qiziqish va o'zlashtirishlariga qarab ertalabki yoki kechki soatlarda 20-30 kungacha va undan ko'p vaqt davom etishi mumkin. Tarbiyachi bu mashg'ulotlarni shoirlar tomonidan yozilgan allalarga boglagan holda yana davom ettiradi.

Shuningdek, oradan ma'lum vaqt o'tgach, allaga bag'ishlangan mashg'ulotlar takroran o'tkazilishi mumkin.

Allani tarbiyachining kreativ yondashuvi asosida interfaol usulda ham o'rganish mumkin. Buning uchun tarbiyachi monitor orqali namoyish qilinadigan buvi yoki ona ijrosidagi allani avval tinglash, so'ng bolalar bilan birgalikda kuylash orqali o'zlashtiriladi.

Yana boshqa bir usuli esa kichik sahna ko'rinishini tayyorlash va bolalarning unda ishtirokini ta'minlash orqali o'rganish. Bu usulni Farg'ona viloyati Oltiariq tumanidagi "Shodlik" nomli bolalar bog'chasida tajriba sinov tariqasida o'tkazdik. O'rta yosh guruhidagi 15 nafar bolalar 3 guruhga ajratildi. Guruhdagi bolalarga berilgan qo'g'irchoq chaqaloqni yo'rgaklash, uni belanchakka solish va alla aytib, ohista tebratish vazifasi berildi. Guruhdagi bolalar ona, ota, buvi, aka, singil rolini ijro etishga harakat qildilar. Tartib bilan har uchala guruh alla aytib qo'g'irchoq chaqaloqni uxlatdilar. Bolalar mashg'ulotda faol ishtirok etib, charchash nimaligini bilmadilar.

Kichikintoy bir yarim yoshdan boshlaboq ertaklar olamiga qiziq boshlaydi. Unda aks etgan g'aroyib, ajoyib va sehrlil olamga maftun bo'lib qoladi. Ertak o'zining jozibali qudrati bilan bolani o'ziga tortadi, uning vataniga va xalqiga sadoqatli, dovyurak, mehnatsevar, kattalarni hurmat qiluvchi, kichiklarga mehribon, halol va pok vijdonli inson bo'lib shakllanishida g'oyat muhim tarbiyaviy rol o'ynaydi. Shuning uchun dunyodagi barcha xalqlar asrlar davomida farzandlariga ertak aytib keladi. Bolalar ertaklarni yanada yaxshiroq tushunishlari uchun tarbiyachi asar ustida jiddiy ishlashi kerak. Mashg'ulot uchun tanlangan asarni sinchiklab o'qib, o'rganib, kerakli o'rinlarini belgilab oladilar.

Jumladan, asarning qaysi jihatlari bolani qiziqtiradi, qahramonlar o'rtasidagi to'qnashuvlar qay tarzda yechiladi, asar bolalarga nimani o'rgatadi? Ertak bo'yicha mantiqli savollar tuzish kabi vazifalarni bajarishlari zarur. Shuningdek, tarbiyachi o'z imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda kitob burchagini to'ldiradi. Asar voqealari asosida ishlangan turli rasmlar, surat (illyustratsiya)lardan ko'rgazmalar tashkil etadi. Bularning hammasi maqsadga yo'naltirilgan, bolalarning estetik didini o'stirish, tafakkur doirasini kengaytirishda ma'lum xizmatni o'taydigan bo'lishiga e'tiborni qaratadi.

Kichik guruhlarda mashg'ulotning kirish qismidanoq bolalarning diqqatini bir nuqtaga to'plash maqsadida quyidagi usuldan foydalanish mumkin. "Fil bilan Xo'roz" – o'zbek xalq ertagi bo'yicha mashg'ulot o'tilayotganda, ertakning bosh qahramoni xo'rozning rasmi yoki o'yinchoq'i ko'rsatilib, bolalarning bu parranda haqida nimalarni bilishlari aniqlanadi. So'ngra: "Shirintoylarim, hammangiz xo'rozni ko'rgan ekansiz. Kim aytadi, u qanday qichqiradi? Juda to'g'ri. "Qu-qu-qu-qu", deb qichqiradi. Kelinglar, hammamiz birgalikda xo'rozga o'xshab qichqirib ko'ramiz", - deb bolalar bilan birgalikda bu taqdidiy harakatni bir-ikki marta qaytarish mumkin. Ertakning ikkinchi qahramoni, filning rasmi yoki o'yinchoq'ini ko'rsatib: "Xo'rozni hammangiz yaxshi bilarsiz ekansizlar, mana bu hayvonni ham taniysizlarmi?...Ha, barakalla. Bu – fil. Fil issiq o'lkalarda yashaydi. Ular, ayniqsa, Hindistonda ko'p uchraydi. Mana bu uzun xartumi unga ovqatlanishida, cho'milishida yordam beradi", - deb ertakning har ikki qahramoni haqida qisqacha to'xtalgach, "Ana endi men sizlarga Fil bilan Xo'roz haqida ajoyib bir ertak aytib beraman, diqqat bilan eshitinglar", - degan gaplar bilan mashg'ulotni boshlarsa, bolalarda ertak eshishga qiziqish uyg'onadi.

O'zbek xalq ertaklarida hamisha mehnatsevarlik ulug'lanadi, dangasalik, ishyoqmaslik, uyquchilik qoralanadi. "Fil bilan Xo'roz" ertagining g'oyasi ham shunday. Ma'lumki, ertakda juda qiziqarli voqea bayon etiladi. Unda fil bilan xo'roz kim ko'p ovqat yeyishga musobaqa o'ynashadi. Ana shu favqulodda topilgan voqea bolalarning qiziqishini yanada oshirtiradi. Negaki ikki qahramonning tashqi ko'rinishi bu musobaqada kim g'olib chiqishini oldindan aytib turibdi. Lekin xalq ertaklarida buzilmas bir qonuniyat bor. Kimki qahramonlik ko'rsatsa, tashqi ko'rinishi qanday bo'lishidan qat'iy nazar, muvaffaqiyat qozonadi, g'olib hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan ertakka e'tibor berilsa, bunday



musobaqaga rozi bo'lish fil uchun go'llik, ahmoqona soddalik bo'lsa, xo'roz uchun chinakam qahramonlik hisoblanadi. Albatta, ertakda Xo'roz muvaffaqiyatga osonlik bilan erishmaydi. U tinmay harakat qiladi. Fil bo'lsa xo'rozga nisbatan juda ko'p ovqat yesa-da, uyquchiligi tufayli musobaqada yengiladi. Tarbiyachi ertak g'oyasiga singdirilgan ana shu ma'nolarni bola shuuriga yetkazish uchun ertakning ayrim o'rinlarini, qahramonlar xatti-harakatlariga oid joylarini ta'kidlab so'zlashi, ovoz ohangi orqali ularga o'z munosabatini bildirishi kerak. Shunday qilinganda, tinglovchi bolalar qahramonlar xulq-atvorini tushunib boradilar va ertakdan zavqlanadilar.

“Fil bilan Xo'roz” ertagi bo'yicha savollar: Ertak sizga yoqdimi? Ayting-chi: xo'roz kattami yoki filmi? Qaysi biri ko'p ovqat yeydi? Ular nimadan garov o'ynashibdi? Nima uchun xo'roz dam olmasdan, uxlamasdan, tinmay donlab yuribdi? O'ylab ko'ring-chi: Nima uchun fil nihoyatda ko'p ovqat yesa-da, kichkinagina xo'rozga garovda yutqazib qo'yibdi? Musobaqada yutish uchun o'ziga ishonishning o'zi yetarli yoki astoydil harakat va yana harakat qilish zarur ekanmi? Xo'roz xursandligidan qanaqa qichqirgani esingizdami? Kelinglar, birgalikda xo'rozga o'xshab qichqiramiz v. h.

### TADQIQOT NATIJALARI

Ertaklarni yangicha usullar orqali ham o'rgatish yaxshi samara beradi. Quyida kuzatuvlarimiz asosida tahlil qilingan bir usulni bayon qilamiz. Farg'ona viloyati Qo'on shahar 4-sonli maktabgacha ta'lim muassasasida o'tkazilgan mashg'ulot samaradorligi bilan e'tiborga molikdir. Katta yosh guruhida o'tkazilgan mashg'ulotda tarbiyachi bolalarni xonada yaxshi joylashtirib, diqqatlarini monitor orqali namoyish etiladigan ertakka qaratishlarini so'radi. Bolalar ertakni tomosha qildilar. Ikkinchi marta yana tomosha qildilar va tarbiyachining savollari asosida ertakni nomlab oldilar: “Sholg'om”. Endigi topshiriq ertakni sahnalashtirish bo'ldi: bir o'quvchi sholg'om, yana biri bobo, birisi kampir, yana birlari qizi, o'g'li, kuchuk, mushuk va sichqon bo'ldilar. Mashg'ulot juda qiziqarli o'tdi.

So'rovnomada ishtirok etgan respondentlarning barchasi ya'ni 70 nafari ham maktabgacha ta'lim muassasalarining tarbiyachilari bo'lib, ular ixtiyoriy ravishda savollarga javob berdilar. Folklor asarlarini o'rgatishda interfaol usullar kerakmi? degan savolga respondentlarning 60 nafari – 86 % i “ha”, 1 nafari “yo'q”, 9 nafari – 13 % i esa “ba'zida” degan javobni berdilar. Javoblardan ko'rinib turibdiki, tarbiyachilar deyarli dars mashg'ulotlarida interfaol usullarni ma'qullamoqdalar va fikrlari natijasi o'laroq ular tashkil etayotgan interaktiv xarakterdagi qiziqarli o'quv darslarni taqdim etmoqda. Haqiqatan ham, bunday usulda tashkil etilgan dars bolalarning qiziquvchanligini oshirib, ruhiy charchashlarining oldini oladi.

Ertaklarni o'rganishda sahnalashtirishdan foydalanasizmi?, degan savolga respondentlarning 30 nafari – 43% i “ha”, 12 nafari – 17 % i “yo'q”, 28 nafari – 40 % i “ba'zida” degan javobni berdilar. O'tkazilgan tajribalar shuni ko'rsatadiki, ertaklarni sahnalashtirish orqali o'rganish tarbiyachining o'qib berishiga qaraganda qulay va zamonaviydir. Kichik yoshli bolalarni rol o'ynashga tayyorlash tarbiyachidan ko'p martalik takror va takror urinishlarni talab qiladi. Shunday bo'lsa-da, barcha maktabgacha ta'lim muassasalarida ertaklarni sahnalashtirish orqali o'rganishni tashkil qilish maqsadga muvofiqdir.

Ertaklarni o'rganishda sahnalashtirishdan foydalanasizmi?, degan savolga respondentlarning 30 nafari – 43% i “ha”, 12 nafari – 17 % i “yo'q”, 28 nafari – 40 % i “ba'zida” degan javobni berdilar. O'tkazilgan tajribalar shuni ko'rsatadiki, ertaklarni sahnalashtirish orqali o'rganish tarbiyachining o'qib

berishiga qaraganda qulay va zamonaviydir. Kichik yoshli bolalarni rol o'ynashga tayyorlash tarbiyachidan ko'p martalik takror va takror urinishlarni talab qiladi. Shunday bo'lsa-da, barcha maktabgacha ta'lim muassasalarida ertaklarni sahnalashtirish orqali o'rganishni tashkil qilish maqsadga muvofiqdir.

### 1-jadval

#### Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar folkloridan rivojlantirish bo'yicha tadqiqot so'rovnomasini

T/r	Savollar	Ha	Yo'q	Ba'zida
1	Folklor asarlarini o'rgatishda interfaol usullar kerakmi?	60 (86 %)	1 (1 %)	9 (13 %)
2	Ertaklarni o'rganishda sahnalashtirishda n foydalanasizmi?	30 (43 %)	12 (17 %)	28 (40 %)
3	Allani o'rgatishda alla aytib berasizmi?	40 (57 %)	3 (4 %)	27 (39 %)
4	Folklorini o'rgatishda tarbiyachiga kreativlik kerakmi?	55 (79 %)	0	15 (21 %)
5	Mashg'ulotlarda bolalarni faollashtiruvchi metodlardan foydalanasizmi?	43 (62 %)	10 (14 %)	17 (24 %)

Allani o'rgatishda alla aytib berasizmi? degan savolga ishtirokchilarning 40 nafari – 57 % i “ha”, 3 nafari – 4 % i “yo'q”, 27 nafari – 39 % i “ba'zida” degan javobni berdilar. Kichik yoshli bog'cha bolalariga allani jonli aytib berish har qanday usuldan afzal ekanligini ta'kidlab, bolaning ruhan orom olishi va tarbiyachiga o'z onasidek yaqinlashishiga yordam berishiga tajribalar orqali guvohi bo'ldik.

Folklorini o'rgatishda tarbiyachiga kreativlik kerakmi?, degan savolga respondentlarning 55 nafari – 79 % i “ha”, 15 nafari – 21 % i esa “ba'zida” deb javob berdilar. Ba'zi pedagoglarning kreativlikning bolalar bog'chasi uchun yot narsa, deb tushunishlariga bugungi kun ta'limidagi dolzarb masalalardan biri sifatida qaralishi kerak. Chunki bolalar ta'limiga kreativlik asosida yondashish orqali ularda yoshligidanoq ijodkorlik, hozirjavoblik, muammoli vaziyatlarni to'g'ri hal qilish kabi ijobiy sifatning shakllanishiga yaqindan yordam beradi.

Mashg'ulotlarda bolalarni faollashtiruvchi metodlardan foydalanasizmi?, degan savolga respondentlarning 43 nafari – 62 % i “ha”, 10 nafari – 14 % i “yo'q”, 17 nafari – 24 % i esa “ba'zida” degan javobni berib, o'zlarining bolalarga og'zaki ijod namunalari o'rgatishdagi faoliyati yutuq va kamchiliklari haqida ma'lumot berib o'tdilar. Tahlildan shu narsa ko'rinib turibdiki, mashg'ulotlarini interaktiv yuqori saviyada tashkil qilayotgan tarbiyachilar bilan bir qatorda o'z ustida ishlashi lozim bo'lgan tarbiyachilar ham bor.

Tarbiyachilar o'rtasida an'anaviy va interfaol ta'lim haqida o'tkazilgan tadqiqot natijalari quyidagi VEN diagrammasi asosida umumlashtirildi. Tadqiqotda Farg'ona viloyatining Oltiariq tumani va Qo'on shahrida joylashgan MTMLarda faoliyat ko'rsatayotgan 85 nafar tarbiyachilar bilan suhbatlar o'tkazildi. Ularning javoblari tahlil qilindi va bir-biriga solishtirildi.

## An'anaviy va noan'anaviy ta'limning solishtirma tahlili (Ven diagrammasi)

Bolalar folklorini o'rgatishda an'anaviy ta'lim	O'xshashligi	Bolalar folklorini o'rgatishda noan'anaviy ta'lim
<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Tarbiyachi kitobni o'qib beradi.</li> <li>2. Belgilangan vaqtda, ko'rsatilgan xonada dars o'tadi.</li> <li>3. Tarbiyachi darsda o'ta faol bo'ladi.</li> <li>4. Mashg'ulotda bolalar zerikib qoladi va tez charchaydi.</li> </ol>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Tarbiyachi mashg'ulotga tayyorgarlik ko'rib keladi.</li> <li>2. Bolalar folklorini o'rganadi.</li> </ol>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Tarbiyachi jonli harakat qiladi.</li> <li>2. Tarbiyalanuvchilarni faollashtirish uchun turli usullardan foydalanadi.</li> <li>3. Vaziyatdan kelib chiqib dars o'tish joyini tanlaydi.</li> <li>4. Tarbiyachi mashg'ulotda passiv-kuzatuvchi maqomida ishtirok etadi.</li> <li>5. Bolalar tezda zerikib qolmaydi.</li> </ol>

Demak, zamonaviy tarbiyachi o'z ustida muntazam ishlaydigan, zamon bilan hamnafas bo'lib, bolalar qalbini tushunadigan, ularni ilhomlantira oladigan darajada kreativ bo'lishi kerak.

Mashg'ulotlarni kuzatar ekanmiz, "Sahnadamiz", "Biz epchilmiz", "Kim zukko?", "Kim birinchi?", "Buni toping, bolajon!", "Musobaqa", "O'yla, izla, top!" kabi zamonaviy usullar bolalar folklorini kichik yochli bolalarga o'rgatishda yaxshi samara berib kelmoqda.

Xalq og'zaki ijodi namunalarini o'rganish, mashg'ulotlarda zamonaviy usullarni qo'llash, birinchi navbatda, nutqiy kompetensiyalarni rivojlantiradi. Ularning lug'ati kundan kunga yangi tushunchalar, so'zlar bilan boyitib boriladi. Nutqning grammatik tuzilishi, nutq madaniyati shakllantirilib, dialogik va monologik nutqi takomillashiriladi.

MTT tarbiyachilari kichik yoshli bolalarni o'z ona tilida ravon gapira olish, nutqiy vaziyatlarda til imkoniyatlaridan foydalanish darajalarini oshirishda bolalar folklorini o'rgatishning zamonaviy usullarini qo'llash ham juda yaxshi samara berishini kuzatdik va tahlil qildik. Lekin asosiy e'tiborni tarbiyachilarning bolalarga folklor namunalarini o'rgatishda zamonaviy usullardan foydalanishi holatiga qaratdik.

Tarbiyachilar faoliyatida yutuqlar bilan bir qator kamchiliklar borligi ma'lum bo'ldi. Biz ularning faoliyatini kuzatishda odatdagi hayotiy faoliyatidan chetga chiqmaslikka harakat qildik. Bu jarayonda quyidagilarga e'tibor qaratildi:

1. Tarbiyachining nutqiy kompetensiyasi va ona tili boyligidan unumli foydalanishi.
2. Tarbiyachilarning interaktiv metodlardan foydalana olishi.
3. Mashg'ulotlarga tayyorgarlik darajasi va o'tishi.
4. Kreatiiv fikrlay olishi va muammoli vaziyatlardan tafakkur yordamida chiqq olishi.
5. Folklor materiallarini o'rgatish orqali milliy urf-odatlar bilan tanishtirib borish.
6. Mashg'ulotlarning ma'lum maqsadga yo'naltirilgan holda muntazam va izchil olib borilishi.

Bolalar folklorini kichik yoshli bolalarga o'rgatishda tarbiyachilar tomonidan yo'l qo'yilayotgan kamchiliklar sifatida quyidagilarni sanab o'tamiz:

1. MTTlarda bolalar folklori namunalarini yoshga doir tasnifi bo'lmagani tarbiyachilar ishini birmuncha qiyinlashtirmoqda. Bu esa og'ir materiallarning kichik guruhlarda o'tilishiga sabab bo'lib, mashg'ulot sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.
2. MTTlarning uslubiy-metodik ta'minoti zamonaviy talablar darajasida emas. Bu esa ayrim tarbiyachilarning dars mashg'ulotlarini olib borishda eski, an'anaviy usullardan foydalanishiga olib kelmoqda.
3. MTT tarbiyachilarining axborot texnologiyalari bo'yicha malakalarini oshirish. Bu esa texnik tomondan mashg'ulot sifati oshishiga xizmat qiladi.
4. Mashg'ulotlarni rivojlantirishda uzviylik va uzluksizlikning buzilishi.
5. Mashg'ulotlarning rang-barang va har xilligini ta'minlay olmaslik. Bu esa dars jarayonida bolalarning chalg'ishiga va qo'yilayotgan materiallarning o'zlashtirilmasligiga olib keladi.

Maktabgacha tarbiya muassasalarining katta guruhlarida bolalarning bilimi qay darajada shakllanganligi aniqlanib, maxsus topshiriqlar ro'yxati ishlab chiqilib, har bir bola bilan yakka tartibda mashg'ulotlar olib borilishi maqsadga muvofiq. Masalan, bolaga tavsiya etilgan ertak yoki aytishmachoqni qayta hikoya qilib bera olishini aniqlash. "Zumrad va Qimmat", "Bo'g'irsoq", "Ikki echki", "Ur, to'qmoq", "Echki bolalari", "Toshbaqa bilan chayon" kabi ertak va hikoyatlardan uchtasi taklif etiladi. Bola ertakni eslay olmasa, shu ertaklarga ishlangan rasmlar havola qilinadi. Bolalar hikoyasi quyidagi ko'rsatkichlar asosida tahlil qilinadi:

- hikoyani mustaqil bayon qilish (kattalarning yordamisiz);
- matn mazmunining to'liqligi;
- matnni bayon qilishda izchillik;
- ifoda vositalaridan foydalanish ko'nikmasi;
- nutqning ravonligi.
- Folklor matnlarini aytib berishda bolalar nutqida quyidagi kamchiliklar uchrashi mumkin:
  - bolalar ertakni yordamchi savollar bermasdan turib mustaqil hikoya qila olmaydi;
  - matndagi so'zlarga taqlid qilib so'zlaydi;
  - ba'zi muhim voqealarni tushirib qoldiradi;
  - bir oz to'xtab-to'xtab hikoya qiladi, nutqda uzilish bo'ladi;
  - nutqda ifodalilik yetishmaydi;
  - bir xil tezlikda, bir xil tovushda hikoya qiladi;
  - o'zicha ba'zi so'zlarni qo'shib, ma'nosiz hikoya qiladi;
  - kattalar yordami vositasida hikoya qiladi;
  - hikoya qilish jarayonida matn ma'nosini o'zgartirib yuboradi;
  - mantiqiy izchillikka rioya qilmaydi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Bolalar folklori va bu ijod namunalarini bog'cha bolalariga o'rgatishning zamonaviy usullari haqida yozilgan ilmiy, metodik va badiiy adabiyotlarni o'qish va qiyosiy tahlil qilish asosida so'z san'atining boshlanishi folklorida ekanligi, o'quv mashg'ulotlarida ta'lim berishning yangi interaktiv usullarni qo'llash bugungi kun ta'limida optimal usul ekanligining guvohi bo'ldik va quyidagi asosli xulosalarni berishga asos bo'ldi:

- Bolalar folklori – og'zaki ijod namunalari bo'lib, bolalar va kattalar tomonidan yaratiladi.
- Bolalar folklorini kichik yoshli tarbiyalanuvchilarga o'rgatishning interfaol usullari mashg'ulotlarning naqadar yengil va qulay o'tilishini ta'minlaydi.
- Mashg'ulotlarni olib borishda tarbiyachilarning kreativ fikrlashi, tashabbuskorligi va tarbiyalanuvchilar bilan samimiyligi ta'lim jozibadorligini oshiradi.
- Dars mashg'ulotlarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish bolalarda qiziquvchanlikni oshiradi.
- Bolalar folklori namunalarini o'yinlar vositasida o'rganish ta'lim oluvchilarning hamkorlikda ishlashlarini ta'minlaydi.

Haqiqatan ham, so'z san'atining noyob durdonalari sanalgan alla, erkalama, ovutmachoq, aytishmachoq, sanama, ertak, qo'shiq kabilar barchaning e'tiborini o'ziga tortib, asrlar silsilasida rivojlanib, takomillashib kelmoqda. Maktabgacha yoshda folklor namunalarini o'rgatish bu, eng avvalo, bola

hayotining birinchi yilidan boshlab nutqni rivojlantirish, bo'g'inlar va so'zlarni aniq talaffuz qilish, gaplarni sintaktik jihatdan to'g'ri tuzish, narsalarning nomini to'g'ri aytish va mos fikr bildirishdan iborat. Bu jarayonda kichik yoshli tarbiyalanuvchilar nafaqat nutqiy kompetensiyani, balki milliy va umuminsoniy qadriyatlarni ham o'zlariga singdirib boradilar.

Ko'p martalik pedagogik kuzatuvlarimiz asosida folklor asarlarining zamonaviy usullar orqali o'rganilishini ta'minlash yo'li bilan bolalarda quyidagi xususiyatlar rivojlantiriladi:

- milliy urf-odatlarini bilish;
- milliy qadriyatlarni hurmat qilish va e'zozlash;
- og'zaki nutq ko'nikmalari rivojlanadi;
- jamoada ishlash qobiliyati oshiriladi;
- hushyorlik, jonkuyarlik, bir-birini tushunish shakllanadi;
- o'zaro hurmatni saqlashni biladi;
- boshqalarni tinglash va so'zlash malakalari oshiriladi va hokazo.

Ishni tayyorlashda olib borilgan kuzatuvlar, o'tkazilgan so'rovnomalar, solishtirma tahlillar asosida maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyachilari uchun bir qator tavsiyaviy xarakterdagi quyidagi fikrlarni keltirib o'tmoqchimiz:

- Bolalar bilan muloqot qilishda narsalar nomlarini va so'zlarni buzmasdan, to'g'ri aytish, bolalarga talaffuzi qiyin

bo'lgan va nisbatan uzun so'zlarni aytishni mashq qildirish va buning uchun o'yin uslubidan foydalanishlari zarur.

- Bolalar kattalar nutqini tushunishlari uchun ular so'zlovchining yuzini va uning qo'l harakatlarini ko'rishlari, uning gaplarini tushunishlari va to'g'ri javob berishlari darkor.

- Bolaga fikrni ifodalash uchun ona tilining eng yaxshi shakllaridan foydalanishni o'rgatish, bolalarni ona tilining boyliklarini egallashga jalb qilish kerak.

- Tarbiyalanuvchilarda nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirishga bir tizim sifatida qarash kerak.

- Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarini ta'limning interfaol usullari haqida uslubiy ko'rsatmalar bilan ta'minlash kerak.

- Tarbiyachilarning axborot texnologiyalari bilan ishlashlari samaradorligini kuchaytirish kerak.

Bolalar bog'chalari, maktablarda o'yinlardan keng foydalaniladi. Bolalar folklori yosh avlodni intizomli, jasur, qat'iyatli, qiyinchiliklarni yengishga, o'rtoqlariga yordam berishga tayyor bo'lish singari yaxshi sifatlariga ega bo'lib o'sishlariga yordam beradi. Shunday qilib, bolalar folklorini maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilariga ilk yoshdanoq o'rgatib borish yuksak kompetensiyali shaxsni tarbiyalashda eng asosiy ustuvor vazifalardan hisoblanadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdulla Avloniy. "Turkiy guliston yoxud axloq". Yoshlar nashriyot uyi. 2018., 97 bet.
2. O.Safarov, R.Barakayev, B.Jamilova. "Bolalar adabiyoti". Buxoro. Davlat universiteti, 2018., 335 bet.
3. "Xalq so'zi", 30-sentyabr 2020-yil.
4. Ona tili fani bo'yicha O'zbekiston Respublikasi uzluksiz ta'lim milliy o'quv dasturlari. Toshkent, 2021.
5. D.R. Babayeva. "Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi". (Darslik). – T.: "Barkamol fayz media", 2018, – 432 b.
6. O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yilgan davlat talablari, Toshkent, 2018-yil.
7. M. Teresa, Mc. Devitt, Jeanne Ellis Ormord. Child development and education. Pearson; 7 edition February 7, 2019, 800 pages.



## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING JISMONIY RIVOJLANISHIDA SOG'LOM OVQATLANISHNING AHAMIYATI

Xatamjonova Farangiz

Qo'qon universiteti Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabasi

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATSIYA
<p><b>Qabul qilindi:</b> 24-may 2022-yil <b>Tasdiqlandi:</b> 26-may 2022-yil <b>Jurnal soni:</b> 4 <b>Maqola raqami:</b> 12 <b>DOI:</b> <a href="https://doi.org/10.54613/001227">https://doi.org/10.54613/001227</a></p> <p><b>KALIT SO'ZLAR</b></p> <p>bolalar ratsioni, tabiiy mahsulot, sog'lom ovqatlanish, uglevodlar, vitaminlar, ozuqa kaloriyasi, mahsulotlar sifati</p>	<p>Maqolada maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning to'g'ri ovqatlanishi, bolalar iste'mol taomlari va kundalik ratsionlari, foydali vitamin va oqsillardan foydalanish usullari o'rganilgan bo'lib, sog'lom ovqatlanishning bola rivojlanishiga ta'siri tahlil etilgan. Shuningdek, bolalarni sog'lom ovqatlanirish bilan birga gigiyena talablariga rioya qilishning ahamiyati yoritib o'tilgan. Maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda mahsulotlarning sutkalik me'yorlarini hisobga olish bo'yicha xorij tajribasi taqdim etilgan.</p>

### KIRISH

Hozirgi kunda shiddat bilan rivojlanib borayotgan zamonda ekologik muhit va ijtimoiy yashash sharoitlarining o'zgarishi ilk va maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning to'g'ri va sog'lom rivojlanishiga ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Shuningdek, tarkibida sun'iy moddalar bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlarining bolalar tomonidan ko'p iste'mol qilinishi ularda uchraydigan surunkali kasalliklar (allergik kasalliklar, qandli diabet, anemiya, gepatit va boshqalar) va tana vaznining me'yoridan ortib ketishi kabi muammolarga sabab bo'lmoqda. Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining 2008-yildagi bayonotida "Parhez va jismoniy faollik bolalar salomatligi va rivojlanishiga chuqur ta'sir qiladi"<sup>1</sup> deb ta'kidlab o'tilgan. Ovqatlanish jarayonida bolalar me'yoridan ortiq kaloriya taomlari iste'mol qilishlari ota-onalari va maktabgacha ta'lim tashkilotlarining tarbiyachilari tomonidan nazoratga olinishi muhim hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi dasturda maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarning erta yoshdanoq sifatli ta'lim olishiga shart-sharoitlar yaratish, sog'lom ovqatlanish va moddiy-texnik bazasini boyitish, o'quv jarayonini xorij tajribasi asosida tashkil qilish va yangi turdagi metodikalar bilan ta'minlash, o'sib kelayotgan yosh avlodni IT texnologiyalari kabi zamonaviy kasblarga tayyorlash asosiy qism sifatida keltirilgan<sup>2</sup>.

Yana shuni qo'shimcha qilish mumkinki, Vazirlar Mahkamasining "Davlat maktabgacha ta'lim muassasalarida sog'lom ovqatlanirish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida" 2019-yil 25-iyuldagi 626-son qarorining 3-bandiga muvofiq, davlat maktabgacha ta'lim muassasalarida outsorsing usulida sog'lom ovqatlanirish O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan o'tkaziladigan tanlov natijalariga ko'ra tashkil qilinishi belgilanganligi ma'lumot uchun qabul qilindi.

Xuddi shu qaror bilan parallel ravishda, 2021-yil 1-oktyabr gacha qadar davlat maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyalanuvchilarning fiziologik yoshiga muvofiq, oziq-ovqat mahsulotlariga qo'yiladigan talablar hamda ularni ratsional kunlik ovqatlanirish me'yorlari belgilanganligidan kelib chiqib, tanlov o'tkazish orqali salohiyatli tadbirkorlik sub'yektlarini aniqlash bo'yicha qaror qilindi.<sup>3</sup>

Binobarin, maktabgacha yoshdagi bolalarning sog'lom rivojlanishini qo'llab-quvvatlash amaliyotini takomillashtirish dasturlari ota-onalar, xususan, onalarga yoki boshqa asosiy g'amxo'rlik qiluvchilarga qaratilgan bo'lishi kerak. Biroq bu muammolarni hal qilish uchun, birinchi navbatda, oilalar o'z farzandlariga yaxshi ovqatlanish va jismoniy rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi muhitni yaratishlari zarur. Umuman olganda, yosh bolalar organizmi sarflagan energiyasiga nisbatan ko'proq kaloriya qabul qilsa, ortiqcha kaloriyalarni yog' sifatida saqlaydilar.

Davlat rahbarining hududlarga tashrifi mobaynida maktabgacha ta'lim sifatini oshirish, maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni maktabga sifatli tayyorlashni tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga jahon amaliyotida keng qo'llaniladigan zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini joriy etish tashabbusini ilgari surmoqda va bu borada muhim vazifalarni qo'yimoqda.

Ushbu sohani yanada rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish" konsepsiyasi ishlab chiqildi. Konsepsiya O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'limni rivojlantirishning maqsadlari, vazifalari, ustuvor yo'nalishlari, o'rta va uzoq muddatli istiqboldagi bosqichlarini belgilaydi hamda maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirishga yo'naltirilgan dasturlar va kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun asos bo'ladi.<sup>4</sup>

Bolaning faoliyati, ijtimoiylashuvi va rivojlanishida ota-onalar katta rol o'ynaydi. Bolalarning rivojlanishidagi yana bir muhim omil - bu ularga xizmat ko'rsatish sifati, bolalarning ovqatlanishi va ular bilan sog'lom turmush tarzini shakllantirish, ularning o'quv faoliyati, qobiliyatlari va ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirish uchun foydali hisoblanadi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI

Bolalarning sog'lom ovqatlanishi bo'yicha ko'plab xorijiy olimlar tomonidan tadqiqot ishi olib borilgan bo'lib, xususan: Gidding S., Dennison A., Birch L., Daniels R., Gilman W., Lichtenstein H., Rattay T., Steinberger J., Stettler N., Horn L., Alexy U., Claussen K., Kersting M., Hilbig A., Kersting M. va boshqalar<sup>5</sup> o'z asarlarida bolalar uchun foydali bo'lgan mahsulotlar turini aniqlash

<sup>1</sup> Closing the gap in a generation Health equity through action on the social determinants of health/ Commission on Social Determinants of Health Final Report

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni <https://lex.uz/docs/-5482776>

<sup>3</sup> <https://lex.uz/docs/-5482776>

<sup>4</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori, 08.05.2019 yildagi PQ-4312-son <https://lex.uz/docs/-4441105>

<sup>5</sup> Gidding SS, Dennison BA, Birch LL, Daniels SR, Gilman MW, Lichtenstein AH, Rattay KT, Steinberger J, Stettler N, van Horn L;

va ularni to'g'ri va sog'lom ovqatlanish normalari hamda shart-sharoitlari bo'yicha nazariy va amaliy tadqiqotlar olib borishgan.

### TADDIQOT METODOLOGIYASI

To'g'ri ovqatlanish uzoq umr kechirishning muhim omilidir. Buyuk ajdodlarimiz bu xususda ko'plab qimmatli ma'lumotlar qoldirgan. Tib ilmining sultoni Abu Ali ibn Sino ta'limotida bu masalaga alohida e'tibor qaratilgan. Ulug' allomaning asarlarida qayd etilishicha, salomatlikning eng muhim asosi ovqatlanish va harakatdir.

Bugungi kunda buyuk ajdodimiz o'g'itlarining ahamiyati tobora ortib bormoqda. Kam harakat, me'yorida ortiq taom iste'mol qilish, pala-partish ovqatlanish ko'plab tibbiy-ijtimoiy muammolarga sabab bo'lmoqda. Bunday muammolarning oldini olish, tibbiy-profilaktika xizmatini yanada rivojlantirish, ilm-fan izlanishlarini takomillashtirish, aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzi targ'ibotini yanada kengaytirishni taqozo etmoqda.

Mamlakatimizda ushbu sohadagi vazifalarni hayotga tatbiq etishning mustahkam tashkiliy-huquqiy mexanizmi yaratilgan<sup>6</sup>. Sog'liqni saqlash tizimining moddiy-texnik bazasi takomillashtirishga diagnostika va davolash ishlari sifatini oshirish, tibbiy-profilaktika xizmatini yangi bosqichga ko'tarishga xizmat qilmoqda. Oziq-ovqat sanoati, qishloq xo'jaligini rivojlantirish, atrof-muhit musaffoligini saqlash, xalqimizni yurtimizda yetishtirilgan ekologik sof, sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratiladi. Kelajagimiz egalari bo'lgan bolalarning jismonan va ma'nan sog'lom bo'lishlari uchun iste'mol qilayotgan mahsulotlarining tarkibi xususiyatlariga alohida e'tibor berish zarur.

Sog'lom bo'lish va sog'lom vazni saqlash uchun bolalar jismoniy faol bo'lishlari va foydalanadigan energiyani muvozanatlash uchun to'g'ri miqdorda ozuqa moddalarini iste'mol qilishlari kerak (1-jadval).

### 1-jadval

#### Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bir nafar bolani bir kunlik ovqatlantirish amaldagi sanitariya qoidalarini va me'yorlari<sup>1</sup>

	Oziq-ovqat mahsulotlari nomi	Miqdori (gramm)
1.	Non 1-navli (vitamin va minerallar bilan boyitilgan)	110
2.	Bug'doy uni 1-navli	25
3.	Mevali kisel tayyorlash uchun kraxmal	5
4.	Yormalar, makaron mahsulotlari	45
5.	jumladan, mosh	3
6.	Shakar	40
7.	Qandolat mahsulotlari (murabbo, djem, gematogen va boshq.)	10
8.	Sariyog'	20
9.	O'simlik yog'i	8
10.	Tabiiy sut	300
11.	Kefir, ogurt	200
12.	Smetana	10
13.	Tvorog	30
14.	Pishloq	8
15.	Go'sht (mol go'shti, qo'y go'shti, parranda go'shti, quyon go'shti)	100
16.	Baliq (tozalangan va muzlatilgan)	25
17.	Tuxum (dona)	0,5
18.	Kartoshka	150
19.	Sabzavotlar	200
20.	jumladan, tomat pasta	3
21.	Mevalar, meva sharbatlari, vitaminli ichimliklar	150
22.	Quruq mevalar	15
23.	Choy	0,3
24.	Kakao	2
25.	Yodlangan tuz	3
26.	Achitqilar (drojlar)	1

Mevalar va sabzavotlar, dukkaklilar va loviya donli mahsulotlar (shu jumladan non, guruch, makaron va noodle), yog'siz go'sht, baliq, parranda go'shti, sut va sut mahsulotlari, yogurtlar, pishloqlar yoki muqobillar (2 yoshgacha bo'lgan bolalarda to'liq yog'li sut bo'lishi kerak, biroq kattaroq yoshdagi bolalar va o'smirlar yog'i kam bo'lgan sut iste'mol qilishlari tavsiya etiladi).

Bolalar to'yingan yog', tuz yoki shakar qo'shilgan ovqatlarni iste'mol qilishni cheklashlari kerak. Shuningdek, ularning iste'mol

qilayotgan suv va havoning tozalik va namlik darajasiga e'tibor qaratishlari zarur. Shuningdek, ovqatlarning o'zgartirilib borilishi ham mavsumiylik xususiyatiga ham bog'liq bo'ladi. O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bolalarda tana vaznining me'yorida ortishi asosan rivojlangan mamlakatlarda kuzatilgan. MTTlarida bolalarning ovqatlanish tartibi va bolalar uchun mo'ljallangan oziq-ovqat mahsulotlarining tarkibi muhim ahamiyatga ega.

American Heart Association: Dietary recommendations for children and adolescents: a guide for practitioners. Pediatrics 2006; 117:544-559; Alexy U, Clausen K, Kersting M: Nutrition of healthy children and adolescents according to the Optimised Mixed Diet concept. Ernährungsumschau 2008;3: 169-177; Hilbig A, Kersting M: Effects of age and time on energy and macronutrient intake in German infants and young children: results of the DONALD study. J Pediatr Gastroenterol Nutr 2006;43: 518-524.

<sup>6</sup> Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 30-iyundagi "Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sog'lom ovqatlantirish tizimini takomillashtirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi 407-son qarori <https://lex.uz/docs/-5482776>

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sog'lom ovqatlantirish tizimini takomillashtirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori 2-ilovasi, <https://lex.uz/docs/-5482776#-5489548>



Dunyo bo'ylab bolalar salomatligidagi salbiy holatlarning vujudga kelishida mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy nobarqarorligi, ta'lim tizimida o'z yechimini kutayotgan ko'plab muammolarning mavjudligi, kelajak avlodning sog'lom muhitda aqliy va jismoniy rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan tabiiy resurslarning ta'minoti mavjud emasligi yoki yetarlicha emasligi asosiy sabab bo'lib kelmoqda. Bolalarning maktabgacha ta'lim muassasalarida to'g'ri ovqatlanishini nazorat qilish, muassasa ustidan monitoring

ishlarini olib borish tizimdagi ulkan muammolarning oldini olishda qo'l keladi. BMTning to'g'ri ovqatlanish bo'yicha ko'rsatgan tashabbusida bir qancha taklif va tavsiyalar keltirilgan.

## 2-jadval

**Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bir nafar bolaning ovqatlanirish me'yorlari bo'yicha mavsumiy taomnomalar tartibi va ro'yxati<sup>1</sup>**

T/r	Taomnoma	Taomlar soni	
1.	<b>1-qish fasli</b> (dekabr, yanvar, fevral)ga mo'ljallangan 10 kunlik taxminiy taomnoma	Bo'tqalar (kasha) Buterbrodlar Issiq ichimliklar 1-ovqatlar 2-ovqatlar	Garnirlar Salatlar Kompot va ichimliklar Pishiriqlar Mikronutriyentga boyitilgan taomlar
2.	<b>2-bahor fasli</b> (mart, aprel, may)ga mo'ljallangan 10 kunlik taxminiy taomnoma	Bo'tqalar (kasha) Buterbrodlar Issiq ichimliklar 1-ovqatlar 2-ovqatlar	Garnirlar Salatlar Kompot va ichimliklar Pishiriqlar Mikronutriyentga boyitilgan taomlar
3.	<b>3-yoz fasli</b> (iyun, iyul, avgust)ga mo'ljallangan 10 kunlik taxminiy taomnoma	Bo'tqalar (kasha) Buterbrodlar Issiq ichimliklar 1-ovqatlar 2-ovqatlar	Garnirlar Salatlar Kompot va ichimliklar Pishiriqlar Mikronutriyentga boyitilgan taomlar
4.	<b>4-kuz fasli</b> (sentyabr, oktyabr, noyabr)ga mo'ljallangan 10 kunlik taxminiy taomnoma	Bo'tqalar (kasha) Buterbrodlar Issiq ichimliklar 1-ovqatlar 2-ovqatlar	Garnirlar Salatlar Kompot va ichimliklar Pishiriqlar Mikronutrintga boyitilgan taomlar

Avstraliyadagi Parhezlar bo'yicha ko'rsatmalar beruvchi tashkilot bolalar uchun alohida ovqatlanish ratsionlarini e'lon qilarkan, asosan 5 turdagi oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilish zarur ekanligini takidlab o'tgan<sup>1</sup>.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining (BMT) <sup>2</sup> 2019-yilda bergan rasmiy hisobotiga ko'ra dunyo miqyosida 5 yoshgacha bo'lgan qariyb 200 million bola bo'yni o'sishi, zaiflashishi tufayli turli xil muammolarga duch kelishmoqda, 340 millioni esa vitamin va mineral yetishmasligi, yashirin ochlikdan aziyat chekmoqda. Shu bilan birga, 5 yoshgacha bo'lgan 40 million bola esa ortiqcha

vazndan qiynalmoqda. Bunday holat hattoki daromadi past bo'lgan mamlakatlarda ham kuzatilyapti.

Ushbu tavsiyalar asosan ovqatlanish ratsionidagi mavjud mahsulotlarni sigmentlashga qaratilgan. BMT tomonidan belgilangan ovqatlanish normasiga monand maktabgacha ta'lim muassasalarida quyidagi moddalarning ovqatlanish menyusiga kiritilishi taqiqlanadi (3-jadval).

## 3-jadval

**BMT tomonidan belgilangan ovqatlanish normasiga asosan iste'moli taqiqlangan mahsulotlar ro'yxati**

	Mahsulot turlari
1	Yovvoyi hayvonlarning go'shti;
2	Yaroqlilik muddati 6 oydan ortiq bo'lgan muzlatilgan go'sht va sut mahsulotlari;
3	Muzlatilgan parranda go'shti;
4	Kolbasa mahsulotlari;
5	Har xil aralashmalar bilan ifloslangan yoki ombor zararkunandalari bilan zararlangan don, un, quritilgan mevalar va boshqa mahsulotlar;
6	Maishiy ishlab chiqarish, shuningdek, uy sharoitida tayyorlangan hamda sifati xavfsizligini tasdiqlovchi hujjatlarga ega bo'magan har qanday oziq-ovqat mahsulotlari;
7	Qaymoqli qandolat mahsulotlari (pirojnoe) va kremlar;
8	Qo'ziqorinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar;
9	Gazlangan ichimliklar;
10	Xom dudlangan, yarim dudlangan, dudlangan go'sht mahsulotlari;
11	Tuzlangan baliq; (seld, qizil ikra)
12	Yog'da qovurilgan (uzoq qovurilgan) oziq-ovqat mahsulotlari va chipslar;

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sog'lom ovqatlanirish tizimini takomillashtirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori 3-ilovasi, <https://lex.uz/docs/-5482776#-5489548>

<sup>2</sup> <https://chrome-effect.ru/uz/adjustment/zdorovoe-pitanie-vernoe-reshenie-dlya-pohudeniya-i-uluchsheniya/>

<sup>2</sup> <https://www.unicef.org/media/60806/file/SOWC-2019.pdf>

13	Sirka, achchiq qalampir va boshqa issiq ziravorlar va ularni o'z ichiga olgan oziq-ovqat mahsulotlari;
14	Issiq souslar, ketchuplar, mayonez, tuzlangan sabzavotlar va mevalar va sirka bilan konservalangan boshqa mahsulotlar;
15	Kafein va qahva;
16	Yeryong'oqlar;
17	Qimiz va tarkibida etanol bo'lgan boshqa fermentlangan sut mahsulotlari (0,5% dan ortiq).
18	Karamel;
19	Sintetik va bo'yoqlarni o'z ichiga olgan mahsulotlar va boshqalar.

Bolalar bog'chasidagi menyu maktabgacha ta'lim vazirligi talablari va mahsulotlarning mavsumiy mavjudligini hisobga olgan holda tuzilgan. Bolalar bog'chasida kunlik va haftalik menyu maktabgacha ta'lim muassasasi rahbari tomonidan umumiy ovqatlanish bo'limi boshlig'i bilan birgalikda tuziladi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarga to'liq va xilma-xil ovqatlanish taklif etiladi. Bolalar bog'chasidagi taxminiy menyu o'quvchilarning yoshi, yilning vaqti va bolalar sog'ligining holatini hisobga oladi.

Aksariyat maktabgacha ta'lim muassasalarining menyusi quyidagi xususiyatlarga ega:

- Bola ovqatlanadigan idishlar standart darajada 30 kunda bir marotaba almashtirilishi lozim;
- uch yoshgacha bo'lgan chaqaloqlarning kunlik ratsioni 1540 kkal, uch yoshdan oshgan bolalar uchun - 1900;
- diyetada to'yimli nonushta, meva sharbatlari va mevalar, ikkinchi nonushta, tushlik va tushdan keyingi yengil taomlanish;
- nonushta uchun o'quvchilar kunlik ratsionning to'rttdan bir qismini olishlari kerak, taxminan 15% ikkinchi nonushta va tushdan keyin choy, ratsionning 45% bolalar tushlikda olishadi.

Rossiya Tibbiyot fanlari akademiyasining Oziqlantirish instituti maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalar ovqatlanishi standartlarini ishlab chiqdi. Ratsion har bir yosh guruhidagi bolalar uchun tuziladi. Mahsulotlar sifati SES, bolalar bog'chasi mudiri va umumiy ovqatlanish bo'limi tomonidan nazorat qilinadi. Rossiya bolalar bog'chalarida har bir kun uchun menyuda kichkintoylarning ovqatlanishiga mas'ul bo'lgan mutaxassis tomonidan to'ldiriladi.

Ovqatlanishdan oldin hamshira taomlarni bir yoshgacha bo'lgan bolalar uchun vitamin C bilan boyitilishi - 30 mg vitamin, 1-6 yoshgacha - 40 mg va 6 yoshdan oshgan bolalar uchun 50 mg bo'lishini tekshirishi kerak.

Har kuni bolalar to'rt marta ovqatlanishi darkor: ular uchun nonushta, tushlik va ikki marotaba nonushta beriladi<sup>1</sup>. Ba'zi hollarda kuniga uch marta ovqatlanish tashkil etilishi ham norma hisoblanadi, ammo bu holat kunlik ovqatlanish mutaxassisi tomonidan tuzilgan bo'lsa va kaloriyalar bo'yicha normadan chetga chiqishni ta'minlamasagina sodir bo'lishi mumkin. Bolalar ratsionida baliq go'shtidan tayyorlangan ovqatlar, tuxum, don, sut mahsulotlari, meva va sabzavotlar, xamir ovqatlar, sharbatlar va yogurtlar mavjud bo'lishi mumkin.

Ba'zi turdagi oziq-ovqatlarga allergiyasi bo'lgan bola uchun parhez ovqatlar taomnomasi ham ishlab chiqilishi zarur. Buning uchun ota-onalar o'z farzandining allergen testlari natijalarini maktabgacha ta'lim muassasasiga taqdim etishlari, so'ngra bolalar bog'chasi xodimlari bolaning qaysi ovqatlarni iste'mol qilmasligi kerakligini bilishlari uchun tarbiyachi yoki xodimlarning ovqatlanish mutaxassisiga xabar berishlari kerak. O'quvchilar uchun diyetani tuzayotganda, diyetolog allergenlarni chiqarib tashlashga harakat qiladi<sup>2</sup>.

Allergik asoratlarga duchor bo'lgan bolalarga bog'chada alohida ovqat tayyorlanishi uchun ota-onalar quyidagi omillarni hisobga olishlari kerak:

1. Maktabgacha ta'lim muassasasida ovqatning ta'mi va tarkibi har kungi ovqatlar ta'midan farq qiladigan mahsulotlardan voz kechish lozim. Chunki bola odatidan tashqaridagi

mahsulotlarni iste'mol qilishdagi adaptatsiya holatini qiyinroq o'tkazishi mumkin.

2. Bolalarga taomnomada bo'lmagan va sho'r, yog'li ovqatlar berish man etiladi.

3. Uyda kuniga 5 marta ovqatlanish tamoyiliga rioya qilish muhim, shuning uchun bolani maktabgacha ta'lim muassasasida ovqatlanish jadvaliga uning sog'ligidan kelib chiqqan holda 5 marotabalik tizimni joriy qilish uning sog'ligi uchun foydali bo'ladi.

4. Farzand uchun bolalar bog'chasida to'yib ovqatlanmaydi, degan xayolga borib, unga ikki marotaba ovqat berish uning kunlik ratsioniga salbiy ta'sir o'tkazadi. Bolalar iste'mol qiladigan porsiyalar bolaning yoshi va vazniga mos kelishi kerak, aks holda semirish yoki oshqozon-ichak trakti bilan bog'liq muammolar kelib chiqishi mumkin.

Bolalar bog'chasining bolalar guruhi 1-2 va 2-3 yoshli bolalardir. Kichkintoylar kuniga 1200 dan 1500 kkalgacha bo'lgan kaloriya bilan to'liq tizimlashgan diyetaga muhtoj. Bolalar bog'chasidagi guruhning taomnomasi 10 kun davomida tibbiyot xodimi tomonidan tuziladi.

#### XALQARO STANDARTLARGA MUVOFIQ:

Nonushta va tushlik o'rtasidagi vaqt oraliqi yangi meva va ichimlikni o'z ichiga olgan bo'lishi kerak. Agar yangi sabzavotlar bo'lmasa ular sharbatlar yoki tez muzlatilgan mevalar bilan almashtiriladi.

Agar MTTda kechki ovqat berilmaydigan rejim bo'lsa, tushdan keyin yengil tamaddi bo'lishi zarur. Bolalarning ovqatlanish jadvalida haftada bir necha marta tuxum, tvorog va baliq bolalar stolida bo'lishi kerak, kunlik ratsionida esa sariyog', go'sht, don va yangi sabzavotlar bo'lishi zarur.



1-rasm. Oziq-ovqatlarning o'rtacha kilokaloriyasi

Dunyoning ko'plab mamlakatlarida bolalar bog'chalarida to'rt mahal ovqatlanish majburiydir. Bu bolaning haddan tashqari ko'p ovqatlanishini anglatmaydi. Aksincha bolaning kun davomida oz-ozdan davomiy ovqatlanishini anglatadi. Aksariyat MTTda "Ikkinchi nonushta" tushunchasi mavjud. Bu tushunchani amaliyotga tadbiiq etish uchun ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Ikkinchi nonushtaga yetishish uchun bolaga birinchi nonushta (asosiy) va tushlik oraliq'ida olma yoki banan berilishi zarur. Ushbu nonushta tizimining maqsadi bolalarni kun davomida yetarli kilokaloriya bilan ta'minlashdir;

<sup>1</sup> <https://newkitty.ru/uz/feeding-of-children-in-kindergartens-menu-in-the-kindergarten-what-should-be-the-food-in-the-kindergarten/>

<sup>2</sup> <https://minikar.ru/uz/its-interesting/kak-vesti-pitanie-v-sadike-organizatsiya-pitaniya-detei-v-dou-kak/>

- 1,5 yoshdan 3 yoshgacha bo'lgan bolalar - 1540 kkal;
- 4 yoshdan 6 yoshgacha bo'lgan bolalar - 1900 kkal.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ratsionida bo'lishi kerak bo'lgan mahsulotlar ro'yxatiga kelsak,<sup>3</sup> u bugunga kelib bir qancha o'zgarishlar bilan kengaytirildi. Buni quyidagi jadvalda ko'rishingiz mumkin.

Amerika Qo'shma Shtatlarining maktabgacha ta'lim vazirligi qoshidagi maktabgacha ta'lim muassasasi rahbari Patricia Jane Lucas bolalarning ovqatlanish ratsioni bo'yicha olib borgan tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, 2 yoki 3 yoshdan boshlab maktabgacha ta'lim muassasasida ta'lim olayotgan bolalar to'liq sog'lom bo'lishlari uchun quyidagi taom piramidasi tuzib chiqildi<sup>4</sup>(2-rasmda ko'rishingiz mumkin).


Ushbu piramidada mavjud mahsulotlar bolaning kunlik ovqatlanish ratsioni bo'lib, u har kuni belgilangan vaqtda, ko'rsatmalarga asosan iste'mol qilinishi lozim.

1. Ko'p shakar va tuzli ovqatlardan voz kechish kerak. 5 yoshgacha bo'lgan bolalar shakar yoki tuz qo'shilgan ovqat iste'mol qilmasliklari kerak. Bu ulardagi rivojlanish siklini yomonlashtiradi.

2. Yog'li mahsulotlarni iste'mol qilishni kamaytirish organizmni kun bo'yi tetik tutishga yordam beradi.

3. Yog'li baliqlarni bolalarning haftalik ovqatlanish ratsioniga kiriting. Bolalarga protein bilan to'ldirilgan diyetaning bir qismi sifatida haftada bir yoki ikki marta yog'li baliq iste'mol qilishga majbur qiling. Bu diyetada tuxum, loviya, baliq, parranda go'shti va go'sht mahsulotlari ham bo'lishi kerak. Biroq, ular iste'mol qiladigan tuzlangan sho'r ta'mli go'sht miqdorini cheklashni unutmang.

4. Yog'li sut va sut mahsulotlari bolajonlarning tishlari uchun juda foydali hisoblanadi. Bolalar yog'li sut, yogurt va pishloq kabi sut mahsulotlarini muntazam iste'mol qilishlari kerak



2-rasm. Bolalarning kunlik iste'molida belgilangan mahsulotlar normasi

5-jadval

Bolalarning yillik iste'moli uchun belgilangan mahsulot normasi

Kaloriya/iste'mol mahsuloti	1 yil	2 va 3 yoshlilar uchun	Tushuncha
<b>Kunlik kilokaloriya</b>	900 kk	1000 kk	Kaloriya hisob-kitoblari harakatsiz turmush tarziga asoslanadi. Jismoniy faollikni oshirish qo'shimcha kaloriyalarni talab qiladi: agar bola o'rtacha jismoniy faol bo'lsa, u kuniga 0 dan – 200 gacha kilokaloriya talab etadi, agar jismoniy faolligi yuqori bo'lsa, 200-400 kkal / kun davomida uning talabi hisoblanadi.
<b>Yog'li mahsulotlar</b>	30-40%	35-40%	
<b>kunlik sut hajmi</b>	2 stakan	2 stakan	Ro'yxatda keltirilgan sut yog'siz (2 yoshgacha bo'lgan bolalar bundan mustasno). Agar 1%, 2% yoki to'liq yog'li sut almashtirilsa, bu har bir stakan uchun 19, 39 yoki 63 kilokaloriya ixtiyoriy kaloriyalardan foydalanadi va 2,6, 5,1 yoki 9,0 gramm jami yog' qo'shiladi, shundan 1,3, 2,6 yoki 4,6 gramm to'yingan yog'dir. 1 yoshli bolalar uchun hisob-kitoblar 2% yog'li sutga asoslangan.

6-jadval

Maktabgacha ta'lim muassasasida bolalar tomonidan rioya qilinishi zarur bo'lgan gigiyenik qoidalar


<sup>3</sup> <https://minikar.ru/uz/its-interesting/kakim-dolzno-byt-pitanie-v-detskom-sadu-organizatsiya-pitaniya-detei-v/>

<sup>4</sup> <https://Preschool and School Meal Policies an Overview of>

Yosh guruhi	Ovqatlanish gigiyenasi va madaniy ko'nikmalari
<b>Erta yosh guruhi (1-3 yosh)</b>	Kichkintoylar stulga o'tirish, ichimlik to'kilmaligi uchun stakanni ehtiyotkorlik bilan ishlatish, o'zlarini maxsus sochiq bilan artish, qoshiqdan foydalanish, o'zlari ovqat yeyish va non bilan ushlashga o'rgatiladi.
<b>2 yoshdan 3 yoshgacha</b>	Bolalar kattalar yordamida ovqatdan oldin yuvinishlari va o'ynashdan keyin shaxsiy sochiqni ishlatishlari kerak (o'qituvchi og'zini chayish kerakligini eslatgan holda). Madaniyat bilan va tozalikka rioya qilgan holda ovqatlanishni, ovqatni sekin va ehtiyotkorlik bilan chaynashni o'rganishi, salfetkadan foydalanishi va o'ng qo'lida qoshiq ushlashni o'rganishi zarur. Madaniy xulq-atvor qoidalaridan foydalanib, ovqatdan keyin "rahmat" aytishni unutmataligi, qolganlar ovqatlanmaguncha dasturxonni tark etmasligi asosiy qoidalardan hisoblanadi.
<b>3 yoshdan 4 yoshgacha</b>	O'quvchilar ovqatlanishdan oldin mustaqil ravishda yuz va qo'llarini yaxshilab yuvishlari, ro'molchadan foydalanishlari, sochiqni to'g'ri va belgilangan joyga eslatmasiz osib qo'yishlari kerak. Ehtiyotkorlik bilan ovqatlanish: ovqatni og'iz yopiq holda chaynash, suv yoki ovqatni to'kib tashlamaslik. Pichoq va salfetkalardan to'g'ri foydalanish. Bolalar asta-sekin navbatchilik madaniyati bilan tanishishlari, enagalarga stakan, non qutilari, qoshiq va salfetkalarni tartibga solishda yordam berishlari muhimdir.
<b>4 yoshdan 5 yoshgacha</b>	Toza ovqatlanish odatlarining rivojlantirilishi: jim ovqatlanish, har bir luqmani yaxshilab chaynash, ovqatlanayotganda gapirmaslik, ovqatni mayda yoki bo'laklarga bo'lib astalik bilan iste'mol qilish. Pichoqni ishlatish ko'nikmalarini rivojlantirish (qoshiq va vilkalar bilan bir qatorda, bolalar stol pichoqlarini qanday ishlatishni bilishlari kerak). Ovqatdan keyin og'izni chayishni unutmatalik.
<b>5 yoshdan 6 yoshgacha</b>	Bolalar stolda to'g'ri turishlari, jim va to'g'ri ovqatlanishlari, vilkalar, pichoqlarni ishlatish qoidalarini yaxshi bilishlari kerak. Bu davrda madaniy xulq-atvor ko'nikmalariga kirish mavjud: bolalar o'z sardorlariga minnatdorchilik bildirishlari ularda madaniyat shakllanishiga sabab bo'ladi.
<b>6 yoshdan 7 yoshgacha</b>	Maktabgacha yoshdagi bolalar vilkalar, pichoq va salfetkadan to'g'ri foydalanishlari, madaniy xatti-harakatlar qoidalarini tuzatishlari kerak: ovqatni jimgina chaynash, ehtiyotkorlik bilan ichish, tirsagini stolga qo'ymaslik, to'g'ri o'tirish, tushlik paytida gapirmaslik.

Ishtahasi pasaygan bolalarga alohida e'tibor beriladi: yoshga bog'liq bo'lgan porsiya o'lchamlari saqlanib qolgan bo'lsa-da, ular porsiyadagi barcha taomlarni oxirigacha yeyishga majburlanmaydilar.

Ovqatlanish vaqti ularni ertaklar yoki o'yinchoqlar bilan qiziqtirmaslik, bolaga meva sharbati, suv taklif qilish yoki birinchi navbatda to'yimli ikkinchi taomni, keyin esa boshqa mahsulotlarni iste'mol qilish maqbuldir.



7-rasm. Bolalarni to'g'ri ovqatlantirish bo'yicha ota-onalar o'rtasidagi so'rov natijasi

Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan MTT uchun taqdim etilgan ushbu iste'mol normasi asosan bolalarning kunlik ovqatlanish ratsioniga urg'u bergan. Ushbu standartda keltirilishicha, bolalar sog'lom va kuchli bo'lishlari uchun ovqatlanish ratsionida asosiy mahsulotlar sifatida mol go'shti, parranda go'shti va sabzavotlar mavjud bo'lishi shart. Bu turdagi mahsulotlarda oqsil, kalsiy va kaliy kabi vitaminlar boshqa mahsulotlarga qaraganda yuqori darajadali sababli markaziy o'rindagi mahsulotlar safidan joy egallagan. Mazkur mahsulotlardan ajralib chiqadigan kilokaloriyal bolalarning aqliy va jismoniy rivojlanishiga ijobiy ta'sir qiladi.


#### TADQIQOT NATIJALARI

So'rovnoma jarayonida MTTlarda mavjud holat o'rganildi va tadqiqot mavzusi doirasida savollar orqali jami 60 nafar pedagog va ota-onalardan iborat tadqiqot ishtirokchilarining bolalarning to'g'ri ovqatlanishi va sog'lom turmush tarzi haqidagi fikrlari o'rganildi. So'rovnomaning dastlabki savoli "Farzandingiz boradigan MTTda to'g'ri ovqatlanishi va sport bilan shug'ullanishi uchun qulay shart- sharoitlar yaratilganmi?"

Ushbu savolga ishtirokchilar uchta kriteriya bo'yicha javob berdilar. Bunda "ha, albatta" javobi 34 %, "qoniqarsiz" javobi 45%

va "xabarim yo'q" javobi 21 % ko'rsatkichni qayd etgan. Javoblar kesimini quyidagi jadval orqali yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Yuqoridagi so'rovnomada 83% ota-onalar farzandlarining to'g'ri ovqatlanish va sport bilan shug'ullanishi uchun yaratilgan imkoniyatlardan mamnun. 8%i esa qoniqarsiz deb baholashgan. Shu bilan birga, farzandlariga befarq bo'lgan ota-onalar 9% ni tashkil etdi. Bu esa albatta yuqori ko'rsatkich sanaladi.



8-rasm. Bolalarning aqliy rivojlanishiga bo'lgan ta'sirga nisbatan keltirilgan javoblar

Bolalar ovqatlanish jarayonida ular foydali bo'lgan mahsulotlardan tashqari sun'iy qiymatga ega bo'lgan mahsulotlar ya'ni tarkibida yog', zaharli kimyoviy moddalar, rangli bo'yoqlar va notabiiy xushbo'ylashtirgichlar bo'lgan og'ir hazm bo'luvchi ovqatlarni iste'mol qilishlari qay darajada mumkin deb o'ylaysiz? Javoblar "u darajada zararli deb o'ylamayman" variantini tanlaganlar 30% ni, "zararli ekanligini bilaman, lekin o'zi buni xohlasa inkor etolmayman" 22% ni, "yo'q bu zararli, bermayman!" javobi esa 48% ni tashkil etadi. Javoblar ko'lamini quyidagi jadvalda ko'rib chiqishimiz mumkin.

Ushbu metod orqali jami 60 nafar ishtirokchi bilan 700 daqiqalik suhbat o'tkazilgan. Tadqiqot jarayonida bolalarning rivojlanishi uchun zarur bo'lgan ovqatlanish ratsionini yaratishda qanday tavsiyalarga amal qilish kerakligini suhbat jarayonida mutaxassislardan olingan ma'lumotlar orqali yoritib berilgan. Demak, ishtirokchilar bilan quyidagi savollar orqali suhbat o'tkazildi.

#### 1-jadval

4-6 yoshli bolalarning kunlik iste'moli uchun sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilangan iste'mol normasi



Mahsulot turi	O'lchov birligi (gram)
Sut, fermentlangan mahsulotlari	300
Tvorog	30
Smetana	20
Pishloq	8
Mol go'shti	100
Parranda go'shti (tovuq, kurka)	100
Baliq	25
Tuxum (dona)	0,5
Kartoshka	150
Sabzavot va mevalar	200

Aksariyat javob beruvchilar bolalarning to'g'ri rivojlanishida kerak bo'lgan oqsil va minerallardan foydalangan holda ratsion tuzish to'g'ri ovqatlanish tizimini shakllantirishda asos bo'lib xizmat qiladi. 4-6 yoshdagi bolalar juda ko'p harakat qilishadi, shuning uchun ularning energiyalari ancha kamayadi, shu o'rinda biz ularga vitamininga boy bo'lgan mahsulotlardan oziq-ovqatlar tayyorlanishini ta'minlashimiz kerak.

Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan MTT uchun taqdim etilgan ushbu iste'mol normasi asosan bolalarning kunlik ovqatlanish ratsioniga urg'u bergan. Ushbu standartda keltirilishicha, bolalar sog'lom va kuchli bo'lishlari uchun ovqatlanish ratsionida asosiy mahsulotlar sifatida mol go'shti, parranda go'shti va sabzavotlar mavjud bo'lishi shart. Bu turdagi mahsulotlarda oqsil, kalsiy va kaliy kabi vitaminlar boshqa mahsulotlarga qaraganda yuqori darajadagi sababli markaziy o'rindagi mahsulotlar safidan joy egallagan. Mazkur mahsulotlardan ajralib chiqadigan kilokaloriyalar bolalarning aqliy va jismoniy rivojlanishiga ijobiy ta'sir qiladi.

Bolalar uchun foydali bo'lgan, tana vaznining ortib ketishiga sabab bo'lmaydigan ovqatlanish ratsionini maktabgacha yoshdagi bolalar uchun juda muhim hisoblanadi. Bu nafaqat o'sish uchun kerak bo'lgan ozuqa moddalarini ko'rsatadi, balki bolalarning kun davomida tetik yaxshi kayfiyatda yurishini ta'minlaydi. Bolaning to'liq rivojlanishi uchun uning ovqatlanishi muvozanati to'g'ri bo'lishi kerak, degan javob MTT tashkilotlarida faoliyat yurituvchi oshpazlar tomonidan aytib o'tilgan.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining va ota-onalarning bergan ma'lumotlariga tayanadigan bo'lsak, ular quyidagi fikrlarni bildirib o'tishgan. Muhim bo'lgan talablar quyidagilardan iborat:

4 yoshgacha bo'lgan bola uchun oziq-ovqat kaloriyasi 5,700 kkal.

Kunlik kaloriya tarkibi, shu tarzda oziq-ovqat mahsulotlariga tarqatiladi: nonushta va kechki ovqat uchun 25 % kaloriya, tushlik uchun 40 % kaloriya va tushdan keyin atigi 10 % kaloriya yetarli hisoblanadi. Yog'lar har qanday shaklda ham zararli hisoblanadi.

Shu savol to'g'ri deb o'ylaysizmi?

Keng tarqalgan bunday fikrlarga qaramasdan, tarkibida yog'lar yuqori bo'lgan oziq-ovqatlarni iste'mol qilish qomatga salbiy ta'sir qilmasligi ham mumkin. O'simlik yog'lariga boy bo'lgan avokado, yong'oqlar va zaytun yog'ining kam miqdori organizm uchun foydali va metabolizmni tezlashtirgani uchun hatto ozishga ham yordam berishi mumkin, bunday mahsulotlarni bolalarning haftalik ovqat ratsionlariga katta bo'lmagan miqdorda qo'shish foydadan xoli emas.

Shu o'rinda bolalar shifokori ya'ni pediatri bilan bo'lgan suhbatda bolalar uchun mumkin bo'lmagan moddalar haqida aytib o'tilgan.

Uglevodlar: tanani energiya bilan ta'minlaydi. Tez uglevodlar bilan to'yinganlik (qandolat mahsulotlari, shirinliklar, kartoshka va makkajo'xori, oq non) semirib ketishga, immunitetning pasayishiga va charchoqning oshishiga olib keladi.

Yog'lar: bolaning tanasini muhim yog'li kislotalar bilan ta'minlaydi, yog'da eriydigan A, E va D vitaminlari manbai bo'lib,

bolaning immuniteti va o'sishiga javobgardir. Krem, sariyog', o'simlik yog'i, baliq tarkibida.

Kalsiy: suyaklarning o'sishiga, shakllanishiga ta'sir qiladi, yurak urish tezligini normallashtiradi, qon ivishini ta'minlaydi va hokazo. Sut, go'sht, baliq, tuxum, dukkakli ekinlar, boyitilgan ovqatlar, nonushta donlari, soya mahsulotlari, brokkoli, kungaboqar urug'lari, bodom va boshqalarda uchraydi.

Temir: aqliy rivojlanish va qon hosil bo'lishida muhim rol o'ynaydi. Temir moddasi asosan go'sht va dengiz mahsulotlarida uchraydi. Boshqa temir modda saqlovchi mahsulotlarga ismaloq, baklagiller, quritilgan mevalar, yashil bargli sabzavotlar, lavlagi, urug'lar va boshqalar misol bo'la oladi.

Oziq moddalar miqdorini grammda hisoblash shart emas. 1: 1: 4 nisbatida oqsillar va uglevodlar va yog'larning nisbatiga rioya qilish va bolaning ratsionida go'sht, sut mahsulotlari, tuxum, donli mahsulotlar, sabzavotlar, mevalar va yog'lar doimo mavjudligiga ishonch hosil qilish kifoya.

Bolalar uchun kun davomida o'z-o'zdan tez-tez, ya'ni 4-5 marta tamaddi qilish tavsiya etiladi.

Shifokorlarning ta'kidlashicha, ota-onalar farzandlari bilan ovqatlanishlari kerak. Ovqatlanishning eng oliy namunasini ular ota-onalaridan o'rganadilar. Ko'pincha biz jismoniy jihatdan ota-onamizga o'xshab qolamiz, chunki bizda qoida mavjud emas, balki bolalimizdan ma'lum ovqatlanish odatlari oilamizga singdirilgan. Agar siz to'g'ri va sog'lom ovqatlansangiz, demak, sizning farzandlaringiz ham "sizning izingizdan boradi".

Bolalarni majburan ular iste'mol qilishni xohlamaydigan mahsulotlarni yeyishga undash ularning ovqatlanishga bo'lgan ishtiyoklari tushib ketishiga sabab bo'ladi. Bu holat bolalarda barcha foydali bo'lgan mahsulot ta'msiz, degan xulosani keltirib chiqaradi.

Esda tutish kerakki, siz bolalarni sog'lom ovqat bilan birga ularning har tomonlama rivojlanishini ta'minlaysiz, immunitetini mustahkamlaysiz, kasalliklardan himoya qilasiz va umuman hayot sifatini yaxshilaysiz. Demak, mutaxassislardan olingan tavsiyalar tadqiqotimizning eng asosiy qismi bo'ldi, deyishimiz mumkin.

Uglevodlar tanada bir xil darajada muhim rol o'ynaydi, chunki ular asosiy energiya manbai hisoblanadi. Tanani uglevodlar bilan to'ydirish uchun sabzavot, meva, dukkakli mevalarni iste'mol qilish kerak. Agar uglevodlar yetarli bo'lmasa, tana oqsillarni energiya ehtiyojlari uchun ishlatishi mumkin, bu esa organizm uchun stressli vaziyatni yuzaga keltirishi va oqsil yetishmasligiga olib keladi. O'z navbatida, uglevodlarning ortiqcha bo'lishi semirib ketishga, meteorizmga, gipovitaminozga, tanadagi suvning tutilishiga olib kelishi mumkin.

## TADQIQOT MUHOKAMASI

MTTlarda bolalarga beriladigan ovqatlar tarkibidagi muhim bo'lgan moddalar kunlik hajmining me'yordan kam ekanligi. Bolalarning ovqatlanish jarayonlarini tashkil etishda yosh xususiyatlari inobatga olinmasligi. Ba'zi bir muassasalarda taomlar sifatining talab darajasida emasligi va ota-onalarning bunga befarqligi. Bolalarning ovqatlanishga bo'lgan qiziqishlarini psixologik qo'llab-quvvatlamaslik hamda ovqatlanishga to'liq jalb qilmaslik holatlari mavjud<sup>1</sup>.

Tadqiqotning asosiy maqsadi bolalar uchun ovqatlanish jarayonida yaratilgan sharoitlarni o'rganish va foydali bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlarini aniqlashtirish edi. Tadqiqot jarayonida belgilangan natijalarga erishildi va bir qator xulosalarga kelindi. Xususan, bolalarning to'g'ri rivojlanishiga zarur bo'lgan moddalar va sharoitlar MTTda tashkil etilgan va bolalar ovqat bilan birga ularning o'sishi va rivojlanishi uchun zarur bo'lgan vitaminlar bilan ta'minlanmoqda.

Ovqatlanish jarayonida sanitariya va gigiyena<sup>2</sup> talablariga to'liq rioya etilishi kuzatildi va shu o'rinda ota-onalar uchun ham zarur tavsiyalar berildi.

Jumladan:

- meva va sabzavotlarni yuvish;
- mahsulotning yaroqlilik muddatiga e'tibor berish;
- faqat qaynatilgan suv ichish;

<sup>1</sup> <https://newkitty.ru/uz/feeding-of-children-in-kindergartens-menu-in-the-kindergarten-what-should-be-the-food-in-the-kindergarten/>

<sup>2</sup> <https://newkitty.ru/uz/feeding-of-children-in-kindergartens-menu-in-the-kindergarten-what-should-be-the-food-in-the-kindergarten/>



- qo'llarini yaxshilab yuvish;
- ovqatni qo'llar bilan yemaslik;
- oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilishda tez-tez ishlatiladigan buyumlarni (pichoq, sanchiqi va hokazo) dezinfeksiyalab turish;
- chiqindilarni oshxonadan o'z vaqtida chiqarib turish;
- ovqatlanayotganda shoshilmaslik;
- ovqatni yaxshilab chaynash;
- ovqat paytida suyuqlik ichmaslik;
- ovqatni avval suyuqroq taomlardan boshlab, yakunida quyuqroq taomlar bilan tugatish;
- har kuni bir xil vaqtda ovqatlanish.

Taomlar bilan birga organizmga tushadigan darmondorilar, ma'danli tuzlar va suv ham kam ahamiyatga ega emas. Ular organizmda kechadigan turli-tuman kimyoviy reaksiyalarning bajarilishi uchun sharoit yaratib bersa, ba'zilar ushbu jarayonda to'g'ridan-to'g'ri ishtirok etadi. Suv, ma'danli tuz va darmondorilar organizm tomonidan to'liq o'zgartirilmagan holda o'zlashtiriladi. Ovqatlar tarkibidagi oqsil, yog' va uglevodlar esa organizm tomonidan to'g'ridan-to'g'ri o'zlashtirilmaydi.

Birinchidan, bu moddalar ovqat hazmi tizimi devorlaridan o'tolmaydigan yirik-yirik molekullardan tashkil topgan. Bu yerda asosiy masala shundan iboratki, ularning hammasi organizm uchun begona va har organizmda ularga qarshi himoya moddalari ishlab chiqiladi. Asosiy to'yimli moddalar organizmning ichki muhitiga tushishidan oldin hazm bo'ladi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, 2 yoshdan 17 yoshgacha bo'lgan bolalarning 26 foizi ortiqcha vaznli yoki semirish kasalligiga chalingan. Xuddi shunday, Qo'shma Shtatlarda yaqinda o'tkazilgan tadqiqot shuni ko'rsatdiki, 2 yoshgacha bo'lgan chaqaloqlar va yosh bolalarning 9,5 foizi yuqori BMIga ega va 10,4 foiz. 2 yoshdan 5 yoshgacha bo'lgan yosh bolalarda yuqori BMI mavjud. Qo'shma Shtatlardagi bolalarning yuqori BMIga oid bu ma'lumotlar so'nggi 10 yil ichida deyarli barqaror bo'lib qolmoqda. Kanadalik va amerikalik yoshlar o'rtasida tadqiqotlar olib borilganda, ortiqcha vazn, semizlik va semirish ko'rsatkichlari sezilarli darajada farq qilmadi. 2017-yilda 2 yoshdan 12 yoshgacha bo'lgan avstraliyalik bolalarning 22 foizi semirib ketganligi aniqlangan.

Buyuk Britaniyada 1995-yildan 2006-yilgacha 2 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan bolalarda semizlik bilan kasallanishning umumiy o'sishi 11% ni tashkil etdi. 2005-yildan 2006-yilgacha Buyuk Britaniyada umumiy o'sishga qaramay, 2 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan qizlarda semirish 18% dan 15% gacha kamaydi va o'sha yoshdagi o'g'il bolalarda esa semirish sezilarli darajada kamaymagan. Ushbu statistik ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, ko'plab rivojlangan mamlakatlar shunga o'xshash statistik ma'lumotlarni namoyish etadilar va shuning uchun bu tadqiqot Kanadada o'tkazilgan bo'lsa-da, muammo Kanada aholisi bilan chegaralanmagan ko'rinadi.

Yurak-qon tomir kasalliklariga hissa qo'shadigan yuqori darajadagi xolesterin, yuqori qon bosimi va g'ayritabii glyukoza bardoshlik, jumladan, bolalik davridagi semirishning salomatlik bilan bog'liq oqibatlar mavjud boshqa fiziologik xavflarga astma, jigar steatozi, uyqu apnesi va 2-toifa diabet (CDC) kiradi. Sog'liqni saqlash tizimida bolalik davridagi semirishning moliyaviy yukini aniqlash qiyin, chunki ko'p hollarda sog'liq muammolari balog'atga yetgunga qadar tashvishlantirmaydi. Har yili semirib ketgan kattalar normal vaznli tengdoshlariga qaraganda taxminan 1,429 dollar ko'proq tibbiy xarajatlarga duch keladilar.

#### XULOSA VA TAKLIFLAR

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni ovqatlantirishda biroz murakkabliklar mavjud bo'lib, bu yoshdagi bolalar o'ynoqi va ovqatlanish ko'nikmalari to'liq shakllanmagan bo'ladi. Bu tarbiyachilarning bolalarning ovqatlanish normalari va tartibini muntazam nazoratga olishini taqozo etadi. Shuningdek, bolaning ovqatlanishida vaqt me'yorlariga qat'iy amal qilish zarur hisoblanadi.

#### Tadqiqot natijasiga ko'ra yuqoridagi muammolarni bartaraf etish yuzasidan quyidagi takliflar va tavsiyalar berildi:

- MTTlarida toza va sifatli mahsulotlar, toza ichimlik suvlari hamda ovqatlarni saqlash uchun zaruriy texnika va jihozlar bilan ta'minlash zarur;
- bolalarning ovqatlanishini yaxshilash yo'lidagi ko'plab to'siqlar va qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun muvofiqshartirish va hamkorlikni kuchaytirish;
- yosh bolalar uchun ovqatlanish natijalarini yaxshilashga qaratilgan siyosiy qarashlar, byudjet va xizmatlarda uyg'unlik hamda sinerjiyani mustahkamlash;
- yosh bolalarning ovqatlanish sifatini yaxshilash uchun salomatlik, ovqatlanish va tozalash xizmatlarini bog'lash imkoniyatlarini optimallashtirish uchun sog'liqni saqlash tizimida sinerjiya yaratish;
- bolalarga keltirilgan tabiiy resurslarni kerakli kilokaloriyada iste'molga tayyorlash uchun alohida maslahatchi mutaxassis tayinlash;
- maktabgacha yoshdagi bolalarni sog'lom o'sishida yosh xususiyati va fiziologik holatini hisobga olib, aqliy va jismoniy mashqlarni yo'lga qo'yish;
- maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyalanuvchilarning fiziologik yoshiga muvofiq oziq-ovqat mahsulotlariga qo'yiladigan talablar hamda ularni ratsional kunlik ovqatlantirish me'yorlari belgilanganligidan kelib chiqib, salohiyatli tadbirkorlik sub'yektlari bilan hamkorlik aloqalarini tashkil etish zarur;
- xorij tajribasidan kelib chiqib, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida outsorsing usulida sog'lom ovqatlantirishni tashkil etish bo'yicha tizimli va bosqichma-bosqich ishlarni amalga oshirish.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori, 2019., 13 may, PQ 4.
2. Kail, Robert V (2011). Bolalar va ularning rivojlanishi (6-nashr) (Mydevelopmentlab seriyasi). Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall. ISBN 978-0-205-03494-9. OCLC 727047867.
3. "Chaqaloqlar va bolalarning jismoniy o'sishi - bolalar salomatligi muammolari". Merck Manuals Consumer Version. Olingan 2020-11-14.
4. Inomova M. «Oilada bolalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi». -T.: TDPU.1999.
5. Koveshnikov V.G., Nikityuk B.A. "Tibbiy antropologiya" Kiyev "Zdarovye", 1992.
6. Kuzin V.V., Nikityuk B.A. "Integrativ bioijtimoiy antropologiya". M., "Jismoniy tarbiya, ma'lumot va fan" 1996.
7. Libbert E. "Umumiy biologiya asoslari". M., "Mir", 1982.
8. Moxnach N.N. Valeologiya. M.Feniks, 2004.
9. "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'limga qo'yilgan Davlat talablari". T., O'z PFITI, Tuzuvchilar Rasulova.M, Abduraxmonova.X 2000 y.
10. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'limga qo'yilgan Davlat talablari. T., O'z PFITI, Tuzuvchilar Rasulova.M, Abduraxmonova.X 2000 y.
11. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi". «Ma'rifat» gazetasi. T., 1997 yil 1 oktyabr O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
12. <https://blogs.ucl.ac.uk/ioe/2018/03/26/which-modern-management-techniques-work-best-for-schools/>.
13. <https://uz.warbletoncouncil.org/administracion-moderna-770>.

15. <https://www.litres.ru/richard-koh/princip-80-20-11305516/chitat-onlayn/>.
16. <https://koreajob.ru/uz/kakie-byvayut-pokazateli-effektivnosti-cto-takoe-kpi-sistema/>
17. <https://t.me/c/1767486389/43>.
18. Lewin, K. (1948, 1951). (Reprinted 1997) Resolving social conflicts & field theory in social science. Washington, DC: American Psychological Association.



## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTINING KATTA YOSH GURUHIDA BOLALARNING IJODIY FAOLIYATINI LOYIHALASHTIRISH

Umarova Mufazzalxon

Qo'qon universiteti Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabasi

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATSIYA
<p><b>Qabul qilindi:</b> 24-may 2022-yil <b>Tasdiqlandi:</b> 26-may 2022-yil <b>Jurnal soni:</b> 4 <b>Maqola raqami:</b> 13 <b>DOI:</b> <a href="https://doi.org/10.54613/001228">https://doi.org/10.54613/001228</a></p> <p><b>KALIT SO'ZLAR</b> Maktabgacha ta'lim, STEAM, ijodiy fikrlash, statistika, "Ilk qadam", ijodiy tasavvur, estetik loyihalash.</p>	<p>Maqolada maktabgacha katta yoshdagi bolalarda ijodiy faoliyatni loyihalashtirishning pedagogik asoslari, psixologik xususiyatlari, ahamiyati, "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim tashkiloti davlat o'quv dasturining mazmun-mohiyati hamda xorijiy olimlarning ilmiy tadqiqot ishlari o'rganib chiqilgan. Shuningdek, bolalar ijodiy faoliyatini loyihalashtirishda qo'llaniladigan metodlar tahlil etilib, loyihalashtirish imkoniyatlari bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.</p>

### KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 30-sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvi tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni<sup>1</sup> hamda "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, sohada yangi tizim yaratildi. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida.<sup>2</sup>

• Maktabgacha ta'limda fanlarni rivojlantiruvchi muhitning innovatsion texnologiyalari va modullarini ishlab chiqish, maktabgacha va umumiy boshlang'ich ta'lim izchilligining mazmun va protsessual komponentlarini optimallashtirish.

• Bolalarni sog'lom turmush tarzini yuritishga o'rgatish, gimnastika va faol o'yinlar bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazish orqali tarbiyalanuvchilarda jismoniy tarbiya mashg'ulotlari va sportga qiziqish uyg'otish, o'sib kelayotgan yosh avlodni jismonan sog'lom etib tarbiyalash;

• Maktabgacha yoshdagi bolalarning badiiy estetik va musiqiy tarbiya hamda ta'lim darajasini oshirish, erta yoshdan boshlab STEAM o'qitish asoslarini joriy etish, bolaning kelgusida o'zini o'zi muvaffaqiyatli namoyon qilishi uchun asos sifatida ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarni rivojlantirish dolzarb masalalar etib belgilangan.

Zero, inson hayotidagi tasavvur va bilimlarning katta asosi bolalikda olingan bilimlar, xotira ma'lumotlariga to'g'ri keladi. Bola ruhiyati va intellektining rivojlanishida bolalikdagi ijtimoiy muhit katta ahamiyatga egadir. Ta'lim olish inson hayotining eng muhim ajralmas qismlaridan biri bo'lib, 5-6 yoshli bolalarning o'zlashtirish qobiliyati juda yaxshi rivojlangan bo'ladi.

Maktabgacha ta'lim vazirligi oldiga maktabgacha ta'lim sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlari davlat va nodavlat tarmog'ini kengaytirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, maktabgacha ta'lim tashkilotlariga bolalarni qamrab olishni keskin oshirish, ta'lim-tarbiya jarayonlariga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish orqali bolalarni har tomonlama intellektual, ma'naviy-estetik, jismoniy rivojlantirish hamda ularni maktabga tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash vazifalari qo'yildi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlash tushunchasi va mohiyatini o'rganish o'tgan asrning 20-yillariga borib taqalib, AQSHda vujudga kelgan. Amerikalik faylasuf, psixolog va pedagog Jon Dyui birinchi bo'lib

o'z shogirdlari bilan ishlab chiqilgan loyihalarni ta'lim jarayoniga kiritdi.

Jahon maktabgacha ta'lim tizimida ijodiy faoliyatni rivojlantirish namunalari vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarni yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega bo'lgan shaxs qilib tarbiyalashga doir samarali ta'lim texnologiyalariga asoslangan ta'lim dasturlarini takomillashtirishga bo'lgan ehtiyoj yanada kuchaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda tasviriy san'at namunalardan foydalangan holda maktabgacha ta'lim bo'yicha samarali o'quv rejasi va o'qitish strategiyalarini ishlab chiqish, aqliy, ma'naviy-axloqiy tarbiyani ijodiy faoliyat namunalari orqali singdirish, koreys, yapon tasviriy faoliyatidan foydalanish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu sohada zamonaviy talablarga javob beradigan ilg'or pedagogik usul va uslublarni ishlab chiqish, o'quv va o'quv-metodik adabiyotlarning yangi avlodini yaratish va nashr etish ham g'oyat dolzarb vazifadir.

MTT tarbiyasini olgan bola bilan MTTga bormagan bolalarning fikrlash darajasi o'rtasida yer bilan osmoncha farq borligini sezish qiyin emas. Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, yangi MTTlar qurish bo'yicha davlat dasturi qabul qilinib, ijrosi ta'minlanmoqda. Rivojlangan davlatlar tajribasi hisobga olinib, nodavlat ta'lim tashkilotlari, jumladan, nodavlat MTT tarmog'ini kengaytirishga ham katta ahamiyat qaratilmoqda. Bu esa tizimda sog'lom raqobatni shakllantirish hamda ta'lim xizmatlari turini ko'paytirishga xizmat qiladi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI

S.Rayt fikriga ko'ra, tasviriy san'at bolalarning ijodkorlik faoliyati, verbal va nonverbal nutqini rivojlantirishga yordam beradi.<sup>3</sup> Rus psixologi L.S.Vigotskiyning "Tarixiy madaniy konsepsiya"si asosida bolalarning psixik rivojlanishida ikkita asosiy taraqqiyot zonasi ajratib ko'rsatilgan bo'lib, bular birinchi zonani "aktual taraqqiyot zonasi", deb nomladi. Bunda bola biror bir faoliyatni amalga oshirishda o'zi mustaqil harakat qiladi, ikkinchi zona esa "yaqin kelajak taraqqiyot zonasi", deb atalib, bola shaxsi ijodiy faoliyatni amalga oshirishda unga atrofda tilarning o'rni muhim ekanligi ta'kidlab o'tiladi.

Demak, biz ilmiy tadqiqot ishimizda ikkinchi zonaga amal qilgan holda bolalarda ijodiy faoliyatni rivojlantirish yo'llarini keltirib o'tishimiz kerak.

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 30-sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvi tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son qarori.

<sup>3</sup> Preschool-age children's education by art: problems and possibilities <https://doi.org/10.26881/pwe.2018.42.14>

Shuningdek, Erik Eriksonning "psixosotsial rivojlanish" nazariyasida maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiylikni oshirish uchun pedagogning roli ahamiyatli ekanligi ta'kidlangan.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni har tomonlama rivojlantirishga oid tadqiqotlar o'zbek olimlaridan P.Yusupova, O.Xasanboyeva, Sh.A.Sodiqova, M.Sh. Nurmatova, Sh.T.Xasanova, D.T. Sabirova, H.M.Tojiboyeva, X.A.Umarova, J.G.Yo'ldoshev, S.O.Gaziyeva, L.R.Mo'minova, S.T.Turg'unov, G.A.Berdaliyeva, G.M.Nazirova, Z.F.Azizova, N.I.Rejemetova, I.To'ychiyeva, S.S.Raximova, M.M.Berdiyeva, M.N.A'zamova, D.A.Abdurahimova, M.N.Xushnazarova, V.N.Belkina, T.N. Zaxarova, M.V. Golubeva, L.A. Kolesnikova va boshqalar tomonidan olib borilgan.

Maktabgacha ta'lim tashkilotining katta yosh guruhidagi bolalarni ijodiy faoliyatini loyihalash borasida ko'plab xorijiy va hamdo'stlik mamlakatlarida, shu jumladan, respublikamizda bir qator ishlar amalga oshirgan bo'lib, ularda MTT katta yosh guruhidagi bolalarda ijodiy faoliyatni loyihalashga ta'sir etuvchi omillar, statistik, demografik, huquqiy va hududiy xususiyatlar har tomonlama ilmiy tahlil qilishga harakat qilinadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama tarbiyalash muammosi tarixiy xarakter kasb etib, bu borada Sharq mutafakkirlari: Abu Nasr Forobiy, Abu Ali Ibn Sino, Al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Alisher Navoiy kabilar tomonidan yaratilgan ilmiy va didaktik manbalar tarbiya ishida muhim ahamiyatga ega.

### TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari katta yosh guruhidagi bolalarning ijodiy faoliyatini loyihalash asoslarini quyidagicha ko'rsatib o'tish maqsadga muvofiq bo'ladi:

Ijodiy faoliyat - bu barcha ruhiy va aqliy kuchlarni ishga solib, insonning aniq bir maqsadga intiluvchanligi, maxsus hissiyot holati - ilhomlanish, shuningdek, ruhiy kechinmasi, muammoni jon-jahdi bilan hal etish istaklari majmuasi.

Ijodiy qobiliyatlar - bu yangilik yaratish zarurligi va mumkinligini tushunish, muammoni ifodalay olish, g'oyani ilgari surish uchun kerak bo'ladigan bilimlarni ishga solish qobiliyatlari, farazni nazariy va amaliy tasdiqlash, muammoni hal qilishni izlash va topish, natijada yangi asl mahsulotlar yaratish (...kashfiyot), ixtiro, san'at asari, tavsifnoma va h.k. qobiliyatlaridir.

Ijodiy yondashuv (IY) - bu pedagogikada zamonaviy yo'nalish bo'lib, u ta'lim oluvchilarning muammolarini hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan, mustaqil ravishda qaralayotgan faoliyatning yangi yo'nalishlarini topishga undash jarayonidir. Bunda o'quvchi talabning faoliyatiga demokratik asosda rahbarlik qiladi va ularning shaxsiy tashabbuskorligini qo'llab-quvvatlaydi, ular bilan hamkorlikda ishlaydi.

Bolalar ijodiy maqsad qo'yishga o'rgatiladi. Ularning mustaqil ijodiy faoliyatlari bayramlarda, ko'ngilochar kechalarda, ekskursiya va sayrlarda, har xil o'yinlarda amalga oshiriladi. Bolalar o'zlarining badiiy ijodiy mahoratlarini, qobiliyatlarini bemalol, erkin namoyish qilishlari uchun tarbiyachi kerakli shart-sharoit yaratib berishi zarur. Bolalarning bu xildagi mustaqil faoliyatlariga rahbarlik qilishda tarbiyachi yakka tartibda yondashishi lozim. Shu orqali u bolalarning o'ziga xos qobiliyat va imkoniyatlarini o'rganadi. Bolalar orasida ashula aytishga, rasm chizishga, musiqaga havas juda erta uyg'onadi. Ammo bu hali bolaning kelajakda qanday mutaxassis bo'lishini aniqlash huquqini bermaydi. Lekin tarbiyachilar va ota-onalar bolalarning qiziqishlariga diqqat-e'tibor bilan qarashlari lozim. Ular bolani diqqat bilan kuzatayotib, unda musiqqa, rasm, qurish-yasash va boshqa sohalaridagi iste'dodning ilk kurtaklarini ko'rishlari mumkin. Boladagi qobiliyatlarining shakllanishi kattalarning mana shu kurtaklarni avaylab o'stirishlariga, ularga to'g'ri rahbarlik qilishlariga bog'liq.

Bolalarda badiiy-ijodiy qobiliyat rivojlana boshlaydi: ular mustaqil ravishda topishmoqlar, ashulalar, ertaklar, she'rlar to'qiydilar, applikatsiya va rasmlar ishlaydilar. Endi ular o'zlarining va o'rtoqlarining ishlarini baholaydigan bo'lib qoladilar. Kuzatayotgan san'at asarlari, eshitayotgan musiqqa asarlari, o'qilayotgan she'rlarning eng nozik tomonlarini ko'ra biladilar, seza boshlaydilar. Badiiy asarlardagi ba'zi she'riy obrazlarni eslab qoladilar va o'z nutqlarida ishlatadilar. Tevarak-atrofdagi go'zallikka, san'atga, badiiy va o'yin faoliyatining har xil turlariga nisbatan ularda qiziqish shakllana boshlaydi.

Shunday qilib, maktabgacha ta'lim yoshi davri tarbiyaviy ta'sir orqali bolalarni estetik ruhda tarbiyalash maqsadlaridan va uning bola shaxsini shakllantirishda tutgan o'rnidan kelib chiqib, estetik rivojlanishlarini takomillashtirishdir. Bolani san'atning turli sohalarini: ashula, o'yin, she'r, o'qish, qayta hikoya qilish, ijodiy faoliyat (ijodiy o'yin, hikoya qilish, rasm chizish, biror narsa yasash yoki qurish) kabilarida yanada faolroq harakat qilish va o'zini ko'rsata bilishga o'rgatish lozim. Bular orqali bolalarda badiiy ijodiy qobiliyatni, xayolni o'stirish, fazoviy va rang munosabatlarini mo'ljalga olish, ko'rish xotirasi ko'lamini, chaqqon harakat qilish malakasi, jo'shqin kayfiyatni ko'rsatuvchi hissiy sezgirlikni rivojlantirish va hokazolar shakllantiriladi.

Ijodiy o'yinlarda bolalarning tevarak-atrofdan olgan taassurotlari aks ettiriladi. Ijodiy o'yin bolalarning mustaqil o'yini bo'lib, o'yinning mazmunini ular o'zlarini o'ylab topadilar. Bunday o'yinlarda bolalarning erkinligi, mustaqilligi, tashkilotchilik va ijodkorlik qobiliyatlari to'raligicha namoyon bo'ladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, maktabgacha ta'lim tashkiloti va maktabda ta'lim-tarbiyaviy jarayonini amalga oshirishdagi izchillik bola shaxsini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti katta yoshli bolalar guruhlari tarbiyalanuvchilarida ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish va o'yin orqali ularda ijodkorlikni rivojlantirish mumkin bo'ladi. Katta yoshli guruh bolalarida ijodiy o'yin juda ham yaxshi rivojlanadi. Bu o'yinlarda bolalar o'zlarini eshitgan, ko'rgan voqealar, hikoyalar, kitoblar va boshqa manbalardan olgan bilim, malakalarini, his-hayajonlarini to'la qo'llay boshlaydilar. Bu yoshdagi bolalar o'yinlarida berilgan ta'lim-tarbiyaning natijasi yaqqol ko'rinib, sezilib turadi. Bolalar kim bilan o'ynashi va o'yinning qanday borishi to'g'risida o'zaro kelishib oladilar. Bitta o'yinni uzoq vaqt, hatto bir necha kun o'ynash mumkin, bunda har gal o'yinga yangilik kiritib boriladi. Uzoq davom etadigan o'yinlar maktabgacha yoshdagi bolalar o'yinlarining yuqori bosqichi hisoblanadi.

Katta maktabgacha yoshdagi bolalar o'yinlariga to'g'ri rahbarlik qilib borilsa, ularning mustahkam jamoasi yuzaga kelib, u o'z an'anasiga, o'z qoidasiga ega bo'ladi. Bolalarda birgalikda ijod qilish qobiliyati rivojlanadi, ular o'rtoqlarining fikri bilan kelishadigan, gapiga quloq soladigan bo'lib boradi. Bolalar jamoasining shakllanishi uzoq vaqtni talab etadigan murakkab jarayon.

Bolalar o'rtasida murakkab munosabatlar yuzaga kelib, har bir bolaning o'ziga xos xususiyati yaqqol namoyon bo'lib boradi. Bunda bolalar faol tashkilotchi, o'ziga ishonadigan va aksincha, turtinchoq, indamaslarga bo'linadi. Faol bolalar har doim o'yinni o'z xohishiga qarab tanlaydi, qiziqarliroq rolni talab etadi. Respublikada maktabgacha ta'lim tizimi bo'yicha qabul qilingan ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari, "Ilk qadam" tayanch dasturi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashdek zarur ishni ta'minlaydi. Ya'ni, bu o'rinda maktabgacha ta'lim tashkiloti va maktab ishidagi izchillik katta ahamiyat kasb etadi.

Bu izchillik ta'lim tizimining barcha bo'g'inlari orqali ta'minlanib, izchillikni amalga oshirishning mavjud imkoniyatlari, ta'lim tizimi va uning tarkibiy va g'oyaviy tuzilishi prinsiplari asosida amalga oshiriladi. Maktabgacha ta'limning maqsad va vazifalari tarbiyaning bolalar yosh xususiyatlari hisobga olingan umumiy maqsad va vazifalaridan kelib chiqib belgilanadi.

Bu esa maktabgacha ta'lim tashkiloti va maktab o'rtasida izchillikni ta'minlashning asosiy negizi hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti va maktabdagi ta'lim-tarbiya vazifa, shakl hamda metodlarining turli yosh bosqichlarida bola shaxsini har tomonlama shakllantirishni amalga oshirish maqsadlarida o'zaro aloqasini qaror toptirish izchillik ifodasi hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti va maktab izchilligi quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- Maktabgacha ta'lim tashkilotidagi ta'lim-tarbiyaviy jarayonda bolalarning umumiy rivojlanishining zaruriy darajasiga erishish uchun maktabga qo'yiladigan talablarga yo'nalganligi;

- Bola shaxsini boshlang'ich ta'lim maqsad va vazifalariga muvofiq keluvchi sifat jihatidan shakllantirish. Bunda asosan maktabgacha ta'lim tashkiloti va maktabdagi pedagogik jarayonda ta'lim-tarbiyaning shaxsni uzluksiz yuksalib boruvchi shakllanishini ta'minlovchi yaxlit, dinamik va istiqbolli tizimni amalga oshirish uchun sharoit yaratadi.


Maktabgacha ta'lim tashkiloti va maktab o'rtasidagi izchillikning qaror topishi tayyorlov guruhi va 1-sinf bolalariga ta'lim-tarbiya berish sharoitlarini yaqinlashtiradi. Shunga ko'ra, maktab ta'limining yangi sharoitlariga o'tish bola uchun sezilsiz bo'lgan psixologik qiyinchiliklar bilan amalga oshiriladi. Bunda bolalarning yangi sharoitlarga tabiiy kirib borishlari ta'minlanadi, bu esa o'quvchilarga maktabga birinchi kelgan kunlaridan boshlab ta'lim-tarbiya berish samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti va maktabdagi butun pedagogik jarayonning bola shaxsini har tomonlama rivojlantirishga yo'nalganligi ular o'rtasida ta'lim-tarbiya izchilligiga erishishning asosiy sharti hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar egallagan xulq-atvor, kattalar va tengqurlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar shakllari, ma'naviy tasavvurlar va hissiyotlar boshlang'ich sinflarda amalga oshiriladigan axloqiy tarbiyaning o'quvchilarda rivojlantirishdagi ma'naviy xatti-harakat, ong, hissiyot va munosabatlarning zamini hisoblanadi. Maktab - maktabgacha davrlarda shakllantiriladigan jamoatchilik xususiyatlarini sifat jihatdan yanada rivojlantirish uchun zarur sharoitlar yaratadi, o'quvchi shaxsi jamoatchilikka yo'nalganligini qaror toptirishni ta'minlaydi.

Maktab orqali o'quvchilarda yuksak insoniy hissiyotlar: vatanparvarlik, mehnatsevarlik va milliy istiqlol g'oyalari, o'z vatani oldidagi burchlarini his etish kabi hissiyotlar tarkib toptiriladi. Bularning asosini maktabgacha yillarda shakllantirilgan ota-onaga, oilaga muhabbat, kattalarga hurmat, tabiatni sevish, uni asrash kabilar tashkil etadi. Maktab ta'limida bolalarning estetik tarbiyasiga doir ishlar davom ettirilib, o'quvchilarda estetik tasavvurlar, voqelikni estetik ko'ra bilish chuqurlashtiriladi. Musiqa, tasviriy san'at darslarida, badiiy faoliyat turlarida amaliy ko'nikmalar takomillashtiriladi, ijodiy qobiliyatlar rivojlanadi.

#### TADQIQOT NATIJASI


Tadqiqot davomida bir qator muammoli holatlar tahlil etilib, amaliyotdagi mavjud holatlar ilmiy o'rganildi. Avvalo, mavjud holatning atroflicha tahlili asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlari katta yoshdagi bolalarda tasviriy faoliyat mashg'ulotlari orqali bolalar ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishning mazmun-mohiyati, asoslanganligining maqsadga muvofiqligi aniqlandi (1-rasm).



1-rasm. Tarbiyachi-pedagoglarning tasviriy san'at haqida umumiy tushuncha bilish darajasi (foizda)<sup>4</sup>


Ushbu ko'rsatkichning ijobiyliги shundaki, MTTlarda tasviriy san'at mashg'ulotlari orqali bolalarda ijodiy faoliyatni shakllantirish normada kechayotganligidan dalolat beradi.

Shuningdek, maktabgacha katta yoshdagi guruhlarda tasviriy faoliyat mashg'ulotlari orqali tarbiyalanuvchilarning ijodiy faoliyatlarini loyihalashtirishga yo'naltirilgan pedagogik tizimni ishlab chiqish va samaradorligini amaliyotda tekshirib ko'rish tajriba-sinov ishlarining maqsadini tashkil etadi.




2-rasm Pedagog-tarbiyachining tasviriy san'at turlari va janrlarini bilish darajasi<sup>5</sup> (foizda)

Demak, tadqiqot natijasi shuni ko'rsatadiki, MTTlarda tasviriy san'at bo'yicha tarbiyachilarga amaliy yordam berish orqali ularni bilim, ko'nikma, malakalarini rivojlantirish talab etiladi va bu sohada zamonaviy talablarga javob beradigan ilg'or pedagogik usul va uslublarni ishlab chiqish, o'quv va o'quv-metodik adabiyotlarning yangi avlodini yaratish va nashr etish ham g'oyat dolzarb vazifadir.



3-rasm. Tasviriy faoliyat mashg'ulotlarini tashkil etishda zamonaviy metodik adabiyotlardan foydalanish darajasi (foizda)

Bu shuni anglatadiki, tarbiyachilarga bolalar bilan ijodiy faoliyatni amalga oshirishda yetarlicha texnik baza bilan ta'minlanish holati yaxshi emas. Shuning uchun tashkilotning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, ta'lim-tarbiya jarayonlariga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish orqali bolalarni har tomonlama intellektual, ma'naviy-estetik, jismoniy rivojlantirish hamda ularni maktabga tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash kabilarini yanada takomillashtirish dolzarb vazifalardandir.




4-rasm. Tasviriy san'at bilan tasviriy faoliyat o'rtasida qanday farq bor?

<sup>4</sup> Muallif ishlanmasi

<sup>5</sup> Tadqiqot davomida so'rovnoma natijasi



Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, tasviriy faoliyatdagi applikasiya, qurish-yasash, loy ishi kabi tushunchalarni farqlay olishda tarbiyachi pedagoglar qiyinchiliklarga duch kelishdi.



**6-rasm. Tarbiyachilarning tasviriy faoliyat mashg'ulotida ilg'or pedagogik texnologiyalardan, noan'anaviy usullardan foydalanish darajasi (foizda)<sup>6</sup>**

Tadqiqot natijasidan shu narsa aniq bo'ldiki, tarbiyachilarning malakalarini oshirish uchun ularni chet elga yuborish kerak, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim jarayonini tashkil etishda ta'limning interaktiv usullaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

**1-jadval  
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda tasviriy faoliyat mashg'ulotlari orqali ijodiy qobiliyatlarining shakllanganlik darajalari**

O'zlashtirish darajasi	Dastlabki so'rov natijalari	Tajriba-sinovdan keyingi holat
Eng yuqori	60%	90%
Yuqori	50%	80%
O'rta qoniqarli	40%	75%

Pedagogik tadqiqot ishi maktabgacha katta yoshdagi bolalarda tasviriy faoliyat mashg'ulotlari orqali ijodiy faoliyatlarini loyihalashtirish mazmunini ishlab chiqish orqali yuqori natijalarga erishish mumkinligini isbotladi. Bu natijalar bolalar bilan birgalikda o'tkazilgan suhbatlar, savol-javoblar, tasviriy faoliyat turkumiga kiruvchi mashg'ulotlar jarayonida bajargan ishlarini kuzatish orqali aniqlandi. Shakllantiruvchi tajriba-sinov ishlari, biz tomondan ishlab chiqilgan tavsiyalarni sinab ko'rish imkonini berdi. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda tasviriy faoliyat mashg'ulotlari orqali ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishning nazariy, amaliy jihatlarini hisobga olindi. Biz tomondan yaratilgan tavsiyalar bo'yicha olingan natijalarning tahlili maktabgacha katta yoshdagi bolalarda tasviriy faoliyat mashg'ulotlari orqali ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishda yaxshi natija berganligi ma'lum bo'ldi.

Tasviriy faoliyat bo'yicha mashg'ulotlarni tizimlashtirganda turli faoliyatlar mujassamlashadi. Tajribalar yana shuni ko'rsatdiki, maktabgacha katta yoshdagi bolalarda tasviriy faoliyat mashg'ulotlari orqali ijodiy faoliyatlarini loyihalashtirish ishlarida asosan bola ko'rib turgan va unda o'zi ishtirok etadigan narsa, hodisa, voqealar asosida amalga oshirilishi, tasviriy faoliyat turkumiga kiruvchi mashg'ulotlarda ko'proq tabiat, tevarak-atrof bilan tanishtirish, nutq o'stirish kabilarni integratsiyalashgan holda olib borilishi maqsadga muvofiqdir. Biz tajriba-sinov ishlarini tashkil etishda ana shu tomonlarga alohida e'tibor qaratdik.

**2-jadval.**

**Maktabgacha ta'lim tashkilotining katta yosh guruhida bolalarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish bo'yicha SWOT tahlili**

<p><b>S (Afzalliklari)</b></p> <p>a) bolalarda ijodiy tafakkurni rivojlantiradi;</p> <p>b) tarbiyachilar chet davlatlarda malaka oshiradi;</p> <p>c) zamonaviy infratuzulmaga ega bo'lish;</p> <p>d) ijodiy qobiliyatni shakllantiradi.</p>	<p><b>W (kamchiliklari)</b></p> <p>a) yetakchi mutaxassislar yetishmasligi;</p> <p>b) zamonaviy metodlarga ega emaslik;</p> <p>c) ota-onalarning bolalariga vaqt ajratmasligi.</p>
<p><b>O (imkoniyatlar)</b></p> <p>a) yashirib yotgan qobiliyatlarni ochadi;</p> <p>b) boshlang'ich ta'limga ham qo'llasa bo'ladi;</p> <p>c) alohida ehtiyojga ega bolalarning bilish jarayonlarini rivojlantirishga yordam beradi.</p>	<p><b>T (tahdidlar)</b></p> <p>a) xususiy bog'chalar bilan raqobat qila olmaslik;</p> <p>b) kichik maktab yoshidagi bolalarga qo'llash samarasi kam bo'lishi mumkinligi.</p>

**TADQIQOT MUHOKAMASI**

Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan olib boriladigan tasviriy mashg'ulotlarni yangi zamon ruhi bilan boyitgan va har bir hududning o'ziga xos xususiyatlari va an'alarini hisobga olgan holda metodik tavsiyalarni ishlab chiqish mashg'ulotlar samaradorligini yuqori darajaga ko'tarish imkoniyatini yaratadi.

G.S. Altshuller, V.M. Tsurikov, V.V. Mitrofanov, M.S. Gafitulin, M.S. Rubin, M.N. Shusterman TRIZ (ixtirochilik masalalarini yechish nazariyasi) va ARIZ (ixtirochilik muammolarini hal qilish algoritmi) asosida ijodiy ta'lim dasturlari va usullari yordamida 5-6 yoshli bolalarda ijodiy faoliyatni rivojlantirishni taklif etishadi ammo Torrens asarlarida yanada rivojlantirildi. Uning yondashuvida ijodkorlikni belgilaydigan qobiliyatlarga quyidagilar kirishi aytib o'tilgan: vazifani bajarish tezligi sifatida baholanadigan qulaylik, ob'yektlarning bir sinfidan ikkinchisiga o'tish soni sifatida baholanadigan moslashuvchanlik va o'ziga xoslik.

Yuqorida bayon etilgan fikr-mulohazalardan kelib chiqib, quyidagi xulosaga kelishimiz mumkin: maktabgacha katta yoshdagi bolalarda tasviriy faoliyat mashg'ulotlari orqali ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishda mavjud muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish chora-tadbirlarini belgilash tadqiq etilayotgan masalaning umumiy holatini aniqlash, asosiy maqsad yo'lida tashkil etiluvchi faoliyatning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi, shuningdek, tajriba-sinov ishlarining yo'nalishini puxta va aniq belgilash, muayyan g'oyalarni ishlab chiqish, ularning asosli bo'lishiga erishish tadqiqot muammosini ijobiy hal etishga yo'naltirilgan faoliyat mazmunini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

**XULOSA VA TAKLIFLAR**

Biz zamonaviy yetuk kadrlarni tarbiyalamasdan turib, biron-bir o'zgarishga, farovon hayotga erisha olmaymiz. Bunday kadrlarni, millatning sog'lom genofondini tayyorlash, avvalo, maktabgacha ta'lim tizimidan boshlanadi. MTTlarda tarbiyachi pedagoglarning tasviriy san'at bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish uchun ularga amaliy yordam berish, tasviriy san'at mashg'ulotini olib borishda zamonaviy metodlardan foydalanish ustuvor vazifalardan biri ekanligini ta'kidlab o'tmoqchimiz.

Biz tadqiqotimizda umumiy xulosadan kelib chiqib, o'z taklif va tavsiyalarimizni berib o'tmoqchimiz:

- Bu sohada zamonaviy talablarga javob beradigan ilg'or pedagogik usul va uslublarni ishlab chiqish;
- o'quv va o'quv-metodik adabiyotlarning yangi avlodini yaratish va nashr etish;

• maktabgacha ta'lim tashkilotlariga mo'ljallangan o'quv-metodik va didaktik adabiyotlarni nashr etishga doir standartlarni qayta ko'rib chiqish va tasdiqlash;

• maktabgacha ta'lim tashkilotlarining katta yoshdagi guruh bolalarida ijodkorlik qobiliyatini loyihalash va o'yin orqali ularda ijodkorlikni rivojlantirish.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ahonen S (2005) Historical consciousness: A viable paradigm for history education? *Journal of Curriculum Studies* 37(6): 697-707
2. Tiwari, S. R. (2008). *Teaching of English*. New Delhi: S.B. Nangia A P H Publishing Corporation.
3. Xoshimova, D. (2020). Improving the English Languages Speaking Skills with Efficient Ways. *International Engineering Journal for Research and Development*, 5(1), 111-117.
4. Xoshimova, D. (2020). The Social Dimensions of Understanding the Art of Literary Language. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 8(5), 32-37.
5. N.Sh.Abdullayeva "Maktabgacha ta'limni variativ yondashuv asosida takomillashtirishning ilmiy metodik asoslari", monografiya, Toshkent. 2021-y.
6. Maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini mavzuviy rejalashtirish. Metodik qo'llanma. T.2018
7. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
8. [www.ziyo.edu.uz](http://www.ziyo.edu.uz)
9. [www.istedod.uz](http://www.istedod.uz)
10. [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)



## ERTAKLAR VOSITASIDA MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARNI KITOBXONLIKKA O'RGATISH

Meliqo'ziyeva Surayyo

Qo'qon universiteti Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabasi

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATSIYA
<p><b>Qabul qilindi:</b> 24-may 2022-yil <b>Tasdiqlandi:</b> 26-may 2022-yil <b>Jurnal soni:</b> 4 <b>Maqola raqami:</b> 14 <b>DOI:</b> <a href="https://doi.org/10.54613/001229">https://doi.org/10.54613/001229</a></p>	<p>Maqolada ertaklar vositasida bolalarni kitobxonlikka o'rgatishning o'ziga xos usul va metodlari, ertaklarning bola ongi va dunyoqarashiga ijobiy ta'sir etishi hamda milliy folklor va xalq og'zaki ijodi na'munalari o'rganib chiqilgan. Shuningdek, tarbiyalanuvchilarda kitob o'qishga bo'lgan qiziqishni shakllantirish bo'yicha xorijiy olimlarning nazariy tadqiqotlari va amaliy tavsiyalari o'rganib chiqilgan. Tadqiqotda ota-ona va tarbiyachi-pedagogning o'zaro hamkorligi masalalari tadqiq etilgan.</p>
<p><b>KALIT SO'ZLAR</b> Ertak, mashg'ulot, kitobxon, tanlov, kelajak, rivojlanish, xotira, bola ongi, xalq og'zaki ijodi, folklor, auditoriya</p>	

### KIRISH

Bugungi kunda maktabgacha yoshdagi bolalarning ta'lim-tarbiya olish masalasi davlat siyosati darajasigacha ko'tarildi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 30-sentyabr kunidagi "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish to'g'risida"gi<sup>1</sup> Farmoni imzolandi. Hujjatga ko'ra maktabgacha ta'lim vazirligini tashkil etish ko'zda tutilgan. Yangi vazirlik tizimiga Qoraqalpog'iston maktabgacha ta'lim vazirligi, Toshkent shahri maktabgacha ta'lim bosh boshqarmasi, viloyatlarning maktabgacha ta'lim boshqarmalari va ularning shahar va tumanlardagi bo'limlari kiritildi.

Ushbu qaror maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirishda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Ushbu qaror munosabati bilan maktabgacha ta'lim rahbarlari va pedagogik xodimlarni zamonaviy texnologiyalar va metodlar negizida qayta tayyorlash va "bolalarni tarbiyalash bo'yicha munosib sharoitlar" yaratish rejalashtirilgan. Shu qaror asosida oliy o'quv yurtlarida ham maktabgacha ta'lim yo'nalishlari tashkil etildi. Bolalarga ta'lim beruvchi pedagoglarning ilmiy salohiyati oshirilishiga katta e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-sentyabrdagi "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish to'g'risida"gi PQ-32-71-sonli qarori<sup>2</sup> asosida yurtimizning barcha ta'lim sohasida kitobxonlikni rivojlantirish bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ushbu qaror doirasida kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar tasdiqlandi. Dasturda quyidagi asosiy vazifalarni amalga oshirishga alohida e'tibor qaratilishi belgilandi:

– kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish, noshirlik va matbaa sohasini yanada rivojlantirishga oid normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan kitoblar, ayniqsa, bolalar adabiyotlarini chop etish davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi;

– kitob mahsulotlari bo'yicha davlat buyurtmasining asosiy yo'nalishlarini shakllantirish, adabiy-badiiy, o'quv-uslubiy, ilmiy-nazariy, ilmiy-ommabop va ko'rgazmali adabiyotlarni chop etish va tarqatish tizimini yo'lga qo'yish, ixtisoslashtirilgan kitob do'konlari faoliyatini rivojlantirish;

– jahon adabiyotining eng sara na'munalari o'zbek tiliga tarjima qilish bo'yicha davlat buyurtmalarini berish, ulni zarur

nusxalarda yuqori sifat bilan nashr etish va moliyalashtirish tizimini yo'lga qo'yish, kitob tarqatish tizimini yanada rivojlantirish, kitob mahsulotlarining narxini shakllantirish va sotish bo'yicha aniq mexanizmlarni ishlab chiqish choralari belgilash zarur;<sup>3</sup>

– axborot-kutubxona faoliyatini kuchaytirish, ta'lim muassasalari axborot- resurs markazlarining kutubxona fondlari, kutubxonalar, ta'lim muassasalarining "Manaviyat xonalari"ni o'quv-uslubiy, texnik adabiyotlar, adabiy-badiiy, ma'rifiy va ilmiy-ommabop kitoblar bilan boyitish, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash;

– nashriyotlar va matbaa sohasi mutaxassislari, badiiy va texnik muharrirlar, grafikachi rassomlar, axborot-kutubxona xodimlarini tayyorlash, malakasini oshirish va rag'batlantirish tizimini takomillashtirish;

– lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosidagi ilmiy-texnik, adabiy-badiiy va ensiklopedik adabiyotlarni yanada ko'paytirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqish;

– O'zbekiston Milliy kutubxonasi va axborot-kutubxona markazlaridagi barcha turdagi axborot-kutubxona resurslarining yagona bazasini shakllantirish va undan boshqa axborot-kutubxona muassasalarida turib foydalanishni ta'minlash;

– qishloq aholisiga kutubxona xizmati ko'rsatish tizimini tashkil etish choralari to'g'risida tadbirlar rejasi loyhasini tayyorlash va amalga oshirish;

– mamlakatimizda internet orqali zarur adabiyotlarni topish va xarid qilishni tashkil etish, ularning axborot bazasiga umumta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari, oliy o'quv yurtlari uchun darsliklar, o'quv qo'llanmalari, o'quv-uslubiy, ilmiy-nazariy manbalarni joylashtirish, bunday mahsulotlarni arzon narxlarda sotib olish mexanizmlarini yo'lga qo'yish bo'yicha takliflar tayyorlash;

– mazmunan sayoz, milliy ma'naviyat va qadriyatlarimizga, axloq me'yorlariga mos kelmaydigan, yoshlar tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan adabiyotlarni tayyorlash, bosib chiqarish va tarqatishning oldini olish choralari ko'rish;

– kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirishga doir targ'ibot ishlarini tizimli va samarali tashkil etish, bu borada kitobxonlar, kutubxonachi va targ'ibotchilar o'rtasida eng kitobxon maktab va "Eng kitobxon mahalla", "Eng kitobxon oila", "Eng faol kutubxonachi" kabi ko'rik-tanlovlarni saralash va

<sup>1</sup> Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentyabrdagi PF-5198-sonli "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-sentyabrdagi "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob

mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish to'g'risida"gi PQ-32-71-son Qarori

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-sentyabrdagi gi PQ-3271-son qarori "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish to'g'risida"gi Farmoni

respublika bosqichlarini yuqori saviyada o'tkazishni yo'lga qo'yish.<sup>4</sup>

Bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish mazmuni maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning kitobga bo'lgan qiziqishini oshirishdan boshlanadi. Kitobxonlik madaniyatini shakllantirish soddaga, qulay va zarur ko'rgazmalilik asosida olib borilib, bolalarda kitobxonlik madaniyatining ilk ko'rinishlari namoyon bo'la boshlaydi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI

Ta'lim oluvchilarda kitobxonlik, kitobni sevish kabi fazilatlarni shakllantirish masalalari g'oyat muhim masalalardan hisoblanib, xalq pedagogikasi, buyuk mutafakkirlarning ta'limotlarida aqliy tarbiya, bilim olish bilan bog'langan holda talqin etilgan. Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Yusuf Xos Xojib, Kaykovus, Ahmad Yugnakiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur keyinroq esa Abdurauf Fitrat va boshqalarning ta'limiy ahloqiy qarashlaridan kitob va uning ilm olishdagi ro'liga oid fikrlari bunga yaqqol dalil bo'la oladi.

Atoqli bolalar adibi, O'zbekiston xalq yozuvchisi Hakim Nazir kitob va kitobxonlik haqida to'xtalib shunday degan edi: "Umrin davomida inkor qila olmaydigan haqiqatim shuki, kichiktoylarning to'g'ri yo'lni topib, dunyoqarashini shakllantirish, axloq-odobini yo'lga solishda kitobdan-da muhimroq narsa yo'q ekan. Shuning uchun ham ota-onalarning birinchi vazifasi o'z farzandida kitobga mehr uyg'otish deb bilaman. Gohida fan-texnika tufayli adabiyotga e'tibor kamaymoqda, degan gaplarni eshitib qolamiz. Menimcha, go'zallikka extiyoj tuyg'usi bor ekan, san'at asarlari ham o'zining bahosini hech qachon yo'qotmaydi. Shu bois kitobga ixlos bilan qaraydigan, uni shavq bilan o'qiydiganlar soni ortib borayotganini ko'rish quvonarlidir"<sup>5</sup>. V.Y. Propping o'zining Ertaklar morfologiyasi nomli kitobida sehirli ertaklarda ishtirok etuvchi yordamchi personajlarning xarakterli xususiyatlarini funksional harakatlar doirasida asoslab o'tadi.

Taniqli o'zbek olimasi D.R. Babayeva nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi kitobida maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini o'stirishda hikoya va ertaklarning roliga to'xtalib, quyidagi fikrlarni aytib o'tgan: Hikoya tuzish – hikoya qilib berishga nisbatan ancha murakkab faoliyatdir, chunki bolalarning o'zi ushbu mavzu bo'yicha hikoya mazmuni, uning nutqiy shaklini tanlashlari, ketma-ket (tarbiyachi yoki o'z rejasida) bayon qilishlari zarur.

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun hikoyalarning uchta turini ko'rsatish mumkin:

- qabul qilinishiga qarab aytiladigan hikoyalar (bolaning va ota-onaning hikoya paytida nimani ko'rayotganligi haqida hikoya);
- xotira asosida hikoya qilish (bola hikoya aytish paytida nimalarni qabul qilganligi haqida hikoya);
- tasavvur asosida hikoya qilish (o'ylab topilgan hikoyalar).

Qabul qilish va xotira asosidagi hikoyalar faktli materiallarga asoslangan bo'lib, bolalar faktlarni bayon qiladilar.

Tasavvurga asoslangan hikoyalar ijod mahsuli bo'lib, unda hikoyachi bola mavzuga qarab o'z tajribasining shaklini o'zgartiradi hamda yangi vaziyat va obrazlar yaratadi. Bitta mashg'ulotda bitta fikrda hikoyalar turlarining aralashib ketishiga yo'l qo'yish mumkin: bola o'yinchoqni tavsiflab (qabul qilish asosidagi hikoya) bo'lganidan so'ng uni qayerdan sotib olganligi yoki uni qanday qilib tuzatganini (xotira asosidagi hikoya) aytib berishi mumkin.<sup>6</sup>

### TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maktabgacha ta'limda badiiy asarlarni o'rgatish o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, badiiy asarni o'rgatishda eng qulay metodlarni tanlash, uni to'g'ri qo'llashni talab etadi. Chunki har bir asar janri o'ziga xos metod va usullarni talab etadi. Maktabgacha ta'limda badiiy asarlar o'qib berish, hikoya qilib berish, yoddan aytish, badiiy asarni sahnalashtirish, teatrlashtirish kabi metodlardan foydalaniladi.

O'qib berish metodi ta'limning og'zaki metodlari turkumiga kiradi, bu metodda badiiy asarni tarbiyachi kitobdan so'zma-so'z o'qib beradi. Asarni o'qib berish tarbiyachidan adabiy talaffuz me'yorlariga rioya qilish, shoshilmay, so'z va gaplarni aniq-aniq, gap ohangi to'xtam, ovoz kuchi sifati, ifodaliligiga rioya qilgan holda o'qishni talab etadi, bolalarning tinglashi, mazmunini tushunib olishi, adabiy asardagi so'zlarni aniq eshitishga diqqat qilishini ta'minlaydi.

O'qib berish metodi bolalarda tarbiyachining o'qib berishiga havas, badiiy asar, kitob o'qishga qiziqishini orttiradi, kitobdan foydalanishni o'rgatib boradi, ularda badiiy nutq, so'z boyligi ortadi.

O'qib berish metodi quyidagi turlarga bo'linadi:

Badiiy asarni o'qib berish.

Badiiy asarni qayta o'qib berish.

Asarni to'liq yoki qisqartirib o'qib berish.

Tanlab o'qib berish, yani asarning eng muhim o'rinlarini: asar qahramoni, uning nutqi, xususiyatini ifodalovchi qism, misra va bandlar o'qib beriladi.

Adabiy asar mazmuniga mos bo'lgan rasm, illyustratsiyalarni ko'rsatib o'qib berish. Bunda bolalar asar mazmunini eshitish va ko'rish orqali tushunib oladilar, asar mazmunini uzoq vaqt yodda saqlaydilar.

O'qib berish metodida tarbiyachi asar muallifining ismi sharifi, asar nomi, janrini aytib, o'qib berish muhimdir. Masalan tarbiyachi mashg'ulotni Alisher Navoiyning "Sher va durroj" hikoyasi yoki Abdulla Avloniyning "Xo'roz ila bo'ri" masalini o'qib beraman, deb boshlaydi. O'qib berish metodi bolalarda badiiy asar o'qish ishtiyoqini oshiradi, asarda qo'llangan badiiy, tasviriy vositalar, so'z va iboralarni eslab qolish va o'z nutqida foydalanish ko'nikmasini shakllantiradi.

O'qib berish metodi maktabgacha ta'limning barcha bosqichlarida qo'llanadigan metod hisoblanadi, barcha janrdagi badiiy asarlarni o'qib berish mumkin. Bu mashg'ulot quyidagi tartibda tashkil etiladi:

Badiiy asar matni o'qib beriladi.

Asar mazmuni hikoya qilib beriladi.

Asardagi ayrim so'z va iboralarning ma'nosi, talaffuzi tushuntiriladi.

Badiiy asar qayta o'qib beriladi.

Asar mazmuni bo'yicha tuzilgan savollarga javob beradilar.

Bolalar asar mazmunini qismlarga ajratilgan yoki to'liq holda hikoya qiladilar.

O'qib berish metodidan foydalanganda tarbiyachi asar mazmuniga mos illyustratsiyalar, rasmlardan foydalanishi, multfilmilarini qo'yib berishi, obrazli o'qib berishi, bolalarni qiziqitiruvchi usullarni qo'llay olishi muhimdir.

Hikoya qilib berish metodida badiiy asar matnini tarbiyachi oldindan o'qib, tushunib oladi, unda qo'llangan eng muhim so'z va iboralar, asar mazmunini eslab qoladi, ular asosida asarni mazmunli, tartibli va ifodali hikoya qilib beradi, ya'ni badiiy asar mazmunini erkin bayon qiladi, matndagi ayrim so'z va iboralarni bolalar yoshiga mos holda qo'llay olishi ham mumkin bo'ladi.

Hikoya qilib bera olish metodi kichik guruhlarda ayniqsa muhimdir. Tarbiyachining badiiy asarni hikoya qilib berishida asar mazmunini to'liq esda saqlagan, tartibli, izchil va ifodali, obrazli, o'rtacha tezlikda, ovoz kuchi sifati ohang va to'xtamlarga rioya qilgan holda hikoya qilishi zarur.

Shuningdek, asar qahramonlarining ichki kechinmalari, his-hayajonlarini obrazli va ta'sirchan hikoya qilish bolalarning badiiy asarga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi. Bu esa bolalarning asar mazmunini tinglash, eshitish va tushunib olishlariga imkon yaratadi, ularda badiiy asarni o'rganish, so'zlab berishga bo'lgan ishtiyoqni kuchaytiradi. Hikoya qilib berish metodida quyidagicha ish olib boriladi:

Asar mazmuni hikoya qilib beriladi, unga ayrim so'z va iboralar tushuntiriladi.

Rasm illyustratsiyalar orqali qayta hikoya qilinadi.

Badiiy asar yuzasidan savol-javob o'tkaziladi, bolalar tengdoshlarining javoblarini tinglaydilar.

Badiiy asar qismlarga bo'linib hikoya qilinadi.

4 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-sentyabrdagi gi PQ-3271-son qarori "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish to'g'risida"gi Farmoni

<sup>5</sup> Normatov M., Hakim Nazir Ijodiy yo'li, -T 1973 65-bet

<sup>6</sup> D.R. Babayeva. Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi. (Darslik). – T.: «Barkamol fayz media», 2018, 252-b

Bolalar badiiy asar mazmunini tushunganicha hikoya qilib beradilar.

Bu esa bolalarning badiiy asar mazmunini tinglash, eshitish, tushunishlari orqali o'rganishlariga imkon yaratadi.

Badiiy asarni hikoya qilib berishda ko'rgazmalilik muhim ahamiyatga ega. Bunda tarbiyachining asar mazmuniga mos rasm, o'yinchoq, illyustratsiyalardan foydalanishi, stol teatri, qo'g'irchoq teatri va boshqa teatr hamda sahnalashtirishni tashkil etish yaxshi natija beradi, bolalarda asar mazmuniga mos harakat va holatlarni kuzatish, asarni o'rganishga qiziqish paydo bo'ladi.

Psixologlarning fikriga ko'ra, bolalarning aqliy, axloqiy, jismoniy va estetik kamol topishi ikki muhim davrga bo'linadi (1-jadval).

Qo'llanilgan metodlarning maqsadi quyidagilardan iborat: mavjud bo'lgan nazariy va amaliy bilim, tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash natijasida mazkur muammoning yechimini topishga mo'ljallangan. Shuningdek, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil hamda tanqidiy fikrlashni shakllantirishga qaratilgan. Imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlashda ota-ona va maktabgacha ta'lim tashkiloti hamkorligini "SWOT tahlili"ni quyidagi jadvalda ko'rishimiz mumkin:

### 1-jadval

#### Bolalarning aqliy, axloqiy, jismoniy va estetik rivojlanish davrlari<sup>1</sup>

Yosh davrlarining guruhlanishi	
2 yoshdan 5 yoshgacha bo'lgan davr	5 yosh va undan keyingi davr
Bola o'z ongi yordamida san'atni hayotdan ajrata olmaydi, shuning uchun badiiy asarlarga ham o'yinchoqqa yondashgan singari munosabatda bo'ladi yoki hayotning aynan o'zi aks etadi, deb hisoblaydi; san'atni esa xuddi qiziqarli o'yin kabi qabul qiladi.	Bolaning o'zi mustaqil ravishda hayotni san'atdan farqlay boshlaydi va san'at uning uchun qadrlil bo'lib boradi.
O'zining asar matnida bayon qilingan voqealar to'g'risidagi tasavvurlarida bola hech qachon badiiy asar chegaralaridan chiqmaydi, bayon etilayotgan voqealarni real joy yoki vaqt bilan bog'lamaydi, voqe'likni o'zicha o'zgartiradi, unga yangi personajlar yoki boshqa asarlardagi badiiy qahramonlarni qo'shadi.	Bola badiiy asarni boshqacha fikrlar, tuyg'ular va tasavvurga ega begona kishi tomonidan yaratilgan, "o'zga" dunyoning aksi sifatida qabul qila boshlaydi.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xalq og'zaki ijodining o'rnini ko'p yillik kuzatishlar hamda ilmiy manbalarni o'rgatish natijalaridan quyidagi xulosalarga kelindi:

- bolalar o'rtasida xalq og'zaki ijodiga (masallar, maqollar va ertaklar) bag'ishlangan ko'rik tanlovlar o'tkazilib borish;
- har bir yosh guruhi uchun o'zbek xalq ertaklari tizimiga solinib, shu asosda o'rgatilib borish;

- tajribali mutaxassis-olimlar tomonidan o'zbek xalq ertaklari qahramonlarini aks ettiruvchi rasmlar, bukletlar, plakatlarni va ko'rgazmalar ishlab chiqish;

- ta'lim muassasalarida "Ertaklar – yaxshilikka yetaklar" va shu kabi mavzularda konkurslar muntazam o'tkazilsa har tomonlama rivojlangan komil inson tarbiyalanadi.

Uch-to'rt yoshlarda bolalar adabiy ertaklarni tanlashga qiziqadilar: ular ayrim qahramonlarni biladilar va sevadilar, o'zlari uchun muayyan ertakni ajratib oladilar va doimo ularni o'qib berish yoki aytib berishni iltimos qiladilar; o'zlari ham yoqib qolgan she'rni ko'p marta takrorlaydilar. Besh yoshlarga kelib ayrim syujetli harakatlar va personajlarni afzal ko'rish yaqqol sezila boshlaydi. Bularning barchasi besh yoshli bolaning ancha boy adabiy tajribasi umumlashmasi hisoblanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda pedagog ularni bolalar badiiy adabiyoti bilan tanishtirishda quyidagi rivojlantirish vazifalarini amalga oshirishi lozim:

- Turli janr va mavzulardagi adabiy ertaklar - hikoyalar, she'rlar, she'riy folklorning kichik shakllarini tinglash, ularning mazmuniga emotsional munosabat bildirish va syujetning rivojlanishini kuzatib borish qobiliyatlarini rivojlantirish;

- bolalarni ayrim ertaklar va ularning aynan bir xil qahramonlar bilan birlashtirilgan izchilligi bilan tanishtirish;

- tarbiyachi bilan birgalikda tanish ertaklarni hikoya qilish, ularni to'liq yoki qisman sahnalashtirishga jalb qilish;

- bolalar so'z ijodkorligi, she'riy matnlarning o'yinli va yumoristik muqobillari uchun qulay sharoit yaratish;

- bolalarning o'yin, tasvirlash faoliyatlarini badiiy obrazlar bilan boyitish; Yetti yoshga kelib bola: o'ziga yoqqan ertaklar nomlarini aytishi; senga qaysi kitob yoqadi? U nima haqida? Bu ertakda kimlar haqida hikoya qilinadi? Bu ertakda yana kimlar bor? Ular nima qildilar? Bularning barchasi qanday tugadi? kabi savollarga javob bera olishi mumkin;

- Suratlarini o'ziga tanish bo'lgan ertakdagi voqealar rivojiga qarab terib chiqishi mumkin. Agarda suratlar ichidan ortiqcha

personajning surati chiqsa, bola uni chetga olib qo'yadi, biroq pedagog iltimosiga ko'ra, agar ushbu qahramon ham ertakda ishtirok etsa nima ro'y bergan bo'lishi mumkinligini o'ylab topadi;

- O'zi xohlagan kichik she'r (ovunmachoq) yoki ritmik tashkil etilgan matnni emotsional tarzda aytib berishi mumkin.

- Mustaqil faoliyatda – o'yinda, rasm chizishda va boshqa kundalik vaziyatlarda adabiy obrazlardan foydalanadi.

Bolaning badiiy adabiyot bilan o'zaro hamkorligi uning estetik, bilish, ijtimoiy va nutqiy rivojlanish imkoniyatlarini amalga oshirish imkonini beradi. Biroq shu bilan birga faoliyatning estetik xususiyatlari buzilmasligi lozim, bolalarning imkoniyatlari esa sxematizm va taqlidchilikdan iborat bo'lib qolmasligi kerak. Ushbu maqsadda pedagog quyidagi qator usullardan foydalanishi lozim:

Bolalarning diqqat-e'tiborini alohida adabiy ertakning badiiy qiymatiga - she'rlarning obrazli ifodaliligiga, hikoyada sujetning kutilmagan rivojiga qaratish.

Bolaning adabiy ertakni yoki o'zi to'qigan ertagini ijro etishi (guruhda qayta hikoya qilish, yakka tartibda ifodali o'qish va kattalar bilan dialogda bo'lish) uchun emotsional boyitilgan ijro muhitini yaratish. Biroq, badiiy ertak faqat so'z bilan aytilmasdan, balki uning ayrim erkin jihatlar bolalar va pedagoglarning birgalikdagi harakatlari natijasida sahnalashtirilishi, unga musiqiy ishlov berilishi, harakatlar, suratlar, konstruktiv modellar bilan ko'rsatilishi mumkin.

#### TADQIQOT NATIJASI


Pedagog bolalarga yaxshi ma'lum bo'lgan an'anaviy (hayvonlar va sehrgarlar haqida) xalq ertaklari va noan'anaviy (bolalar, tabiat hodisalari, predmetlar haqida) zamonaviy mualliflik ertaklari ruhida o'z ertaklarini to'qishlari uchun sharoit yaratib berishi lozim; bolalarni o'z hayotlarida yuz bergan qiziqarli voqealar haqida hikoyalar tuzishga undash zarur. Bolalarga adabiy ertaklarning o'ziga xos tuzilmasi va tipik personajlari haqidagi tasavvurlaridan foydalangan holda pedagog ushbu elementlar asosida "Agarda bo'lsa, nima bo'lar edi" toifasidagi ijodiy o'yinlarni uyushtirishi lozim. Bunday o'yinlarda tipik qahramonlar, syujet elementlari erkin kutiladi, natijada g'ayrioddiy va kutilmagan birikmalar vujudga keladi.

Shuningdek, obrazga kutilmagan va qarama-qarshi yo'nalish beruvchi alohida so'zlar va jaranglilar bilan o'tkaziladigan o'yinlar ham muhimdir. Pedagog bolalarning qofiya bilan o'yinlari, so'z ijodkorligi, she'rni davom ettirish va she'r to'qish, tashbehlar va taqqoslashlar o'ylab topishlariga asoslangan o'yinli hamda kulgili vaziyatlarini rag'batlantiradi. Masalan, adabiy ertaklar

<sup>1</sup> Manbasi M. Jumaboyev. O'zbek va jahon bolalar adabiyoti. Qo'llanma. 2016-y




personajlarining xarakterini aks ettiruvchi yangi ifodali ismlarni, yoki ertakda obrazli tasvirlangan narsalar va hodisalar uchun yangi nomlarni o'ylab topishadi. Pedagog bolalarning nisbatan yirik hajmdagi adabiy ertaklar sujetlari asosida o'yinli «xayoltdagi olamni» yaratishlariga ko'maklashishi lozim. Masalan, yirik hajmdagi adabiy ertak (mualliflik ertagi) bilan tanishtirishda u guruhga ushbu ertakning «xayoltdagi olami»ni olib kirishi va bir necha kun mobaynida (sayrda, o'yinlarda) bolalar bilan birgalikda uning ichida «yashashi» mumkin.



**1-rasm. Ota-onalarning bolalarga ertak o'qib berish darajasi (foizda)**

Ijtimoiy so'rovnomaga natijalariga ko'ra, bolaning yoshiga monand tarzda ertaklar o'qib berishlari, u bilan shug'ullanishlari ifodalagan. Ayrim ota-onalar tomonidan esa "shart emas axir bolaku", degan javob berilishi ularning bola bilan shug'ullanishga bee'tiborligi, bola psixologiyasini bilmasligi, tarbiyaga sovuqqonlik bilan munosabat bildirishini ko'rsatadi. 32 % javoblarda esa bola bilan shug'ullanishga vaqti yo'qligi, boladagi kognitiv rivojlanish ota-ona tomonidan qo'llab-quvvatlanmasligi kuzatildi. Demak, aksariyat ota-onalarimizda ta'lim bo'yicha bilim yetishmasligi, bolalar psixologiyasini bilmasligi, oiladagi ta'lim samaradorligini ta'minlash borasida muammolar mavjudligi ota-onalar bilan muntazam ravishda maxsus treninglar, seminarlarni tashkil etish joizligini ko'rsatdi.




**2-rasm. Bolalar tomonidan eshitaladigan va tanlanadigan ertaklar turlari**

Yuqoridagi rasmdan ko'rinadiki, "Bolalarga qaysi ertaklarni o'qish ma'qul deb o'ylaysiz?" degan savolimiz natijalariga ko'ra 45 % jahon ertaklari, 34 % o'zbek ertaklari, 14 % esa klassik ertaklarni o'qish ma'qul, deb ko'rsatilgan. Zamonaviy ertaklarga talab kamligi esa 7 % zamonaviy ertaklar degan javobda ko'rinib turibdi. Demak, bolalarimizda jahon ertaklarini eshish va uni tasavvur qilishga bo'lgan moyillik, qiziqish yuqoriligini kuzatishimiz mumkin. Ota-onalar tomonidan jahon ertaklarining o'qib berilishi, avvalo o'zlari undan voqif bo'lishni talab etadi.

Shu bilan birga, jahon ertaklariga bolalarning qiziqish bildirishlari ota-onalardan to'g'ri tushuntira oladigan darajadagi kompetensiyaga esa bo'lishni taqozo etadi. O'zbek ertaklari tinglanishiga bo'lgan e'tibor ham salmoqli bo'lib, bolada milliy ong va xarakter shakllanishi, etnik mansublikni anglanilishida milliy

ertaklar bola dunyosini to'ldiruvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Klassik ertaklar orqali bolalar keng fikrlash, o'zgarar holatiga o'zini qo'yib ko'rishga moslashadi. Klassik ertaklar bolaning mantiqiy dunyoqarashini boyitishga xizmat qiladi va boshqa millatlar madaniyati, urf-odatlarini tushunishga imkon yaratadi. Mualliflik ertaklari esa ota-onalarning ijodiy yondashuvini ifodalash bilan birga, bola ruhiyatiga mos, uni idrokiga tanlangan darajadagi voqelikni berishni taqozo etadi. Shu bilan birgalikda milliy o'zbek



ertaklarini xorijiy ertaklar bilan taqqoslab tushuntirib borish bolaning maktabgacha yoshdayoq boshqa xalqlarni hurmat qilishiga, ular kabi keng kamrovi fikrlashiga xizmat qiladi.

**3-rasm. Bolalar tarbiyasi oldida ota-onalar va tarbiyachilarning mas'ulligi**

"Bolalar tarbiyasida ota-onalar va tarbiyachilarning o'rni qanday?" so'rovi natijalariga ko'ra, tarbiyachi va ota-ona hamkorligi muhimligini ta'kidlovchi fikrlar ko'proq ifodalangan. Demak, ota-onalar tarbiyachilar bilan birgalikda bola tarbiyasiga yo'nalishni ma'qul ko'radilar. Demak, bola tarbiyasi ham oilada, ham ta'lim tashkilotlarida amalga oshiriladigan uzluksiz jarayon ekanligi aytiladi.

Bola tarbiyasida ota-onalar va tarbiyachilarning o'rni juda katta, deb baholanishiga ham ota-onalar alohida e'tibor qaratib, ta'lim va tarbiya jarayonini bu ikki ta'sir etuvchilar tomonidan birgalikda olib borilishi muhim ekanligini ta'kidlaganlar. Tarbiyachining vazifasi faqat bolaga qarash, degan fikrdagi ota-onalar ham mavjud bo'lib, ular tarbiyachilargina bola bilan shug'ullanishini bildirganlar.

Bu holat bola tarbiyasi bilan faqatgina maktabgacha ta'lim tashkilotlari xodimlariga shug'ullanishi kerak, degan tasavvurga ega ota-onalarning borligi, tarbiya jarayonida ota-onaning ta'siri, ishtirokining yo'qligini ko'rsatadi. Bunday vaziyatlarda ota-onalar bilan malakali pedagoglar tarbiyaviy tushuntirish ishlarini olib borishi taqozo etiladi.

Har xil kitoblarni o'qish tavsiya qilinishi esa ota-onalar bolaning tanlovini bilmasligi yoki yoshiga mos tarzda kitob tanlash saviyasining pastligini ko'rsatadi. Duch kelgan kitobni mutolaa qilish bolada kitobxonlik shakllanishi va kitobga mehr qo'yishiga xizmat qilmaydi, balki kitobdan zavq ololmaydigan bo'lib qolishiga olib keladi.

Demak, ota-onalarning bola tarbiyasi va kitobxonlik madaniyati borasidagi ko'nikmalari, bilimlari o'rta darajani tashkil qiladi, bu esa qoniqarli holat, aslida esa ota-onalar yuqori saviyada

bo'lishlari joiz. Sababi ota-onalar o'zlari kitob ushlar ekanlar, oilada bu madaniyat shakllanmas ekan bolani kitobxonlikka oshno qilish, ertaklar olamiga jalb qilish juda qiyin.

### TADQIQOT MUHOKAMASI

Ertak - bolalar ongi, dunyoqarashi va tassavvurining shakllanishi, ularning ezigulik va yaxshilik g'oyalari asosida tarbiya topishida asosiy rol o'ynovchi omil hisoblanadi. Ertak xalq og'zaki poetik ijodining bir qismi hisoblanadi. Ertaklar asosan nasrda yaratiladi, she'riy janrda yozilgan ertaklar ham uchraydi. Ertak atamasi dastlab Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'ati turk" asarida "etuk" shaklida uchraydi va biror voqeani og'zaki bayon qilish ma'nosini beradi. Ertaklar hayot haqiqatini xayoliy va hayotiy uydirmalar asosida tasvirlaganligi, tilsim va sehr vositalariga asoslanishi, voqea va harakatlarning ajoyib-g'aroyib holatlarda kechishi qahramonlarning g'ayritabihiy jasoratlari bilan ajralib turadi. Xalq ertaklari har bir inson va butun xalq hayotida katta ahamiyatga ega.

Ertaklarning muhim roli shundaki, ular boshidan kechirgan barcha narsalar, sarguzashtlarning qimmatli ombori, o'tmishdagi hayot aksini abadiy saqlab qolgan ko'zgudir. Ertaklar va afsonalar shunchalik oddiy, insoniyat hayotini o'zida mujassam etgan, shu asosda juda ko'p umumiy qarashlarga ega ediki, ular bir xalqdan ikkinchisiga aylanib yurgan va hamma joyda chuqur ildiz otgan mahalliy qarashlar, sharoit va va odatlarga muvofiq yangi joyda o'stirilgan. Ertakning yagona afzalligi shundaki, u har doim ham to'g'ri, adolatli, yaxshi narsalarning tarafida bo'ladi va shu bilan birga, ertak - yovuzlikka qarshi asosiy kurashchi. Ertak muhim ahloqiy toifalar - yaxshilik va yomonlik haqida beg'ubor hikoya qiladi.

Ertaklar mavzusi va mazmuniga qarab tinglovchilarni fikrlashga yetaklaydi. Ko'pincha bola xulosa qiladi: "Bu hayotda bo'lmaydi". Beixtiyor savol tug'iladi: "hayotda nima bo'ladi?" bu savolga javobni bola o'z dunyoqarashidan kelib chiqib beradi. Kichikintoy bolalar ikki yoshdan boshlab ertaklarning ajoyib va sehrli olamiga kirib keladi. Biroq onalar jigargo'shalarini bunga tug'ilishi bilanoq tayyorlaydilar. Chaqaloqlarning hayotidagi birinchi adabiyot - bu ona allasidir. Go'daklar mehribon ona aytgan allalar ta'sirida ovunadilar va uxlaydilar.

Bola katta bo'lgan sayin asta-sekinlik bilan ona allasidan ertaklarga o'tiladi va bu ertaklar bolaning xotirasida bir umrga muhrlanib qoladi<sup>1</sup>. Ushbu maqolamizda ertaklarning bolalar rivojlanishida qanday o'rin tutishi haqida ma'lumotlar beriladi. Ertaklar kichikintoylarga murakkab insoniy munosabatlar, tabiat hodisalari hamda atrofdagi muhit haqida bilimga ega bo'lishga yordam beradi. Ehtimol kimdir bolaning hayotni anglab yetishi uchun ertakning o'rniga bo'lib o'tgan voqealarni to'g'ridan-to'g'ri aytish kerak, deb o'ylaydilar. Biroq psixologlarning ta'kidlashicha - aynan ertaklar orqali bolalar hayotni xavfsizroq yo'l bilan tushunib yetadilar hamda uni anglashlari osonroq kechadi.

Ertaklarni ham bolaning yoshiga qarab tanlash zarur. Bolalar uchun ertak tanlayotganda, uning yoshini va ruhan rivojlanganligini albatta hisobga olish zarur. Shunday yo'l tutilgandagina ertak bolalarga foyda keltirishi mumkin. Maktabgacha ta'lim muassasalarida kichik va katta guruhdagi bolalar uchun alohida-alohida ertaklar tanlanadi. Kichik yoshdagi guruhlar uchun ertak tanlaganda ertak qahramonlari asosan yovvoyi yoki uy hayvonlari bo'lishiga ahamiyat beriladi. Kattalarning og'zidan ertakni eshitgan bolajonlar ularga taqlid qiladilar hamda hayvonlarning harakat va ovozlari o'xshatishga harakat qiladilar. Kichikintoylar yaxshi ko'rgan ertaklarini qayta va qayta tinglashni yoqtiradilar va har tinglaganlarida ertakni ichiga kirib ketadilar.

Kichik guruhdagi bolalar uchun ertak aytilganda tarbiyachi bolalarning anglab olishlari uchun ertak qahramonlari qatnashgan ko'rgazmali rasmlardan foydalanishlari zarur bo'ladi. Kichik guruhdagi bolalar uchun ertak qisqa va qiziqarli bo'lmog'i lozim. "Bo'ri va echki bolalari" haqida ertak kichik yoshdagi bolalarga juda mos tushadi. Bunda tarbiyachi ertakni obrazga kirib, rasmlar

orqali bayon etsa bolalar uchun ertak yanada qiziqarli va esda qolarli bo'ladi. Ertakni bayon qilishda jaxldor bo'ri surati va oppoq echki bolalari surati bolalarga ko'rsatilsa bolalar uchun ertak yanada qiziqarli tuyuladi. Tarbiyachi ertakni so'zlash davomida, bolalardan "bo'ri nima debdi?", "echki nima qilibdi?", "echki bolalari qanday javob beribdi?" degan savollarni berib borsa, bolalar yanada diqqat bilan ertakni tinglashga harakat qiladi va bolada eshitgan narsasini qayta so'zlab berish qobiliyati ortadi.

Kichik guruhlarga "Bo'g'irsoq", "Zumrad va Qimmat", "Oltin tarvuz", "Dehqon bilan ayiq", "Non va tilla" (arab xalq ertagi), "Haqqush" (tojik xalq ertagi), "Danak" (qirg'iz xalq ertagi), "Qizg'anchiq Pak" (koreys xalq ertagi), "Kuchuk va topqirlik" (latish xalq ertagi), "O'tinchi yigit", "Bo'ri bilan echki" ertagi ham juda to'g'ri keladi. Bunda ham tarbiyachi bolalarga so'zlab berish va ko'rgazmali qurollar usullaridan foydalanadi. Bu ertak davomida tarbiyachi chol, kampir, bo'g'irsoqqa uchrovchi tulki, bo'ri, ayiq kabi turli hayvonlar rasmlaridan foydalansa, bo'g'irsoqning hayvonlarga javobini musiqiy asbob yordamida musiqiy usulda bayon etsa bolalarga manzur bo'ladi. Kichik guruhdagi bolalarga tavsiya etiladigan ertaklar mazmun jihatidan sodda bo'ladi. Yuqorida aytilganidek bolalarga tavsiya etiladigan ertaklar tabiat, hayvonot olami, do'stlik to'g'risida, odob-ahloq, mehnatsevarlik mazmunida bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Kichik guruhdagi bolalarga "Chivinboy", "Turna bilan tulki", "Sholg'om", "Maqtanchoq quyon" kabi ertaklarni o'qib, hikoya qilib berish mumkun. Bunda ham albatta bayon uslubi va ko'rgazmali qurollarga alohida e'tibor beriladi. Bog'cha tarbiyachilari, ota-onalar, ertakchilar oldida turgan muhim vazifa bu bolani ertak asosida ezigulik tuyg'ulariga singdirib tarbiyalashdir.

Bunday tarbiya bola hayotida alohida o'rin tutadi. Ertaklar bolalarni mehnatsevarlikka ham da'vat etadi. Bolaga yoshligidan boshlab biror yumush berish lozim, shunda bola kichik yoshdan boshlab mehnatsevar bo'lib ulg'ayadi. Bola yurishni endi boshlagan vaqtdan boshlab, unga yoshiga qarab ma'lum yumush buyurish darkor. Garchi bu yumush ish nomiga munosib bo'lmasa ham bolaga katta motivatsiya beradi. Chunki bunday yumushlar bolani mehnatni sevishga o'rgatadi. Bu borada xuddi inson kabi tinib-tinchimas, mehnatkash qumursqalar va ular haqida xalq to'qigan "Qumursqa" ertagini shu yoshdagi bolalarga o'qib, hikoya qilib, aytib berish yaxshi samara beradi. Qumursqa maqtanchoq emas, u oddiy va sodda.

Shu oddiyligi, soddaligi, mehnatsevarligi<sup>2</sup> bilan u boshqa jonzotlardan ajralib turadi. Ertakka xulosa berishda: hayotda kim ko'p ishlasa, tinim bilmay mehnat qilsa, halol yashasa, qalbi toza bo'lsa, sog'lig'i yaxshi bo'ladi, badavlat bo'ladi, xotirjam hayot kechiradi, hech kimga hech qachon zor bo'lmay hayot kechiradi qabilida bolalarga yakunlab berish lozim. Ertaklar nafaqat vaqtini o'tkazishga yordam beradi, ular bolaning tasavvurini rivojlantiradi va real hayotda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyatlarga tayyorlab beradi.

Aynan mana shu, ba'zida oddiy bo'lmagan hikoyalar asosida bola yaxshilik va yomonlik, egrilik va to'g'rilik, o'g'rilik va halollik kabi tushunchalarni, his qilish, achinish, hamdard bo'lish, yordam ko'rsatish, mehr berish kabi insoniy tuyg'ularni o'rganib, sekin-asta balog'at davriga tayyorlanib boradi. Ertaklar haqiqiy hayotni, ijtimoiy tarkibni ko'rsatadi, salbiy insoniy fazilatlarini qoralaydi.

Kichik guruhlardan farqli ravishda katta guruhdagi bolalar uchun tarbiyachi mashg'ulot olib borishda bolalarning yoshi, qiziqishi, dunyoqarashini hisobga olishi kerak bo'ladi. Bunda tarbiyachi xalq og'zaki ijodiga ham alohida e'tibor qaratishi kerak. Bolaga ertak bilan birga, topishmoq, lapar, tezaytishlar ham o'rgata borilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki xalq og'zaki ijodi ta'lim-tarbiya sohasining asosini tashkil etadi.

Shu jumladan, ertaklar ham yuksak ma'naviyatli shaxslarni tarbiyalashda muhim va kerakli manba hisoblanadi. Bugungi kunda bu manbadan unumli foydalanish keng yo'lga qo'yilgan. Katta yoshdagi bolalarga mo'ljallangan ertaklarga to'xtaladigan bo'lsak, bunday yoshdagi bolalar uchun qiziqarli, salmoqdor,

<sup>1</sup> . <https://hozirgi.org>. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar kitobxonligi

<sup>2</sup> . Gagné F. Sovg'alarni iste'dodlarga aylantirish: DMGT rivojlanish nazariyasi sifatida. N. Kolanjelo va G. A. da. Devis (Eds.), Iqtidorli ta'lim bo'yicha qo'llanma (3-nashr). Boston: Allyn va Bekon; 2002 yil. Renzulli J. S. Iqtidorni nima qiladi? Ta'rifni qayta ko'rib chiqish. Phi Delta Kappan; 1978 yil.

Matyushkin A.M. Ijodiy iqtidor tushunchasi //Psixologiya masalalari, 1989; 6. [rus tilida].

Gilbux Yu.Z. Intellektual iqtidorli bola. Kiev; 1992. [rus tilida]. [5] Yurkevich V.S. Iqtidorli bola. Moskva; 2000. [rus tilida].

Averina I.S., Shcheblanova, E.I. Ijodiy fikrlashning og'zaki testi "G'ayrioddiy foydalanish". Moskva; 1996. [rus tilida].

yaxshilik va yomonlikni ta'riflovchi, kichik guruhdagi bolalarga mo'ljallangan ertaklarning hajmiga nisbatan biroz katta ertaklar tanlanadi. Katta guruhdagi bolalarga ertak aytganda tarbiyachi: "Ertagimning eri bor, yetti qavat yeri bor, yetti qavat yerida dumi kalta bo'ri bor.", "Bor ekan-da, yo'q ekan, och ekan-da to'q ekan. Qarg'a qaqimchi ekan, chumchuq chaqimchi ekan, g'oz karnaychi ekan, o'rdak surnaychi ekan. Toshbaqa tarozibon ekan, qurbaqa undan bir tanga qarzdor ekan" kabi boshlanmalar va "shunday qilib hammalari murod maqsadlariga yetibdi" kabi tugallanmalardan bemalol foydalansa bo'ladi. Yuqoridagi she'riy uslubda yozilgan tugallanma va boshlanmalar bolalarda ertakka bo'lgan qiziqishni oshiribgina qolmay, ularda so'zga chechanlik, yod olish, so'zlarni qofiyaga solish kabi qobiliyatlarni ham rivojlantiradi.

Katta guruhdagi bolalarga "Zumrad va Qimmat", "Uch og'a- ini botirlar", "Qizil qalpoqcha", "Qor malikasi", "Opa-singil daryolar", "Bahodir tabib", "Kampir va bo'ri", "A'lochi xo'rozcha", "Yaxshivoy va Yomonvoy", "Kenja botir", "Tuz qadri" va ko'plab shu kabi ertaklarni aytib, hikoya qilib berish mumkin. Bundan tashqari katta guruhdagi bolalardan tarbiyachi "Xo'sh, bolajonlar kecha oyijoningiz sizga qanday ertak aytib berdi?", "Kecha televizorda qaysi ertakni tingladingiz?" kabi savollar bilan murojaat qilib, ularda hikoyachilikka, notiqlikka bo'lgan qobiliyatni paydo qilishi mumkin.

Katta guruhdagi bolalarga ertak so'zlab berish jarayonida ham ko'rgazmali qurollar, qo'g'irchoqlar, ertak qahramonlari rasmlari va boshqa shu kabi turli ko'rgazma buyumlaridan foydalanish yaxshi samara beradi. Katta yoshdagi bolalar bilan ertak aytish mashg'ulotlarini olib borayotganda, tarbiyachi qo'g'irchoq teatrini tashkillashtirishi ham mumkin. Bunda tarbiyachi ertak qahramonlari asosida yasalgan qo'g'irchoqlardan foydalanadi. Bu ham bolada katta qiziqish uyg'otadi. Amerika psixologlarining tadqiqotlariga ko'ra bolalar ularning yotog'iga kirib, uxlash mahalidan oldin ularga ertak aytib bergan tarbiyachini boshqa tarbiyachilarga nisbatan ko'proq yaxshi ko'rishlari va ana shunday tarbiyachilari bo'lishini orzu qilishlarini aniqlashgan.

Bolalarning ana shunday orzu-istaklari ushali uchun tarbiyachidan so'zga chechanlik, rang-barang ertaklarni ko'p bilish va hikoyachilik qobiliyatining yaxshi rivojlangan bo'lishi talab etiladi. Tarbiyachi qachonki ertakni ta'sirchan va obrazli qilib o'qib bera olsagina aytilayotgan ertakka nisbatan bolada qiziqish uyg'onadi, yo'qsa bola bu ertakni eshitmaydi hamda yodida ham saqlab qola olmaydi.

Maktabgacha bo'lgan bolalarning kitobga qiziqishini uyg'otish, o'z navbatida psixologiya, bolalar xarakteristikasini bilmay turib amalga oshmaydi. Chunki har bir bola o'z shaxsiyat va dunyoqarashiga ega. Shaxs kamoloti va uning taraqqiy etishida maktabgacha ta'lim muassasasining o'rni beqiyos. Hozirgi zamon tarbiyachisi ijtimoiy-kasbiy vazifalarni bajarish uchun yuksak ma'naviy xislatlarga ega bo'lishi umumiy va kasb ma'daniyati, ziyoliligi, axloqiy pokligi, faolligi, shaxsiy hissiyotlarga berilmasligi, ijodiy tasavvur egasi, psixik jihatdan sog'lom, davlatimiz fuqarosi sifatida mas'uliyatni his eta bilsagina sog'lom fikrli, ma'naviyatli, dunyoqarashi keng shaxslarni tarbiyalab bera oladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda endigina narsalarni idrok, fikrlash, tasavvur etish shakllana boradi. Ularda kitoblardagi qahramonlarning qiziqarli qiliqlari, kulgili voqea va hodisalar, tasodiflarni ko'proq eslab qoladilar. Tarbiyachi kitobxonlarning qiziqishlarini shakllantirish va rivojlantirishi, ularning o'qishiga rahbarlik qilishi, haqiqiy kitobxonlar bilan til topishib ishlashi lozim. Bolalar o'qishini sifatli ravishda tashkil etish va ularni zamon talabiga javob bera oladigan kishilar qilib tarbiyalash uchun, avvalo ularni har tomonlama o'rganish zarur. Ba'zi bolalar haqiqiy kitobsevar bo'lsa, ba'zilariga esa kitob o'qish yoqmaydi. Bolalarni kitobga qiziqtirishda tarbiyachi katta rol o'ynaydi.

Bunda tarbiyachi bolalar xonasiga mo'jazzgina kitob burchagi yoki "uycha" qilib berishi mumkin. Ana shunday mo'jazzgina uychar ham bolalarni kitobxonlikka undashda ancha qo'l keladi. Ota-onalar va tarbiyachilar bolalarining doimiy ravishda kitob o'qishini istashsa haftasiga hech bo'lmaganda bir marta kutubxonaga olib borishi lozim. Chunki kutubxonada bolalar turli xil kitoblarni ko'radi va ularda kitobga bo'lgan qiziqish tobora oshadi. Tarbiyachi mashg'ulotlar davomida kitoblarni tez-tez suhbat mavzusiga aylantirib turishi kerak. Hayotda bo'lgan haqiqiy voqealar, hodisalarni bolalarga so'zlab berishda ularni ertaklarga, hikoyalarga bog'lab aytib berilsa bolalarda hikoyachilik qobiliyati ortib boradi. Bu esa bolalarni nafaqat kitobxonlikka o'rgatadi balki hikoyachilik qobiliyatini ham shakllantiradi.

Tarbiyachi haqiqiy kitobxonlarning qiziqishlarini shakllantirishi va rivojlantirishi, ularning kitob o'qishiga bo'lgan qiziqishlariga rahbarlik qilishi va to'g'ri yo'nalish bera olishi, bolalar bilan kitob borasida fikr almashib, ularda kitobxonlik salohiyatini to'g'ri tarbiyalay olishi darkor. Bolalarda kitob o'qishini to'g'ri va sifatli tashkil etish, ularni davr talabiga javob bera oladigan kishilar qilib tarbiyalash uchun avvalo, ularni har tomonlama o'rganish zarur. Yuqorida aytganimizdek, ba'zi bolalar kitobsevar bo'lsa, ba'zilar kitobga umuman qiziqmaydi. Shunga qaramay barcha bolalarni kitob o'qishiga qiziqtirish mumkin. Bunda zamonaviy texnologiyalarning ham o'rni beqiyos.

### XULOSA VA TAKLIFLAR

Shaxsda kitob o'qish va kitobxonlikka ijobiy munosabatni qaror toptirish o'z-o'zidan ro'y bermaydi. Buning uchun har bir shaxsni bolalikdan kitoblar bilan tanishtirish, ularning jamiyat va inson hayotidagi ahamiyati, amaliy qiymatini tushunishlari uchun zarur pedagogik shart-sharoit yaratish bu kitobxonlikni shakllantirishga imkon beradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda kitobxonlik ko'nikmalarini shakllantirish murakkab pedagogik jarayon bo'lib, uni samarali tashkil etish maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilaridan jarayonga maqsadli, tizimli yondashishni talab etadi, shuningdek, mazkur jarayonning samarali kechishiga xizmat qiladigan omillar, ularning pedagogik-psixologik ta'siridan ham xabardor bo'lishlari zarur.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda kitobxonlik ko'nikmalarini shakllantirish tizimini yaratishga oid takliflar berildi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda kitobxonlik ko'nikmalarini shakllantirish borasidagi o'zaro hamkorlikni qaror toptirish va uni yo'lga qo'yishda badiiy adabiyotlarning tarbiyaviy imkoniyatlaridan samarali foydalanish zarur.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xalq og'zaki ijodining o'rnini ko'p yillik kuzatishlar hamda ilmiy manbalarni o'rgatish natijalaridan quyidagi xulosalarga kelindi:

- bolalar o'rtasida xalq og'zaki ijodiga (masallar, "maqollar") bag'ishlangan ko'rik tanlovlar o'tkazib borish;
- har bir yosh guruhi uchun o'zbek xalq ertaklari asosida qo'shimcha mashg'ulotlarni kiritish;
- tajribali mutaxassis-olimlar tomonidan o'zbek xalq ertaklari qahramonlarini aks ettiruvchi rasmlar, bukletlar chiqarilishi;
- ota-ona ham bolalarga ko'proq kitob o'qib berishi va ota-onalarning o'zlari ham ko'proq kitoblarni o'qishlari;
- audio ertaklarni joylash mumkin bo'lgan platformalarni yaratish.

Bolalarning jahon ertaklariga bo'lgan qiziqishi yuqoriligi aniqlandi va ularga ko'proq o'qib va tarjima qilib berishlari kerak.

Ta'lim muassasalarida "Ertaklar - yaxshilikka yetaklar" kunlari, shu kabi mavzularda konkurslar muntazam o'tkazilsa har tomonlama rivojlangan komil inson, dunyoqarashi keng, har tomonlama tafakkurli, bilimli inson tarbiyalagan bo'lamiz.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5198-son Farmoni, 30.09.2017 yil. Lex.uz.
2. Maktabgacha ta'limning davlat standarti. O'ZPFITI. T., 1995.
3. O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi 2019-yilda tasdiqlangan Qonuni.
4. Ilk qadam" Maktabgacha ta'lim muassasasining Davlat dasturi. 2018-yil. Toshkent.

5. O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari. 2018-yil. Toshkent.
6. "Yosh kitobxon" tanlovining yangi mavsumi uchun saralangan kitoblar ro'yxati //https://kun.uz/news/2018/02/01
7. Yo'ldoshev E. Kutubxonada bolalar o'qishiga rahbarlik qilish/ o'quv qo'll. -T.: O'zbekiston, 2002.-128B.
8. Kitob komillikka yetaklaydi/ metodik-bibliografik qo'll. Tuzuvchi M.Boltaboeva. Muharrir Sh.Qurbon.- T.: A.Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi, 2017.-78B.
9. Umarov A. Jamiyatda mutolaa madaniyatini shakllantirish va kutubxonachilik muammolari// "Central Asia-2004" konf.mat. - T 2004. 4-10.-B
10. Umarov A. Kitob va kitobxon: an'analar va yangiliklar// Sog'lom avlod uchun .j-T.: 2003.- №11-16-20B.
11. Umarov A. Kutubxona faoliyati va mutolaa madaniyati // Jamiyat va boshqaruv jurnali. -T.:2004.-№1.-14-18-B.
12. Umarov A. Mutolaa madaniyati (kitob inson uchunmi yoki inson kitob uchunmi?) // Hayot va qonun jurnali.-T.: 2004.-№6.-74-76-B.
13. G'aniev B. Bolalar o'qish madaniyatini tarbiyalashning muammolari// betger o'qishlari-2004 A.Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi, 2004.135- Adabiyotdagi yo'l xaritasi //http://jahonadabiyoti.uz
14. Abdullayev A/ Mutolaa madaniyati intellektual salohiyatini belgilab beradi //http://kun.uz
15. "Yosh kitobxon" tanlovini o'tkazish tartibi to'g'risida Nizom //http://pharmi.uz
16. Yoshlar va kitobxonlik madaniyati/ //http://old.xs.uz
17. Kitob afzalmi yoki internet? //http://ufq.uz
18. Kitob ziyo bulog'i //http://www.murabbiy-press.uz
19. Kitobxonlik madaniyati //http://navoiy-uni.uz



## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI BOSHQARUVIDA MEHNAT MUNOSABATLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Yusupova Ismigul

Qo'qon universiteti Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabasi

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATSIYA
<p><b>Qabul qilindi:</b> 24-may 2022-yil <b>Tasdiqlandi:</b> 26-may 2022-yil <b>Jurnal soni:</b> 4 <b>Maqola raqami:</b> 15 <b>DOI:</b> <a href="https://doi.org/10.54613/001230">https://doi.org/10.54613/001230</a></p>	<p>Maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mehnat munosabatlarini tartibga solish, boshqaruvning zamonaviy usul va metodlarini qo'llash hamda xorij tajribasining o'ziga xos xususiyatlari o'rganib chiqilgan. Shuningdek, tarbiyachi-pedagoglarning kompetensiyasi, ularning bilim ko'nikmasi va malakasini rivojlantirish bo'yicha xorijiy olimlarning qarashlari tadqiq etilib, boshqaruv faoliyati samaradorligini oshirish uchun zarur bo'lgan sinov-tajribalar hamda tahliliy so'rovnoma olib borilgan.</p>
<p><b>KALIT SO'ZLAR</b></p> <p>Maktabgacha ta'lim, rahbar, zamonaviy usullar, pedagog-kadrlar, uzluksiz ta'lim.</p>	

### KIRISH

Bugungi kunda mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tashkilotlari boshqaruvidagi mehnat munosabatlarini takomillashtirish ishlariga yangi tamoyillarni joriy etish, ta'lim muassasalarini zimmasiga yuklangan vazifalarni professional darajada bajarishga qodir bo'lgan rahbar va pedagog kadrlar bilan ta'minlash, rahbar va pedagog kadrlari tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning uzluksiz tizimini tashkil etish va takomillashtirish, pedagoglarning kasbiy mahorati sifati va darajasini muntazam oshirib borishning huquqiy-me'yoriy asoslari yaratildi va moddiy-texnik bazasi kengaytirildi.

Zamon yoshlarining jahon talabi darajasida bilim olishlari uchun bo'lajak mutaxassislarni innovatsion usullarda tayyorlash, zamonaviy ta'limni amalga oshirish bo'yicha dunyoning yetakchi oliy ta'lim muassasalari va ilmiy markazlari tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlarda bo'lajak pedagoglarning kasbiy mahorati mezonlari, innovatsion ta'lim muhitini yaratish muammolari, xalqaro ta'lim standartlari talablarining joriy qilinishiga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Olib borilayotgan tadqiqotlarda tarbiyachilarning pedagogik kompetentligi tarkibini zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayonida muvaffaqiyatli qo'llash, mashg'ulot jarayonini boshqarish kabi indikatorlar asosida kengaytirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar muhim o'rinni tutadi.<sup>1</sup>

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3955-son qarorini ijro etish maqsadida 2030-yilgacha maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish belgilandi.

Konsepsiya O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'limni rivojlantirishning maqsadlari, vazifalari, ustuvor yo'nalishlari, o'rta va uzoq muddatli istiqboldagi bosqichlarini belgilaydi hamda maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirishga yo'naltirilgan dasturlar va kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun asos bo'ladi.<sup>2</sup>

Hozirgi kunda maktabgacha ta'lim tizimidagi mavjud muammolarni aniqlash va yaxshilash ham dolzarb masala bo'lib kelmoqda. Muammoning ildizi maktabgacha ta'lim tizimiga yo'naltirilgan sifatli institutlarning yo'qligidadir. Bu shuni anglatadiki, maktabgacha ta'lim tizimi bo'yicha asosiy darajaga ega bo'lgan psixolog yoki tarbiyachi va pedagoglarning kamdir. Bundan tashqari, past sifatli maktabgacha ta'lim dasturlari va

tashkilotlari, oilaning maktabgacha ta'lim tizimiga bag'ishlangan, shaxsni shakllantirish va har tomonlama rivojlantirishga undaydigan dasturlarda kam ishtirok etishi va o'quv qo'llanmalarining yetishmovchiligi maktabgacha ta'lim tizimiga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda<sup>3</sup>.

Yuqoridagi barcha muammolarni hisobga olgan holda tarbiyalanuvchilar uchun zamon talabiga mos ta'lim va tarbiya uyg'unligini yaratish va mazkur muammolarni hal etish uchun albatta boshqaruv jarayoniga va shuningdek, samarali resurslarga e'tibor qaratish va nazorat zarurdir.

### ADABIYOTLAR TAHLILI

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida boshqaruv usul va metodlarini, tashkilot boshqaruvida samarali va foydali bo'lgan mexanizmlarni tadqiqotchi olimlar: Y.A.Konarjevskiy, V.P.Simonov, N.S.Suntsov va boshqalar funksional pedagogik tahlilning boshqaruv jarayonidagi rolini chuqur tahlil etganlar. Xuddi shu davrda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida nazorat masalalarini ishlab chiqishga N.A. Shubin, A.V. Chobotar, T.I. Shamova va boshqalar o'z hissaralarini qo'shishgan.<sup>4</sup>

O'rta asrlarda yashagan, mashhur olim Abu Nasr Farobiy jamiyat taraqqiyotida rahbarning xizmati benihoya katta ekanini ta'kidlab, o'zi orzu qilgan adolatli jamiyat rahbari bir qator fazilatlariga ega bo'lishi lozimligini alohida uqtirib o'tgan. "Kimki birovni baxt va saodatga erishtirish uchun zarur bo'lgan ish-harakatlarga ruhlantira olish qobiliyatiga ega bo'lmasa va bu ish-harakatni bajara olishga qudratsiz bo'lsa, bunday odam sira ham rahbar bo'la olmaydi. Ular yo'l-yo'riqlarni o'tmishda yashab o'tgan boshliqlardan o'rganadilar, lekin shu bilan birga, rahbar kelajak o'tmishdagi rasm-rusm, yo'l-yo'riqlarni isloh qilishni lozim topsa, turmush sharoiti taqozosiga qarab o'zgartiradi. Shuningdek, yomon odatlarni o'zida ifodalovchi o'tmishni ham o'zgartirmog'i kerak. Aks holda o'tmishning talablariga rioya etib, uning kayfiyati saqlansa, turmushda hech qanday yangillik, o'zgarish va o'sish ham bo'lmaydi.

Shuningdek, so'nggi paytlarda tashkilotlarga va ularning qurilishiga qiziqish sezilarli darajada oshdi, chunki maktabgacha ta'lim tashkilotlari boshqaruvchilarining fikriga ko'ra, ularning faoliyati samaradorligini oshirish imkoniyatiga ham ega. Zamonaviy fanda tashkilotlarni samarali boshqarish muammolariga katta e'tibor berilmoqda. Bir qator chet el olimlarining fikriga ko'ra, boshqaruv samaradorligi konsepsiyasi

<sup>1</sup> F.U.Jumanova. "Boshqaruv ilmiya sharh mutaffakirlarining ilmiy qarashlari". Academic research in educational sciences. Volume 2 [ISSUE4]2021. ISSN:2181-1385. Scientific Journal Impact Factor (SJIF)2021: 5.723

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3955-son qarori.

<sup>3</sup> Hidoyatova D.A. "Maktabgacha pedagogika moduli bo'yicha o'quv uslubiy majmua" Tosh., 2018.

<sup>4</sup> Царегородцева Елена А. Организация системы внутреннего контроля в дошкольной образовательной организации. – Екатеринбург.2017.с26.



tashkilot faoliyatining turli jihatlarini bilan bog'liq; faoliyat maqsadlari va maksimal natijaga erishish, boshqaruv mexanizmi va funksiyalarini amalga oshirishning to'liqligi, resurslardan oqilona foydalanish va tashkilotdagi jarayonlarni optimallashtirish zarurdir.<sup>5</sup>

Ushbu vazifalarni amalga oshirish oliy ta'lim professor va o'qituvchilaridan mahoratli tarbiyachi-pedagog tayyorlashga katta mas'uliyat bilan yondashishni talab etadi. Bu borada bir necha o'zbek tadqiqotchilari hamda professorlari maktabgacha ta'lim sohasida nazariy tadqiqotlar, shu bilan birga tarbiyachi-pedagoglar kasbiy kompetentlikka ega bo'lishlari uchun zarur bo'lgan bilimlarni berayotganini ko'rishimiz mumkin.

Ulardan Q.R.To'xsanov maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagogik jamoasining o'rnini va mazkur jamoa qay holda har bir bolaning qiziqishlariga, qobiliyatiga va ehtiyojlariga alohida e'tibor berishi kerakligi, hamda tarbiyalanuvchilarni qo'llab-quvvatlashlari va o'zlashtirish ko'nikmalarini shakllantirishlari kerakligi haqida "Maktabgacha ta'limda kompetensiyaviy yondashuvlar, istiqbollar muammolar va yechimlar" mavzusidagi ilmiy anjumanda ko'plab fikrlarni aytib o'tgan.<sup>6</sup>

Ijtimoiy boshqaruv nazariyasi va tashkiliy tizimlarni V.N.Burkov, P.F.Draker, Ya.Zelenevskiy, V.A.Irikov, A.A.Radugin kabi chet el olimlari mahalliy va xorijiy adabiyotlar tahlilining boshqaruv nazariyasida ko'rsatishgan. Bundan tashqari ta'lim tashkilotlari hozirgi bosqichda jamiyat umumta'lim tashkilotlarini boshqarishning turli jihatlarini boshqaruvning turli muammolarini hal etish uchun nazariy shart-sharoitlarni E.S.Bereznyak, P.V.Xudominskiy, T.I.Shamovalar ishlarida ha'm ko'rib chiqilgan.<sup>7</sup>

T.I. Shamova "Maktabgacha ta'lim muassasasida nazorat tizimi" nomli o'quv uslubiy qo'llanmasida, mazkur holatlarda biz rejalashtirish holatini asosiy funktsiya deb olamiz." – deb ta'kidlab o'tgan.

S.A.Ezopovanning fikriga ko'ra, MTTda nazorat – bu boshqarishga qaratilgan harakat, maqsadlarga erishish darajasini bayon qilish, olinganlarni taqqoslash, rejalarda belgilangan kutilgan natijalar ekanligini aytib o'tgan. Shuningdek, N.A.Sorokinning fikriga ko'ra, nazorat – shartli ma'noda, tekshirish maqsadida amalga oshirilgan, tizimli hisob va monitoringni anglatadi.<sup>8</sup>

Ta'lim-tarbiya jarayoni mazmunining xilma-xilligi, maktabgacha ta'lim tashkilotlariga mutaxassislarining kirib kelishi yaxlit ta'lim jarayoni doirasida guruh tarbiyachilari va bo'shatilgan mutaxassislar o'rtasidagi uzluksizlik va muvofiqlashtirishning ta'minlanmaganligiga olib kelmoqda. Bu rahbarlar uchun gorizontal aloqalarni rivojlantirish, faoliyatni muvofiqlashtirish vositalari va usullarini topish, maktabgacha ta'lim tashkilotlari xodimlari o'rtasidagi aloqalarni rivojlantirish muammosini qo'yadi.

Shu bilan birga, rahbarlar tomonidan mavjud tashkiliy tuzilmaning yangi tarkibiy bo'linmalar va lavozimlarini yaratish, maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatining o'ziga xos xususiyatlariga muvofiq lavozim majburiyatlarini o'zgartirish va qayta taqsimlash bo'lmagan imkoniyatlardan foydalangan holda o'zgartirishga urinishlar, ya'ni an'anaviy tashkil etish usullari mavjudligi kuzatildi.

Bunday hollarda maktabgacha ta'lim tizimi xodimlari hamda rahbariyati o'zbek hamda chet el olimlarining ta'lim tizimi uchun ma'qul va mos keluvchi nazariy hamda amaliy bilimlariga tayangan holda, maktabgacha ta'lim tizimining boshqaruv shaklini takomillashtirilishlariga umid qilamiz hamda o'ylaymizki biz olib borgan mavzudagi tajribalarimiz natijasida dunyo tarbiya usullarini milliyalashtirgan holda bolalarga ta'lim va tarbiya berishning bosh g'oyalari kelgusida yana ham to'ldirilib, mukammal holga keltiriladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Har bir tamoyil xodimlarni boshqarishning u yoki bu jihatini takomillashtirishga xizmat qiladi. Masalan, ilg'orlik tamoyili korxonada doirasidagi boshqaruv tizimining chet el yoki mahalliy ilg'or korxonalar boshqaruv tizimiga mos keladimi, zamon talabiga javob beradimi yoki yo'qmi degan savolga javob bersa, muvoziylik tamoyili esa xodimlar boshqaruvidagi tezkorlikni oshiradi va hokazo.

Maktabgacha ta'lim tizimini yaxlit uzluksiz ta'lim tizimining muhim bo'g'ini sifatida yanada takomillashtirish, maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish hamda moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni har tomonlama intellektual, ma'naviy-estetik va jismoniy rivojlantiruvchi zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini ta'lim-tarbiya jarayoniga joriy etish, ularning maktabga tayyorgarlik darajasini tubdan oshirish maqsadida maktabgacha ta'lim sohasini yanada kengaytirish va shu soha uchun ixtisoslashtirilgan davlat korxonalarini tashkil etish hamda mazkur korxonalarini investitsiya bilan ta'minlash, kadrlar boshqaruvi uchun keng qamrovli loyihalarni tashkil etish ko'zda tutiladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatida moliyaviy-iqtisodiy shart-sharoitlar boshqaruv rahbarlari tomonidan amalga oshirilgan ekan, ular oldida boshqaruv samaradorligini oshirish va maktabgacha ta'lim tashkilotidagi mavjud resurslardan oqilona foydalanish vazifasi turadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini boshqarishning muvaffaqiyati: o'quv rejasi, infratuzilma, marketing, tarbiyalanuvchilar (shartnoma asosida) va ishchi xodimlar rahbariyat tomonidan mehnat shartnomasi asosida ishga qabul qilinadilar. Boshqaruvning eng muhim yo'nalishlaridan biri bu ta'lim xodimlarini tartibga soluvchi boshqaruv yo'lidir. Chunki bu boshqaruv usuli ishchi-xodimlarning tarbiyalanuvchilarni rivojlantirish uchun qanday sharoitlarni ta'minlashini belgilaydi.<sup>9</sup>

Korxonada band bo'lgan barcha xodimlar ikki toifadan iborat: ishlab chiqaruvchilar yoki xizmat ko'rsatuvchilar va boshqaruvchilar (rahbarlar, mutaxassis-menejerlar). Xodimlarni, ya'ni inson omilini boshqarish quyidagi jihatlarini boshqarishni o'z ichiga oladi.

**Tarbiyachi-pedagogning kasbiy standarti** – maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagogining shaxsiy kasbiy sifatleri, bilimlari, mahorati va ko'nikmalariga doir asosiy talablar majmui hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi qonunining 42-moddasi<sup>10</sup> da tarbiyachi-pedagogning kasbiy standarti belgilab berilgan bo'lib, unga quyidagilar kiradi:

- kadrlar siyosatini shakllantirish;
- pedagog kadrlarni ishga qabul qilish;
- mehnat shartnomalarini tuzish;
- lavozim yo'riqnomasini ishlab chiqish;
- mehnatga haq to'lash;
- pedagoglar o'qishini tashkil etish;
- maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglarini attestatsiyadan o'tkazish.

Pedagogning kasbiy standarti hududlarning madaniy, demografik va boshqa xususiyatlarini inobatga olingan holda talablar bilan to'ldirilishi izohlanib, pedagogning shaxsiy sifatlariga nisbatan uning bilimlari, mahorati va ko'nikmalaridan ajralmas bo'lgan talablar qo'yadi. Pedagogning malaka toifasi pedagogning kasbiy standartiga muvofiq beriladi.

<sup>5</sup> С.И.Анатольевна. Содержание и пути совершенствования организации как функции управления дошкольным образовательным учреждением. – М. 1999.

<sup>6</sup> "Maktabgacha ta'limda kompetensiyaviy yondashuvlar, istiqbollar muammolar va yechimlar" Respublika masofaviy ilmiy-amaliy anjumani ilmiy maqola va tezislari to'plami., Bux.2015. 95 bet

<sup>7</sup> Абрамова Т.В. Управление аналитической деятельностью педагогического коллектива в образовательном учреждении. Автореф. дис. канд. пед. наук. - Челябинск, 1996. - 23 с.

<sup>8</sup> А.А. Гуз. Система контроля в дошкольном учреждении. учебно-методическое пособие., Минск.2010.стр10

<sup>9</sup> "Maktabgacha ta'limda kompetensiyaviy yondashuvlar, istiqbollar muammolar va yechimlar" Respublika masofaviy ilmiy-amaliy anjumani ilmiy maqola va tezislari to'plami., Bux.2015. 95 bet

<sup>10</sup> O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrda O'RQ-595-sonli "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonuni. <https://lex.uz/docs/-4646908>

1-jadval

Xodimlarni boshqarish tizimi<sup>1</sup>

T/r	Tizim	Boshqarish obyektlari
1	Ish sharoiti	-mehnatning ruhiy-fiziologik talablariga rioya qilish; -mehnat ergonomikasi talablariga rioya qilish; -mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligini ta'minlash; -tabiatni muhofaza qilish va hk.
2	Mehnat munosabatlari	-shaxsiy va guruhlar munosabatlarini tahlil qilish va muvofiqlashtirish; -rahbarlar munosabatlarini tahlil qilish va muvofiqlashtirish; -ishlab chiqarishdagi ixtiloflar, nizolar, asabbuzarliklarni boshqarish;
3	Kadrlarni hisobga olish va rasmiylashtirish	-kasaba uyushmalari bilan o'zaro munosabatlarni boshqarish va hk. -ishga qabul qilish, ishdan bo'shatish, bir joydan ikkinchi joyga o'tishlarini rasmiylashtirish; -kadrlar boshqaruv tizimini axborotlar bilan ta'minlash; -kasbiy yo'nalishlarni aniqlash; -bandlikni ta'minlash.
4	Xodimlarni rejalashtirish	-xodimlarni boshqarish strategiyasini ishlab chiqish; -kadrlar salohiyatini tahlil qilish; -mehnat bozorini o'rganish, xodimlarga bo'lgan ehtiyojni rejalashtirish, reklamani uyushtirish; -korxonani kadrlar bilan ta'minlovchi tashqi manbalar bilan aloqasini o'rnatish; -vakant (bo'sh) joylarga nomzodlarni aniqlash va baholash; -kadrlarni joriy baholab borish.
5	Kadrlarni rivojlantirish	-kadrlarga iqtisodiy va texnikaviy bilimlar berish; -qayta tayyorlash va malakasini oshirish; -zahiradagi kadrlar bilan ishlash; -amal va martabani nazorat qilish va rejalashtirish; -yangi xodimlarning kasbiy va ijtimoiy-psixologik ko'nikmalarini ta'minlash.
6	Mehnatni rag'batlantirish vositalarini takomillashtirish	-mehnat jarayonlarini me'yorlashtirish va tarifikatsiyalash; -ish haqi tizimini ishlab chiqish; -ma'naviy rag'batlantirish vositalaridan foydalanish; -foyd va kapitalga qatnashish hissasini ishlab chiqish; -motivatsiya va uni boshqarish
7	Huquqiy xizmat	-mehnat munosabatlaridagi huquqiy masalalarni yechish; -xodimlarni boshqarishga taalluqli, farmoyishli hujjatlarni kelishtirish; -xo'jalik faoliyatidagi huquqiy masalalarni yechish;
8	Ijtimoiy tuzilmani rivojlantirish	-umumovqatlanish muassasalarini boshqarish; -kommunal xo'jalik sohasini boshqarish; -jismaniy tarbiya va madaniyatni rivojlantirish; -sog'liqni muhofaza qilish va hordiq chiqarishni ta'minlash; -bolalar muassasalari bilan ta'minlash; -ijtimoiy nizolarni boshqarish; -xalq iste'mol mollari va oziq-ovqat mahsulotlarining sotilishini ta'minlash
9	Boshqarishning tashkiliy tarkibini ishlab chiqish tizimi	-boshqarishning shakllangan tashkiliy tarkibini tahlil qilish va loyihalashtirish; -shtatlar ro'yxatini ishlab chiqish; -boshqarishning yangi tashkiliy tarkibini tuzish.

2-jadval

Xodimlarni boshqarishning asosiy tamoyillari<sup>2</sup>

T/r	Xodimlar bilan ishlashning umumiy tamoyillari	T/r	Xodimlar bilan ishlashning tashkiliy tamoyillari
1	Samaradorlik	1	Konsentratsiya
2	Ilg'orlik	2	Ixtisoslashtirish
3	Istiqbollilik	3	Muvoziylik "Parallelnost"
4	Komplekslilik	4	Ixchamlik (Adaptivnost)
5	Tezkorlik	5	Izchillik (Preyestvennost)
6	Optimallik	6	Uzluksizlik
7	Oddiylik	7	Bir meydalik
8	Ilmiylik	8	Texnologik birlik
9	Ko'p bog'inlilik	9	Badastirlik (Komfortnost)
10	Avtonomlik	10	Boshqarishda kollegialik
11	Barqarorlik		
12	Ko'p qirralilik		
13	Rejalilik		
14	Rag'batlantiruvchi		
15	Tanlash va joy-joyiga qo'yish		
16	Samarali bandlik		

<sup>1</sup> Abdurahmonova G.K. Inson resurslarini boshqarish, darslik, O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Toshkent 2019, 403 bet

<sup>2</sup> Abdurahmonova G.K. Inson resurslarini boshqarish, darslik, O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Toshkent 2019, 403 bet

### TADQIQOT NATIJALARI

MTT rahbarlari oldiga juda mas'uliyatli ishlar, ya'ni o'z xodimlarining malakasini oshirish va ularga shart-sharoitlar yaratib berishlari hamda tarbiyachi, logoped, musiqa xodimi, nutq terapevtlari, defektologlar va psixolog yetakchilarining sonini ko'paytirish va ularning estetik salohiyatlarini yanada oshirish kabi dolzarb vazifa turibdi.

Biz olib borgan tadqiqotimiz – MTT tizimi boshqaruvida mehnat munosabatlarini takomillashtirish jadvallari hamda

natijalar asosida tahlil qilindi. Shu tufayli biz tavsiya qilgan metodologiyani hali yana ko'plab usullar orqali davom ettirsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

MTT tizimida qator rahbarlar, ishchi-xodimlar va ota-onalar orasida olib borgan so'rovlarimiz tahlili ham quyidagi natijalarni ko'rsatdi. So'rovnomamizda jami 100 nafar qatnashuvchining MTT tizimidagi malaka sifati bog'cha resurslariga berilgan tasnif (3-jadval)


3-jadval

#### Maktabgacha ta'lim tashkilotini rivojlantirishning umumiy holati tahlili<sup>1</sup>

	Juda kam	O'rtacha	Yetarli
Tarbiyachilarning malaka va ko'nikmasi	1	2	3
Nutq terapevtlari, defektologlar, psixologlarning malakasi	1	2	3
Musiqachi va jismoniy tarbiya murabbiylari	1	2	3
O'quv qo'llanmalari, bolalar adabiyoti, uslubiy adabiyotlar	1	2	3
Kompyuterlar va boshqa axborot texnologiyalari	1	2	3
o'quv xonalari, o'yin xonalari, o'yin maydonchalari	1	2	3
Bolalar mebellari va jihozlari	1	2	3
O'yinchoqlar va sport anjomlari	1	2	3
Inklyuziv uchun manbalar ta'lim (uskunalar, liftlar, rampalar va boshqalar. Bolalar uchun cheklangan qobiliyatlar bilan sog'liq va nogiron bolalar)	1	2	3
Pedagoglar uchun rag'batlantirish fondlari	1	2	3
Pedagoglar malakasini oshirish uchun mablag'lar	1	2	3
bolalar bog'chasi boshqaruvi uchun dasturiy ta'minot	1	2	3

4-jadval


#### 1-rasm. Maktabgacha ta'lim tashkilotini rivojlantirishning umumiy holati natijasi<sup>2</sup>



Bundan shuni ko'rishimiz mumkinki, o'tkazilgan so'rovlar natijasida 27% qatnashuvchilar "yetarli" degan fikr bildirishgan, 35% i esa mazkur jarayonni "o'rtacha" deb hisoblashgan, eng katta qismni esa 38% bilan "juda kam" degan fikrda ekanliklarini yuqoridagi diagrammada ko'rishimiz mumkin. Ushbu so'rovnoma aksariyat ota-onalar o'rtasida olib borildi. Natijalar asosida shularni aytishimiz mumkinki, malaka sifatini yanada oshirish maqsadida MTT tarbiyachi va boshqa xodimlari uchun malaka kurslarini uzaytirish talab qilinadi.

Yuqorida keltirilgan jadvaldan shuni ko'rishimiz mumkinki, 2020, 2021 va 2022-yillar hisobida pedagoglarning malakasi oshirib borilishi yo'lga qo'yilgan. Yuqoridagi so'rovnomamizda ham jami 37 nafar qatnashuvchi umumiy hisobda ovoz qoldirishgan. (2022-yil hisobiga ko'ra).

Yuqoridagi natijalardan shuni ko'rishimiz mumkinki, yil sayin oliy ma'lumotli kadrlar soni ortib bormoqda. Bu ko'rsatkichlarning yuqori sur'atlarda oshirishini ta'minlash uchun, avvalo sifatli institutlar sonini oshirishimiz zarur.



5-rasm. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagog xodimlarining malaka tarkibi

<sup>1</sup> Muallif so'rovnomasi

<sup>2</sup> Muallif so'rovnomasi

Maktabgacha ta'lim tashkiloti funksiyasi ta'lim tashkilotlari rahbarining faoliyatida alohida ahamiyatga ega bo'lib, u maktabgacha ta'lim tizimida tarbiyalanuvchilarni ta'lim va tarbiya olishlarini ta'minlaydigan tashkiliy tuzilmalarni yaratishni, shuningdek, tashkilotning moslashuvchanligini ta'minlashlari e'tiborga olindi. Butun ta'lim tizimi ichki va tashqi muhitining doimiy o'zgaruvchan sharoitlariga, shu bilan birga, maktabgacha ta'lim tashkilotining funksiyasi o'zaro bog'liq bo'lgan holda boshqa boshqaruv funksiyalari (rejalashtirish, nazorat qilish, tartibga solish, pedagogik tahlil) bilan o'zaro ta'sir qiladi va shuning uchun

maktabgacha ta'lim tashkiliy funksiyasining funksional integratsiyasi barcha muammolarni hal qilishi va umumiy maqsadga erishish samaradorligini belgilashi ko'zda tutilganligi e'tiborimizdan chetda qolmadi.<sup>1</sup>

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini boshqarish amaliyotida tashkilot funksiyasining holatini tahlil qilish vaqtida tashkilotlar rahbarlarining tizim funksiyasining ahamiyati va mohiyatini yetarli darajada bilmasligi, uning faoliyatiga ta'sir ko'rsatish qobiliyati, tashkiliy tuzilmalarni takomillashtirish, tashkiliy mexanizmni ishlab chiqish kabi muammolarni aniqladik.

6-jadval

Maktabgacha ta'lim tashkiloti xodim va tarbiyachilarning soni

Xodimning lavozimi	Umumiy	O'rindosh	Doimiy ishchilar (asosiy shtatdagi)
Tarbiyachilar	10	1	9
Boshqa o'qituvchilar (logoped, musiqa xodimi va boshqalar.)	8	2	6

So'rovnomaga natijasiga ko'ra, tashkilotdagi 350 nafar tarbiyalanuvchilar uchun 10 nafar tarbiyachi, 2 nafar logoped, 2 nafar musiqa xodimi, 1 nafar psixolog va 1 nafar jismoniy tarbiya yo'riqchisi faoliyat yuritishiga guvoh bo'ldik. Ushbu maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiyalanuvchilar sifatli talim-tarbiya olishlari uchun tarbiyachilar sonini oshirish yoki tarbiyalanuvchilar sonini qisqartirish taklifini kiritdik.

Shuningdek, maktabgacha ta'lim jarayonida tarbiyalovchilarga rahbarlar tomonidan uzoq muddatli va tizimli ravishda o'z ish jarayonlarini rejalashtirish talabi qo'yilishi maqsadga muvofiqdir. O'z ish vazifalarini rejalashtirish asosida bajarish nafaqat pedagoglarga balki psixologlarga ham tarbiyalanuvchilar bilan ishlash uchun mos vaqt ajratishlari va harakat qilishlariga imkon beradi. Rejalashtirish uzluksizlikni ta'minlashga yordam beradi hamda xodimlar uchun boshlang'ich nuqta vazifasini bajaradi.

Bundan tashqari, rahbarlar tomonidan xodimlar oldiga yillik reja asosida ish yuritishlari talabi ham qo'yilishi maqsadga muvofiqdir. Shunday ekan ish xodimlari, pedagog-psixolog tarbiyachilar, qisqaroq yoki uzoqroq muddatlar uchun hamda bolalar guruhlari yoki yakka tartibda yillik reja ishlab chiqishlari talab qilinadi.<sup>1</sup>

Yillik reja bolalar bog'chasi xodimlari uchun vosita bo'lib, u bolalar bog'chasining qarorlari va mulohazalari hujjatidir. Yillik reja hokimiyat organlari, bolalar bog'chasining hamkorlari va boshqa manfaatdor tomonlar bilan bolalar bog'chasining pedagogik amaliyoti haqida ma'lumot taqdim etishlari mumkin.

Kadrlar tayyorlash modelida uzluksiz maktabgacha ta'lim tizimining barkamol avlodni shakllantirish imkoniyatlari vazifalari belgilab berilgan. Maktabgacha ta'limning yangi "maktabgacha ta'lim vazifasi barkamol, sog'lom, har tomonlama kamol topib shakllanishini ta'minlovchi, bolalarda o'yinga, mehnatga, o'qishga intilish uyg'otuvchi, bolalarni maktabda ta'lim olishga "undovchi" konsepsiya mavjuddir.<sup>2</sup>

### TADQIQOT MUHOKAMASI

Xususiy va davlat bolalar bog'chalari rahbarlari va xodimlari o'zlarining tajriba va bilimlariga tayanib, belgilangan maqsadlarni, ya'ni yosh avlodni maktab tizimi uchun sifatli darajada bilim berib, ularni tayyorlashlari va shu talablarni qondirish uchun birgalikda harakat qilishlari muhim hisoblanadi. Muhokamalarimiz natijasi shuni ko'rsatdiki, bolalar bog'chalari rahbarlari, pedagog - tarbiyachilar o'z oldilariga qo'yilgan vazifalarni bajarishlari uchun sifatli ta'lim tizimiga tayanishlari lozim.

Biz olib borgan tadqiqotlar natijasida shu ma'lum bo'ldiki, bolalar bog'chasi rahbari bolalar bog'chasining amaldagi qonun va qoidalarga muvofiq ishlashi hamda ish joyidagi tarbiyalovchi

xodimlarning o'z vazifalarini astoydil bajarishlarini ta'minlashi uchun javobgarlikni his qiluvchi shaxs bo'lib, bolalar bog'chasi ta'minoti sifatida uchun qonuniy javobgardir. Shuning uchun MTT rahbarining boshqaruv ishlarida xodimlarning kasbiy va pedagogik mulohazalari inobatga olinishi lozim.

Rahbar maktabgacha ta'lim tashkilotlarining tashkilotchisi, rahbari, malakali pedagog, uning faoliyati maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni komil inson qilib tarbiyalash vazifalarini to'laqonli hal etishga qaratilgan. U bolalar muassasalaridagi ta'lim-tarbiyaviy, pedagogik va gigiyenik talablar muvofiq ravishda amalga oshirilishi uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlaydi. O'z jamoasida ishchanlik, maqsadga qaratilgan inoqlik vaziyatini yaratadi. Ularga umumiy rahbarlik qiladi. Rahbar o'z ishida davlatimiz va Xalq ta'limi vazirligi tomonidan qabul qilingan qaror, qonunlarga amal qiladi va o'z ustida ijodiy ravishda ishlashni amalga oshiradi. Yuksak ongillik va siyosiy yetuklik, prinsiplilik, o'ziga va qo'l ostidagilarga talabchanlik mudiraga qo'yiladigan asosiy talablardir.

Jamoadagi o'zaro to'g'ri munosabatlar har bir xodimning mehnat va ishlab chiqarish intizomiga rioya qilishini nazorat qiladi. Rahbarlik mavqeyi mudirani o'z g'oyaviy, ma'naviy-ma'rifiy, siyosiy-huquqiy saviyasini va mutaxassislik mahoratini doimo ongli ravishda oshirishga, pedagogik bilimlarni, bolalarga ta'lim-tarbiya berish nazariyasi va amaliyotini puxta egallashga, hozirgi bosqichda maktabgacha ta'lim oldida turgan vazifalarni bilishga, o'z bilimlaridan faoliyatida foydalanishga majbur etadi. U dastur, metodik, instruktiv me'yoriy hujjatlarni puxta bilishi va amal qilishi kerak. U pedagogik jarayonning mohiyatini chuqur bilishi, kamchiliklarni darhol bartaraf qilish choralarini ko'rish lozim.<sup>3</sup>

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kadrlar rezervini shakllantirib, ular bilan doimiy ish olib boradi. Rahbar bolalar bog'chasining butun faoliyatiga, bolalar bog'chasini obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish ishlariga rahbarlik qiladi. Smeta bo'yicha xarajatlarni to'g'ri taqsimlash, muassasani oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash tartibini to'g'ri tashkil etish, bog'chani rejadagi bolalar bilan to'ldirish, ta'lim-tarbiya dasturining bajarilishi uchun javobgar, yozgi sog'lomlashtirish ishlari, pedagogik va xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning bilimi, ishga nisbatan munosabati, ularning malakasini oshirish ishlari bo'yicha bosh rahbardir.<sup>4</sup>

Shunday ekan maktabgacha ta'limni rivojlantirish uchun quyidagilarni amalga oshirish lozimligi ham bizning e'tiborimizdan chetda qolmadi:

- malakali tarbiyachi va pedagog kadrlarni ustuvor ravishda tayyorlash;
- maktabgacha ta'limning samarali pedagogik uslublarini izlash va joriy etish;

1 Khasanova Gulnoz Kasimovna, Nigmatova Mavjuda Mahmudovna. Classification of Educational Activities and Assessment Classifications Improvement of Pedagogical Problems//International Journal of Advanced Science and Technology, Vol. 29, No. 11s, (2020), pp. 1958-1961

1 С.И.Анатольевна. Содержание и пути совершенствования организации как функции управления дошкольным образовательным учреждением. – М. 1999.

2 Lex.uz. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi.

3 M.T.Hamdamonovning "Malaka oshirish jarayonida maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarining boshqaruv kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish" mavzusidagi (PhD) dissertatsiyasi. 2020 yil.

4 M.A.Ismanova. MTT rahbarlik qilish va tashkil etish yo'llari. Akademik research in educational sciences. Journal. 2021.

- bolalarni oilada tarbiyalashni tashkiliy, pedagogik va uslubiy jihatdan ta'minlash;

- zamonaviy o'quv-uslubiy qo'llanmalar, texnik vositalar, o'yinchoqlar va o'yinlar yaratish hamda ularni ishlab chiqarish;

- maktabgacha yoshdagi bolalarni xalqning boy madaniy-tarixiy merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida ma'naviy-ahloqiy jihatdan tarbiyalash uchun shart-sharoitlar yaratish;

- maktabgacha tashkilotlarning har xil turlari uchun turli variantlardagi dasturlarni tanlab olish,

- maktabgacha ta'limning barcha masalalari bo'yicha malakali maslahat xizmati ko'rsatish imkoniyatini yaratish;

- maktabgacha ta'lim va sog'lomlashtirish tashkilotlari tarmog'ini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish mexanizmini ishlab chiqishdan iboratdir.<sup>5</sup>

Zamonaviy maktabgacha ta'lim tizimi ta'lim tashkilotlarining xilma-xilligi, qo'llaniladigan o'zgaruvchan dasturlar va pedagogik texnologiyalar doirasining kengayishi, pedagogik faoliyat va ta'lim jarayonini amalga oshirishga innovatsion yondashuvlarning keng rivojlanishi bilan tavsiflanadi. Bu pedagog kadrlarni, ayniqsa, maktabgacha ta'lim tashkilotlarining maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash va tarbiyalashning muayyan yo'nalishlariga ixtisoslashgan pedagog kadrlarini tayyorlash va qayta tayyorlash tizimiga jiddiy tuzatishlar kiritishni taqozo etadi.<sup>6</sup>

Pedagogik kadrlar malakasini oshirish muammolari bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borildi, lekin ular asosan o'qituvchilar va umumta'lim maktablari rahbarlari bilan tarbiyaviy ishlarni tashkil etishga taalluqlidir. Maktabgacha ta'lim xodimlarining (tarbiyachilar, musiqa direktorlari, qo'shimcha ta'lim o'qituvchilari) malakasini oshirish masalalari bo'yicha tadqiqotlar asosan bolalar bog'chasidagi tor kasbiy tayyorgarlik va uslubiy ishlar (masalan, bolalarga rasm chizish texnikasini o'rgatish, adabiyotga qiziqishni rivojlantirishga) tegishli. Shuningdek, o'qituvchilarning malakasini oshirish masalalari alohida tor muammoga, masalan, katta maktabgacha yoshdagi bolalarda vizual faoliyatda rang tuyg'usini shakllantirish xususiyatlariga tegishli ishlar mavjud.<sup>7</sup>

Ilmiy adabiyotlar va pedagogik amaliyotni tahlil qilish, estetik tarbiya bilan shug'ullanadigan maktabgacha ta'lim tashkilotlari xodimlarini kasbiy tayyorlash bo'yicha ta'lim tashkilotlarini o'rganish muhim qarama-qarshiliklarni aniqlashga imkon berdi. Bular orasida sifatga bo'lgan doimiy o'sib borayotgan talablar, tarbiyalovchining ishi va uning kasbiy madaniyatini rivojlantirish uchun oqilona modelning yo'qligi; estetik tarbiya jarayonida bolaning individualligini yo'naltirishga bo'lgan ehtiyojning tobora ortib borishi va bolaning boshqaruv bilan tenglashishga bo'lgan an'anaviy istagi; bolaga insonparvar, xayrixoh munosabatda bo'lish zarurati, tarbiyalovchini u bilan teng munosabatda bo'lishi va uning ta'lim jarayoniga ta'sir ko'rsatish usullari o'rtasida estetik tarbiya jarayonida san'atning har xil turlarini mujassamlashtirish zarurati bilan oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limning tashkiliy shakllari va mazmunining konservativizmi, o'qitiladigan fan doirasi bilan chegaralanganligi o'rtasida kasbiy bilimlarini to'ldirishning doimiy nazorat qilinadigan jarayonini tashkil etish zarurati bor ekanligi ayon bo'ldi.<sup>8</sup>

Demak maktabgacha ta'lim tizimi jarayonida ish beruvchi va tarbiyalovchi xodim o'rtasidagi shartnomada ham yuqorida keltirilgan jarayonlar o'z aksini topishi kerak, degan to'xtamga kelsak bo'ladi.

Muhokamalar natijasi shuni ko'rsatdiki, maktabgacha ta'lim tashkiloti boshqaruvidagi shartnoma asosida ishga oluvchi rahbar bir vaqtning o'zida pedagogning kasbiy mahorati hamda ularda umumiy madaniyat va aql-zakatning yuqori darajada rivojlanganligiga, pedagogika va psixologiya fanlari sohasida bilimlarga ega bo'lganligiga, o'qitish va tarbiyalash ishlari tajribasidan erkin va puxtalik bilan foydalana bilishiga, o'quv-

tarbiya ishlari metodikasini mukammal egallaganligiga, mutaxassisligiga doir keng va chuqur bilim sohibi bo'lishi kabilarni e'tiborga olib va ishga shartnoma asosida qabul qilishda ularga sinov muddati ham joriy etib, ularni mehnat davomida kuzatishi maktabgacha ta'lim tizimining rivojlanishiga o'z hissasini qo'shadi, degan firkdamiz.<sup>9</sup>

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida maktabgacha yoshdagi tarbiyalanuvchilarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan pedagogik jarayon murakkab va rang-barang hisoblanadi. "Sifat" kategoriyasi kontekstida maktabgacha ta'limning metodologik va nazariy asoslarini aniqlab, ular asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim samaradorligini takomillashtirish jarayonining modeliga duch keldik. (1-rasm)

Ta'lim-tarbiyaviy ishlarining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi pedagogik jarayonni, har bir faoliyat turini to'g'ri tashkil etishga bog'liq.

Ta'limga yangi pedagogik texnologiyalarni tatbiq etadigan bo'lsak, bu yo'lda albatta malakali va shu soha ichidagi bilim egalardan to'g'ri yo'nalish olishimiz mumkin. Bunda, Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika instituti professor-o'qituvchilari yordamida konferensiyalar va ilmiy-tadqiqot ishlarni tashkil etish hamda mazkur konferensiyalar davomida yangi bilim va pedagogik-texnologiyalarni o'rganib, ularni keyinchalik boshqa kadrlar bilan baham ko'rsak, albatta rivojlanishda oldinga siljijimiz, demakdir. Ammo barchamiz bilimimiz, mamlakatimizdagi pedagogika fanlarini o'qitishda ta'lim-tarbiya jarayoniga texnologiyani tatbiq etishga jiddiy e'tibor qaratilib, rivojlangan davlatlar darajasiga yetib olish maqsadimizdir.

Tarbiyachi mashg'ulotda bosh figura, bolalarda esa tarbiyachilarning topshiriqlarini, tushuntirishlarini, turli yangiliklarini qabul qilish darajalari har xil, xohish-istaklari turlicha. Agar tarbiyachi faqat tushuntirish bilan ovora bo'lsa bola mustaqil fikr yuritish, mushohada qilish, xulosa chiqarishdan yiroqda bo'ladi.<sup>10</sup>

Bu borada vatandoshlarimizdan Abu Nasr Farobiy, Abu Ali ibn Sino, A.Navoiy, Al-Xorazmiy, shuningdek, xorij pedagoglaridan Ya.A.Komyonskiy, L.D.Ushinskiy, N.K.Krupskaya, L.S.Vo'godskiy, A.P.Usova, I.Ya.Lerner, M.N.Skatkin va boshqalarning ishlari e'tiborga loyiqdir.

Olib borgan kuzatuvlarimiz natijasida shunga guvoh bo'ldikki, so'nggi yillarda davlatimiz rahbari tomonidan Davlat maktabgacha ta'lim tizimlarida boshqaruvning yangi va zamonaviy shakllari joriy etildi. Mazkur o'zgarishlarga ko'ra MTT faoliyatida vasiylik kengashlari tugatilib, MTTning kuzatuv kengashlari faoliyati tashkil etildi va nizom ishlab chiqildi. Kuzatuv kengashlar Maktabgacha ta'lim tashkilotining boshqaruv strategik organi hisoblanib, tashkilotning ustuvor vazifalarini belgilashda, hududiy bo'lim tomonidan tavsiya etilgan nomzodlar tarkibidan maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarini saylash, tashkilotning maqsad va vazifalarini hamda ularga erishish rejalarini tasdiqlash, amalga oshirilishi belgilangan vazifalarning bajarilishi ustidan nazorat olib borish kabi vakolatlarga ega bo'lishi MTT boshqaruvidagi yangicha yondashuvlardan biri bo'lganligiga duch keldik.<sup>11</sup>

Maktabgacha ta'limni boshqarishning axborot tizimi (EMIS) butun respublika dasturiy tizimni kuzatish va nazorat qilish usullarini berdi va bir boshqaruv, tashkilotning axborot tizimlari bilan birlashtirildi va yagona ma'lumot tizimi joriy etildi. Endilikda bu tizim ma'lumotlarini olish, ularni o'z vaqtida yangilash imkoni yaratildi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini samarali tashkil etish hamda kommunikatsion texnologiyalar va innovatsiyalarni joriy qilish chora-tadbirlariga asosan barcha maktabgacha ta'lim tashkiloti internet tarmog'iga keng polosali ulanishi amalga oshirildi.

<sup>5</sup> Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. O'zbekiston respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2007 y. 15-son

<sup>6</sup> To'xtaxo'jayeva M.X. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T., 2009. 49-bet

<sup>7</sup> Ch.D.Anvarovna. Uchinchi renesans davrida maktabgacha ta'lim va tarbiyaning roli, ilmiy-amaliy anjuman. – T., 2022. 80-bet

<sup>8</sup> F.Qodirova, Z.Qodirova, F.Vahobova. Ozbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim kontsepsiyasi. -T. 2008.

<sup>9</sup> Царегородцева Елена А. Организация системы внутреннего контроля в дошкольной образовательной организации. – Екатеринбург. 2017.с26.

<sup>10</sup> Абрамова Т.В. Управление аналитической деятельностью педагогического коллектива в образовательном учреждении. Автореф. дис. канд. пед. наук. - Челябинск, 1996. - 23 с.

<sup>11</sup> B.R.Djurayeva, H.M.Tojiboyeva, G.M.Nazirova. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishning zamonaviy tendensiyalari., T.2015.43 bet



MTT tizimini takomillashtirish yo'lida maktabgacha yoshidagi bolalarni bog'chaga qabul qilishda davlat xizmatlaridan foydalanishga topshirilgan tizimdagi ortiqcha tartiblarga barham berildi. Tashkilot boshqaruv ishini takomillashtirish maqsadida maktabgacha ta'lim tashkilotlari mudiralariga tashkilot rahbariyati (direktori) maqomi berildi.<sup>12</sup>

Bundan tashqari, MTT rahbarlari (direktorlari) o'z qo'l ostidagi ishchi xodimlarning fikrlarini inobatga olishi va unga asoslanishi hamda birgalikda pedagogik amaliyotlar to'g'risida fikr yuritishi, keyingi jarayonlarni rejalashtirishlarida muhim hisoblanadi. Bundan tashqari MTTning maqsadlari, mazmuni va vazifalari haqida ochiq suhbat olib borishlari vazifa etib belgilangandir. Rahbar o'z xodimlarining ish jarayonlarini baholashi, mazkur baholash jarayonida kasbiy va axloqiy masalalar ko'rib chiqiladi.

Shunday qilib, xodimlar o'z amaliyotlaridan o'rganishlari va bolalar bog'chasini pedagogik korxonaga sifatida rivojlantirishga yordam berishlari mumkin.

Ish yuritish – bu MTT xodimlar tomonidan bajarilgan ishlarning qaydlari, xodimlarning qanday ishlashini ko'rsatadi. Pedagogik amaliyot qaydlari esa bolalar bog'chasining baholash va rivojlantirish pedagogik faoliyati sifatida rejalashtirishning qismidir. MTT rahbarlari ish yuritish jarayonida bolalar bog'chasida nimani boshdan kechirayotgani, o'rganayotgani va nima qilayotgani haqida ma'lumotlar yig'indisi qaydlarida ta'minlab borishi mumkin.

MTT rahbarlari hamda ishchi xodimlari tarbiyalanuvchilarning shaxsiy daxlsizligini himoya qilish huquqiga ega. MTTda ota-onalarning roziligisiz mazkur hujjatlarni oshkor qilish va ma'lumotlarni berish MTT rahbarlari va ishchi xodimlarining mas'uliyatiga kiradi.<sup>13</sup>

Shunday qilib, yuqorida keltirilgan barcha huquqiy jarayonlar maktabgacha ta'lim tizimi istiqbolining mustahkam asosi bo'lib xizmat qilishiga ishonamiz.

#### **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Xulosa qilib aytganda, Respublikamizda ko'plab sifatli maktabgacha ta'lim berish negizlaridan biri maktabgacha ta'lim tashkiloti uchun pedagoglarni boshqaruv jarayonida mehnat munosabatlariga tayyorlash darajasini oshirishdir. Buning sababi shuki, sifatli hamda talabga javob beruvchi rahbariyat (direktorlar) tomonidan saralab olingan tarbiyachi va pedagoglar yosh avlodga sifatli ta'lim-tarbiya berib, ularni yurtimiz uchun barkamol, yetuk inson qilib tarbiyalab berishadi.

MTTlarda faoliyat olib borayotgan kadrlarning bajarayotgan mas'uliyatli vazifalariga qaraganda oylik maoshlari yetarli emasligini ham alohida ta'kidlab o'tishimiz zarur.

Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini takomillashtirish yo'lida albatta, barchamiz bir bo'lib harakat qilishimiz va tarbiya va ta'lim sifatiga alohida e'tibor berib, MTT jarayonida tarbiyalovchi, pedagog va rahbarning ishi va uning kasbiy madaniyatini rivojlantirish uchun oqilona sa'y-harakatlar qilishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi. Shuningdek, faqatgina o'z metod va ta'lim tizimi

yo'llarimizdan foydalanib qolmay, chet ellik mutaxassislar tajribasiga ham tayanishimiz lozim.

Bizning maqsadimiz MTTda ta'lim tizimini takomillashtirish va rahbarlarning pedagogik jarayonlarni samarali boshqarishlarini hamda ishchi-xodimlar o'rtasida ish sifatini yaxshilash, shuningdek, MTT barkamol shaxs sifatlarini shakllantirish va rivojlantirishdir.

Maktabgacha ta'lim tizimidagi zamonaviy ta'lim siyosatiga muvofiq, har bir maktabgacha ta'lim muassasasidagi o'zgarishlarni professional ravishda o'rganish, yangi me'yoriy hujjatlarda ko'rsatilgan faoliyat yo'nalishini hisobga olgan holda, ta'lim jarayonining strategik va taktik maqsadlarini puxta ishlab chiqishga kirishadigan usullar, shakllar, texnologiyalarni tanlash kabi natijalarga erishish biz uchun muhim hisoblanadi.

MTTlari uchun pedagog kadrlarni tayyorlash hamda malakasini oshirish uchun o'quv reja va dasturlarini zamonaviy pedagogik texnologiya va metodlarni inobatga olgan holda takomillashtirish vazifasini belgilash ayni muddaodir. Chunki, farzandlarimizni intellektual, axloqiy, ijtimoiy va jismoniy rivojlantirishni bosh maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, avvalo, pedagog-tarbiyachilarning bilim va malakasini oshirib borish tizimini zamonaviy talablar darajasida takomillashtirish zarur bo'ladi. Chunki, MTTlarini psixolog, defektolog, logoped, musiqa va jismoniy tarbiya rahbarlari kabi mutaxassislar bilan ta'minlash bugungi kun zamon va iste'molchilarning asosiy talablaridan biri hisoblanadi.<sup>14</sup>

MTT boshqaruvidagi kadrlarning sifatli bilim olishlarini ta'minlash maqsadida ular uchun o'quv qo'llanmalarni joriy etish hamda mazkur qo'llanmalarni chet el olimlari tajribalariga asoslanib o'rganishlarini ta'minlashimiz zarur. Chunki, tadqiqotlarimiz shuni ko'rsatdiki, davlatlararo bilimlar va tajribalarni bir-birimiz bilan baham ko'rishimiz mazkur sohada o'sib, rivojlanishimizga o'z hissasini qo'shadi.

Bundan tashqari, maktabgacha ta'lim tashkiloti tizimida faoliyat yuritayotgan kadrlarning malakasini oshirish maqsadida ularni uzoqroq muddatga malaka oshirishga ixtisoslashgan kurslarda ta'lim olishini ta'minlashimiz ham maqsadga muvofiq bo'ladi.

MTTlarini qaytadan tuzish (qo'shish, olish, birlashtirish, ajratish, bo'linish, qayta tashkil etish) xalq ta'limi bo'limlari, korxonaga, muassasa, tashkilot tavsiyasiga ko'ra xalq deputatlari mahalliy kengashlari qarori asosida amalga oshirilishini, bog'cha mehnat jamoasi va xalq ta'limi kengashi bilan kelishilgan bo'lishi va maktabgacha ta'lim muassasasi turlicha: tipiga, tuzilishiga qarab shtat birliklarini, xodimlar oylik maoshlarini qayta ko'rib chiqishi lozim.

Shuni ta'kidlab o'tishimiz kerakki, ijtimoiy tashkilotning xodimlarni boshqarish tizimida menejment va marketing bo'yicha asosiy tushunchalar, yo'nalishlar, maktabgacha ta'lim muassasasining ilmiy boshqarish asoslari, maktabgacha ta'lim va unda sifat menejmentini rivojlantirish bo'yicha xalqaro tajribalarga tayanishni o'rganish har bir maktabgacha ta'lim tashkilotining vazifasidir.

<sup>12</sup> "Maktabgacha ta'limda kompetensiyaviy yondashuvlar, istiqbollar muammolar va yechimlar" Respublika masofaviy ilmiy-amaliy anjumani ilmiy maqola va tezislari to'plami., Bux.2015. 95 bet

<sup>13</sup> M.A.Ismanova. MTT rahbarlik qilish va tashkil etish yo'llari. Akademik research in educational sciences. Journal. 2021.

<sup>14</sup> M.T.Hamdamonovning "Malaka oshirish jarayonida maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarining boshqaruv kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish" mavzusidagi (PhD) dissertatsiyasi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3955-son qarori.
2. Khasanova Gulnoz Kasimovna, Nigmatova Mavjuda Mahmudovna. Classification of Educational Activities and Assessment Classifications Improvement of Pedagogical Problems//International Journal of Advanced Science and Technology. Vol. 29, No. 11s, (2020), pp. 1958-1961
3. Юсуф Хос Хожиб. Кутаду билиг. - Т.: "Фан", 1972. - Б. 163.
4. Фаробий Абу Наср. Фозил одамлар шаҳри. - Т.: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993. - Б 167-170.
5. Абрамова Т.В. Управление аналитической деятельностью педагогического коллектива в образовательном учреждении. Автореф. дис. канд. пед. наук. - Челябинск, 1996. - 23 с.
6. Абдрахманова Г.С. Диагностический подход к оценке эффективности управления современной школой. Автореф. дис. канд. пед. наук. - Казань, 1998. - 22 с.
7. С.И.Анатольевна. Содержание и пути совершенствования организации как функции управления дошкольным образовательным учреждением. – М. 1999.
8. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 10-жилд. Шарқ - Қизилқум. - Т.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2005. - Б. 169170.
9. F.Qodirova, Z.Qodirova, F.Vahobova. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim kontsepsiyasi. -Т. 2008.
10. To'xtaxo'jayeva M.X. Pedagogik texnologiyalar ya pedagogik mahorat. – Т., 2009. 49-bet
11. А.А. Гуз. Система контроля в дошкольном учреждении. учебно-методическое пособие., Минск.2010.стр3
12. Е.А.Ленская. Дошкольное образование в Финляндии.,2015.
13. В.Р.Djurayeva, Н.М.Tojiboyeva, Г.М.Nazirova. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishning zamonaviy tendensiyalari., Т.2015.43 bet
14. "Maktabgacha ta'limda kompetensiyaviy yondashuvlar, istiqbollar, muammolar va yechimlar" Respublika masofaviy ilmiy-amaliy anjumani ilmiy maqola va tezislar to'plami., Bux.2015. 95 bet
15. Цапергородцева Елена А. Организация системы внутреннего контроля в дошкольной образовательной организации. – Екатеринбург.2017.c26.
16. Framework Plan for Kindergartens. Contents and tasks., 2017.
17. Hidoyatova D.A. "Maktabgacha pedagogika moduli bo'yicha o'quv uslubiy majmua" Tosh., 2018.
18. Ураков Ш. Р. Олий таълим муассасаларида бўлажак ўқитувчиларни тайёрлашнинг компетент ёндашувга асосланган педагогик тизимини такомиллаштириш: П. ф. ф.д. Автореферата.: 13.00.01. - Самарканд: СамДУ, 2018. - 48 б.
19. Нигматова М.М., Мирзаева Д.Ш. Коррекционная Педагогическая деятельность – процесс, направленный на воспитание и развитие полноценной личност.//академия.Научно-методический журнал, 2019.№ 11(50).С.29-31.
20. М.Т.Hamdamovaning "Malaka oshirish jarayonida maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarining boshqaruv kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish" mavzusidagi (PhD) dissertatsiyasi. 2020 yil.
21. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 10.03.2020-y., 09/20/135/0273-son
22. M.A.Ismanova. MTT rahbarlik qilish va tashkil etish yo'llari. Akademik research in educational sciences. Journal. 2021.
23. Ch.D.Anvarovna. Uchinchi renessans davrida maktabgacha ta'lim va tarbiyaning roli, ilmiy-amali anjuman. – Т.,2022. 231-bet
24. F.U.Jumanova. "Boshqaruv ilmidagi sharq mutaffakirlarining ilmiy qarashlari".
25. Ziyouz.net
26. Saviya.uz
27. Archive.org
28. Pedagog.uz
29. Referat.uz
30. LexUz online-O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik Ma'lumotlari Milliy bazasi.



## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA BOLALAR NUTQINI O'STIRISH BO'YICHA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

Yashnarjonova Dilzoda

Qo'qon universiteti Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabasi

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATSIYA
<p><b>Qabul qilindi:</b> 24-may 2022-yil <b>Tasdiqlandi:</b> 26-may 2022-yil <b>Jurnal soni:</b> 4 <b>Maqola raqami:</b> 16 <b>DOI:</b> <a href="https://doi.org/10.54613/001231">https://doi.org/10.54613/001231</a></p>	<p>Maqolada maktabgacha ta'lim tashkiloti katta guruh tarbiyalanuvchilarining nutq o'stirish mashg'ulotlari orqali mustaqil fikrlash, nutqning ravonligi qobiliyatlarini shakllashtirishning samarali va interfaol usullari ko'rsatib o'tilgan. Nutqni o'stirishda xorijiy va mamlakatimizdagi olimlarning nazariy qarashlari, nutqni o'stirish orqali bola shaxsini rivojlantirish ko'nikmalari tahlil etilgan. Bolalarga nutq o'stirish mashg'ulotlarini innovatsion metodlardan foydalangan holatda o'tish uchun ko'plab tavsiyalar berilgan.</p>
<p><b>KALIT SO'ZLAR</b></p> <p>nutq o'stirish, interfaol usullar, katta guruh, kompetensiya, davlat talablari, nutqni o'stirish, pedagogik texnologiyalar, o'yin, muloqot.</p>	

### KIRISH

Insonda bebaho qobiliyat, ya'ni nutq va til qobiliyati mavjud. U erta bolalik yoshidan nutqni o'zlashtiradi va uni butun hayoti davomida rivojlantirib boradi: ovozinig holati, nafas olish, intonatsiyalar bilan gapirish, lug'at boyligi, bir zumda aniq va to'g'ri so'zlash, gap va matnlarni erkin tuzish, o'qish va yozish ko'nikmalarini egallaydi. Bu qobiliyatlar o'z vaqtida rivojlanishi uchun bolaga maktabgacha yosh davridan boshlab e'tibor qaratish zarur. Bolalarga nutq o'stirish mashg'ulotlarini innovatsion metodlardan foydalangan holatda o'tish yuqoridagi qobiliyatlarining yanada rivoj topishi uchun zamin bo'ladi.

Bu O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yilgan davlat talablarida ham belgilab qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrda PQ-2707-sonli "2017 - 2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi<sup>1</sup> qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 21-noyabrda 929-son "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi to'g'risidagi nizom hamda Maktabgacha ta'lim muassasalari rahbar va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti ustavini tasdiqlash haqida"gi<sup>2</sup> qaroriga asosan ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlantirish, ta'lim-tarbiya berish, maktab ta'limiga tayyorlash bo'yicha davlat talablarini belgilaydi.

V.A. Krutetskiyning fikricha, nutq "odamlar bilan muloqot qilish uchun tildan foydalanish jarayoni". Nutq rivojlanmagan shaxsda muloqot ham rivojlanmaydi. Uning ijtimoiy muhit bilan munosabatini ham nutq belgilab beradi. Nutqning vazifasi inson hayotida cheksiz ahamiyatga ega.

I.P. Pavlovning ta'kidlashicha, nutqni voqelikning ikkinchi signal tizimi sifatida belgilash mumkin, faqat nutq voqelikdan chalg'itish va insonning yuksak tafakkurini tashkil etuvchi muloqot qilish imkonini beradi.

S.I.Ozhegovning fikriga ko'ra, nutq "gapirish qobiliyatidir". Katta izohli psixologik lug'at mualliflari "nutq" tushunchasini "suhbat, bayonot" deb talqin qilishadi.

M.N. Dyachenko nutqni inson faoliyati jarayonida tarixan til vositachiligida shakllangan muloqot shakli sifatida belgilaydi. Nutq inson paydo bo'lgan davrdan paydo bo'lgan. Avval ma'nosiz nutq bo'lgan bo'lsa, keyinchalik ma'noli nutq rivojlangan.

K.D. Ushinskiyning aytishicha, agar siz bolalarda nutq qobiliyatini rivojlantirsangiz, demak ularda mantiqiy fikrlash rivojlanadi, lekin "nutqni fikrdan alohida rivojlantirish mumkin emas".

"Nutq" so'zining uchta ma'nosi bor:

- nutq jarayon, faoliyat sifatida;
- nutq faoliyati mahsuli;
- nutq og'zaki notiq nutqning janri sifatida.<sup>3</sup>

Lvov va V.G. Goretskiyning ta'kidlashicha, nutq odamlarning birgalikdagi faoliyatida zarur bo'lgan muloqot turlaridan biridir. Nutq ijtimoiy hayot, axborot almashishda, bilimda, tarbiyada insonni ma'naviy boyitadi va u san'atning predmeti bo'lib ham xizmat qiladi.

Nutq insonning tug'ma xususiyati emas, u bolaning rivojlanishi jarayonida asta-sekin shakllanib boradi. Nutqning normal rivojlanishi uchun bosh miya qobig'i muayyan tarzda pishib yetilishi, bolaning sezgi organlari - eshitishi, ko'rishi, hid bilishi, sezishi ham yetarli darajada rivojlangan bo'lishi lozim. Nutqning to'g'ri shakllanishida, ayniqsa nutq-harakat va nutq-eshitish analizatorlarining rivojlangan bo'lishi talab qilinadi.<sup>4</sup>

Maktabgacha ta'lim muassasasining Y.I.Tixeyeva tomonidan olg'a surilgan asosiy vazifasi - bolalarning barcha qobiliyatlarini, shu jumladan nutqni egallash qobiliyatini jadal rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratishdan iborat. Ayni paytda nutqni o'rgatish bolalar bog'chasidagi butun tarbiya ishlarining asosini tashkil qilmog'i zarur.

Ikkinchi vazifa - bolalar nutqning shakli, uning kichikintoy atrofdagilardan o'zlashtirib oladigan narsalar tuzilmasi ustida ishlashidan iborat.

Uchinchi vazifasi - bolalar nutqini rivojlantirish vazifasini tarbiyachilar zimmasiga yuklagan holda pedagog Y.I.Tixeyevanning fikriga ko'ra, bolalar nutqini rivojlantirishning eng yangi metodlarini o'zlashtirishi, nafaqat metodik usullarni bilishi, balki ularni bolalar bilan muloqot chog'ida qo'llay olishi ham darkor.

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrda PQ-2707-son "2017 - 2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida". Lex.uz

<sup>2</sup> Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 21-noyabrda 929-son "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi to'g'risidagi nizomni hamda Maktabgacha ta'lim muassasalari rahbar va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti ustavini tasdiqlash haqida". Lex.uz

<sup>3</sup> Internet manbasi: Katta maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish usullari va vositalari. Katta maktabgacha yoshdagi bolalarning majoziy nutqini rivojlantirish xususiyatlari. <https://coppershop.ru/uz/uhod-za-licom/puti-i-sredstva-razvitiya-rechi-detei-starshego-doshkolnoqo-vozrasta-osobennosti-razvitiya-obraznoi-rech.html>

<sup>4</sup> Maktabgacha ta'lim muassasalarining katta va maktabga tayyorlov guruh bolalari nutqini xalq o'yinlari asosida rivojlantirish texnologiyasi. Z.L.Mo'minova, R.Kabulova, C.Po'latova. Toshkent-2014. 3-bet.

Y.I.Tixeyeva o'z metodikasida bolalar nutqini rivojlantirishga oid ishlar mazmunini hamda nutqning rivojlanishi, og'zaki nutq rivojlanishi ro'y beradigan faoliyat turlarini aniqlaydi.

Xorijiy psixologlar – N. Xomskiy, J. Piaget, D. Slobin, J. Bruner, K. Kasden, A. N. Gvozdev, A. A. Leontiev, D. B. Elkonin tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki: bola dastlab munosabatlarning asosini tushunadi, so'ng esa grammatik kategoriyalar(predmet, harakat, ob'yekt; birlik, ko'plik va boshqalar), amaliy harakat, ob'yekt-manipulyatsiyasi faoliyati kabilarni qabul qila boshlaydi. O'yinchoqlar bilan elementar mashg'ulotlarni tashkillash ularga grammatik munosabatlarning naqshlarini ajratishni o'rgatadi. Masalan: bitta ob'yekt - turli harakatlar, bitta harakat - turli ob'yektlar.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib shuni aytishimiz mumkinki, bolalar nutqini rivojlantirish ularning nafaqat ma'naviy, balki jismoniy va aqliy rivojlanishi uchun ham zarur hisoblanadi. Buning uchun esa bolaga onaning qornida rivojlanayotgan davrdan boshlab katta e'tibor qaratish zarur.

### TADQIQOT METODOLOGIYASI

Nutqni rivojlantirish metodologiyasida o'z-o'zini rivojlantirish g'oyasi Y.I.Tixeyevaga tegishli. Uning fikri quyidagicha: «bola tilning grammatik tuzilishini kognitiv rivojlanish asosida ob'yektiv harakatlar rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq holda o'zlashtiradi». Ushbu tadqiqot bola tilining grammatik strukturasi shakllantirish muammosiga kommunikativ yondashuvni amalga oshiradi, bu bola nutqning tovush madaniyatini rivojlantirish, nutqni boyitish va faollashtirish jarayonida bola tilining barcha jabhalariga kompleks ta'sir ko'rsatishga asoslangan. Buning natijasida lug'at, turli o'yin vaziyatlarida izchil matnlar yaratish vositalari va usullarini shakllantirish rivojlanadi.

Ta'lim to'g'risidagi qonun va davlat talablariga ko'ra katta guruh bolalari 3 ta kichik soha bo'yicha quyidagilarni bilishi zarur:

#### 1). Nutq va til kichik sohasi

1. Kuzatayotgan hodisa va voqealarni tushuntirib beradi;
2. Umumlashtiruvchi so'zlarni to'g'ri qo'llaydi (meva, sabzavot, daraxtlar, qushlar, idish-tovoq);
3. O'ziga nisbatan predmetlar joylashuvini ta'riflaydi (oldimda, stolda);
4. So'zlarni mazmuniga ko'ra to'g'ri qo'llaydi;
5. Nutqida ma'nosiga monand asosiy so'z turkumlarini qo'llaydi;
6. Bir negizli so'zlarni (namuna asosida) tuza oladi (mushuk-mushukcha-mushukli);
7. Grammatik sodda va murakkab gaplar tuzadi;
8. Suhbatlasha oladi;
9. Kattalar yordamida ijodiy hikoya tuzadi;
10. Barcha tovushlarni to'g'ri va aniq talaffuz qiladi;
11. Xorijiy tilni bilishi;
12. Salomlashish va xayrlashish so'zlarini qo'llaydi;
13. 10 gacha sanoqni biladi;
14. Asosiy ranglar nomini biladi (oq, sariq, qizil, yashil, ko'k, qora).

#### 2) O'qish malakalari

1. So'zdagi birinchi tovushni biladi;
2. Kitobni mustaqil tomosha qiladi;
3. Tovushlarni farqlaydi;
4. So'zlarni bo'g'inga bo'ladi;
5. So'zlarga qofiya kelishtiradi;
6. Nutqning dialogik shaklini qo'llaydi, savollar beradi;
7. She'rlarni yod oladi va ifodali o'qiydi;
8. Sevimli badiiy adabiyot, ertak va hikoya mualliflari va ularning nomini biladi;
9. Ifodalilikning ohang vositalarini to'g'ri qo'llaydi;
10. Harflarga tegishli so'zlarni topadi.

#### 3) Qo'l barmoqlari mayda motorikasi

1. Chiziq, ilgak va gajakcha yozadi;
2. Qog'ozni turli usulda taxlaydi (origami);
3. Namuna asosida bosma harflarni yozishni boshlaydi;
4. Barmoqlari yordamida mashqlar bajaradi;

5. Rasmlarni tekis shtrixlaydi;
6. Turli sathlarda chizadi (nam qumda, asfaltda, doskada);
7. Soch o'radi;
8. Mozaika yig'adi.

Yuqoridagi davlat talablarini bajarishda an'anaviy metodlardan ko'ra yangi interfaol metodlardan foydalanilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu metodlarni ishlab chiqish va mashg'ulotlarda qo'llash tarbiyachidan katta mahorat talab qiladi. Lekin, aksariyat tarbiyachilarimiz interfaol usullarni qo'llash u yoqda tursin, bu haqida to'liq ma'lumotga ham ega emas. Shu sababdan ham bu yo'nalishda izlanishlar olib borish zamon talabi hisoblanadi. Maktabgacha ta'limni bosqichma-bosqich rivojlantirish uchun ham shu yo'nalishdan borish zarur hisoblanadi.

L.S.Vygotskiy fikricha, maktabgacha katta yoshdagi bolalar bilan ishlashda kattalar bolaning faoliyatini o'zi rejalashtirgan yo'nalishga ko'proq yo'naltiradi va uni didaktik vazifalarga bo'ysundiradi. Kattalar bola bilan birgalikda ijod qilishsa, uni qiziqtirishsa, nutq va og'zaki ijodga qanchalik ko'p jalb qilishsa shundagina muvaffaqiyat bo'ladi. «Bolaning grammatik tilini shakllantirish stixiyali jarayondir», shu sabab bolalar bilan kattalar do'st bo'lib faoliyat yuritishlari kerak. Aks holda, bola nutqini rivojlantirish uchun qilingan harakatlar kutilgandek natija bermaydi.

XX asrning 70-yillarida A.V.Nikolskayaning ilmiy rahbarligi ostida E.M.Razbayeva tomonidan maktabgacha yoshdagi katta bolalarda o'qilgan asarlar asosida kattalar mehnatiga hurmatni tarbiyalash bo'yicha tadqiqot o'tkazildi. S.O.G'oziyeva tomonidan (E.M.Razbayevaning ilmiy rahbarligi ostida) maktabgacha katta yoshdagi bolalarda o'zbek xalq og'zaki ijodidan (xalq ertaklari, o'yinlar) foydalanish asosida atrofdagilarga adolatli munosabatda bo'lishni shakllantirish masalalari tadqiq qilindi.

1979-yildan boshlab to bugungi kungacha maktabgacha yoshdagi bolalarga ona tili va o'zga tilni (rus, ingliz) o'qitish muammosi O'zbekiston olimlari, metodistlari, psixologlarining tadqiqot obyekti hisoblanadi (F.R.Qodirova, R.M.Qodirova, G.X.Jumasheva, D.R.Babayeva, D.Abdurahimova, L.R.Mirjalilova, N.Sh.Nurmuhammedova va boshq.).

Barcha tadqiqotchilar bola nutqini va uning rivojlanishini alohida ajratilgan holda emas, balki katta yoshli kishining bolaga pedagogik ta'siri bilan o'zaro bog'liqlikda ko'rib chiqadilar. Ushbu yondashuv o'rinnidir, zero, fandagi zamonaviy tadqiqotlar nutqni o'zlashtirish va ijtimoiy o'zaro hamkorlik – o'zaro bog'liq jarayonlardir, nutqni rivojlantirish esa – ijodiy jarayon, biroq u stixiyali jarayon emas, degan fikrga asoslanadi.<sup>5</sup>

G.M.Lyamina, Ye.I.Radina, G.A.Tumakova, A.I.Maksakov, M.I.Gening, N.A.German va boshqalar tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarda bolalar tomonidan tilning tovush tizimini o'zlashtirish bo'yicha o'rganish predmeti asos sifatida xizmat qildi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqiy faollikni shakllantirish masalalarini nutqiy faoliyat nazariyasi asosida tadqiq etish maktabgacha ta'limning nazariyasi hamda amaliyoti uchun dolzarb va ahamiyatli hisoblanadi.

F.A.Soxin, YE.M.Strunina, A.M.Borodich, M.R.Lvov va boshqalarning nazariy va amaliy ishlari shundan dalolat bermoqdaki, nutqiy faoliyat motivatsiyasini boyitish bolalar nutqini rivojlantirish borasidagi ishlarning samaradorligini oshiradi.

L.S.Vigotskiy, A.N.Leontev, A.A.Leontev, I.A.Zimnyayaning tadqiqotlarida nutq yaxlit faoliyat va nonutqiy harakatga qo'shilgan nutqiy harakat kabi til orqali bog'langan tarixan shakllangan muloqot shakli sifatida ko'rib chiqilgan.

M.I.Lisina konsepsiyasi ruhida amalga oshirilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, muloqot – bolada so'zning paydo bo'lish fakti, vujudga kelish muddatlari va bola nutqi rivojlanishining sur'atlarini belgilab beruvchi muhim omildir. Ontogenezda nutq dastlab muloqot vositasi sifatida, keyinchalik esa – fikrlash, o'z xulqini boshqarish vositasi sifatida rivojlanadi.

Interfaol metod texnologiyasining mohiyati tahsil oluvchilarning ustuvorligiga tayanib va darsda erkin bahs-

<sup>5</sup> Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi. D.R.Babayeva. Toshkent–2018. 12-bet.



munozara sharoitini yaxshilashdan iboratdir. Bu metodga ko'ra darslar bir necha bosqichga bo'linadi:

1. Chaqiriq bosqichi. Bu bosqichda tahsil oluvchilarni faollashtirish, shuningdek mazmun-mohiyatiga kirib borish, uni anglab yetish jarayoniga tayyorlash maqsadi ko'zda tutiladi.

2. Aqliy hujum. Bu usul darsning boshlanishida yoki istalgan joyida qo'llanilishi mumkin. Bu bosqichda muammo tahsil oluvchilarga aqliy hujum yo'li bilan beriladi va ularning fikrlari orqali olinadi.

3. Anglash bosqichi. Mavzuga oid xulosaviy fikrlar eshutiladi va o'qituvchi tomonidan yangi fikrlar bilan to'ldiriladi.

4. Fikrlash bosqichi. Mavzu yuzasidan o'zlashtirilgan bilim va tushunchalarni qisqa jumalalarda yozma ravishda bayon qilish topshiriladi. Bu topshiriqni bajarish uchun sinf guruhlariga bo'linadi. Har bir guruh topshiriq bo'yicha o'z fikrini yozadi va har bir guruh vakili bajarilgan topshiriqni boshqalarga ma'lum qiladi.

Guruhlar bilan ishlash faqat fikrlash bosqichida emas, balki birinchi bosqichdan boshlab yo'lga qo'yilishi mumkin. Tahsil oluvchilarni guruhlariga bo'lib ishlash uchun qo'yidagi talablarga amal qilish zarur:

1. Guruhlarga ajratish o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi.

2. Har bir guruhga rahbar tayinlanadi.

3. Har bir guruhdagi tahsil oluvchilar bilim darajasining teng bo'lishiga e'tibor qaratiladi.

Bundan tashqari yana ko'plab interfaol metodlar bor. Quyida ularning ba'zilar bilan tanishishingiz mumkin.

“Charxpalak” metodi quyidagicha amalga oshiriladi:

- o'quvchilar sharoitga qarab guruhlarga ajratiladi;
- tarqatma materiallar guruh a'zolariga tarqatiladi;
- belgilangan vaqt ichida guruhlar tarqatma materiallardagi topshiriqni bajarib, uning o'ng burchagiga guruh raqamini, chap burchagiga yesa o'zining ramziy belgisini qo'yib ushbu tarqatmani keying guruhga “charxpalak aylanmasi” yo'nalishida almashtiradilar;

• boshqa guruh a'zolari ham tarqatma materiallaridagi vazifani bajaradilar va o'zgartirishlar kiritadilar;


• materialning oxirgi almashishidan so'ng har bir guruh o'zi ilk bor to'ldirgan tarqatmani o'z ramziy belgisi asosida tanlab oladi;

• o'qituvchi tarqatma materialda berilgan vazifalarni o'qiydi va jamoa bilan birgalikda to'g'ri javobni belgilaydi yoki tarqatma materialdagi vazifalar ekranda yoritilib, to'g'ri javob aytib o'tiladi;

• har bir o'quvchi to'g'ri javob bilan belgilangan javoblaridagi farqlarni aniqlaydilar va o'zlarini baholaydilar.

Bu metodni maktabda ham maktabgacha ta'limda katta guruhlarda ham qo'llash mumkin.

Harflarni o'rgatishda ham interaktiv usullardan foydalanish mumkin. Masalan: O - unli tovushini o'rgatishda interaktiv usullar.



1-rasm. Bu usulda bolaga harflarni o'rgatsak ularni eslab qolishi oson bo'ladi va ma'lumotni tez qabul qilishadi.

### TADQIQOT VA UNING NATIJALARI

Metodning maqsadi quyidagilardan iborat: mavjud bo'lgan nazariy va amaliy bilim, tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash natijasida mazkur muammoni yechimini topishga mo'ljallangan. Bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholash, mustaqil hamda tanqidiy fikrlash, nostandart tafakkurni shakllantirishga qaratilgan bo'lib, Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida katta guruhlarda bolalarning nutqini o'stirish bo'yicha interfaol usullardan foydalanish samaradorligining SWOT tahlilini quyidagi jadvalda ko'rishimiz mumkin.

### SWOT bo'yicha olingan natijalarning tahlili:

<b>S</b>	<b>Bolalarning nutqini o'stirish bo'yicha interfaol usullardan foydalanishning afzal tomonlari.</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Bolalarni mantiqiy hamda mustaqil fikrlashga undaydi.</li> <li>2. Tezkor bo'lishga chorlaydi.</li> <li>3. Har xil muammoli vaziyatlardan chiqish.</li> <li>4. Nutqi yaxshi rivojlanadi.</li> <li>5. Nafaqat nutq o'stirish faoliyatlarida, balki boshqa faoliyatlarda ham nutqdan to'g'ri foydalanadi.</li> <li>6. Pedagogik faoliyatda mashg'ulotlar samarali hamda qiziq bo'lishi.</li> <li>7. Bolalarning zerikmasligi.</li> <li>8. Tarbiyachi va bolalar o'rtasidagi muloqot yaxshilanishi.</li> </ol>
<b>W</b>	<b>Bolalar nutqini o'stirish bo'yicha interfaol usullardan foydalanishning zaif tomonlari.</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Bolalarning o'yin jarayoniga qiziqmasligi.</li> <li>2. Tarbiyachi bolalarni boshqara olmasligi.</li> <li>3. O'yinlar bolalarga murakkablik qilishi.</li> </ol>
<b>O</b>	<b>Nutq o'stirish bo'yicha interfaol usullardan foydalanishning imkoniyatlari.</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Axloqiy fazilatlar shakllanishi.</li> <li>2. Nutq muloqot ko'nikmalari rivojlanishi.</li> <li>3. Ijtimoiy munosabatlar yaxshilanadi.</li> <li>4. Atrof-olam to'g'risida bilimlarning oshishi.</li> </ol>
<b>T</b>	<b>Nutq o'stirish bo'yicha interfaol usullardan foydalanishning to'siqlari.</b>	Bolalar asosan o'yin jarayonida zerikmasligi, mashg'ulot jarayoniga o'yinni moslab tanlay olish murakkab ham, soddaham bo'lmasligi kerak

**S-Kuchli.** Bolalarning nutqini o'stirish bo'yicha interfaol usullardan foydalanishning afzal tomonlari.

- Bolalarni mantiqiy hamda mustaqil fikrlashga undashi.

Bunda bolalar oddiy fikrlash jarayonidan tashqari murakkab va mantiqiy fikrlarni ham egallay boshlashadi. Bolalarning mantiqiy fikrlashi ularning IQ darajasiga ham katta ta'sir qiladi.

• Tezkor bo'lishga chorlashi. Bola qanchalik tez faoliyat yuritishni o'rgansa, uning miyasi ham shunga moslashadi. Bolaning miyasi tez ishlashga moslashganda uning qabul qilishi va o'zlashtirishi ham oshadi. Demak, tezkor bo'lish Bolaning rivojlanishini ham tezlashtiradi.

• Har xil muammoli vaziyatlardan chiqishga o'rgatadi. Bunda bolalar kichik yoshdan ham keys va muammoli vaziyatlarni hal qilishga o'rganishadi. Bolalarning tanqidiy fikrlash jarayoni ham shu bilan bir qatorda rivojlanib boradi.

• Nutqi yaxshi rivojlanadi. Bolalar nutqida kamchilik bo'lsa, ularning nafaqat rivojlanishiga, balki, ba'zi holatlarda kamsitilishiga ham sabab bo'lishi mumkin. Bolalar tili chuchuk holda maktabga borishni ham xohlashmaydi, natijada bu ularning bilim olish darajasiga ham yomon ta'sir qiladi.

• Nafaqat nutq o'stirishda, balki boshqa faoliyatlarida ham nutqdan to'g'ri foydalanishni o'rganadi. Bolaning hayoti faqat nutqiy faoliyatdan, ya'ni gapirishdan iborat emas. Uning hayotini boshqa faoliyat turlari ham tashkil qiladi. Interfaol metodlardan foydalanish esa bolaning boshqa faoliyat jarayonlarida ham kerak bo'ladi.

• Pedagogik faoliyatda mashg'ulotlar samarali hamda qiziq bo'lishini ham ta'minlaydi. Bolalarga mashg'ulotni oddiy usulda o'tsangiz ularning ma'lum bir qismi qatnashadi, interfaol usuldagi mashg'ulotda esa barcha bola qiziqish bilan qatnashadi.

• Bolalarning zerikmasligi. Bu juda muhim xususiyatlardan biri hisoblanadi. Bola mashg'ulotga qiziqsagani u o'tilgan mashg'ulotni qabul qiladi. Aks holda, qanchalik bosim bo'lsa ham bola hech narsani o'zlashtirmaydi.



• Tarbiyachi va bolalar o'rtasidagi muloqot yaxshilanishi. Bu ham muhim xususiyatlardan sanaladi. Agar bola bilan tarbiyachi o'rtasida muloqot yaxshi bo'lmasa, bola ertalab bog'chaga kelmayman, deb injiqlik qiladi. Ularning o'zaro munosabatining yaxshi bo'lishi ota-ona uchun ham foydali hisoblanadi.

**W- Kuchsiz.** Bolalarning nutqini o'stirish bo'yicha interfaol usullardan foydalanishning kuchsiz tomonlari.

• Bolalarning o'yin jarayoniga qiziqmasligi. Bolalarning asosiy faoliyatini o'yinlar tashkil qiladi. Lekin, bolalarga interfaol usulda mashg'ulotlarni muntazam ravishda o'tsak, ular o'yindan chiqib, mashg'ulotga, yangiliklarni bilishga qiziqadi. O'yin ular uchun qiziq bo'lmay qoladi.

• Tarbiyachi bolalarni boshqara olmasligi. Tarbiyachi mashg'ulot davomida bolalarni boshqarishi uchun ularga doim yangilik berishi kerak, aks holda ular zerikadi va mashg'ulot qiziq bo'lmay qoladi. Tarbiyachi esa bolalarni boshqara olmay qoladi.

• O'yinlar bolalarga murakkablik qilishi. Bolalar oddiy o'yinlarni o'ynashni xohlamaydi. Yoshiga moslab qiyinroq o'yinlar berilsa, bolaga bu o'yinlar murakkablik qila boshlaydi.

**O- Imkoniyatlari.** Nutq o'stirish bo'yicha interfaol usullardan foydalanishning imkoniyatlari.

• Axloqiy fazilatlar shakllanishi. Bola hayotida bu fazilatlar muhim ahamiyatga ega. Chunki, axloqiy jihatdan qoloq bolaning bilimi ham hech kimga qiziq emas. Bola aziz – odobi undan aziz, deydi xalqimiz.

• Nutq muloqot ko'nikmalarining rivojlanishi. Bola ijtimoiy munosabatga kirishishi uchun uning muloqot ko'nikmalari shakllangan bo'lishi zarur. Aks holda, bola jamiyatdan ajralib, yakkalanib qolishi mumkin.

• Ijtimoiy munosabatlar yaxshilanadi. Bolaning ijtimoiy munosabati yaxshilansa atrof-muhitni tahlil qilishi va o'rganishi ham osonlashadi. Bu esa bolaning bilish jarayonlari rivojlanishiga xizmat qiladi.

• Atrof-olam to'g'risida bilimlarning oshishi. Bolaning aqliy tayyorgarligi ham atrof-muhitni bilishiga bog'liq. Bolaning tasavvuri qanchalik yaxshi bo'lsa, uning aqliy tayyorgarligi ham shunga yarasha bo'ladi.

**T- To'siqlari.** Nutq o'stirish bo'yicha interfaol usullardan foydalanishning to'siqlari.

• Bolalar asosan o'yin jarayonida zerikmasligi uchun mashg'ulot jarayoniga o'yinni moslab tanlay olish, ya'ni murakkab ham, sodda ham bo'lmasligi kerak. Bu esa tarbiyachidan katta mahorat talab qiladi. Tarbiyachi o'z sohasining yetuk mutaxassisi bo'lsagina, buni uddalay oladi.

### TADQIQOT MUHOKAMASI

Olimlar bolalarni o'qitishni ularning yuqori darajadagi aqliy va nutqiy rivojlanish darajasini ta'minlash, til qobiliyatlarini shakllantirish imkonini beradigan darajada optimal tashkil etish yo'llarini topish borasida faol ish olib bormoqdalar. Nutqni o'qitishning nazariy va empirik muammolarini tadqiq etish quyidagi nazariy qoidalardan kelib chiquvchi umumiy boshlang'ich pozitsiyalarga ega:

• ta'lim maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda, ayniqsa, zamonaviy noqulay nutqiy muhit sharoitida hal qiluvchi ahamiyatga ega;

• nutqni o'rgatish – «...dan to ...gacha» kabi qattiq qoliqlar to'g'ri kelmaydigan hamda nutqni rivojlantirishning yosh qonuniyatlari va bolaning individual xususiyatlari bilan belgilanadigan ijodiy jarayondir;

• nutqni rivojlantirish asosida kommunikativ yondashuv bo'lishi kerak, xususan: ona tilini o'zlashtirish nutqiy muloqot faoliyatiga qo'shilishi, o'quv sharoiti tabiiy muloqot sharoitlariga yaqinlashtirilishi lozim;

• o'qitish vaziyatida katta yoshli odamning bola bilan o'zaro hamkorligining xususiyati ushbu bola uchun yetakchi bo'lgan muloqot shakli bilan belgilanishi lozim;

• til ustida nutqiy faoliyat tuzilmasi doirasida hamda uning barcha komponentlarini: undov-motivatsiya, yo'naltirish-tadqiqot, ijro komponentlarini hisobga olgan holda ish olib borish zarur;

• nutqni o'qitish bolalarning tilni o'rganish bo'yicha mustaqil faoliyatiga asoslanishi va bolalar faolligining boshqa turlari bilan bog'liq bo'lishi kerak. Hozirgi paytda maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini rivojlantirish muammosini ishlab chiqish mazkur metodologik holatlardan kelib chiqqan holda olib borilmoqda.

Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish sohasidagi psixologik, pedagogik tadqiqotlarni tahlil qilish quyidagi xulosalarga kelish imkonini beradi:

• nutqni rivojlantirish – bolaning individual psixik rivojlanishida markaziy o'rin tutuvchi ijtimoiy-tarixiy tajribani o'zlashtirishining murakkab, ko'p omilli jarayonidir;

• nutqni rivojlantirish – bu malakali pedagogik rahbarlikni nazarda tutuvchi ijodiy lekin stixiyali jarayon emas;

• bola nutqini rivojlantirish jarayonini boshqaruvchi pedagog bu jarayonning turli yosh bosqichlaridagi qonuniyatlari, mexanizmlarini bilishi, nutqiy rivojlantirishning o'ziga xosliklarini ko'ra olishi va bolaning individualligini hisobga olgan holda, uning nutqiga ta'sir ko'rsatishning eng samarali yo'llarini tanlashi lozim.

Vaqt o'tishi bilan nutq qanday rivojlanadi?

Chaqaolqlar gapirishni o'rganishdan oldin turli xildagi tovushlarni chiqara boshlaydi. Barcha bolalar ham bir xil tezlikda rivojlanmaydi, lekin shunga qaramasdan, ular uchun umumiy ba'zi holatlar mavjud:

• 1 oydan 3 oygacha bo'lgan chaqaolqlar yig'laydilar.

• 4-6 oyligida chaqaolqlar gu-gulaydilar, qichqiradilar, kuladilar va turli xil yig'lash tovushlarini chiqaradilar.

• 6 oydan 9 oygacha bo'lgan davrda chaqaolqlar bo'g'inlarda g'imirlab, ohanglar va nutq tovushlariga taqlid qila boshlaydilar.

• Chaqaolqning birinchi so'zlari odatda 12 oyligida paydo bo'ladi va 18 oydan 2 yoshgacha bo'lgan bolalar taxminan 50 ta so'zdan foydalanadilar va ikkita so'zni qisqa jummalarga qo'shishni boshlaydilar.

• 2-3 yoshdan boshlab jumalar 4 va 5 so'zga uza yuzatiriladi. Bolalar deyarli barcha umumiy ob'yektlar va rasmlarni taniy oladilar va aniqlaydilar, shuningdek olmoshlarni (men, u) va ba'zi ko'plik olmoshlarini qo'llashlari mumkin. Notanish odamlar ham bolaning ko'p so'zlarini tushunishlari mumkin.

• 3-5 yoshdan boshlab suhbatlari uzoqroq, mavhum va murakkabroq bo'ladi.

• Bola 5 yoshga to'lganda, odatda 2500 so'z lug'atiga ega bo'lib, to'liq, grammatik jihatdan to'g'ri gaplarni gapiradi. Ular ko'proq "nima uchun?", "nima?" va "kim?" degan savollarni berishadi.<sup>6</sup>

Dastlabki maktab yillarida bolangiz ko'proq so'zlarni o'rganadi va til ichidagi tovushlar qanday ishlashini tushuna boshlaydi. Farzandingiz ham yaxshi hikoyachiga aylanadi, chunki ular so'zlarni turli yo'llar bilan birlashtirishni va har xil turdagi jumalarni qurishni o'rganadilar. Bu ko'nikmalar, shuningdek, bolangizga g'oyalari va fikrlarni baham ko'rishga imkon beradi. Sakkiz yoshga kelib, bolangiz kattalar kabi suhbat qura oladi.<sup>7</sup>

Bolaning maktabgacha yoshigacha rivojlanishini ko'rib chiqdik. Yuqoridagi holatlar ba'zan boshqacha bo'lishi ham mumkin. Lekin, bu kamdan-kam hollarda kuzatiladi. Bolalarning individual xususiyatlari bu holatlarning o'zgarishiga sabab bo'ladi.

### XULOSA VA TAKLIFLAR

Ma'lumki, vatan beshikdan boshlangani kabi, ta'lim-tarbiya ham beshikdanoq, hattoki, bola tug'ilmasidanoq berila boshlanishi kelajakdagi ijobiy natijalarga sabab bo'ladi.

Mamlakatimiz yoshlariga erta ta'lim-tarbiya berish mas'uliyatini hozirda yurtimizda faoliyat yuritayotgan maktabgacha ta'lim muassasalari o'z zimmasiga olgan. Maktabgacha ta'lim muassasalarida bilimlarni berish shakli mashg'ulotdir. Mashg'ulotlar jarayonida bolaning nutqiy rivojlanib, undagi grammatik va fonetik qirralar sayqalanib, til boyligi oshib borish bilan bir psixologik va intellektual jihatlari rivojlanib boradi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida 5 ta metodika bo'yicha bolalarga ta'lim-tarbiya saboqlari berib boriladi. Bulardan eng asosiysi «Nutq o'stirish mashg'ulotlari» desak mubolag'a

<sup>6</sup> <https://www.healthdirect.gov.au/speech-development-in-children>

<sup>7</sup> <https://raisingchildren.net.au/babies/development/language-development/language-development-0-8>

bo'lmaydi. Chunki, nutq o'stirish nafaqat bolaning so'z boyligini oshiradi, balki uning muloqot qobiliyatini rivojlantiradi, undagi bilish jarayonlari, shu jumladan bolaning tafakkurini o'stirishda ham muhim vosita hisoblanadi.

Hozirgi paytda maktabgacha katta yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishga yanada yuqori talablar qo'yilmoqda. Bu talablarga javob berish nutqni rivojlantirishga oid yangi izlanishlarni taqozo etadi. Shunday qilib, pedagogika ilmining hozirgi bosqichida maktabgacha katta yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishga nisbatan qo'yiladigan talablar bilan ularning ijrosi o'rtasida ziddiyatlar namoyon bo'lmoqda.

Bizning bebaho boyligimiz bu minglab avlodlar tomonidan yaratilgan va doimiy takomillashib boradigan til. Til bizning qobiliyatimizdir, til bizni odamga aylantiradi. Tirik mavjudotlar dunyosida har xil aloqa tizimlari ishlab chiqilgan, ammo ularni inson tili va undan foydalanish mexanizmlari bilan taqqoslab bo'lmaydi. Nutq odamlarning til boyligini mukammallashtirishdir. Inson nafaqat so'zlar va ularning kombinatsiyasidagi qoidalarini bilishi, balki nutqni shakllantirishning eng murakkab tizimini, boshqa odamlarning nutqini idrok etish va uni tushunishni,

bolaning shovqinidan tortib, mantiqiy va ma'ruzachilarning fikrlarini anglaydi va ularga javob qaytara oladi.<sup>8</sup>

Maqolamizda quyidagi xulosalar va takliflarni berishimiz mumkin:

1. Bolalarning nutqini rivojlantirishda interaktiv usullardan foydalanish nafaqat samarali mashg'ulot bo'ladi, balki bolalarning kelajagi uchun ham yaxshi ta'sir qiladi.

2. Bolalarga oddiy mashg'ulotdan ko'ra interaktiv o'tish nutq o'stirishdan tashqari boshqa faoliyat jarayonlarida ham foydalidir.

3. Interaktiv mashg'ulotlarga alohida ehtiyojli bolalar ham qiziqish bildirishadi va ularning ham bilim olishi osonlashadi.

4. Nutq o'stirish mashg'ulotlaridagi interaktiv usullarni bolalarga o'zga tilni o'rgatishda ham qo'llash samara beradi. Bolalar yoshligidan o'zga tilga o'rgansa, katta bo'lgach qiyinroq fanlarni o'zlashtirishi ham osonlashadi.

5. Bolaning shaxiy, ya'ni individual xususiyatlari rivojlanishi uchun ham mashg'ulotlar katta ahamiyatga ega, bu mashg'ulotlar interaktiv usullarda tashkillansa, ayniqsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrda PQ-2707-son "2017 - 2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida". Lex.uz
2. Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 21-noyabrda 929-son "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi to'g'risidagi nizomni hamda Maktabgacha ta'lim muassasalari rahbar va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti ustavini tasdiqlash haqida". Lex.uz
3. <https://coppershop.ru/uz/uhod-za-licom/puti-i-sredstva-razvitiya-rechi-detei-starshego-doshkolnogo-vozhra-ostobennosti-razvitiya-obraznoi-rech.html>
4. Maktabgacha ta'lim muassasalarining katta va maktabga tayyorlov guruh bolalari nutqini xalq o'yinlari asosida rivojlantirish texnologiyasi. Z.L.Mo'minova, R.Kabulova, C.Po'latova. Toshkent-2014.
5. Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi. D.R.Babayeva. Toshkent-2018.
6. P.Y. Galperin's Development of Human. Mental Activity Lectures in Educational Psychology. Irina Engeness
7. Characteristics of Children Who Struggle with Reading: Teachers and Speech-Language Pathologists Collaborate to Support Young Learners: Katie E. Squires, Sandra L. Gillam, D. Ray Reutze. Published online: 13 February 2013
8. Auditory Sensitivity, Speech Perception, and Reading Development and Impairment. Juan Zhang & Catherine McBride-Chang. Published online: 4 June 2010.
9. <https://www.healthdirect.gov.au/speech-development-in-children>
10. <https://raisingchildren.net.au/babies/development/language-development/language-development-0-8>
11. Ravon nutqni rivojlantirish. Mamazokirova Zulayho. 28.05.2020
12. <https://azkurs.org/hozirgi-talim-jarayonida-interfaol-metodlar-innovatsion-texnologiyasi.html>
13. <http://hozir.org/nutq-ostirish-nazariyasi-va-metodikasi-fanining-asosiy-nazariy-v2.html?page=230>

<sup>8</sup> Ravon nutqni rivojlantirish. Mamazokirova Zulayho. 28.05.2020

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI  
OLIV ATTESTATSIYA  
KOMISSIYASI**

100047, Toshkent sh., Y. G'ulomov ko'chasi, 70  
Tel.: (71) 233-28-83. Fax: (71) 233-06-47  
e-mail: info@oak.uz www.oak.uz



**SUPREME ATTESTATION  
COMMISSION  
AT THE CABINET OF MINISTERS  
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN**

70, Y. Gulomov str., Tashkent, 100047  
Tel.: (71) 233-28-83. Fax: (71) 233-06-47  
e-mail: info@oak.uz www.oak.uz

Javob qaytarganda shu № ko'rsatilsin  
When you answer show this №

№ 01-02/819/6 «12» 2 2022 y.

**Кўкон университети  
ректорига**

Ўзбекистон Республикаси Олий аттестация комиссияси Сизнинг 2022 йил 14 апрелдаги 01/700-сонли мурожаатингизга жавобан **иктисодиёт фанлари** бўйича фалсафа доктори (PhD) ва фан доктори (DSc) илмий даражасига талабгорларнинг диссертация ишлари юзасидан диссертациялари асосий илмий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига **“Кўкон университети хабарномаси/Вестник Кокандского университети/Kokand University Herald”** илмий электрон журнали киритилганлигини маълум қилади.

Асос: Кўкон университетининг мурожаати (14.04.2022 й., №01/700); ОАК Иқтисодиёт фанлари бўйича эксперт кенгаши тавсияси (11.08.2022 й., №8); ОАК Тартиб-қоида комиссиясининг қарори (10.08.2022 й., №8/9а); ОАК Раёсатининг қарори (12.08.2022 й., №321/6).

**Бош илмий котиб**

**А.Шермухамедов**

Ижрочи: Т.Маматмусаев

**QO‘QON UNIVERSITETI  
XABARNOMASI**

**KOKAND UNIVERSITY  
HERALD**

**ВЕСТНИК КОКАНДСКОГО  
УНИВЕРСИТЕТА**

4 / 2022

ISBN: 2181-1695

Bosishga ruxsat etildi 2022-yil 26-may.  
Qog‘oz bichimi 60x84 1/8 «Libre Franklin, Montserrat» garniturasida.  
Shartli bosma tabog‘i 5. Adadi 20 nusxa.  
Buyurtma rakami № 0102. Baxosi shartnoma asosida.  
“Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi” bosmaxonasida chop etildi.